Результаты исследования. После завершения курса реабилитации в обеих группах отмечалась положительная динамика, однако в основной группе показатели восстановления были статистически значимо выше ($p < 0.05$). Средний прирост баллов по шкале FMA-UE составил 12.5 ± 3.1 балла в основной группе против 7.8 ± 2.5 балла в контрольной группе. Улучшение повседневной активности по индексу Бартела также было более выраженным в группе, получавшей гидрокинезотерапию. У пациентов основной группы отмечалось снижение спастичности и уменьшение болевого синдрома в паретичной конечности. Процедуры переносились хорошо, осложнений не зафиксировано.

Выводы. Включение гидрокинезотерапии в программу ранней реабилитации пациентов после ишемического инсульта существенно повышает эффективность восстановления двигательной функции верхних конечностей по сравнению со стандартной реабилитацией. Гидрокинезотерапия является безопасным и патогенетически обоснованным методом, который способствует улучшению мышечного тонуса, увеличению объема движений и, как следствие, лучшей интеграции верхней конечности в

повседневную активность. Рекомендуется для широкого применения в постинсультной реабилитации.

YOSHLAR ORASIDA TUNGI IJTIMOIIY TARMOQLARGA QARAMLIK, SIRKAD RITMINING BUZILISHI VA RIVOJLANUVCHI XAVF OMILLARI.

Doniyorova Parizoda Husan qizi - Samarqand davlat tibbiyot universiteti Davolash fakulteti 4-bosqich talabasi.

Umumiy gigiyena va ekologiya kafedrası

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti, Samarqand, O`zbekiston

Ilmiy rahbar: Raximova Durdona Jurakulovna – PhD

Dolzarbliği: Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi yoshlar hayot tarzini tubdan o'zgartirdi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlardan tungi vaqtda foydalanish odati keng tarqalgan. Bu holat tabiiy biologik soat – sirkad ritmning buzilishiga olib keladi. Sirkad ritmi inson organizmida uyqu va uyg'oqlik, gormonal sekretiya, arterial bosim va metabolik jarayonlarni boshqaradi. Kechki va tungi vaqtda ekran qurilmalaridan chiqadigan ko'k spektrli yorug'lik ko'z to'r pardasi orqali markaziy asab tizimiga ta'sir ko'rsatadi va epifiz bezida melatonin gormoni ishlab chiqarilishini kamaytiradi. Melatonin uyquni boshqaruvchi asosiy gormon bo'lib, u antioksidant va kardioprotektiv xususiyatlarga ega. Uning kamayishi simpatik nerv tizimi faollashuvi, arterial bosimning kechki oshishi, glyukoza almashinuvining buzilishi, insulin sezgirligining pasayishi, lipid almashinuvi buzilishi, endotelial disfunksiyaga olib keladi. Natijada yosh davrdanoq yurak-qon tomir va metabolik xavf omillari shakllanishi mumkin. Ushbu jarayonlar dastlab funksional bo'lib, klinik belgilar bermaydi, biroq kelajakda arterial gipertenziya, 2-tur qandli diabet va metabolik sindrom rivojlanishiga zamin yaratadi. Shu sababli mazkur masala zamonaviy yoshlar sog'lig'i uchun nihoyatda dolzarbdir.

Tadqiqot maqsadi: Yoshlar orasida tungi ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik bilan sirkad ritmi buzilishi va yurak-qon tomir hamda metabolik xavf omillarining erta shakllanishi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash va profilaktik chora-tadbirlarni ilmiy asoslash.

Materiallar va tadqiqot usullari : Tadqiqot kuzatuv va skrining tipidagi amaliy ish sifatida olib borildi. Unda 18–25 yoshdagi 60 nafar talaba ixtiyoriy ravishda ishtirok etdi. Ishtirokchilar turmush tarzi xususiyatlariga ko'ra ikki guruhga ajratildi: 1-guruh – kechki soat 23:00 dan keyin muntazam ravishda (haftasiga kamida 4–5 marotaba) ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadigan talabalar; 2-guruh – tungi foydalanishi minimal bo'lgan nazorat guruhi. Tadqiqot jarayonida ishtirokchilarning uyqu davomiyligi va sifati strukturallashtirilgan so'rovnoma asosida baholandi. Uyquga ketish vaqti, tungi uyg'onishlar soni, ertalabki uyg'onishdagi holat va kun davomida charchoq darajasi o'rganildi. Sirkad ritmi

buzilishi uyqu fazasining kechikishi, uyqu davomiyligining qisqarishi hamda ertalabki funksional holatning pasayishi asosida baholandi. Antropometrik ko'rsatkichlar (bo'y, vazn) o'lchanib, tana massasi indeksi hisoblandi. Arterial bosim 5 daqiqalik tinch holatdan so'ng 3 marotaba o'lchanib, o'rtacha qiymat olindi. Puls tezligi aniqlanib, vegetativ nerv tizimi faolligi haqida xulosa qilindi. Shuningdek, ishtirokchilarning ambulator kartalarida mavjud bo'lgan oxirgi profilaktik ko'rik ma'lumotlari tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar guruhlar o'rtasida solishtirilib, tungi ekran vaqti bilan gemodinamik va funksional ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik baholandi.

Natijalar va muhokama: Tadqiqot natijalariga ko'ra, tungi ijtimoiy tarmoqlardan muntazam foydalanadigan talabalarda uyqu davomiyligi sezilarli darajada qisqargani va uyqu sifati pasaygani aniqlandi. Ular orasida uyquga ketishning kechikishi, tungi uyg'onishlar sonining ortishi hamda ertalabki charchoq hissi ko'proq kuzatildi. Bu holat sirkad ritmining funksional buzilishidan dalolat beradi. Arterial bosim ko'rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan nisbatan yuqoriroq bo'lib, ayniqsa sistolik bosimning oshish tendensiyasi qayd etildi. Puls tezligining yuqoriligi simpatik nerv tizimi faolligining ortganini ko'rsatadi. Tana massasi indeksining o'rtacha qiymati ham tungi faol foydalanuvchilarda biroz yuqoriroq ekani kuzatildi. Ekran vaqtining ortishi bilan uyqu sifati yomonlashuvi va arterial bosim ko'rsatkichlari o'zgarishi o'rtasida to'g'ri bog'liqlik aniqlandi. Kechki yorug'lik ta'siri va uyqu fazasining kechikishi vegetativ muvozanatni izdan chiqarib, gemodinamik barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Mazkur o'zgarishlar yosh organizmda dastlab funksional xarakterga ega bo'lib, klinik belgilarisiz kechadi. Biroq uzoq muddat davom etganda ushbu jarayonlar arterial gipertenziya, metabolik sindrom va boshqa kardiometabolik kasalliklar

Xulosa: O'tkazilgan tadqiqot natijalari tungi ijtimoiy tarmoqlardan muntazam foydalanish yoshlar orasida sirkad ritmining barqaror buzilishiga olib kelishini ko'rsatdi. Sirkad desinxronizatsiya organizmning gormonal muvozanatini buzib, endotelial disfunksiya va gemodinamik beqarorlikni kuchaytiradi. Shu bois tungi ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikni nafaqat ijtimoiy-psixologik muammo, balki erta kardiometabolik xavf omili sifatida baholash zarur. Profilaktik nuqtai nazardan kechki ekran vaqtini cheklash, uyqu gigiyenasini shakllantirish, jismoniy faollikni oshirish va metabolik ko'rsatkichlarni muntazam monitoring qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot natijalari yoshlar salomatligini muhofaza qilish va yurak-metabolik kasalliklarning birlamchi profilaktikasini kuchaytirish bo'yicha ilmiy asoslangan yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.

СУРУНКАЛИ ГЕПАТИТ С НИ ЭРТА ТАШХИСЛАШ ВА ПРОГНОЗИНИ ЯХШИЛАШ: IL-10 (G108A) ВА TNF- α (G308A) ГЕН ПОЛИМОРФИЗМЛАРИНИ БАҲОЛАШ АСОСИДА

ХАЙРУЛЛАЕВА Д.Х.

Тошкент давлат тиббиёт университети физиология кафедраси ассистенти
Тошкент шаҳри.

Мақсад: Ушбу мақолада IL-10 (-1082 G/A) ва TNF- α (-308 G/A) ген полиморфизмлари сурункали вирусли гепатит С га мойиллик ва унинг прогрессияси билан аҳамиятли даражада боғлиқ эканлиги кўрсатилган. Таҳлил натижаларига кўра, ҳар икки ген бўйича AA генотиби ва A аллели беморларда назорат гуруҳига нисбатан ишончли даражада кўпроқ учраган бўлиб, бу уларнинг сурункали вирусли гепатит С ривожланиши учун хавф омиллари эканлигини тасдиқлайди. Аксинча, GG генотиби ва G аллели назорат гуруҳида кўпроқ аниқланган бўлиб, бу уларнинг касалликка нисбатан ҳимояловчи таъсирга эга эканлигини кўрсатади. Шунингдек, беморлар ва назорат гуруҳида IL-10 ва TNF- α генотипларининг тақсимланиши Харди–Вайнберг мувозанатига мос келгани тадқиқот намунасининг генетик жиҳатдан репрезентативлигини тасдиқлайди.

Материаллар ва усуллар. Ушбу тадқиқотда IL-10 (G108A) ва TNF- α (G308A) генетик полиморфизмларининг клиник, лаборатор ва вирусологик кўрсаткичлар билан боғлиқлиги баҳоланди. Асосий гуруҳга сурункали гепатит С ташхиси тасдиқланган 105 нафар бемор киритилди, уларнинг 58 нафари эркак ва 47 нафари аёллар эди. Беморларнинг ёши 25 ёшдан 76 ёшгача бўлиб, ўртача ёш $49,6 \pm 1,2$ йилни ташкил этди. Тадқиқот Бухоро давлат тиббиёт институти Этика қўмитаси рухсати билан ўтказилди. **Генетик таҳлил.** ДНК периферик қондан стандарт усуллар асосида ажратиб олинди. IL-10 (G108A) ва TNF- α (G308A) полиморфизмлари ПЦР–RFLP усули ёрдамида аниқланди. Генотиплар GG, GA ва AA вариантларига ажратилди. Сифат кўрсаткичларини таққослаш χ^2 (хи-квадрат) тести ёки Фишернинг аниқ тести орқали амалга оширилди. Генотип ва аллел частоталари ҳисоблаб чиқилди, шунингдек 95% ишонч оралиғи билан odds ratio (OR) ва нисбий хавф (RR) кўрсаткичлари аниқланди. Генетик полиморфизмлар, клиник белгилар ва лаборатор кўрсаткичлар ўртасидаги боғлиқлик Спирмен ёки Пирсон корреляция коэффициентлари ёрдамида баҳоланди. Сурункали гепатит С асоратларини прогноз қилиш мақсадида логистик регрессия таҳлили ўтказилди. Статистик аҳамиятлилик даражаси $p < 0,05$ деб қабул қилинди.

Натижалар ва таҳлил. Генетик таҳлил периферик қондан ажратиб олинган ДНК намунасида амалга оширилди. IL-10 (G108A) ва TNF- α (G308A) ген полиморфизмлари ПЦР–RFLP усули ёрдамида аниқланди. Генотиплар GG, GA ва AA вариантларига ажратилди. Генотиплар тақсимоти Харди–

Вайнберг мувозанатига мослиги жиҳатидан баҳоланди. IL-10 (-1082 G/A) ген полиморфизми: беморлар ва назорат гуруҳидаги генотиплар тақсимооти: Аллельлар тақсимооти: Беморлар гуруҳида GG генотиби частотаси назорат гуруҳига нисбатан сезиларли даражада кам эди (32,4% vs 51,7%; OR = 0,44; $\chi^2 = 5,01$; $p < 0,05$), бу ушбу генотипнинг ҳимояловчи таъсирга эга бўлиши мумкинлигини кўрсатади. Аксинча, AA генотиби беморларда назорат гуруҳига нисбатан сезиларли даражада кўпроқ учради (23,8% vs 13,3%; OR = 2,10; $\chi^2 = 3,98$; $p < 0,05$), бу касаллик ривожланиши хавфи билан боғлиқлигини кўрсатади. GA гетерозигот генотиби учун гуруҳлар ўртасида статистик жиҳатдан аҳамиятли фарқ аниқланмади ($p > 0,05$). Аллель таҳлилида A аллели беморларда назоратга нисбатан сезиларли даражада юқори бўлгани аниқланди (45,7% vs 30,8%; OR = 1,88; $\chi^2 = 6,12$; $p < 0,05$). Шу билан бирга, G аллели беморларда кам учраган (54,3% vs 69,2%; OR = 0,53; $p < 0,05$), бу унинг потенциал ҳимояловчи ролига ишора қилади. TNF- α (-308 G/A) ген полиморфизминини таҳлил қилиш натижалари шуни кўрсатдики, беморлар гуруҳида GG генотиби назорат гуруҳига нисбатан сезиларли даражада кам учраган (39,0% vs 58,3%; OR = 0,46; $\chi^2 = 5,21$; $p < 0,05$). Аксинча, AA генотиби беморларда назорат гуруҳига нисбатан сезиларли даражада кўпроқ учраган (19,1% vs 8,4%; OR = 2,36; $\chi^2 = 4,44$; $p < 0,05$), бу унинг касалликка мойилликни ошириш билан боғлиқлигини кўрсатади. GA генотиби учун гуруҳлар ўртасида статистик жиҳатдан аҳамиятли фарқ аниқланмади ($p > 0,05$). Аллель таҳлилида A аллели беморларда назорат гуруҳига нисбатан сезиларли даражада юқори бўлгани аниқланди (40,0% vs 25,0%; OR = 2,00; $\chi^2 = 6,34$; $p < 0,05$). Аксинча, G аллели беморларда назорат гуруҳига нисбатан кам учраган (60,0% vs 75,0%; OR = 0,50; $p < 0,05$), бу унинг ҳимояловчи таъсири борлигини кўрсатади.

Хулоса қилиб айтиб ўтиш мумкинки, ушбу тадқиқот натижалари IL-10 (-1082 G/A) ва TNF- α (-308 G/A) ген полиморфизмлари сурункали вирусли гепатит С га мойиллик ва унинг прогрессияси билан аҳамиятли боғлиқ эканлигини кўрсатади. Таҳлил натижалари шуни кўрсатдики, ҳар икки ген учун AA генотиби ва A аллели беморларда назорат гуруҳига нисбатан сезиларли даражада кўпроқ учраган бўлиб, улар сурункали вирусли гепатит С ривожланиши учун хавф омиллари сифатида аниқланган ($p < 0,05$). Аксинча, GG генотиби ва G аллели назорат гуруҳида кўпроқ учраган бўлиб, бу уларнинг касалликка нисбатан ҳимояловчи ролига ишора қилади. Шунингдек, беморлар ва назорат гуруҳларида IL-10 ва TNF- α генотипларининг тақсимооти Харди–Вайнберг мувозанатига мувофиқ келган ($p > 0,05$), бу тадқиқот намунасининг генетик жиҳатдан репрезентатив эканлигини кўрсатади. IL-10 (-1082 G/A) ва TNF- α (-308 G/A) ген полиморфизмларини баҳолаш сурункали вирусли гепатит С ни эрта ташхислашда, индивидуал хавфни прогноз қилишда ва шахсийлаштирилган даволаш стратегияларини ишлаб чиқишда муҳим аҳамиятга эга бўлиб, клиник амалиётда қўллаш учун истиқболли йўналишни ташкил қилади.

JIGAR SIRROZIDA ZAMONAVIY BIOMARKERLARNING DIAGNOSTIK AHAMIYATI

Gulasal Zokir qizi

Ilmiy rahbar ; t.f.d., professor Axmedova Nilufar Sharipovna Abu Ali ibn Sino

nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti

Gemotologiya, klinik laborator diagnostika, nefrologiya va gemodializ kafedrası,

Buxoro Davlat tibbiyot instituti, Buxoro, O'zbekiston

Kalit soʻzlar:Jigar sirrozi, fibroz, elastografiya, biomarkerlar, MRT, FibroScan, non-invaziv diagnostika, laborator testlar, erta tashxis.

Dolzarbli:Jigar sirrozi (JS) – surunkali va qaytarilmas jigar kasalligi boʻlib, dunyo boʻyicha kasallik va oʻlimning yetakchi sababi hisoblanadi. Jigar sirrozi koʻpincha uzoq vaqt simptomlarsiz kechadi, shuning uchun bemorlar kech bosqichda shifokorga murojaat qiladi.Buning natijasida gepatorenal sindrom,portal gipertenziya va jigar yetishmovchiligi kelib chiqadi. Shu sababli zamonaviy diagnostika metodlari – laborator testlar, elastografiya, MRT va molekulyar biomarkerlar – kasallikni erta aniqlash va samarali boshqaruv uchun hayotiy ahamiyatga ega.

Maqsad: jigar sirrozini zamonaviy diagnostika metodlari yordamida aniqlash va ularning klinik qoʻllanilishini oʻrganish.

Vazifalar:

1. Jigar sirrozining patogenezi va klinik belgilarini tahlil qilish.
2. Laborator va zamonaviy biomarkerlar roʻlini oʻrganish.
3. Instrumental diagnostika metodlari (elastografiya, MRT, ultratovush) samaradorligini baholash.
4. Diagnostik algoritmlar va integratsiyalashgan yondashuvlarni ishlab chiqish.

Manba va materiallar:Tadqiqot materiallari: 2018–2025 yillarda jigar sirrozibilan kasallangan 80 bemor.Jigar sirrozini aniqlashda quyidagi tekshiruvlar amalga oshiriladi.Laborator tekshiruvlar: ALT, AST, bilirubin, albumin, INR, FibroTest, APRI, FIB-4.Instrumental diagnostika: ultratovush, Doppler, FibroScan, MRT, CT.

Natijalar va muhokamalar:Laborator testlar,ALT va AST ko‘tarilishi hepatotsit shikastlanishini ko‘rsatadi.Albumin va INR o‘zgarishi jigar sintez funksiyasi buzilishini tasdiqlaydi.Biomarkerlar:FibroTest, APRI va FIB-4 ko‘rsatkichlari non-invaziv ravishda fibroz darajasini aniqlash imkonini beradi.Serum hialuron kislotasi va YKL-40 fibrozni baholashda qo‘shimcha diagnostik qiymat beradi.Instrumental metodlar:Elastografiya (FibroScan) jigar to‘qimasining qattiqligini aniqlashda aniq natija beradi.MRT va KT nodulyar rekonstruksiya va portal gipertenziya belgilarini ko‘rsatdi.Doppler ultratovush portal tomir oqimini baholashda samarali bo‘ldi.

Xulosa;Jigar sirrozini erta aniqlash bemorlarning hayot sifati va prognozini yaxshilashda muhimdir.Zamonaviy diagnostika metodlari: laborator testlar, biomarkerlar, elastografiya, MRT va Doppler ultratovush samarali vositalardir.Integratsiyalashgan yondashuv kasallik bosqichini aniqlash va davolash strategiyasini optimallashtirish imkonini beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. European Association for the Study of the Liver (EASL). *Clinical Practice Guidelines: Management of cirrhosis*, J Hepatol, 2018; 69: 406–460.
2. Schuppan D., Afdhal N.H. *Liver cirrhosis*, Lancet, 2008; 371: 838–851.
3. Friedman S.L. *Mechanisms of hepatic fibrogenesis*, Gastroenterology, 2008; 134: 1655–1669.
4. Castera L., et al. *Non-invasive evaluation of liver fibrosis using transient elastography*, J Hepatol, 2010; 52: 775–785.
5. Asrani S.K., et al. *Burden of liver diseases in the world*, J Hepatol, 2019; 70: 151–171.
6. Rockey D.C., et al. *Liver biopsy*, Hepatology, 2009; 49: 1017–1044.
7. Pinzani M., Rombouts K. *Fibrosis assessment in chronic liver disease*, Best Pract Res Clin Gastroenterol, 2004; 18: 989–1010.

TALABA-YOSHLAR ORASIDA GIPODINAMIYA VA UNING ORTIQCHA VAZN SHAKLLANISHIDAGI ROLI: IJTIMOYIY-GIGIENIK TAHLIL

Oralbayeva Sabrina Shuxrat qizi

Qoraqalpog‘iston tibbiyot instituti Ichki kasalliklar propedevtikasi,
endokrinologiya va psixiatriya kafedrası

Qoraqalpog‘iston tibbiyot instituti, Nukus shahri, O‘zbekiston Respublikasi
Ilmiy rahbar: Ichki kasalliklar propedevtikasi, endokrinologiya va psixiatriya
kafedrası katta o‘qituvchisi Abdrashitova Gulnara Saatbaevna

Dolzarbli. Gipodinamiya — zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan bo‘lib, jismoniy faollikning keskin kamayishi bilan xarakterlanadi. Hozirgi kunda ushbu holat ayniqsa talaba-yoshlar orasida keng tarqalgan. Talabalarning ko‘p vaqtini auditoriya mashg‘ulotlari, mustaqil ta‘lim va raqamli qurilmalar bilan ishlash egallashi natijasida harakat faolligi sezilarli darajada kamaymoqda. Bu esa organizmda moddalar almashinuvining buzilishi, ortiqcha vazn to‘planishi hamda yurak-qon tomir tizimi kasalliklari rivojlanish xavfini oshiradi.

Talabalik davri inson salomatligi va turmush tarzining shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda noto‘g‘ri ovqatlanish, kamharakat turmush tarzi va kun tartibining buzilishi kelajakda surunkali noinfeksion kasalliklar rivojlanishiga zamin yaratadi. Shu sababli talaba-yoshlar orasida gipodinamiyaning tarqalganlik darajasini o‘rganish va uning ortiqcha vazn shakllanishidagi rolini aniqlash muhim ijtimoiy-gigienik ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot maqsadi. Talaba-yoshlar o‘rtasida gipodinamiyaning tarqalganlik darajasini aniqlash, uning tana vazni ortishiga ta‘sirini ijtimoiy-gigienik jihatdan baholash hamda samarali profilaktik chora-tadbirlar ishlab chiqishdan iborat.

Materiallar va usullar. Tadqiqot davomida talabalarning kun tartibi, jismoniy faolligi va ovqatlanish xususiyatlari maxsus anonim so‘rovnomalar yordamida o‘rganildi. Jismoniy faollik darajasi haftalik harakat davomiyligiga ko‘ra baholandi. Antropometrik o‘lchovlar asosida tana vazni indeksi (TVI) quyidagi formula yordamida hisoblandi: $IMT = \text{Vazn (kg)} / \text{Bo‘y}^2 (\text{m}^2)$

Olingan natijalar statistik usulda tahlil qilinib, jismoniy faollik darajasi va tana vazni o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlashtirildi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kuniga 30 daqiqadan kam jismoniy harakat qiladigan talabalar orasida ortiqcha vazn ($TVI > 25 \text{ kg/m}^2$) ko‘rsatkichi jismoniy faol tengdoshlariga nisbatan 2,5 barobar yuqori ekan. Shuningdek, kamharakat talabalarda tez charchash, diqqatning pasayishi va arterial bosim ko‘rsatkichlarining oshishi kuzatildi.

Gipodinamiya va ortiqcha vazn rivojlanishiga quyidagi omillar sabab bo'lmoqda:

- kunlik ekran vaqtining 5 soatdan ortishi;
- tez tayyorlanadigan va yuqori kaloriyali ovqatlarni iste'mol qilish;
- o'quv yuklamasi sababli sport mashg'ulotlariga vaqt ajratmaslik;
- piyoda yurish o'rniga transport vositalaridan ortiqcha foydalanish.

Mazkur omillar talabalarda energiya sarfining kamayishi va kaloriya ortiqcha to'planishiga olib keladi. Natijada semirish, metabolik buzilishlar va yurak-qon tomir kasalliklari xavfi ortadi.

Xulosa. Talaba-yoshlar orasida gipodinamiya va ortiqcha vazn muammosi dolzarb hisoblanadi hamda kompleks profilaktik choralarni talab etadi. Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini takomillashtirish, sog'lom ovqatlanish muhitini yaratish va kunlik kamida 10 ming qadam yurish odatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu chora-tadbirlar kelajakda surunkali kasalliklarning oldini olish va yoshlar salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

ГИПЕРТОНИЧЕСКАЯ БОЛЕЗНЬ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН В УСЛОВИЯХ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО КРИЗИСА АРАЛЬСКОГО МОРЯ

Юсупова Индира Мангитбаевна

*Медицинский институт Каракалпакстана, г. Нукус, Республика
Узбекистан*

*Научный руководитель – Турсьмуратова Сарбиназ Ешмуратовна,
ассистент кафедры Пропедевтики внутренних болезней, эндокринологии
и психиатрии*

Актуальность: Экологический кризис, связанный с высыханием Аральское море, привёл к глубоким изменениям природной среды региона Приаралья. Масштабное образование солончаков, частые пыле-солевые бури, загрязнение атмосферного воздуха токсичными соединениями и высокая минерализация питьевой воды оказывают комплексное негативное воздействие на здоровье населения.

Сердечно-сосудистые заболевания занимают лидирующее место в структуре общей заболеваемости и смертности. Особую значимость приобретает гипертоническая болезнь как одно из наиболее распространённых хронических неинфекционных заболеваний. В условиях экологического неблагополучия риск формирования артериальной гипертензии возрастает, что обусловлено сочетанным воздействием природных и социально-экономических факторов.

Регион Каракалпакстана характеризуется неблагоприятной экологической обстановкой, что делает изучение влияния факторов окружающей среды на

распространённость гипертонической болезни особенно актуальным с точки зрения общественного здоровья и профилактической медицины.

Цель исследования- Изучить влияние экологических факторов региона Приаралья на распространённость и механизмы развития гипертонической болезни среди населения Республики Каракалпакстан.

Материалы и методы. Проведён анализ статистических данных по общей заболеваемости населения Каракалпакстана за последние годы. Изучена структура сердечно-сосудистой патологии с акцентом на гипертоническую болезнь. Для сравнительной оценки использованы данные Всемирная организация здравоохранения по распространённости артериальной гипертензии.

Применялись методы аналитического и сравнительного анализа, статистическая обработка показателей заболеваемости, а также оценка влияния экологических факторов на формирование артериальной гипертензии.

Результаты и их обсуждение. Анализ показал устойчиво высокий уровень сердечно-сосудистой патологии в регионе. Несмотря на относительную стабилизацию общей заболеваемости, доля гипертонической болезни в структуре хронических заболеваний остаётся значительной.

Хроническое воздействие пыле-солевых аэрозолей вызывает оксидативный стресс и эндотелиальную дисфункцию, что приводит к снижению эластичности сосудистой стенки и повышению периферического сопротивления. Повышенная минерализация питьевой воды способствует избыточному поступлению натрия в организм, задержке жидкости и активации ренин-ангиотензин-альдостероновой системы.

Дополнительным фактором выступает социально-экономический стресс, усиливающий симпатическую активность. Совокупность данных механизмов способствует формированию солечувствительной формы артериальной гипертензии, характерной для населения региона Приаралья.

Вывод. Экологический кризис Приаралья оказывает существенное влияние на рост гипертонической болезни среди населения Каракалпакстана. Для снижения заболеваемости необходим комплексный подход, включающий улучшение качества питьевой воды, снижение загрязнения атмосферного воздуха, проведение санитарно-гигиенических мероприятий, организацию массового скрининга артериального давления и реализацию образовательных программ по профилактике факторов риска.

Комплексная реализация данных мер позволит стабилизировать показатели сердечно-сосудистой заболеваемости, снизить нагрузку на систему здравоохранения и повысить качество жизни населения региона.

ATEROSKLEROZ RIVOJLANISHIDA PZL VA YZLNING AHAMIYATI
Namozov Maxsud Maxmud o'g'li

*Ichki kasalliklar propedevtikasi, endokrinologiya va psixiatriya kafedrası
Qoraqalpog‘iston tibbiyot instituti, Nukus shahri, O‘zbekiston Respublikasi
Ilmiy rahbar: Ichki kasalliklar propedevtikasi, endokrinologiya va psixiatriya
kafedrası assistenti Tursimuratova Sarbinaz Eshmuratovna*

Dolzarbliigi. Ateroskleroz yurak-qon tomir kasalliklari orasida eng keng tarqalgan patologiyalardan biri bo‘lib, o‘lim va nogironlikning asosiy sabablaridan hisoblanadi. Kasallik rivojlanishida lipid almashinuvi buzilishi muhim rol o‘ynaydi. Xususan, past zichlikdagi lipoprotein (PZL) miqdorining oshishi aterogenez jarayonini kuchaytiradi, yuqori zichlikdagi lipoprotein (YZL) esa ortiqcha xolesterin chiqarilishiga yordam berib, tomirlarni himoya qiladi.

So‘nggi yillarda ateroskleroz yoshlar orasida ham uchrayotgani, lipid profilini erta aniqlash va nazorat qilish zaruratini oshirmoqda. Shu sababli PZL va YZLning ateroskleroz rivojlanishidagi ahamiyatini o‘rganish dolzarb masala hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi. Ateroskleroz bilan kasallangan bemorlarda PZL va YZL darajalarining patogenetik ahamiyatini aniqlash hamda ularning kardiovaskulyar xavf bilan bog‘liqligini baholash.

Materiallar va usullar. Tadqiqot Qoraqalpog‘iston hududidagi RIKIATM QR hududiy filialida ateroskleroz tashxisi bilan davolanayotgan 25 nafar bemor ishtirokida o‘tkazildi. Bemorlar yosh va jins bo‘yicha guruhlariga ajratildi. Klinik va laborator ma‘lumotlari to‘liq bo‘lgan bemorlar tanlandi.

Barcha bemorlarda qon zardobining lipid spektri — PZL, YZL va umumiy xolesterin miqdori standart biokimyoviy usullar bilan o‘lchandi. Lipid ko‘rsatkichlari kardiovaskulyar xavf darajasi bilan taqqoslandi. Olingan natijalar foiz ko‘rsatkichlari va o‘rtacha qiymatlar ($M \pm m$) bilan taqdim qilindi.

Natijalar. PZL darajasi oshgan bemorlar: 25 nafar (14 ayol, 11 erkak).

Yosh taqsimoti: 60–70 yosh – 12 bemor (48%), 50–60 yosh – 7 bemor (28%), 70 yoshdan yuqori – 6 bemor (24%).

Kardiovaskulyar xavf darajasi: 3-darajali – 9 bemor (36%), 4-darajali – 10 bemor (40%), o‘ta yuqori xavf – 6 bemor (24%).

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, PZL darajasining oshishi bemorlarning kardiovaskulyar xavfini oshiradi. YZL himoya xususiyati mavjudligi sababli, uning pasayishi ateroskleroz rivojlanishiga qo‘shimcha omil bo‘lishi mumkin.

Xulosa. Past zichlikdagi lipoprotein (PZL) darajasining oshishi ateroskleroz rivojlanishida muhim patogenetik omil hisoblanadi. PZL darajasi va kardiovaskulyar xavf darajasi o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik kuzatildi. Ateroskleroz ko‘pincha 60–70 yosh oralig‘ida uchraydi, bu yoshga bog‘liq metabolik o‘zgarishlar bilan izohlanadi. Yuqori zichlikdagi lipoprotein (YZL) tomirlarni himoya qiladi, shuning uchun lipid profilini muntazam kuzatish aterosklerozni erta aniqlash va asoratlarini oldini olishda muhimdir.

KARDIOMIOTSITLARNING REGENERATIV XUSUSIYATLARI.

Yusupxonova Elnozaxoxiddin qizi
Osiyo Xalqaro universiteti
10-DAV-24 guruh 2-bosqich talabasi
e-mailyusufxonovaelnoza@gmail.com

Ilmiy rahbar: Jumayeva Dilnoza
Rustamovna

dilnozajumayeva306@gmail.com

Osiyo Xalqaro Universiteti “Fundamental fanlar” kafedrasi o’qituvchisi

Dolzarbliqi. Kardiomiotsitlar — bu yurak mushak to'qimasini tashkil etuvchi asosiy hujayralardir. Ularning asosiy vazifasi yurak qisqarishini ta'minlash, ya'ni qon aylanishini doimiy ravishda ushlab turishdir. Ammo boshqa ko'plab to'qimalar (masalan, jigar yoki teri) hujayralaridan farqli ravishda, kardiomiotsitlarning regenerativ (qayta tiklanish) qobiliyati juda cheklangan. Kardiomiotsitlarning hujayra bo'linish qobiliyati. Tug'ilishdan so'ng inson yuragidagi kardiomiotsitlar mitoz yo'li bilan bo'linish qobiliyatini deyarli yo'qotadi.

Ularning ko'pchiligi terminal differensiyalashgan hujayralardir, ya'ni ular o'zining o'sish va bo'linish dasturini to'xtatgan. Shuning uchun yurak to'qimasi shikastlansa (masalan, infarkt paytida), o'lgan kardiomiotsitlar biriktiruvchi to'qima (fibroz to'qima) bilan almashtiriladi. Bu esa yurakning qisqarish kuchini kamaytiradi.

So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki: Kattalarda ham kardiomiotsitlar yiliga 1% gacha yangilanish qobiliyatiga ega (ba'zi manbalarda 0.5–1% deb ko'rsatiladi). Bu yangilanish, asosan, mavjud kardiomiotsitlarning cheklangan bo'linishi yoki yurakdagi ildiz hujayralaridan yangi kardiomiotsitlar hosil bo'lishi hisobiga kechadi. Yosh o'tgan sari bu qobiliyat sezilarli darajada kamayadi.

KALIT SO'ZLAR.

Kardiomiotsit, regenerativ, yurak-qon kasalliklari, miokard, ishemik shikastlanish, embrional rivojlanish, ultrastrukturaviy, terminal differensiyalashgan, biriktiruvchi to'qima, postnatal davr.

Voyaga yetgan sutemizuvchilarda yurak qisqarishini belgilaydigan kardiomiotsitlar ko'payishining to'xtashi va ularning bo'linishini qayta tiklash yoki

yurak mushaklari shikastlanishi joyida to'liq funktsional kardiomiotsitlarga differentsiallanc oladigan hujayralarni izlash yaqinda ushbu masalalarga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlarni olib borishga turtki bo'ldi. Amerikalik olimlar tomonidan bir kunlik sichqonlarda 15% chap qorincha rezektsiyasidan keyin miokard tuzilishi va funksiyasini to'liq tiklash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida sutemizuvchilarda ilk postnatal davrda regenerativ salohiyat mavjudligini va hayotning birinchi haftasi oxiriga kelib bu funktsiyaning to'liq to'xtashini ko'rsatdi.

Ma'lumki, yurak-qon tomir kasalliklari bir necha o'n yillar davomida butun dunyo bo'ylab o'limning asosiy sababi bo'lib, saraton kasalligini o'z ichiga olgan boshqa barcha kasalliklardan sezilarli darajada ustun turadi. Xususan, miokard infarkti Qo'shma Shtatlarda har 34 soniyada uchraydigan eng keng tarqalgan o'limga olib keladigan kasalliklardan biridir. Yurak xurujidan keyin yurak mushagining bir qismi shikastlangan holda qolishini va kelajakda yurak yetishmovchiligi yoki boshqa yurak-qon tomir kasalliklari rivojlanish xavfini oshirishini kam bemor biladi. Yurak xurujining qisqa davom etishiga qaramay, inson yurak hujayralari kamdan-kam hollarda qayta tiklanadi (qon, soch yoki teri hujayralaridan farqli o'laroq). So'nggi yillarda epidemiya darajasiga yetgan yurak yetishmovchiligining ko'payishi yurak-qon tomir kasalliklari sohasidagi eng dolzarb muammolardan biridir. Bu asosan zamonaviy tibbiyotda yurak xurujlari va boshqa kasalliklar tufayli qaytarib bo'lmaydigan darajada shikastlangan miokardni tiklash uchun davolash usullarining yo'qligi bilan bog'liq.

Tadqiqot maqsadi. So'nggi o'n yilliklardagi fundamental tadqiqotlar yurakning mitozdan keyingi regeneratsiyaga qodir bo'lmagan organ sifatidagi qariyb 100 yillik tushunchasini o'zgartirdi. Yurakning jarohatdan keyin doimiy ravishda yangilanish va regeneratsiyaga qodir ekanligi ko'rsatildi, garchi juda cheklangan darajada bo'lsa ham.

Yigirma yil oldin kardiolog va o'zak (yosh hali to'liq rivojlanmagan) hujayralari tadqiqotchisi Piero Anversa qiziqarli maqola nashr etdi. Valhalladagi Nyu-York tibbiyot kollejining taniqli tadqiqotchisi, u sichqonlarda, mashhur e'tiqodga zid

ravishda, suyak iligidan olingan o‘zak hujayralari yordamida ishemik jarohatdan keyin miokard regeneratsiyasi mumkinligini ko‘rsatdi. Anversa ishining amaliy ahamiyati aniq edi: cheksiz o‘sish va ko‘payish qobiliyati tufayli o‘zak hujayralari yurak xuruji keltirib chiqargan zararni tiklashi va shu bilan yurak yetishmovchiligining oldini olishi mumkin. Biroq, bu natijalarni sichqonlarda takrorlashga urinayotgan boshqa tadqiqotlar muvaffaqiyatsiz bo‘ldi. Oxir-oqibat, soxtalashtirilgan natijalar ayblovlari paydo bo‘la boshladi va keyinchalik Garvard tibbiyot maktabida va ikki yildan so‘ng Brigham va ayollar kasalxonasida professor bo‘lgan Anversa, Anversa va boshqalarning qo‘shimcha tadqiqotlar uchun federal mablag‘ olish uchun arizada ma‘lumotlarni soxtalashtirgani uchun AQSh hukumatiga 10 million dollar to‘ladi. 2018-yilda Garvardda o‘tkazilgan tergov Anversaning 31 ta maqolasining qaytarib olinishiga olib keldi.

Afsuski, bu jarayon ilgaridagi o‘zak hujayralari tadqiqotlarga qiziqishni va g‘ayratni susaytirdi. U bahs-munozaralar, asosiy ilmiy tamoyillarga rioya qilmaslik va Anversaning da‘volariga qarshi dalillar butun sohaga soya solganini tan oladi. Bu achinarli, chunki boshqa ko‘plab o‘zak hujayralari olimlari qonun doirasida tadqiqotlar olib bormoqdalar. Shu bilan birga, odamlardan farqli o‘laroq, ishemik shikastlanishdan keyin yurak mushaklarini tiklash qobiliyatiga ega bo‘lgan hayvonlardan ilhomlanib, miokard regeneratsiyasi uchun yana bir strategiya paydo bo‘ldi. Tadqiqotchilar zebra baliqlarida (*Danio rerio*) avtoregeneratsiya paytida miokardda sintezlangan molekulalar haqida ko‘proq ma‘lumot olishga harakat qilmoqdalar. Ular, shuningdek, bir xil moddalarga asoslangan in‘ektsiya dorilari inson miokardini tiklashda o‘xshash natijalarga olib kelishi mumkinligini ham o‘rganmoqdalar. Endi savol shundaki, yurak regeneratsiyasi uchun nima samaraliroq bo‘ladi: o‘zak hujayralari, kichik molekulali dorilar yoki ikkalasining kombinatsiyasi.

Material va tadqiqot usullari. Hayot davomida yurak hujayralarining yangilanish mexanizmlari va jarohatdan keyin uning qisman regeneratsiyasi haqidagi tushunchamiz so‘nggi 20 yil ichida sezilarli o‘zgarishlarga uchradi.

Embrional rivojlanish, ayniqsa yurak bilan bog‘liq bilimlardan foydalangan holda, biz kardiomiotsitlarda o‘z-o‘zini tiklashning yo‘qligi muammosini o‘rganmoqdamiz. Biroq, salamandrlar va zebra baliqlari kabi hayvonlar bu qobiliyatga ega va ular yurak xurujlarini boshdan kechirmasalar ham, kichik yurak-qon tomir hodisalaridan keyin yuraklarini qayta tiklashlari mumkin.

2020-yilda nashr etilgan tadqiqot o‘zak hujayralari tomonidan ishlab chiqarilgan molekulalarning ahamiyatini ko‘rsatdi. Tadqiqotning maqsadi yurak xurujiga uchragan sichqonlarning miokardidagi oqsillarning strukturaviy yaxlitligini o‘rganish edi. Sakkizta balog‘at yoshiga yetgan sichqonida yurak xuruji simulyatsiya qilindi (sun‘iy ravishda qo‘zg‘atildi). To‘rt hafta o‘tgach, olimlar sichqonlarning yarmiga o‘zak hujayralarini yuborishdi. To‘rt hafta o‘tgach, hayvonlar jonsizlantirilib, sichqonlarning miokard namunalari oqsillarni ajratib olish uchun bir qator bufer eritmalari va kimyoviy reagentlar bilan yuvildi. Keyin bu oqsillar tahlil qilindi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, aslida yurakdagi har bir oqsilni massiv skanerlash amalga oshirildi. Mualliflar qariyb 4000 ta oqsilni aniqladilar va ularning qariyb 450 tasining tuzilishi yurak xuruji paytida buzilganligini ko‘rsatdilar. Biroq, o‘zak hujayralari terapiyasi tufayli buzilgan tuzilishga ega oqsillar soni 283 tagacha kamaydi, bu oqsillar yurakning to‘g‘ri ishlashini ta‘minlaydigan muhim komponentlar ekanligini, ammo ular kasallik paytida shikastlanganligini ko‘rsatadi. Ushbu o‘zak hujayralarining regenerativ moddalarni ajratish qobiliyati mualliflar tomonidan kuzatilgan jarayonning asosiy elementi bo‘lishi mumkin.

Barcha hujayralar va to‘qimalar ma‘lum bir hujayra guruhining mahalliy ehtiyojlari yoki stress haqida molekulyar darajada doimiy ravishda signallar almashadilar. Yurak xuruji (infarkt) natijasida ba‘zi hujayralar yo‘qolganda, bu hujayralararo aloqa buziladi. Kiritilgan o‘zak hujayralari signal molekulalarini ajratish orqali hujayralar orasidagi buzilgan aloqani qoplashga yordam beradi.

Yuqoridagilarning barchasi dalda beruvchi ko‘rinsa-da, o‘zak hujayralari terapiyasining ba‘zi jihatlari qayta tekshirilib yaxshilanishini talab qiladi. Boshqa bir tadqiqotda, taxminan 750 million kardiomiosit og‘ir yurak xurujiga uchragan

makakalarga ko'chirildi [4]. Operatsiyadan bir oy o'tgach, maymunlarning yuraklari nazorat guruhidagi 2,5% ga nisbatan 10,6% ko'proq qon quyishga muvaffaq bo'ldi.

Operatsiya qilingan hayvonlarda bu ustunlik uch oydan keyin ham saqlanib qoldi, garchi o'zak hujayralari bilan davolangan beshta maymundan biri aritmiyani boshdan kechirgan bo'lsa ham. Aritmiya ilgari kichik hayvonlarni o'rganishda aniqlanmagan edi, ammo uning infarktdan keyingi asorat sifatidagi holati uzoq vaqtdan beri ma'lum.

Shunga qaramay, tadqiqotchilar aritmiyani ildiz hujayralarini yuborishning potentsial nojo'ya ta'siri deb hisoblashdi. Muallifning so'zlariga ko'ra, bu topilma statistik jihatdan ahamiyatli bo'lmasa-da, olimlar buni davolashning asorati deb bilishdi.

Natija va uning muhokamasi. Inson yuragi nima uchun qayta tiklana olmasligini tushuntiruvchi ko'plab nazariyalar mavjud. Ulardan biri qayta tiklana olmasligini murakkabroq inson immunitet tizimiga bog'laydi.

Yurak rivojlanishi uchun muhim bo'lgan ERBB2 oqsili, shuningdek, o'sish omili neyrogulin 1 (NRG1) ning mavjudligi aniqlandi; ular sichqonlarda yurakni hosil qilish uchun birgalikda ishlaydi. Tashqi ma'lumotni hujayraga uzatuvchi maxsus retseptor yoki oqsil bo'lgan ERBB2 va neyrogulin 1 miokard hujayralarining o'sishini rag'batlantiradi. Tadqiqotchilar yangi tug'ilgan sichqonlarda kardiomyositlar qayta tiklanishini, ammo bu jarayon yetti kundan keyin to'xtashini ta'kidladilar. Eliminatsiya jarayoni orqali ular yangi tug'ilgan sichqonlarning yurak hujayralarini qayta tiklash qobiliyatiga ega bo'lishining sababi, yetti kunlik sichqonlarda esa bunday qobiliyatga ega emasligi ularning hujayra membranalaridagi maxsus retseptor, ERBB2 miqdori bilan bog'liqligini ko'rsatdilar. Ushbu omilni ajratib olish orqali ular ERBB2 bo'lmagan va juda kam kardiomyositlarga ega bo'lgan sichqonlarni yaratdilar. Mavjud yurak hujayralari juda yupqa edi va qayta tiklanmadi. ERBB2 balog'at yoshiga yetgan sichqonlarga yuborilganda, ularda ortiqcha kardiomyositlar paydo bo'lib, qon oqimini ta'minlay olmaydigan ulkan yurak hosil bo'ldi. Bu kashfiyotlar olimlarni agar ERBB2 yurak xurujiga uchragan kattalarda faollashtirilsa, kardiomyositlar regeneratsiyasi va

shikastlanishni tiklash mumkin bo‘ladi, degan gipotezani ilgari surishga olib keldi. Tadqiqotchilar miokard infarktiga uchragan voyaga yetgan sichqonlarida ijobiy natijalarni kuzatdilar: ular bir necha hafta ichida to‘liq yurak regeneratsiyasini boshdan kechirdilar. Keng chandigli nazorat guruhidagi hayvonlardan farqli o‘laroq, ERBB2 ifodalovchi yuraklar asl holatigacha to‘liq tiklandi.

Tasvirlash va molekulyar tadqiqotlar bizga bu o‘zgarishlar qanday sodir bo‘lishini aniqlash imkonini berdi: kardiomyositlar embrional va hujayra bosqichlari orasida asl shakliga qaytadi, bu ularga yangi yurak hujayralariga bo‘linish va farqlanish imkonini beradi. Tadqiqot guruhi ERBB2 oqsili hujayra regeneratsiyasini faollashtirishi, hujayralarni embrional holatga qaytarishi mumkinligini aniqlab, potentsial tiklovchi davolash usullarida sezilarli yutuqlarga erishdi.

Ushbu ish ERBB2 ni qo‘llashning mavjud yurak kasalliklariga ta‘sirini o‘rganishda davom etmoqda (davolash NRG1 in‘eksiyalarini o‘z ichiga oladi), ammo natijalar hali ham dastlabki. Ushbu usul inson yuragida ishlashini tasdiqlash uchun ko‘proq tadqiqotlar talab etiladi, ammo bu sohadagi kashfiyotlar allaqachon bu imkonligini ko‘rsatmoqda. Biroq, bu savol hali ham ochiq qolmoqda va aniq molekulyar biokimyoviy usullardan tashqari sitomorfologik va ultrastrukturaviy usullardan ham foydalanishni talab qilishi mumkin, chunki kardiomyositlarning ratsional qisqarishi genetik jihatdan belgilangan jarayonlar orqali boshqariladigan nafaqat qisqaruvchi kardiomyositlar, balki miokardning o‘tkazuvchi kardiomyositlar tizimining tiklanishi bilan ham belgilanishi katta ahamiyatga egaligi ko‘rsatilgan.

Xulosa.

Kardiomyositlarning regenerativ xususiyatlari boshqa ko‘plab to‘qimalarga nisbatan ancha cheklangan hisoblanadi. Yetuk kardiomyositlar yuqori darajada differensiyalashgan bo‘lib, ularning hujayra bo‘linishi va proliferatsiya qobiliyati juda past darajada saqlanib qoladi. Shu sababli yurak mushagi shikastlanganda, ayniqsa miokard infarkti yoki boshqa ishemik jarayonlar natijasida zararlangan hududlarda funksional mushak hujayralari o‘rnini ko‘pincha biriktiruvchi to‘qima egallaydi. Bu esa yurakning qisqarish faoliyati va umumiy gemodinamik funksiyasining pasayishiga olib keladi. Shunga qaramay, so‘nggi yillarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar kardiomyositlarning ma‘lum darajada yangilanish qobiliyati mavjudligini ko‘rsatmoqda. Ba‘zi sharoitlarda kardiomyositlarning cheklangan proliferatsiyasi

yoki mavjud hujayralarning qayta differensiyalanishi kuzatilishi mumkin. Bundan tashqari, ildiz hujayralar texnologiyasi, gen muhandisligi, to‘qima muhandisligi va regenerativ tibbiyot sohalaridagi yutuqlar yurak to‘qimasini tiklash imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Kelajakda ushbu yo‘nalishlarda olib boriladigan chuqur tadqiqotlar yurak kasalliklarini davolashda yangi terapevtik yondashuvlarni ishlab chiqishga hamda kardiomiotsitlarning regeneratsiya imkoniyatlarini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Leri A., Malhotra A., Liew C.C., Kajstura J., Anversa P. Telomerase activity in rat cardiac myocytes is age and gender dependent. *J. Mol. Cell. Cardiol.* 2000; 32[3]:385–90.
2. Armstrong M.T., Lee D.Y., Armstrong P.B. Regulation of Proliferation of the Fetal Myocardium. *Dev. Dynamics.* 2000; 219:226–36.
3. Porrello E.R., Mahmoud A.I., Simpson E., Hill J.A., Richardson J.A., Olson E.N., Sadek H.A. Transient Regenerative Potential of the Neonatal Mouse Heart. *Science.* 2011; 331:1078–80. *The Scientist* Oct. 15, 2018

COVID-19 BILAN KASALLANGANLAR ORASIDA KASALLIKDAN KEYINGI MIKROELEMENTLAR YETISHMOVCHILIGINING UCHRASH DARAJASI VA TURLARINI ANIQLASH

Zaripova Sabinabegim Orif qizi

Ilmiy rahbar; t.f.d., G‘iyosova Nigora Odiljonovna Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti

Gematologiya va klinik laborator-diaagnostik kafedrasi, Buxoro davlat tibbiyot instituti, Buxoro, O‘zbekiston.

Mavzuning dolzarbligi: Yangi kirib kelgan COVID-19 infeksiyasining pandemiya davriga uch yildan oshgan bo‘lsada, virusning inson organizmidagi juda ko‘p to‘qimalarga ta’siri natijasida bu organ va to‘qimalar shikastlanishi, kasallikning multitizimli patologiya ekanligidan dalolat beradi. Bugungi kunda jahon tibbiyoti oldidagi yangi bir muammo bu postkovid sindrom bo‘lib, aholi orasida noaniq etiologiyali turli surunkali kasalliklar namoyon bo‘lishi kuzatilmoqda. Olib borilayotgan tadqiqotlar bu bemorlarda vitaminlar va mikroelementlar tanqisligi mavjudligini ta’kidlashmoqda. Shundan kelib chiqib,

postkovid holatda essensial mikroelementlar tanqisligi uchrashi va uning boshqa surunkali noinfeksion kasalliklar rivojlanishidagi patogenetik ahamiyatini baholash juda muhimdir.

COVID-19 bilan kasallangan bemorlarning kasallikdan keying davrda sekin-asta ro'y beradigan mikroelementlar yetishmovchiligi, ularning erta laborator diagnostikasi va kelib chiqadigan kasalliklar, shuningdek, ularning oldini olish to'g'risida klinik tavsiyalar yetarlicha emas. Bu esa ushbu holatlarda aniq ishlab chiqilgan ma'lumot va chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Maqsad: Covid-19 bilan kasallangan bemorlarda kasallikdan keying davrlarda mikroelementlar tanqisligi turlari va uchrash darajasini o'rganish va ularning boshqa kasalliklar rivojlanishidagi patogenetik ahamiyatini baholashdan iborat.

Manba va materiallar: Postkovid holatda kelib chiqadigan mikroelementozlarni aniqlash uchun dastlab Buxoro shahar yuqumli kasalliklar shifoxonasidan ekspress Covid test tahlili o'tkazilgan hamda ushbu tahlilda musbat natija ko'rsatgan bemorlar tanlan olinadi. Ushbu bemorlarda qon klinik tahlili o'tkazilishi ko'zda tutiladi. Mikroelementozlarni aniqlash maqsadida temir, mis, selen, rux hamda yod miqdori, shuningdek, minerallardan vitamin D ning miqdori ko'riladi. Shu bilan bir qatorda, qon biokimyoviy tahlilidan albumin, mochevina, kreatinin, glukoza va lipidlar spektri aniqlanadi.

Natija va muhokamalar: Tadqiqotga Buxoro shahar yuqumli kasalliklar shifoxonasida Covid-19 sindromi bilan davolangan 90 nafar bemor jalb qilindi. Tadqiqot davomida selen mikroelementi tanqisligi uzoq davom etadigan COVID-19 bilan og'rikan bemorlarda yallig'lanishning kuchayishi, gipoksiya va organlar disfunktsiyasini kuchayishida omillardan biri bo'lishi mumkinligi aniqlandi. Laboratoriya sinovlarida rux elementi va D vitaminini aniqlash uchun COVID-19 bilan kasallanib tuzalgan 55 nafar bemor kiritildi. Bemorlarning 29.1% va 27.3% mos ravishda D vitamini va rux yetishmovchiligiga ega ekanligi aniqlandi. Bundan rux yetishmovchiligi o'tkir va doimiy yallig'lanish bilan va D vitamini yetishmovchiligi COVID-19 sindromining kechikib tiklanishi bilan bog'liqligi ma'lum bo'ldi.

Xulosa: Covid-19 bilan kasallangan bemorlarning kasallikdan keyingi davrda mikroelementlar tanqisligi keng tarqalgan va surunkali yallig'lanish hamda organlar disfunktsiyasining rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, selen yetishmovchiligi uzoq davom etadigan Covid-19ning yallig'lanish jarayonlarini kuchaytirishi va gipoksiya bilan bog'liq kasallik asoratlarida asosiy rol o'ynaydi. Shuningdek, bemorlarning 29.1% va 27.3%da mos ravishda D vitamini va rux tanqisligi aniqlangan. Rux yetishmovchiligi o'tkir va doimiy yallig'lanish jarayonlari bilan bog'liq bo'lsa, D vitamini yetishmovchiligi kasallikdan keyingi tiklanish jarayonining sekinlashishiga olib keladi. Ushbu mikroelementlar tanqisligini erta laborator diagnostika orqali aniqlash va muvofiq davolash choralarini ko'rish postkovid sindrom va uning surunkali asoratlarini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Huang C. et al., 2021. Post-COVID-19 syndrome: epidemiology, clinical features, and pathophysiology. Nat Rev Dis Primers.
2. Ayres JG., 2021. Lung inflammation and micronutrient deficiencies in COVID-19. Clin Med.

ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЯ ПНЕВМОНИИ ПРИ COVID-19

Эргашева Гульера Абдунабижон кизи

Кафедра: Пропедевтики внутренних болезней

Ферганский медицинский институт общественного здоровья.

*Научный руководитель - кандидат медицинских наук, доцент,
заведующая кафедрой «Пропедевтики внутренних болезней»*

Каттаханова Р.Ю.

Актуальность. Пневмония остается одним из ведущих заболеваний с высокой смертностью. Ведь, несмотря на весь прогресс медицины, пневмония остается опасным заболеванием, входящим в первую десятку болезней, приводящих к смерти больных даже в самых развитых странах. Смертность от пневмонии довольно высокая - 8-9%. Последняя статистика показала, что в условиях пандемии количество случаев диагностирования пневмонии значительно возросло.

Для коронавирусной инфекции типично развитие вирусной атипичной пневмонии, которая может развиваться как практически сразу же после заражения.

Цель исследования. Изучить клинические особенности течения пневмонии при COVID-19, выявить характерные патогенетические механизмы и диагностические признаки заболевания.

Материалы и методы исследования. Проведен анализ современных отечественных и зарубежных публикаций, посвящённых клиническим проявлениям, патогенезу, диагностике и прогнозу пневмонии при COVID-19. Рассмотрены данные по рентгенологическим и компьютерно-томографическим признакам заболевания, а также публикации о течении и осложнениях.

Результаты исследования. Пневмония после коронавируса может быть первичной и вторичной. В первом случае она вызывается самим вирусом SARS-CoV-2 и, как правило, протекает атипично. Во втором случае она носит вирусно-бактериальную природу и может сочетаться с первичным воспалением легких или же выступать его поздним осложнением, то есть такая пневмония развивается уже после перенесения коронавирусной инфекции. Замечено, что бактериальная флора чаще всего присоединяется к вирусу на 4-7 день и может выступить главной причиной воспаления легких.

Характерным признаком пневмонии при коронавирусе является сочетание воспалительных процессов в лёгких с повреждением структурных дыхательных клеток - альвеол. Альвеолярная ткань поражается по типу вирусного альвеолита. Одновременно с этими процессами происходит повреждение сосудистого русла в виде васкулита и множественных тромбозов. Быстрое развитие патогенетических механизмов вызывает тяжелое масштабное поражение лёгких, чаще двустороннее. Одним из отличительных признаков пневмонии COVID-19, вызываемой коронавирусом SARS-CoV-2, является симметричное поражение легких с полисегментарными воспалительными изменениями. Коронавирусная пневмония проявляется в нарушении подачи кислорода в кровь, что приводит к масштабной полиорганной гипоксии.

Ряд вирусологов и пульмонологов формулируют иной взгляд на изменения в лёгких. Главной особенностью течения этой пневмонии является очень скудная симптоматика на фоне крайне тяжелых изменений в легочной ткани, которые можно выявить только при проведении компьютерной томографии. Можно заметить резкие изменения на компьютерной томографии на фоне полного благополучия пациента в течение пары дней. Такое поражение объясняется гемосидерозом. При этом состоянии вирус берет на себя функции гемолиза эритроцитов. Происходит отщепление ионов железа из клеток крови и их депонирование в форме гемосидерина. Железо заполняет альвеолы, строму лёгких и придаёт тканям специфический ржавый цвет. Гемосидерин объясняет смазанную клиническую картину при коронавирусной пневмонии, которая не всегда совпадает с данными, полученными на компьютерной томографии или рентгенографии. Разгар заболевания происходит в течение 24-48 часов.

Об одышке, как важнейшем симптоме пневмонии при коронавирусе, следует поговорить подробнее. Обычная бактериальная пневмония провоцирует одышку в случае, когда патологический процесс распространяется на одну или несколько легочных долей. Больные в этом случае не испытывают затруднения дыхания в состоянии покоя. Коронавирусная пневмония сопровождается выраженной одышкой, независимо от физической нагрузки. Частота дыхательных движений и пациентов достигает более 22 в минуту (норма — от 16 до 20). Своего пика одышка достигает к 6-8 дню с момента заражения.

Самый достоверный метод диагностики коронавирусной пневмонии — компьютерная томография. Метод позволяет увидеть те изменения, которые называются синдромом "матового стекла". На снимке видно, что альвеолы как бы затянuty "дымкой". Если бактериальная пневмония проявляется в виде участков уплотнения, очаговых теней, то здесь легкая "дымка" окутывает все ткани альвеол.

В 50—60% случаев пневмония, обусловленная коронавирусной инфекцией протекает в легкой форме. Осложнения возникают только у 3—10 % больных, а летальный исход наблюдается у 1—4% людей, но в старшей

возрастной группе 65+ смертность в разных странах достигает 20%. Контрольную томографию следует проводить не ранее чем через 3—6 месяцев после начала болезни. В целом вирусная пневмония при адекватном лечении длится от 2-х недель до 4-6 недель и требует в дальнейшем реабилитационных мероприятий.


Материалы и методы. Согласно условиям цели и задач исследования все пациенты были распределены на две группы: контрольная группа включала 63 больных, лечившихся в 2016-2020 годах, когда тактика в отношении некротизирующих поражений строилась по традиционной схеме; основная группа объединила 65 пациентов, наблюдавшихся в 2021-2025 годах, когда использовался разработанный нами комплексный ЛДА.

Результаты и их обсуждение. Полученные данные показали, что нарастание степени некробиоза мягких тканей сопровождается выраженным изменением цитологических характеристик мазков-отпечатков. В совокупности это формирует закономерный переход от интактной периферии к сомнительной зоне и далее к сформировавшемуся очагу некроза, что отражается в величинах ранговых коэффициентов Спирмена.

В группе основных индексов особенно выделялись четыре показателя, которые демонстрировали наиболее тесную связь с прогрессированием некробиотического процесса. ИДН имел сильный прямой коэффициент $r=0,919$ при $p < 0,001$, что отражает последовательное разрушение полиморфноядерных клеток по мере гибели тканей. ИГНА также показал выраженную линейность связи ($r=0,798$ при $p < 0,001$), что согласуется с ростом объема детрита и лизиса клеточных структур в более тяжелых зонах. Сопоставимое поведение продемонстрировал МКИ ($r=0,731$ при $p < 0,001$), указывающий на усиление дисбаланса между микробной массой и числом защитных клеток. Последний из ведущих маркеров индекс тканевой деструкции имел устойчивую положительную корреляцию ($r=0,835$ при $p < 0,001$), что подчеркивает прямую зависимость объема разрушения волокнистого каркаса от тяжести некробиоза.

Отдельного внимания требует характеристика смешанных микробных сообществ, особенно когда доля полимикробных комплексов имела один из наиболее высоких коэффициентов корреляции на уровне $r=0,827$ при $p < 0,001$. Данный показатель демонстрирует, что по мере усиления некробиоза микрофлора становится не только более агрессивной по составу, но и более синергичной, что усиливает деструктивное действие на ткани. Факультативные анаэробы демонстрировали умеренно выраженную положительную зависимость ($r=0,497$ при $p=0,003$), занимая промежуточное положение между ранними и поздними участниками инфекционного процесса.

Значения коэффициентов корреляции для ИДН отражали наиболее выраженную связь данного показателя с экспресс-микробиологическими характеристиками раневой поверхности. Установлены высокие положительные коэффициенты для грам (-) палочек ($r=0,742$ при $p < 0,001$) и для отношения грам (-) / грам (+) ($r=0,771$ при $p < 0,001$), что показывает устойчивую ассоциацию между ростом разрушения нейтрофильного пула и смещением флоры в сторону агрессивных грам (-) форм. Еще более

выраженной была связь ИДН с облигатными анаэробами ($r=0,904$ при $p < 0,001$), а также с долей полимикробных комплексов ($r=0,789$ при $p < 0,001$) и соотношением анаэробы/аэробы ($r=0,758$ при $p < 0,001$). ИГНА демонстрировал аналогичный профиль, когда коэффициенты составляли $r=0,703$ для грам (-) палочек, $r=0,863$ для облигатных анаэробов, $r=0,941$ для грам (-) / грам (+), $r=0,722$ для анаэробы/аэробы и $r=0,755$ для полимикробных комплексов при уровне значимости $p < 0,001$ для всех зависимостей.

МКИ демонстрировал один из наиболее выразительных наборов корреляционных значений среди всех цитологических показателей. Ассоциации с грам (-) палочками составляли $r=0,768$ при $p < 0,001$, с облигатными анаэробами $r=0,923$ при $p < 0,001$, с соотношением грам (-) / грам (+) $r=0,791$ при $p < 0,001$ и с анаэробы/аэробы $r=0,979$ при $p < 0,001$. Корреляция с полимикробными комплексами достигала $r=0,812$ при $p < 0,001$. ИТД показывал еще более выраженные связи, а именно, $r=0,881$ с грам (-) палочками, $r=0,946$ с облигатными анаэробами, $r=0,804$ для грам (-) / грам (+), $r=0,793$ для анаэробы/аэробы и $r=0,838$ для полимикробных комплексов при уровне значимости $p < 0,001$ в каждой комбинации. Такой профиль показывает, что МКИ и ИТД наиболее чувствительны к микробным сдвигам, связанным с тяжелым вариантом течения некробиозом.

Таким образом, сопоставление цитологических характеристик с микробиологическими параметрами позволило выделить устойчивую систему взаимосвязей, отражающую прогрессирование некробиоза от ранних изменений к фазе выраженного разрушения тканей. Нарастание доли грам (-) палочек и облигатных анаэробов сопровождалось последовательным смещением цитологического профиля в сторону увеличения деструктивных форм нейтрофилов, усиления гнойно-некротического распада, роста микробно-клеточного дисбаланса и утраты структурной целостности тканевого матрикса. Подобная конфигурация подчеркивает, что степень некробиоза формируется под одновременным влиянием микробной агрессии и локального клеточного ответа, и каждый из четырех выделенных индексов отражает отдельный элемент этого процесса. Совокупность выявленных закономерностей создает достаточную основу для перехода к следующему этапу, где требуется формализовать полученные признаки в виде интегральной шкалы, способной количественно оценивать степень некробиоза и служить инструментом для раннего прогнозирования динамики раневого процесса.

ВЫВОДЫ :

1. Наивысшую диагностическую ценность показала интеллектуальная система «ПИН-СД-АІ», у которой АУС достигла 0,96 при ДИ: 0,93-0,99. Чувствительность составила 92,3%, специфичность 90,1%, прогностическая ценность положительного результата 89,5%, а отрицательного - 93,7%. Пороговое значение 0,65 обеспечило общую точность 91,5%.

ФАРМАКОРЕЗИСТЕНТНАЯ ЭПИЛЕПСИЯ У ДЕТЕЙ

Алиев Мансур Абдухаликович

Заведующий кафедрой нейрохирургии

Ризакулова Рушана Рустамовна

студентка Самаркандского государственного медицинского

университета Педиатрический факультет 229-группа

Аннотация: Фармакорезистентная эпилепсия (ФРЭ) у детей представляет значительную проблему современной медицины. Она определяется как состояние, при котором два правильно подобранных противоэпилептических препарата не обеспечивают контроль приступов.

Ключевые слова: Фармакорезистентная эпилепсия, эпилепсия у детей, противоэпилептические препараты.

Введение: Лекарственно-устойчивая эпилепсия (DRE) определяется Международной лигой по борьбе с эпилепсией (ILAE) как неудавшаяся реакция эпилепсии на два адекватно дозированных противоэпилептических средства (1). Из 50 миллионов человек с эпилепсией во всем мире треть неадекватно контролируются с помощью лекарств (2).

Материалы и методы: Анализ проводился на основе статей, опубликованных в научных журналах, а также клинических отчетов по использованию различных методов диагностики и лечения ФРЭ. В рамках исследования использовались следующие методы:

1. Клинический анализ — изучались данные о пациентах с диагнозом фармакорезистентная эпилепсия, включая возраст, тип эпилепсии, генетический фон, сопутствующие заболевания и историю лечения.

2. Нейровизуализация — применялись методы магнитно-резонансной томографии (МРТ) и компьютерной томографии (КТ) для выявления структурных изменений головного мозга, которые могли бы быть причиной развития ФРЭ.

Результаты и их обсуждение:

1. Хирургическое лечение оказалось наиболее эффективным при фокальных формах эпилепсии, обеспечив значительное улучшение в 70–80% случаев. Это подчеркивает важность раннего выявления эпилептогенных очагов для оперативного вмешательства.

2. Кетогенная диета продемонстрировала положительные результаты в снижении частоты приступов у 50–60% детей, у которых медикаментозное лечение не давало эффекта. Этот подход подтверждает важность альтернативных методов в лечении ФРЭ.

3. Нейромодуляция, включая стимуляцию блуждающего нерва (VNS), показала снижение частоты приступов на 40–50% у детей с генерализованными формами эпилепсии, что делает её перспективным методом терапии.

Заключение: Фармакорезистентная эпилепсия у детей является сложной и многогранной проблемой, требующей индивидуализированного подхода в диагностике и лечении. Современные методы, такие как нейровизуализация, генетическое тестирование, кетогенная диета, нейромодуляция и хирургическое вмешательство, показывают обнадеживающие результаты и могут значительно улучшить качество жизни пациентов.

ОСОБЕННОСТИ ПОВЕРХНОСТНОГО КРОВΟΣНАБЖЕНИЯ СОСКОВО-АРЕОЛЯРНОГО КОМПЛЕКСА ПРИ ГИПЕРТРОФИИ МОЛОЧНЫХ ЖЕЛЕЗ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ ДЛЯ ВЫБОРА ТАКТИКИ РЕДУКЦИОННОЙ МАММОПЛАСТИКИ

Кадырова Зиёдахон Авазбек кизи - студент EMU University, Ташкент, Узбекистан

Научный руководитель- соискатель, пластический хирург Андижанский государственный медицинский институт Кизюн Я.В., Андижан, Узбекистан

Актуальность. Одним из наиболее сложных аспектов редукционной маммопластики является обеспечение надежной васкуляризации сосково-ареолярного комплекса (САК) после перемещения тканей. Гипертрофия молочных желез, особенно III степени, сопровождается перестройкой сосудистой архитектоники, что делает стандартные анатомические ориентиры ненадежными и повышает риск послеоперационных ишемических осложнений. Несмотря на развитие методов предоперационной диагностики, вопрос выбора оптимального способа визуализации кровоснабжения САК при выраженной гипертрофии остается дискуссионным. Существующие данные демонстрируют, что частота повторных операций (до 16% в группах с УЗИ-навигацией) и риск тотального некроза САК остаются клинически значимыми.

Цель исследования. Гипертрофия молочных желез сопровождается стойкими соматическими и психоэмоциональными нарушениями. Среди обследованных пациенток болевой синдром в шейно-грудном отделе позвоночника зарегистрирован у 92%, неудовлетворенность внешним видом молочных желез - у 84%. При значительной гипертрофии возрастает риск нарушения кровоснабжения сосково-ареолярного комплекса, что определяет клиническую значимость предоперационной оценки сосудистого русла.

Материалы и методы. В проспективное сравнительное исследование включены 50 женщин в возрасте от 25 до 55 лет (медиана 33 [28;40] года), прооперированных в период 2023-2025 гг. Умеренная гипертрофия молочных желез (II степень по классификации V. Sacchini) диагностирована у 21 пациентки (42%), значительная гипертрофия (III степень) - у 29 пациенток (58%). Значений менее 9 см при антропометрической оценке не выявлено ни в одном случае. Пациентки распределены на две группы: в первой группе (n=25) предоперационное картирование сосудов выполнялось методом магнитно-

резонансной томографии с контрастным усилением, во второй группе (n=25) - методом ультразвуковой доплерографии. Оценивали локализацию питающих сосудов, их глубину и участие в кровоснабжении сосково-ареолярного комплекса. Степень гипертрофии сопоставляли с частотой ишемических осложнений и необходимостью повторной редуционной маммопластики.

Результаты и их обсуждение. По данным магнитно-резонансной томографии доминирующий источник кровоснабжения сосково-ареолярного комплекса был визуализирован в 94% случаев. При ультразвуковой доплерографии у пациенток с III степенью гипертрофии достоверная визуализация глубоко расположенных перфорантов была затруднена. В 94% операций использована медиальная дермогландулярная ножка, верхняя ножка применена у 4% пациенток, комбинированная - у 2%. Повторная редуционная маммопластика потребовалась у 2 пациенток первой группы (8%) и у 4 пациенток второй группы (16%). Однофакторный анализ показал статистически значимую ассоциацию степени гипертрофии с риском повторной операции: для II степени $p=0,032$, для III степени $p=0,023$. В многофакторной модели степень гипертрофии сохранила независимую значимость ($p=0,034$ и $p=0,014$ соответственно). Тотальный некроз сосково-ареолярного комплекса зарегистрирован исключительно при III степени гипертрофии. Относительный риск инфицирования послеоперационной раны во второй группе составил 1,5. По данным опросника BREAST-Q через 6 месяцев после операции отмечено повышение удовлетворенности формой молочных желез и снижение выраженности болевого синдрома вне зависимости от объема резецированной ткани.

Выводы. Поверхностное кровоснабжение сосково-ареолярного комплекса при гипертрофии молочных желез характеризуется выраженной вариабельностью. Магнитно-резонансная томография с контрастным усилением обеспечивает более точное предоперационное картирование сосудов по сравнению с ультразвуковой доплерографией, особенно при III степени гипертрофии. Степень гипертрофии является независимым предиктором риска повторной редуционной маммопластики и ишемических осложнений.

ПРИМЕНЕНИЕ ЖИРОВОЙ АУТОТРАНСПЛАНТАЦИИ И КЛЕТОЧНО-АССИСТИРОВАННОГО ЛИПОТРАНСФЕРА В КОРРЕКЦИИ ДЕФОРМАЦИЙ МЯГКИХ ТКАНЕЙ ЛИЦА

*Кадырова Зиёдахон Авазбек кизи - студент EMU University, Ташкент,
Узбекистан*

*Научный руководитель- соискатель, пластический хирург Андижанский
государственный медицинский институт Х.Ю Мохамед, Андижан,
Узбекистан*

Актуальность. Восстановление объема и контуров мягких тканей лица при посттравматических, послеоперационных и инволютивных изменениях является важной медицинской и социальной проблемой. Жировая аутотрансплантация широко применяется для решения этих задач более 100 лет, демонстрируя высокий профиль безопасности и отсутствие иммунных реакций. Тем не менее, вариабельность приживаемости трансплантата (от 20% до 90% резорбции) стимулирует поиск методов, повышающих предсказуемость результата. Перспективным направлением является клеточно-ассистированный липотрансфер (КАЛ) с использованием стромально-васкулярной фракции, который, по предварительным данным, увеличивает жизнеспособность жира на 35%. Однако эффективность КАЛ в сравнении со стандартной методикой требует дальнейшего изучения, что обосновывает актуальность данного исследования, выполненного на 60 пациентах.

Цель исследования. Деформации мягких тканей лица включают локальную атрофию, асимметрию, западение в области скулы, виска, лобно-орбитальной зоны и носослезной борозды. Такие изменения регистрируются при посттравматических состояниях, после нейрохирургических вмешательств и в процессе возрастной инволюции. В клинических сериях описано, что даже снижение объема мягких тканей менее чем на 5-7 мл приводит к визуальной значимой асимметрии средней трети лица. Жировая аутотрансплантация применяется в клинической практике более 100 лет. Исторически метод характеризуется биосовместимостью, отсутствием иммунологических реакций и возможностью повторного применения. В клинических сериях указано, что средняя сохранность объема при стандартном липотрансфере варьирует от 41,6% до 63% в сроки 6-12 месяцев, при этом общий уровень осложнений не превышает 2,3%. Основным ограничением метода остается вариабельная резорбция трансплантата, достигающая 20-90% по данным разных авторов. В связи с этим в клиническую практику внедрены технологии клеточно-ассистированного липотрансфера, основанные на использовании стромально-васкулярной фракции и адипозно-деривированных стволовых клеток.

Материалы и методы. В исследование включены 60 пациентов, прооперированных в 2024-2025 гг. по поводу мягкотканых дефектов и асимметрий краниофациальной области. Возраст пациентов составил от 24 до 67 лет. Продолжительность существования дефекта превышала 6 месяцев во всех случаях. Забор жировой ткани выполняли из нижнего отдела передней брюшной стенки. В донорскую зону вводили 100-200 мл раствора Кляйна. Аспирацию осуществляли вручную с использованием 10-мл шприцев. Средний объем забранного липоаспирата составлял 30-50 мл. Обработка жира проводилась методом декантации в течение 10-15 минут с последующим удалением инфильтрационного раствора. Для гомогенизации трансплантата выполняли многократное перекачивание между шприцами. Введение жира

осуществляли ретроградно, малыми порциями, по нескольким уровням мягких тканей с использованием тупоконечных канюль. В ряде клинических случаев применяли клеточно-ассистированный липотрансфер с добавлением стромально-васкулярной фракции, выделенной из части липоаспирата. Согласно данным экспериментальных и клинических исследований, использование СВФ увеличивает жизнеспособность трансплантата на 35% по сравнению с традиционным липотрансфером.

Результаты и их обсуждение. Все вмешательства выполнены в амбулаторных условиях. Средняя продолжительность процедуры составила 30-40 минут. Интраоперационных осложнений не зарегистрировано. Через 6 месяцев после операции восстановление объема мягких тканей отмечено у большинства пациентов. В клинических наблюдениях с использованием стандартного липотрансфера сохранность объема составила в среднем 41-60%. При применении клеточно-ассистированного липотрансфера удержание объема достигало 88% через 6 месяцев, что подтверждено в исследованиях у пациентов с краниофациальной микросомией. В серии из 20 пациентов, сравнивающих КАЛ и традиционный липотрансфер, более высокая удовлетворенность результатом отмечена в группе КАЛ в первые 6 месяцев наблюдения. Через 18 месяцев различия по объему нивелировались, однако в группе стандартного липотрансфера чаще требовались повторные процедуры. Общий уровень осложнений не превышал 2%. Зафиксированы единичные случаи частичной резорбции и гипокоррекции. Случаи тотального жирового некроза и инфекционных осложнений не зарегистрированы.

Выводы. Жировая аутоотрансплантация является безопасным и эффективным методом коррекции мягкотканых деформаций лица при уровне осложнений менее 2%. Клеточно-ассистированный липотрансфер обеспечивает более высокую сохранность объема трансплантата и улучшение качества тканей в ранние сроки наблюдения. Отсутствие унифицированных протоколов и ограниченная доказательная база требуют проведения рандомизированных клинических исследований для стандартизации метода.

BOLALAR JARROHLIK BO‘LIMIDA MIKROBIOLOGIK MUAMMOLAR

*Mamatkulov Abdusalom Saydulla o‘g‘li¹, Rasulova Muxsina Roziqovna²,
Shayqulov Hamza Shodievich³*

¹Samarqand Zarmed Universiteti talabasi. Samarqand O‘zbekiston.

*²PhD, Zarmed universiteti klinik fanlar kafedrasi dotsenti (ilmiy rahbar)
Samarqand O‘zbekiston.*

*³ Zarmed universiteti Biologiya, va mikrobiologiya kafedrasi mudiri (ilmiy
rahbar) Samarqand O‘zbekiston.*

Dolzarliligi: Bolalar jarrohlik bo'limlarida yiringli-septik asoratlar va nozokomial infeksiyalar zamonaviy pediatrik jarrohlikning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. So'nggi yillarda antibiotiklarga chidamli mikroorganizmlar ulushining ortishi davolash samaradorligini pasaytirib, kasalxonada yotish muddatining uzayishi, qayta operatsiyalar sonining ko'payishi hamda davolash xarajatlarining oshishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, bolalar organizmining immun tizimi to'liq shakllanmaganligi, invaziv muolajalar va keng spektrli antibiotiklarning nazoratsiz qo'llanilishi mikrobiologik muvozanatning buzilishiga sabab bo'lmoqda. Bolalar jarrohlik bo'limlarida grammanfiy flora ustunligi va ko'p dori vositalariga rezistent shtammlar shakllanishi infeksiyon jarayonlarni murakkablashtiradi. Antibiotikrezistentlikning oshishi empirik davolash samaradorligini pasaytirib, individual yondashuvni talab etadi. Shu bois mikroorganizmlarning turlar tarkibini, ularning antibiotiklarga sezgirlik profilini muntazam monitoring qilish va ratsional antibakterial terapiya strategiyasini ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur muammoni o'rganish bolalar jarrohlik amaliyotida infeksiyon asoratlarni kamaytirish, davolash samaradorligini oshirish va antibiotikrezistentlikning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi: Bolalar jarrohlik bo'limida ajratilgan mikroorganizmlarning turlar tarkibini aniqlash, ularning antibiotiklarga sezgirlik va rezistentlik darajasini baholash hamda yiringli-septik asoratlar rivojlanishidagi rolini tahlil qilishdan iborat.

Materiallar va tadqiqot usullari: Tadqiqot bolalar jarrohlik bo'limida statsionar davolanayotgan bemorlar o'rtasida o'tkazildi. Yiringli-septik asoratlar bilan kechgan klinik holatlardan biologik materiallar (yara ajralmasi, qon, siydik va boshqa namuna) olindi. Namunalar standart mikrobiologik usullar asosida ozuqa muhitlariga ekilib, 37°C da inkubatsiya qilindi. Ajratilgan mikroorganizmlar morfologik, biokimyoviy va identifikatsion testlar yordamida aniqlanib, ularning antibiotiklarga sezgirliги disk-diffuziya usuli orqali baholandi. Olingan natijalar statistik jihatdan qayta ishlanib, mikroflora tarkibi hamda antibiotikrezistentlik ko'rsatkichlari tahlil qilindi ($p < 0,05$ ishonchlilik darajasida).

Natijalar va ularning muhokamasi: Mikrobiologik tekshiruv natijalari bolalar jarrohlik bo'limida yiringli-septik asoratlar etiologiyasida grammanfiy mikroorganizmlar ustunlik qilishini ko'rsatdi. Eng ko'p ajratilgan patogenlar qatorida *Escherichia coli*, *Klebsiella pneumoniae* va *Pseudomonas aeruginosa* yetakchi o'rinni egalladi. Grammusbat flora ichida esa *Staphylococcus aureus* muhim etiologik ahamiyatga ega ekani aniqlandi. Antibiotik sezgirlik profili ko'p dori vositalariga rezistent shtammlar ulushining yuqoriligini namoyon etdi. Ayniqsa, beta-laktam guruhidagi antibiotiklarga nisbatan rezistentlik tez-tez qayd etildi, bu esa empirik terapiya samaradorligini pasaytirishi mumkinligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ayrim keng ta'sir doirasiga ega preparatlar saqlanib qolgan sezgirlikni ko'rsatdi. Mazkur natijalar bolalar jarrohlik bo'limlarida nozokomial infeksiyalar va antibiotikrezistentlik muammosining dolzarbligini tasdiqlaydi hamda individual yondashuv asosida ratsional antibakterial terapiyani tanlash zarurligini asoslaydi.

Xulosa: Bolalar jarrohlik bo‘limida yiringli-septik asoratlar etiologiyasida grammanfiy mikroorganizmlar ustunlik qilishi hamda ko‘p dori vositalariga rezistent shtammlar ulushining yuqoriligi aniqlandi. Bu holat empirik antibakterial terapiyaning samaradorligini pasaytirishi, davolash muddatining uzayishi va asoratlar xavfining oshishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, keng spektrli antibiotiklardan nazoratsiz foydalanish rezistent shtammlarning shakllanishi va nozokomial infeksiyalar tarqalishiga zamin yaratadi. Antibiotikrezistentlikning keng tarqalishi ratsional antibakterial terapiyani tanlashda mikrobiologik monitoringni majburiy tarzda qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi. Har bir klinik holatda ajratilgan patogenning turlar tarkibi va sezgirlik profilini aniqlash individual davolash taktikasini tanlash imkonini beradi. Mikroflora tarkibi va antibiotiklarga sezgirlikni muntazam ravishda tahlil qilish nafaqat davolash samaradorligini oshiradi, balki nozokomial infeksiyalarni kamaytirish, antibiotiklardan oqilona foydalanish va rezistentlikning oldini olishda muhim profilaktik ahamiyat kasb etadi.

SUBARAXNOIDAL QON KETISHDA ANEVRIZMA YORILISHIDA CLIPPING VA COILING USULLARINING ZAMONAVIY KLINIK AHAMIYATI

*Choriyev Akabur Anvarovich – Osiyo xalqaro universiteti 4-bosqich talabasi
Klinik fanlar kafedrasida Osiyo xalqaro universiteti, Buxoro O‘zbekiston
Ilmiy rahbar – Klinik fanlar kafedrasida o‘qituvchisi PhD X.N Hamroyev*

Dolzarbliigi: Mikroxirurgik clipping usuli ko‘p yillar davomida anevrizma davolashning “oltin standarti” sifatida qo‘llanib kelgan bo‘lib, u anevrizma bo‘yinchasiga maxsus klip qo‘yish orqali uning qon aylanishidan to‘liq ajratilishini ta’minlaydi. Endovaskulyar coiling usuli esa kam invaziv bo‘lib, kateter yordamida anevrizma bo‘shlig‘iga spiral (coil) joylashtirish orqali tromboz hosil qilinadi va anevrizma qon oqimidan izolyatsiya qilinadi. Zamonaviy neyroxirurgiyada bu ikki usulning qaysi biri ma’lum klinik vaziyatlarda samaraliroq ekanligini aniqlash dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ko‘plab xalqaro klinik tadqiqotlar clipping va coiling usullarining samaradorligi, xavfsizligi, qayta qon ketish xavfi hamda uzoq muddatli nevrologik natijalarini taqqoslashga bag‘ishlangan. Shunga qaramay, bemorning yoshi, anevrizmaning joylashuvi, o‘lchami, morfologik xususiyatlari va umumiy klinik holati kabi omillar davolash taktikasini tanlashda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli subaraxnoid qon ketishda anevrizma yorilishida clipping va coiling usullarining zamonaviy klinik ahamiyatini o‘rganish hamda ularning qo‘llash ko‘rsatmalarini aniqlashtirish ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi: Anevrizma yorilishi natijasida yuzaga kelgan subaraxnoid qon ketishda qo‘llaniladigan mikroxirurgik clipping va endovaskulyar coiling usullarining klinik samaradorligi, xavfsizligi va uzoq muddatli natijalarini kompleks

tahlil qilish hamda bemorlarning individual klinik va morfologik xususiyatlarini inobatga olgan holda optimal davolash taktikasini tanlash mezonlarini aniqlashdan iborat. Shuningdek, tadqiqotning maqsadi ushbu jarrohlik usullarining erta va kech asoratlari, qayta qon ketish xavfi, nevrologik funksiyalarning tiklanish darajasi hamda bemorlarning hayot sifati ko'rsatkichlariga ta'sirini o'rganish orqali subaraxnoid qon ketishda zamonaviy neyroxirurgik yondashuvlarning klinik ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Materiallar va usullar: Mazkur tadqiqot retrospektiv va qisman prospektiv klinik tahlil asosida olib borildi. Tadqiqotga anevrizma yorilishi natijasida rivojlangan subaraxnoid qon ketish bilan statsionar sharoitda davolangan bemorlar kiritildi. Bemorlar klinik, neyroimaging va jarrohlik ma'lumotlari asosida kompleks o'rganildi. Tadqiqot materialini miya arteriyalari anevrizmasi yorilishi natijasida yuzaga kelgan subaraxnoid qon ketish tashxisi bilan davolangan bemorlarning klinik kuzatuvlari tashkil etdi. Barcha bemorlarda tashxisni tasdiqlash va anevrizmaning lokalizatsiyasi hamda morfologik xususiyatlarini aniqlash maqsadida neyroimaging tekshiruvlari o'tkazildi. Bunda bosh miya kompyuter tomografiyasi, KT-angiografiya hamda zarur hollarda raqamli subtraksion angiografiya qo'llanildi. Tadqiqot doirasida bemorlar qo'llanilgan jarrohlik usuliga qarab ikki guruhga ajratildi: birinchi guruhda mikroxirurgik clipping usuli yordamida anevrizma qon aylanishidan chiqarib tashlangan bemorlar, ikkinchi guruhda esa endovaskulyar coiling usuli qo'llanilgan bemorlar kiritildi. Bemorlarning klinik holati jarrohlikdan oldin va keyin nevrologik status asosida baholandi. Subaraxnoid qon ketishning og'irlik darajasi klinik shkalalar asosida baholandi. Shuningdek, operatsiyadan keyingi davrda yuzaga kelgan asoratlar, qayta qon ketish holatlari, nevrologik tiklanish darajasi hamda davolash samaradorligi tahlil qilindi.

Natijalar va ularning muhokamasi: Tadqiqot davomida anevrizma yorilishi natijasida rivojlangan subaraxnoid qon ketish bilan davolangan bemorlarning klinik holati, diagnostik ko'rsatkichlari hamda qo'llanilgan jarrohlik usullarining natijalari tahlil qilindi. Bemorlarning aksariyatida anevrizma oldingi miya qon aylanish tizimi arteriyalarida joylashganligi aniqlandi. Klinik kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, anevrizma yorilishi bilan kechgan subaraxnoid qon ketish ko'pincha keskin bosh og'rig'i, ko'ngil aynishi, qusish, meningeal simptomlar hamda turli darajadagi nevrologik nuqsonlar bilan namoyon bo'lgan. Mikroxirurgik clipping usuli qo'llanilgan bemorlarda anevrizmaning qon aylanishidan to'liq chiqarib tashlanishi yuqori darajada kuzatildi. Ushbu usul anevrizma bo'yinchasi aniq shakllangan va jarrohlik yo'li bilan yetib borish qulay bo'lgan hollarda samarali natija bergan. Shu bilan birga, operatsiyaning invazivligi yuqoriroq bo'lishi sababli ayrim bemorlarda operatsiyadan keyingi davrda miya shishi yoki nevrologik asoratlar kuzatilishi mumkinligi qayd etildi. Endovaskulyar coiling usuli qo'llanilgan bemorlarda esa operatsion travmaning nisbatan kamligi, jarrohlik aralashuvning minimal invazivligi hamda erta rehabilitatsiya imkoniyatlari kuzatildi. Ayniqsa, chuqur joylashgan yoki murakkab anatomik tuzilishga ega anevrizmalarda ushbu usul samarali bo'lib, operatsion xavfni kamaytirishga yordam berdi. Biroq ayrim holatlarda anevrizma bo'shlig'ining to'liq obliteratsiyasi kuzatilmaslgi yoki vaqt o'tishi bilan

rekannalizatsiya ehtimoli mavjudligi aniqlangan. Natijalarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, har ikkala usul ham subaraknoid qon ketishda anevrizmani qon aylanishidan chiqarib tashlashda samarali hisoblanadi. Davolash usulini tanlashda anevrizmaning lokalizatsiyasi, o'lchami, morfologik tuzilishi, bemorning yoshi hamda umumiy klinik holati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli zamonaviy neyroxirurgiyada individual yondashuv asosida optimal davolash taktikasini tanlash eng samarali strategiya hisoblanadi.

Xulosa: Anevrizma yorilishi natijasida yuzaga kelgan subaraxnoid qon ketishda clipping va coiling usullari anevrizmani qon aylanishidan chiqarib tashlashning samarali zamonaviy usullari hisoblanadi. Clipping anevrizmaning to'liq va barqaror obliteratsiyasini ta'minlasa, coiling minimal invazivligi va operatsion xavfning nisbatan kamligi bilan ajralib turadi.

O'TKIR APPENDITSITNI JARROHLIK YO'LI BILAN DAVOLASH SAMARADORLIGI

(Respublika klinik shifoxonasi ma'lumotlari asosida)

Saydivaliyev Nodirxon Nuriddinxon o'g'li

EMU University, Davolash fakulteti, 3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar – katta o'qituvchi Kamilova Jamilaxon EMU University

Dolzarbligi. O'tkir appenditsit qorin bo'shlig'i a'zolari orasida eng ko'p uchraydigan jarrohlik kasalliklaridan biri hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, qorin bo'shlig'i jarrohlik kasalliklari orasida o'tkir appenditsit yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Ushbu kasallik ko'pincha yosh va o'rta yoshdagi bemorlarda uchraydi. O'z vaqtida tashxis qo'yilmasa va jarrohlik aralashuvi kechiktirilsa, kasallik og'ir asoratlar – peritonit, appendikulyar infiltrat yoki abscess rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

So'nggi yillarda tibbiyotda diagnostika va jarrohlik usullarining rivojlanishi o'tkir appenditsitni davolash samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shunga qaramasdan, ushbu kasallikni erta aniqlash hamda bemorlarga o'z vaqtida jarrohlik yordam ko'rsatish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Shu sababli o'tkir appenditsitni jarrohlik yo'li bilan davolash natijalarini o'rganish va ularning samaradorligini baholash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi. Respublika klinik shifoxonasida o'tkir appenditsit tashxisi bilan davolangan bemorlar misolida jarrohlik davolash samaradorligini tahlil qilish.

Materiallar va tadqiqot usullari. Tadqiqot Respublika klinik shifoxonasining jarrohlik bo'limida olib borildi. 2023–2024-yillar davomida o'tkir appenditsit tashxisi bilan davolangan 94 nafar bemorning klinik ma'lumotlari retrospektiv tarzda tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida bemorlarning yoshi, jinsiy tarkibi, kasallikning klinik belgilari, qo'llanilgan jarrohlik usullari hamda operatsiyadan keyingi davr o'rganildi. Barcha bemorlarga standart appendektomiya amaliyoti o'tkazildi. Ayrim holatlarda zamonaviy diagnostika usullari, jumladan ultratovush tekshiruvi qo'llanildi.

Olingan natijalar statistik usullar yordamida tahlil qilindi va ularning klinik ahamiyati baholandi.

Natijalar va ularning muhokamasi.Tahlil natijalariga ko'ra bemorlarning 58 nafari (61,7 %) erkaklar, 36 nafari (38,3 %) ayollarni tashkil etdi. Bemorlarning asosiy qismi 18–35 yosh oralig'ida bo'lganligi aniqlandi.

Kasallikning asosiy klinik belgilariga o'ng yonbosh sohasida og'riq, tana haroratining ko'tarilishi, ko'ngil aynishi va umumiy holsizlik kiradi. Bemorlarning aksariyatida kasallik dastlabki 24 soat ichida aniqlangan.

Operatsiyadan keyingi davrda bemorlarning ko'pchiligida asoratlarni kuzatilmadi. Faqat ayrim bemorlarda operatsion yara sohasida yengil yallig'lanish jarayonlari qayd etildi, bu esa umumiy holatga jiddiy ta'sir ko'rsatmadi. Bemorlarning o'rtacha stasionarda qolish muddati 4–6 kuni tashkil etdi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, o'tkir appenditsitni o'z vaqtida tashxislash va jarrohlik aralashuvi amalga oshirish bemorlarning tezroq sog'ayishiga hamda og'ir asoratlarning oldini olishga yordam beradi.

Xulosa.O'tkir appenditsit qorin bo'shlig'i jarrohligida eng ko'p uchraydigan kasalliklardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, kasallikni o'z vaqtida aniqlash va jarrohlik yo'li bilan davolash yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi.

Erta tashxis va o'z vaqtida o'tkazilgan jarrohlik amaliyoti operatsiyadan keyingi asoratlarni kamaytiradi hamda bemorlarning tezroq sog'ayishiga xizmat qiladi.

KATTA VA KORALLSIMON BUYRAK TOSHLARINI DAVOLASHDA ZAMONAVIY ENDOSKOPIK USULLARNING AHAMIYATI

Halimov Nozimjon Namoz o'gli

**Buxoro davlat tibbiyot instituti, Fakultet va gospital xirurgiya, urologiya
kafedrasi magistri**

Ilmiy rahbar – kafedra dotsenti. PhD S.I. Azimov

Dolzarbli. Siydik-tosh kasalligi urologik kasalliklar orasida keng tarqalgan patologiyalardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda buyraklarning katta va korallsimon toshlari bilan kasallanish ko'rsatkichlari ortib bormoqda. Bunday toshlar ko'pincha buyrak funksiyasining buzilishi, infeksiyon asoratlarni hamda og'ir klinik kechish bilan namoyon bo'ladi. Shu sababli ushbu patologiyani davolashda kam invaziv va samarali jarrohlik usullarini qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot maqsadi. Buyraklarning katta va korallsimon toshlari bo'lgan bemorlarda zamonaviy endoskopik jarrohlik usullarini qo'llash orqali davolash natijalarini yaxshilash.

Materiallar va tadqiqot usullari. Tadqiqot davomida buyraklarning katta va korallsimon toshlari bilan og'ir bemorlarni kuzatildi. Bemorlarni davolashda perkutan nefrolitotripsiya usuli qo'llanildi. Operatsiya vaqtida jom ichi bosimining o'zgarishi, operatsiya davomiyligi hamda operatsiyadan keyingi asoratlarni o'rganildi.

Shuningdek, jom ichi bosimning operatsiya natijalariga ta'siri baholandi. Tadqiqotda 30 (39,5%) ayol va 46 (60,5%) erkak ishtirok etdi.

Natijalar va ularning muhokamasi. O'rganilgan bemorlarning klinik xususiyatlari tahlili amalga oshirildi. 26 (34,2%) bemorda bitta yirik buyrak toshi aniqlangan bo'lsa, 13 (17,1%) bemorda 2 tadan 14 tagacha bo'lgan bir nechta toshlar qayd etildi. Yagona yoki eng katta toshning lokalizatsiyasi ko'pincha buyrak jomi bo'shlig'ida — 73,3% holatda aniqlangan. Kamroq hollarda toshlar pastki kosachalar guruhida (14,8%), yuqori kosachalar guruhida (7,6%) va o'rta kosachalar guruhida (4,1%) joylashgan. 13 (17,1%) holatda jom ichi tarqalgan, ikki yoki undan kam kosachalar guruhini qamrab olgan korallsimon toshlar (K1–K2 bosqichlari) tashxislandi. 24 (31,6%) bemorda esa pelvikalitsial tizimning umumiy yoki subtotal to'ldirilishi bilan kechuvchi korallsimon toshlar aniqlangan. Turli darajadagi buyrak funksiyasining pasayishi va jarrohlik aralashuvini talab qiladigan holatlar 48 (63,1%) bemorda qayd etildi. 22 (28,9%) bemorda klinik jihatdan ahamiyatli bakteriuriya aniqlangan. Aniqlangan mikroorganizmlar spektri tahlili natijalari tahlil qilinganda quyidagi ko'rinishdagi natijalar olindi. SYI aniqlangan bemorlar orasida eng ko'p uchragan qo'zg'atuvchi *Escherichia coli* bo'lib, u 25 (32,8%) holatda aniqlangan. Shuningdek, *Proteus mirabilis* 15 (19,7%), *Enterococcus faecalis* 34 (15,8%) va *Klebsiella pneumoniae* 11 (14,5%) bemorda qayd etilgan. Kamroq hollarda *Pseudomonas aeruginosa*, *Acinetobacter baumannii* hamda boshqa mikroorganizmlar aniqlangan. Bemorlarning eng keng tarqalgan yondosh kasalliklari arterial gipertenziya va yurak ishemik kasalliklari bo'lib, mos ravishda 40,2% va 32,1% hollarda aniqlangan. Tuzilishda qandli diabet (11,7%), surunkali obstruktiv o'pka kasalligi (5,5%), oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yara kasalligi (5,1%) hamda pastki muchalarning varikoz kasalligi (4,8%) muhim o'rin egalladi. Bemorlarning 21,4% ida boshqa kasalliklar aniqlanmadi. Olingan natijalar perkutan nefrolitotripsiya buyraklarning katta va korallsimon toshlarini davolashda samarali minimal invaziv usul ekanligini ko'rsatdi. Operatsiya vaqtida chanoq ichi bosimining ortishi infeksiya va yallig'lanish asoratlari rivojlanish xavfini oshirishi aniqlandi. Intraoperativ monitoring va zamonaviy endoskopik texnologiyalardan foydalanish esa asoratlarni kamaytirish va davolash samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Xulosa. Buyraklarning katta va korallsimon toshlarini davolashda perkutan nefrolitotripsiya samarali va kam travmatik usul hisoblanadi. Operatsiya jarayonida jom ichi bosimni nazorat qilish jarrohlik davolash natijalarini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Akilov F.A. Urolitioz kasalligini zamonaviy davolash usullari. – Toshkent: Tibbiyot nashriyoti.
2. Daudon M., Traxer O. Endoscopic management of renal stones. – European Urology.

3. Egamberdiyev D.K., Qurbonov N.P. Siydik yo‘lining yuqori qismida yirik toshlar bilan kasallangan bemorlarni minimal invaziv davolash samaradorligi (adabiyotlar sharhi). – 2025.
4. Fernström I., Johansson B. Percutaneous pyelolithotomy. – Scandinavian Journal of Urology and Nephrology.
5. Campbell M.F., Wein A.J., Kavoussi L.R. Campbell-Walsh Urology. – 12-edition. – Elsevier, 2021.
6. Lopatkin N.A. Urologiya. – Moskva: Meditsina, 1989.
7. Preminger G.M., Assimos D.G., Lingeman J.E. Management of staghorn calculi. – Urologic Clinics of North America.
8. Qambarov Z., Yakubova I. Siydik tosh kasalligi: etiologiyasi, klinikasi va davolash usullari. – Tadqiqotlar jurnali, 2025.
9. Qurbonov N.P. Siydik yo‘lining yuqori qismidagi yirik toshlar bilan kasallangan bemorlarni minimal invaziv davolash usullarining qiyosiy tavsifi. – Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi jurnali.
10. Segura J.W., Patterson D.E., LeRoy A.J. Percutaneous nephrolithotomy for staghorn calculi. – Journal of Urology.
11. Smith A.D., Badlani G.H., Preminger G.M., Kavoussi L.R. Smith’s Textbook of Endourology. – Wiley-Blackwell, 2019.
12. Türk C., Neisius A., Petrik A., Seitz C., Skolarikos A. EAU Guidelines on Urolithiasis. – European Association of Urology, 2023.
13. Türk C. et al. Guidelines on Percutaneous Nephrolithotomy in large kidney stones.
14. Xolmatov Sh., Raxmonov B. Buyrak toshlari: sabablari, klinikasi va davolash usullari. – Worldly Knowledge Conference, 2024.
15. Ziyoviddinova M.B. Buyrak kasalliklarida zamonaviy tekshirish usullari. – Лучшие интеллектуальные исследования jurnali, 2024.

SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDA PROFILAKTIKANING AHAMIYATI

Kibriyeva Ruxshonabonu Hamza qizi
Biotibbiyot fakulteti, Tibbiy profilaktika yo‘nalishi 162-guruh talabasi
Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti, Buxoro,
O‘zbekiston

Ilmiy rahbar – Tibbiy biologiya kafedrasida prof, b.f.n. O.I. Jabborova

Dolzarbli: Hozirgi kunda jahon miqyosida ham, mamlakatimizda ham aholi salomatligini saqlash va mustahkamlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy hayot tarzi, kamharakatlik, noto‘g‘ri ovqatlanish, stress holatlari hamda zararli odatlar ko‘plab kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda. Shu sababli kasalliklarni davolashdan ko‘ra ularning oldini olish, ya‘ni profilaktika chora-tadbirlarini kuchaytirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Sog'lom turmush tarzini shakllantirish aholi o'rtasida jismoniy faollikni oshirish, to'g'ri va muvozanatli ovqatlanish, shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, zararli odatlardan voz kechish hamda tibbiy ko'riklardan muntazam o'tib turishni o'z ichiga oladi. Profilaktika tadbirlari orqali yurak-qon tomir kasalliklari, qandli diabet, semirish va boshqa ko'plab surunkali kasalliklarning oldini olish mumkin.

Tadqiqot maqsadi: Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda profilaktika tadbirlarining ahamiyatini o'rganish, aholining salomatligini saqlash va mustahkamlashda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish hamda kasalliklarning oldini olishga qaratilgan profilaktik choralarni aniqlash va ularning samaradorligini yoritishdan iborat.

Materiallar va tadqiqot usullari. Mazkur tadqiqot ishida sog'lom turmush tarzini shakllantirishda profilaktikaning ahamiyatini o'rganish maqsadida turli ilmiy va amaliy manbalardan foydalanildi. Tadqiqot materiallari sifatida sog'lom turmush tarzi, kasalliklar profilaktikasi hamda aholi salomatligini mustahkamlashga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, darsliklar, ilmiy maqolalar va uslubiy qo'llanmalar o'rganildi. Shuningdek, sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan profilaktik chora-tadbirlar ham tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida bir nechta ilmiy usullardan foydalanildi. Jumladan, tahlil va sintez usuli yordamida sog'lom turmush tarzi hamda profilaktika bilan bog'liq ilmiy manbalar chuqur o'rganilib, ularning asosiy g'oyalari umumlashtirildi. Taqqoslash usuli orqali turli manbalardagi ma'lumotlar solishtirilib, ularning o'xshash va farqli jihatlari aniqlab olindi.

Bundan tashqari, sog'lom turmush tarzining aholi salomatligiga ta'sirini aniqlash maqsadida kuzatuv va so'rov usullaridan ham foydalanildi. Tadqiqot davomida olingan ma'lumotlar tizimlashtirilib, ilmiy jihatdan tahlil qilindi va umumlashtirildi. Olingan natijalar asosida sog'lom turmush tarzini shakllantirishda profilaktikaning ahamiyati yoritib berildi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Ushbu tadqiqot ishida sog'lom turmush tarzini shakllantirishda profilaktikaning ahamiyatini o'rganish maqsadida turli ilmiy manbalar va tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini sog'lom turmush tarzi, kasalliklar profilaktikasi, aholi salomatligini mustahkamlashga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, tibbiy maqolalar, darsliklar hamda ilmiy tadqiqot ishlari tashkil etdi. Shuningdek, sog'liqni saqlash tizimida profilaktika tadbirlarini amalga oshirishga oid me'yoriy hujjatlar va statistik ma'lumotlar ham tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida bir qator ilmiy usullardan foydalanildi. Jumladan, tahlil va sintez usuli yordamida sog'lom turmush tarzi va profilaktika bilan bog'liq ilmiy manbalar o'rganilib, ularning asosiy jihatlari umumlashtirildi. Taqqoslash usuli orqali turli manbalarda keltirilgan ma'lumotlar o'zaro solishtirilib, eng muhim ilmiy xulosalar ajratib olindi.

Bundan tashqari, aholining sog'lom turmush tarzi haqidagi bilim va munosabatlarini aniqlash maqsadida kuzatuv va so'rov usullaridan ham foydalanildi. So'rov natijalari orqali sog'lom ovqatlanish, jismoniy faollik,

zararli odatlardan voz kechish hamda profilaktik tibbiy ko'riklardan o'tish kabi omillarning aholi salomatligiga ta'siri o'rganildi.

Tadqiqot davomida olingan ma'lumotlar tizimlashtirilib va umumlashtirilib, sog'lom turmush tarzini shakllantirishda profilaktika tadbirlarining ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berildi. Olingan natijalar asosida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish, kasalliklarning oldini olish hamda aholi salomatligini mustahkamlashga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqildi.

Xulosa: O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sog'lom turmush tarzini shakllantirishda profilaktika tadbirlari muhim ahamiyatga ega. Kasalliklarni davolashdan ko'ra ularning oldini olish samaraliroq bo'lib, bu aholi salomatligini saqlash va mustahkamlashda katta rol o'ynaydi. To'g'ri ovqatlanish, muntazam jismoniy faollik, shaxsiy gigiyenaga rioya qilish, zararli odatlardan voz kechish hamda tibbiy ko'riklardan o'z vaqtida o'tib turish sog'lom turmush tarzining asosiy omillari hisoblanadi. Profilaktik chora-tadbirlarni keng targ'ib qilish orqali ko'plab kasalliklarning oldini olish, insonlarning hayot sifatini yaxshilash va umr davomiyligini oshirish mumkin. Shu sababli sog'lom turmush tarzini shakllantirishda profilaktika tadbirlarini yanada rivojlantirish, aholi o'rtasida tibbiy madaniyatni oshirish va sog'lom hayot tarzini targ'ib qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

SUT BEZI SARATONINING MAHALLIY FORMASIDA DAVOLASH USULLARINI OPTIMALLASHTIRISH

Muxammadiyeva Zarnigor Qudrat qizi

Umumiy onkologiya kafedrası, Buxoro davlat tibbiyot insituti

Ilmiy rahbar – Phd, Sh.D. Ro'ziyeva

Dolzarbliqi. Ko'krak bezi saratoni ayollar orasida eng ko'p uchraydigan onkologik kasalliklardan biri hisoblanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, ushbu kasallik ayollar o'rtasida saraton kasalliklari ichida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Kasallikning keng tarqalgan shakllari o'sma jarayonining mahalliy limfa tugunlari hamda uzoq a'zolarga metastaz berishi bilan tavsiflanadi. Bu esa davolash jarayonini murakkablashtiradi va bemorlarning hayot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli zamonaviy davolash usullarini qo'llash va ularni optimallashtirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi. Ko'krak bezining keng tarqalgan shakllari bilan og'rigan bemorlarda zamonaviy davolash usullarining samaradorligini o'rganish va davolash natijalarini optimallashtirish.

Materiallar va tadqiqot usullari. Tadqiqot davomida ko'krak bezi saratonining keng tarqalgan shakllari bilan davolangan 52 nafar bemorning klinik ma'lumotlari o'rganildi. Bemorlarni davolashda kompleks davolash usullari — jarrohlik aralashuvi, kimyoterapiya, gormonal terapiya va target terapiya qo'llanilgan holatlarda bemorlarning umumiy holati, o'sma hajmining o'zgarishi, davolash samaradorligi hamda yuzaga kelgan asoratlar tahlil qilindi.

Natijalar va ularning muhokamasi. O'rganilgan bemorlarning 31 nafari (59,6%) da kombinatsiyalangan davolash usullari qo'llanilgan. 21 nafar (40,4%) bemorda esa kimyoterapiya va gormonal terapiya asosiy davolash usuli sifatida qo'llanilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, kompleks davolash usullari qo'llangan bemorlarning 63,5% ida o'sma hajmining sezilarli darajada kamayishi kuzatilgan. Shuningdek, target terapiya qo'llanilgan bemorlarda kasallikning progressiyasi sekinlashgani aniqlandi. Individual yondashuv asosida tanlangan davolash strategiyasi bemorlarning umumiy yashash ko'rsatkichlarini yaxshilashga yordam bergan.

Xulosa. Ko'krak bezining keng tarqalgan shakllarini davolashda kompleks va individual yondashuv muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy davolash usullarini optimal tarzda qo'llash davolash samaradorligini oshirish va bemorlarning hayot sifatini yaxshilash imkonini beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Bray F., Ferlay J., Soerjomataram I. Global cancer statistics. – CA: A Cancer Journal for Clinicians.
2. Siegel R.L., Miller K.D., Jemal A. Cancer statistics. – CA: A Cancer Journal for Clinicians.
3. DeVita V.T., Lawrence T.S., Rosenberg S.A. Cancer: Principles and Practice of Oncology. – Lippincott Williams & Wilkins.
4. Gradishar W.J., Anderson B.O. NCCN Clinical Practice Guidelines in Oncology: Breast Cancer.
5. Harris J.R., Lippman M.E., Morrow M., Osborne C.K. Diseases of the Breast.
6. Slamon D.J. Targeted therapy in breast cancer. – Journal of Clinical Oncology.
7. Early Breast Cancer Trialists' Collaborative Group (EBCTCG). Effects of chemotherapy and hormonal therapy. – *Lancet*.
8. Cardoso F., Kyriakides S. ESMO Clinical Practice Guidelines for breast cancer.
9. Burstein H.J. Systemic therapy for advanced breast cancer. – Journal of Clinical Oncology.
10. Edge S.B., Byrd D.R. AJCC Cancer Staging Manual. – Springer

QON AYLANISH TIZIMI VA ULARDA UCHRAYDIGAN KASALIKLAR

Talaba: Omonov Muhammadrouf Asqarjon o'g'li

Ilmiy rahbar: Oqilbek Muxammadjonov Mirzoulug'bek o'g'li

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Annotatsiya: Inson organizmidagi qon aylanish tizimining tuzilishi, vazifalari va uning normal faoliyati yoritiladi. Shuningdek, yurak-qon tomir tizimida uchraydigan asosiy kasalliklar, ularning kelib chiqish sabablari, belgilari, oldini olish choralari hamda sog'lom turmush tarzining ahamiyati keng bayon qilinadi. Qon aylanish tizimi inson hayot faoliyati uchun muhim tizimlardan biri bo'lib, undagi har qanday buzilish butun organizm faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so‘zlar: Yurak, arteriya, vena, kapillyar, katta qon aylanish doirasi, kichik qon aylanish doirasi, gipertoniya, ateroskleroz, infarkt, insult, tromboz, yurak yetishmovchiligi.

Maqola maqsadi: Maqsadi-qon aylanish tizimining anatomik va fiziologik xususiyatlarini tushuntirish, yurak-qon tomir kasalliklarining kelib chiqish omillarini ochib berish hamda ularning oldini olish usullarini ilmiy asosda yoritishdan iborat

Kirish: Qon aylanish tizimi inson organizmining eng muhim tizimlaridan biri hisoblanadi. U hujayralarga kislorod va oziq moddalarni yetkazib beradi hamda modda almashinuvi natijasida hosil bo‘lgan zararli mahsulotlarni chiqarib tashlashda ishtirok etadi. Ushbu tizim yurak va qon tomirlaridan tashkil topgan. Qon aylanish tizimi yopiq tizim bo‘lib, qon tomirlar ichida harakatlanadi. Tizimning asosiy harakatlantiruvchi kuchi-yurak hisoblanadi

YURAK QON TOMIR TIZIMI FIZIOLOGIYASI: ASOSIY JARAYONLAR VA MEXANIZMLAR. Yurak qon tomir tizimi (YQTT) inson organizmida hayotiy jarayonlarni amalga oshirishda markaziy tizimlardan biridir. Ushbu tizim yurak va qon tomirlarining integratsiyalashgan faoliyatiga asoslanadi. Maqolada yurak qon tomir tizimi fiziologiyasining asosiy jarayonlari, mexanizmlari va uning organizmdagi ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. Yurakning elektr faoliyati, qon aylanishi mexanizmi, qon bosimi, yurak mushaklarining qisqarish jarayonlari, tizimning nerv-gormonal boshqaruvi o‘rganiladi. Shuningdek, tizimning patologiyalari va kasalliklar, masalan, gipertoniya, yurak xurujlari va insultlar keltiriladi. Yurak qon tomir tizimining fiziologik yondoshuvlarini yanada chuqurlashtirishga imkon beradi.

BOLALARDA QON AYLANISH TIZIMI KASALLIKLARI: ETIOLOGIYASI, KLINIK KO‘RINISHLARI, DIAGNOSTIKASI VA PROFILAKTIKASI. Bolalarda uchraydigan qon aylanish tizimi kasalliklarining etiologiyasi, patogenezi, klinik ko‘rinishlari, diagnostikasi va davolash tamoyillari chuqur tahlil qilingan. Tadqiqotda, ayniqsa, tug‘ma yurak nuqsonlari (TYuN), revmatik yurak kasalligi, miokardit, endokardit, perikardit, hamda arterial gipertenziya va yurak yetishmovchiligi kabi patologiyalar alohida o‘rganilgan. Bolalarda ushbu kasalliklarning kelib chiqishida irsiy omillar, onada homiladorlik davrida kechgan infeksiyalar, atrof-muhitning zararli ta’siri, hamda immunologik mexanizmlar muhim o‘rin tutadi.

В исследовании приняли участие 32 пациента в возрасте от 28 и 55 лет с диагнозом хронический генерализованный пародонтит I–II степени тяжести (согласно классификации, принятой American Academy of Periodontology и European Federation of Periodontology, 2017). Всего было отпрепарировано 47 зубов, подлежащих ортопедической реабилитации методом вертикального препарирования (ВОРТ). Распределение: фронтальная группа — 18 зубов, премоляры — 16 зубов, моляры — 13 зубов. Средняя глубина пародонтальных карманов до лечения составляла $4,2 \pm 0,6$ мм. После проведения пародонтологической подготовки и фиксации ортопедических конструкций через 6 месяцев наблюдалось снижение показателя до $2,6 \pm 0,4$ мм.

Результаты и их обсуждение:

Установлено, что вертикальное препарирование:

- минимизирует травматизацию твердых тканей зуба и краевой десны;

- способствуе́т формирова́нию ста́бильного деснево́го конту́ра;
- позволяе́т управлять́ положением́ края́ мягких́ тканей;
- снижае́т рисќ хроническо́го воспа́ления при́ соблюде́нии протоко́ла;
- обеспе́чивает благоприя́тные условия́ для́ сохра́нения биологическо́й шири́ны.

Формирова́ние вре́менной коро́нки играе́т ключевую́ роль в ремоделирова́нии мягких́ тканей и созда́нии оптима́льного профи́ля прорезыва́ния.

Заключе́ние:

Вертика́льное препари́рование являе́тся биологичес́ки ориентирова́нной методико́й, способствующе́й сохра́нению здоро́вья пародонта́ и формирова́нию ста́бильного деснево́го конту́ра. При междисциплина́рном подходе́ «пародонто́лог-ортопед» да́нный мето́д позволяе́т повы́сить прогно́з ортопедическо́го лече́ния и улу́чить эстетический́ резу́льтат.

SO‘LAK TOSH KASALLIGINI QAYTALANISHINI KAMAYTIRISHDA ZAMONAVIY PROFILAKTIK YONDASHUVLAR: EKOLOGIK OMILLAR VA DIETOTERAPIYA

Hamroyeva Komila Shuhratovna

Osiyo Xalqaro Universiteti, Stomatologiya kafedrasida, 2-kurs tayanch doktoranti

Ilmiy rahbar: DSc, Dotsent Jumayev Laziz Rajabovich

Dolzarbli: Sialolitiaz so‘lak bezlari va chiqaruv yo‘llarida mineral tuzlarning kristallanishi bilan kechadigan obstruktiv patologiya bo‘lib, og‘iz qurishi, ovqatlanish vaqtida og‘riq, bezlarning shishi va yallig‘lanish bilan namoyon bo‘ladi. Kasallikning rivojlanishida ichki (metabolik va sekretor disfunktsiya) hamda tashqi (ichimlik suvi minerallashuvi, gigiyena va ovqatlanish) omillar birgalikda ishtirok etadi. Shuning uchun profilaktika faqat stomatologik choralar bilan cheklanmasdan, ekologik va dietoterapevtik komponentlarni ham qamrab olishi lozim.

Tadqiqot maqsadi: Buxoro viloyati hududlari kesimida sialolitiazning uchrash darajasi va tarqalish xususiyatlarini baholash, ekologik (suv qattiqligi/minerallashuvi) va gigiyenik xavf omillarini tahlil qilish hamda so‘lak oqimini kuchaytirishga qaratilgan dietoterapiya (gidratatsiya, sialogog mahsulotlar, mexanik stimulyatsiya) bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish.

Material va metodlar: Tadqiqot retrospektiv epidemiologik tahlil asosida olib borildi. 2021–2024-yillarda Buxoro viloyati Ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi Yuz-jag‘ jarrohligi bo‘limida so‘lak bezi kasalliklari bilan davolangan 137 nafar bemorning tibbiy hujjatlari o‘rganildi; shundan 52 nafarida (37,96%) sialolitiaz aniqlanib, alohida tahlil qilindi. 2025-yilda 44 bemordan 21 nafarida (47,7%) sialolitiaz qayd etilib, ulushning oshish tendensiyasi kuzatildi. Natijalar foizli taqqoslash va qiyosiy tahlil usullari yordamida baholandi.

Natijalar va muhokama: Sialolitiaz erkaklarda 65,38%, ayollarda 34,62% hollarda uchradi. Hududiy taqsimot bo‘yicha kasallik tuman aholisi orasida 80,77%, shahar aholisi orasida 19,23% ni tashkil etdi; eng yuqori ko‘rsatkichlar G‘ijduvon (17,3%) va Vobkent (13,46%) tumanlarida qayd etildi. Bu hududlarda ichimlik suvi qattiqligi va minerallashuv darajasi yuqoriligi (Ca^{2+} , Mg^{2+} tuzlari) so‘lak bezlari chiqaruv yo‘llarida cho‘kma hosil bo‘lish xavfini oshiruvchi omil sifatida baholandi. Qo‘shimcha xavf omillari sifatida og‘iz gigiyenasiga yetarli rioya qilmaslik, chekish va kam suyuqlik iste‘moli qayd etildi.

Dietoterapiya (adabiyotlar tahlili): Konservativ profilaktikaning asosiy yo‘nalishi — so‘lak oqimini fiziologik yo‘l bilan kuchaytirish (gidratatsiya, sialogoglar, bez massaji) hisoblanadi (Ferneini, 2021; Johns Hopkins Medicine, 2023). Dehidratatsiya so‘lak ajralishini kamaytirib, so‘lakning qovushqoqligini oshirishi va duktal turg‘unlikni kuchaytirishi ta‘kidlanadi; shu bois kun davomida suyuqlikni bo‘lib-bo‘lib ichish qaytalanish xavfini pasaytiruvchi oddiy, ammo muhim chora sifatida ko‘riladi (Johns Hopkins Medicine, 2023). Nordon sialogoglar (limon tomchilari/lemon drops, sitrus mevalar) reflektor slyunogenezni rag‘batlantirib, duktal “yuvilish” effektini kuchaytiradi (Johns Hopkins Medicine, 2023). Mexanik stimulyatsiya ham ahamiyatli: sistematik sharh va meta-tahlilga ko‘ra, saqich chaynash (kuniga muntazam, kamida 2 hafta) kserostomiyali guruhlarda unstimullangan so‘lak oqimini sezilarli oshiradi (SMD = 0,44; 95% CI 0,22–0,66) (Dodds 2023). Shakarsiz, xylitol tarkibli saqichlar qo‘shimcha foyda berishi mumkin: xylitol saqich chaynash so‘lakda xylitol konsentratsiyasini oshirgani va kariogen hamda periodontal bakteriyalar ko‘rsatkichlarida pasayish kuzatilgani qayd etilgan (Campus 2020). Amaliy tavsiyalar: kuniga 1,5–2,0 litr suyuqlikni teng taqsimlab ichish; ovqatdan keyin nordon sialogoglarni (qarshi ko‘rsatmalar bo‘lmaganda) qo‘llash; ovqatdan so‘ng 5–10 daqiqa shakarsiz/xylitol saqich chaynash; shakarli gazli ichimliklar va dehidratatsiyani kuchaytiruvchi odatlarni cheklash.

Xulosa: O‘tkazilgan retrospektiv tahlil natijalari so‘lak tosh kasalligi (sialolitiaz)ning klinik-amaliy ahamiyati yuqoriligini tasdiqladi. Tadqiqot ma‘lumotlari sialolitiazning mintaqaviy tarqalishi bir xil emasligini ko‘rsatib, kasallikning ko‘proq uchrashi ekologik sharoit, ichimlik suvi minerallashuvi hamda gigiyenik va turmush tarzi omillari bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Erkaklarda uchrash ko‘rsatkichining yuqoriligi esa (demografik ustunlik) ovqatlanish odatlari, gigiyenaga e‘tibor darajasi hamda mehnat sharoitlari bilan izohlanishi mumkin. Kasallik patogenezida so‘lak oqimining sekinlashishi, sekretsiyaning kamayishi va

дуктал турғунлик sharoitida mineral komponentlarning kristallanishi yetakchi mexanizmlardan biri ekanligi inobatga olinsa, profilaktika faqat bitta yo‘nalish bilan cheklanmasligi lozim. Shuning uchun sialolitiazning birlamchi oldini olish va qaytalanish xavfini kamaytirishda kompleks yondashuv muhim: Ekologik yo‘nalish – ichimlik suvi sifatini yaxshilash, qattiq suv iste’moli yuqori hududlarda filtratsiya va minerallashuvni nazorat qilish; Gigiyenik yo‘nalish – og‘iz bo‘shlig‘i gigiyenasini kuchaytirish, yallig‘lanish o‘choqlarini bartaraf etish, chekish kabi zararli odatlarni kamaytirish; Tibbiy yo‘nalish – muntazam stomatologik ko‘riklar va xavf guruhlarini erta skrining qilish; Dietoterapevtik yo‘nalish – so‘lak sekretsiyasini fiziologik rag‘batlantirish orqali duktal “yuvilish” effektini kuchaytirish. Umuman olganda, tadqiqot natijalari sialolitiaz profilaktikasini kuchaytirishda hududiy-ekologik xususiyatlarni hisobga olgan holda kompleks profilaktik dasturlar ishlab chiqish zarurligini asoslaydi. Kelgusida suv minerallashuvi ko‘rsatkichlari, so‘lakning biokimyoviy parametrlari (pH, Ca/P muvozanati) hamda dietoterapiya elementlarining klinik samaradorligini prospektiv kuzatuvlarda baholash sialolitiazni kamaytirishga qaratilgan aniq protokollar ishlab chiqish imkonini beradi.

РЕТРОСПЕКТИВНЫЙ АНАЛИЗ ПАРАЗИТАРНЫХ ПОРАЖЕНИЙ ГЛАЗ В КАРАГАНДИНСКОЙ ОБЛАСТИ

А.Б.Шайкенова, Д.Е.Токсамбаева, А.Қ.Қайдар

НАО Медицинский университет Караганды

АКТУАЛЬНОСТЬ

Паразитоз глаз (офтальмогельминтозы) длительное время остается нозологией не имеющей официальной статистики. Из года в год число пациентов с паразитизмом глаз не имеет тенденции к снижению. [1].

В Республике Казахстан на сегодняшний день отсутствуют опубликованные эпидемиологические исследования, которые бы определяли точную популяционную частоту встречаемости паразитоза глаз или уровень заболеваемости. Анализ научной литературы показывает, что заболевание регистрируется преимущественно в виде отдельных клинических наблюдений, что свидетельствует о его спорадическом характере и крайне низкой распространённости. Отсутствие национальной статистики по Казахстану объясняется редкостью патологии и тем, что она не выделяется в официальной системе эпидемиологического мониторинга как отдельная нозологическая категория [2].

ЦЕЛЬ ИССЛЕДОВАНИЯ

Изучить частоту встречаемости и особенности клинического течения офтальмогельминтоза в Карагандинской области.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ

Проведен ретроспективный анализ 11 карт пациентов с паразитозом глаз на базе отделения микрохирургии глаз МБ им.Х.Ж.Макажанова г.Караганды в период с 2023г по 2025г. Из них 6 мужчин, 5 женщин.

Токсокароз верифицирован у 4 пациентов (36.4%), офтальмомиаз у 5 пациентов (45.5%), дирофилляриоз у 2 пациента (18.2%).

Возраст пациентов колебался от 22 до 43 лет. Максимальное количество поражений у лиц с 28 по 33 лет.

Локализация в области свода конъюнктивы и на роговице – 7 (63.6%), под кожей век 3 (27.3%), в передней камере (ПК) – 1 пациент (9.1%).

Из них 3 пациента (27.3%) были направлены другими специалистами (ЧЛХ и хирурги) и ждали пока паразит локализуется в окологлазничной области.

У 5 пациентов (45.5%) клиника проявлялась зудом, покраснением, чувством инородного тела в области глаза. У пациента с локализацией в ПК отмечалось затуманивание зрения. У 2 пациентов (18.2%) отмечалась миграция паразита подкожно в области лица, через 3-5 дней при локализации под веко – удалено.

У 4 пациентов (36.4%) было выполнено хирургическое вмешательство, у 2 пациентов (18.2%) удалено подкожно в области век, диагностирован токсокароз и дирофилляриоз соответственно, у пациента с локализацией в ПК дифференцирован дирофилляриоз. После пациентам совместно с инфекционистами назначено противопаразитарное лечение.

Результаты и обсуждения

Учитывая выраженные клинические проявления: зуд, покраснение, чувство инородного тела в глазу, пациенты своевременно обращаются к специалисту.

Также при обращении встречаются случаи глубокого поражения. В нашей клинике из данных пациентов - 1 случай обнаружения паразита в передней камере, что могло привести к воспалению радужки и цилиарного тела.

Достаточно простых методов диагностики: наружный осмотр, биомикроскопия, пальпация век для определения локализации паразита.

Также регистрируются случаи когда пациент первично обращался к другим специалистам, где было рекомендована ожидательная тактика, когда паразит локализуется в области век.

Заключение

Проведённый анализ показал, что паразитозы глаз в Карагандинской области встречаются спорадически и преимущественно поражают лиц трудоспособного возраста.

1. Наиболее частой локализацией являлась конъюнктивальная область (63,6%).

2. В большинстве случаев лечение требовало хирургического удаления паразита с последующей противопаразитарной терапией (36,4%).

3. Полученные данные подтверждают необходимость повышения настороженности врачей различных специальностей в отношении офтальмопаразитарных заболеваний.

Литература:

1. Epidemiological reviews of human myiasis and ocular involvement (данные о том, что офтальмомиаз составляет менее 5 % всех случаев миаза человека). [\[OBI\]](#)

2. Dunne T.J., Holland C.V., Taylor M.J. Ocular toxocariasis in children: prevalence data from a population study in Ireland // *Journal of Pediatric Ophthalmology and Strabismus*. — 2013. — Vol. 50(5). — P. 289–293.

3. Hanif M.K., Islam Q., Ansari U. External ophthalmomyiasis: a rare clinical entity // *Pakistan Armed Forces Medical Journal*. — 2019. — Vol. 69(2). — P. 436–439.

4. Magnaval J.F., Glickman L.T., Dorchies P., Morassin B. Highlights of human toxocariasis // *American Journal of Tropical Medicine and Hygiene*. — 2001. — Vol. 65(5). — P. 714–720.

5. Sharma K., Gupta S., Jain A. Human ophthalmomyiasis: clinical presentation and management // *International Ophthalmology*. — 2020. — Vol. 40(6). — P. 1527–1533.

6. Singh A., Rath S., Tripathy D. Ocular parasitic infections: current review and management perspectives // *Survey of Ophthalmology*. — 2021. — Vol. 66(5). — P. 812–830.

7. Zumpt F. Myiasis in man and animals in the Old World // *Butterworths*. — London, 1965. — 267 p.

SURUNKALI LARINGIT: DIAGNOSTIKASI VA YANGICHA DAVOLASH USULLARI

Hamidov Bahodir Obidjon o'g'li

Dolzarlighi. Surunkali laringit hiqildoq shilliq qavatining uzoq davom etuvchi yallig'lanish jarayoni bo'lib, otorinologiya amaliyotida keng tarqalgan kasalliklardan biri hisoblanadi. Zamonaviy tibbiyot ma'lumotlariga ko'ra, yuqori nafas yo'llarining surunkali kasalliklari tarkibida hiqildoq patologiyalari muhim o'rin egallaydi. Surunkali laringit ayniqsa ovoz apparatiga doimiy yuklama tushadigan kasb egalari – o'qituvchilar, qo'shiqchilar, aktyorlar, diktorlar hamda zararli ishlab chiqarish muhitida ishlovchi shaxslar orasida ko'p uchraydi.

Kasallikning klinik ahamiyati shundaki, u bemorlarda ovoz funksiyasining buzilishi, disfonianing rivojlanishi va mehnat qobiliyatining pasayishiga olib keladi. Bundan tashqari, hiqildoq shilliq qavatida uzoq davom etuvchi yallig'lanish jarayoni epitelial giperplaziya, displaziya, keratoz kabi morfologik o'zgarishlarga sabab bo'lishi mumkin. Ushbu o'zgarishlar ayrim hollarda hiqildoqning rak oldi holatlari sifatida qaraladi va malign transformatsiya xavfini oshiradi.

So'nggi yillarda otorinologiya sohasida diagnostika texnologiyalarining takomillashuvi, xususan videolaringoskopiya, endoskopik tekshiruvlar, stroboskopiya va morfologik tahlil usullarining keng qo'llanilishi surunkali laringitni erta aniqlash imkoniyatini kengaytirdi. Shu bilan birga, zamonaviy konservativ terapiya, inhalyatsion davolash, fizioterapevtik usullar va minimal invaziv jarrohlik usullarini qo'llash kasallikni samarali davolash imkonini bermoqda.

Shu sababli surunkali laringitni erta diagnostika qilish, uning patomorfologik xususiyatlarini aniqlash va davolashning samarali usullarini ishlab chiqish otorinologianing dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi

Surunkali laringit bilan kasallangan bemorlarda zamonaviy diagnostika usullarining samaradorligini baholash hamda kompleks davolashning yangi yondashuvlarini takomillashtirish.

Tadqiqot vazifalari

1. Surunkali laringit bilan kasallangan bemorlarning klinik belgilarini o'rganish.
2. Zamonaviy diagnostika usullari yordamida hiqildoq shilliq qavatidagi morfologik o'zgarishlarni aniqlash.
3. Videolaringoskopiya va endoskopik tekshiruvlarning diagnostik ahamiyatini baholash.
4. Surunkali laringitni davolashda kompleks terapiyaning samaradorligini aniqlash.
5. Yangicha davolash usullarini qo'llash orqali kasallikning klinik kechishini tahlil qilish.

Material va tadqiqot usullari

Tadqiqot jarayonida surunkali laringit tashxisi qo'yilgan bemorlar klinik va instrumental usullar yordamida tekshirildi. Tadqiqot davomida bemorlarning shikoyatlari, kasallik anamnezi, umumiy klinik holati hamda laborator ko'rsatkichlari o'rganildi.

Diagnostika jarayonida quyidagi usullar qo'llanildi:

- Indirekt laringoskopiya
- Videolaringoskopiya
- Endoskopik tekshiruv
- Stroboskopiya
- Morfologik va gistologik tahlillar

Zarur hollarda hiqildoq shilliq qavatidan biopsiya olinib, gistologik tekshiruv o'tkazildi. Olingan natijalar asosida shilliq qavatdagi yallig'lanish, giperplastik va displastik o'zgarishlar baholandi.

Davolash jarayonida kompleks yondashuv qo'llanildi. U quyidagi komponentlardan iborat bo'ldi:

- Yallig'lanishga qarshi dori vositalari
- Inhalyatsion terapiya
- Fizioterapiya usullari
- Ovoz gigiyenasi va fonopedik mashqlar
- Zarur hollarda minimal invaziv jarrohlik usullari

Tadqiqot natijalari

O'tkazilgan klinik kuzatuvlar natijasida bemorlarning asosiy shikoyatlari ovozning bo'g'ilishi, ovoz tembrining o'zgarishi, tomoqda qichishish, quruqlik hissi hamda yo'tal ekanligi aniqlandi. Videolaringoskopiya yordamida hiqildoq shilliq qavatida giperemiya, shish, ovoz bog'lamlarining qalinlashuvi va ayrim hollarda giperplastik o'zgarishlar kuzatildi.

Morfologik tekshiruv natijalarida epitelial giperplaziya, yallig'lanish infiltratsiyasi hamda ayrim bemorlarda displastik o'zgarishlar aniqlangan. Bu holat surunkali laringitni erta bosqichda aniqlash va doimiy nazorat qilish zarurligini ko'rsatadi.

Davolash jarayonida kompleks terapiya qo'llanilganda bemorlarning aksariyatida klinik belgilar kamayishi, ovoz funksiyasining tiklanishi hamda hiqildoq shilliq qavatining morfologik holati yaxshilangani kuzatildi. Zamonaviy inhalyatsion terapiya va fizioterapevtik usullar qo'llanilganda davolash samaradorligi sezilarli darajada oshdi.

Muhokama

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, surunkali laringit diagnostikasida zamonaviy endoskopik tekshiruv usullari muhim ahamiyatga ega. Videolaringoskopiya hiqildoq shilliq qavatidagi patologik o'zgarishlarni aniqlashda yuqori diagnostik qiymatga ega bo'lib, kasallikni erta bosqichda aniqlash imkonini beradi.

Bundan tashqari, morfologik tekshiruvlar yordamida epitelial displaziya va boshqa rak oldi o'zgarishlarini aniqlash mumkin. Bu esa bemorlarni o'z vaqtida davolash va malign transformatsiya xavfini kamaytirish imkonini beradi.

Kompleks davolash yondashuvi, jumladan farmakoterapiya, inhalyatsion davolash, fizioterapiya va fonopedik mashqlarni qo'llash bemorlarda yaxshi klinik natijalar beradi.

Xulosa

1. Surunkali laringit otorinolaringologiya amaliyotida keng tarqalgan kasallik bo'lib, ovoz funksiyasining buzilishi va hiqildoq shilliq qavatida morfologik o'zgarishlar bilan namoyon bo'ladi.
2. Zamonaviy diagnostika usullari, xususan videolaringoskopiya va endoskopik tekshiruvlar kasallikni erta aniqlashda muhim ahamiyatga ega.
3. Morfologik tekshiruvlar hiqildoq shilliq qavatida yuzaga keladigan displastik o'zgarishlarni aniqlash imkonini beradi.
4. Kompleks davolash yondashuvi qo'llanilganda bemorlarning klinik holati yaxshilanadi va kasallikning qaytalanish ehtimoli kamayadi.

Kalit so'zlar

surunkali laringit, hiqildoq, diagnostika, videolaringoskopiya, displaziya, inhalyatsion terapiya, fonopedik davolash

OSTEOINTEGRATSIYALOVCHI PREPARATLARNI QO'LLASH ORQALI TISH IMPLANTATSIYASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

*Haqqulov E'zozbek Komil o'g'li
Samarqand Davlat tibbiyot universiteti,*

*Stomatologiya fakultetining 4-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Mamatkulov Farxodjon Xusenovich
Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Og'iz bo'shligi jarrohligi va dental
implantologiya kafedراسi assistenti
Samarqand, O'zbekiston*

Dolzarliligi: Zamonaviy stomatologiyada tish qatoridagi nuqsonlarni tiklashning eng samarali usullaridan biri dental implantatsiya hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, tish implantatsiyasi muvaffaqiyat ko'rsatkichi o'rtacha 90–95% ni tashkil etadi, ammo bemorlarning 5–10% ida osteointegratsiya jarayonining yetarli darajada shakllanmasligi qayd etiladi. Implantatsiya muvaffaqiyati ko'p jihatdan alveolyar suyakning holati, metabolik jarayonlar, mahalliy qon aylanishi hamda operatsiyadan keyingi regeneratsiya jarayonlariga bog'liq. Shu sababli so'nggi yillarda osteointegratsiyani tezlashtiruvchi va suyak to'qimasining regeneratsiyasini rag'batlantiruvchi preparatlardan foydalanish implantologiyada muhim ilmiy-amaliy yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, osteointegratsiyalovchi preparatlarni qo'llash orqali tish implantatsiyasi samaradorligini baholash hamda ularning klinik natijalarini o'rganish dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi: Osteointegratsiyalovchi preparatlarni qo'llash orqali dental implantatsiya jarayonining klinik samaradorligini baholash va osteointegratsiya jarayoniga ta'sirini aniqlash.

Materiallar va tadqiqot usullari: Tadqiqot Samarqand Davlat tibbiyot universitetining stomatologik klinikada dental implantatsiya amaliyoti o'tkazilgan 48 nafar bemor ishtirokida olib borildi. Bemorlarning yoshi 25–60 yosh oralig'ida bo'lib, ularning o'rtacha yoshi $41,6 \pm 7,8$ yil ni tashkil etdi. Tadqiqot ishtirokchilari ikki guruhga ajratildi. Asosiy guruhga 24 nafar bemor kiritilib, ularga implantatsiya jarayonidan keyin osteointegratsiyani rag'batlantiruvchi preparatlar qo'llanildi. Nazorat guruhidagi 24 nafar bemor esa standart davolash protokoli asosida kuzatildi. Tadqiqot jarayonida implantatsiya sohasidagi suyak to'qimasi holati, operatsiyadan keyingi og'riq sindromi, yallig'lanish belgilari, implantning barqarorlik darajasi hamda suyak regeneratsiyasi ko'rsatkichlari baholandi. Klinik kuzatuvlar operatsiyadan keyin 7-kun, 30-kun va 3 oy davomida amalga oshirildi. Shuningdek, implant barqarorligini aniqlash uchun radiologik tekshiruvlar va klinik ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Olingan natijalar statistik usullar yordamida qayta ishlanib, foiz ko'rsatkichlari orqali baholandi.

Natijalar va ularning muhokamasi: O'tkazilgan klinik kuzatuvlar natijalariga ko'ra, osteointegratsiyalovchi preparatlar qo'llanilgan bemorlar guruhida dental implantatsiya jarayonining umumiy samaradorligi nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'lgani aniqlandi. Jarrohlik amaliyotidan keyingi dastlabki kunlarda operatsiya sohasida og'riq sindromi asosiy guruh bemorlarining 29% ida kuzatilgan bo'lsa, nazorat guruhida ushbu ko'rsatkich 46% ni tashkil etdi. Bu esa osteointegratsiyalovchi preparatlar mahalliy yallig'lanish reaksiyalarini kamaytirishga hamda to'qimalarning tiklanish jarayonini tezlashtirishga ma'lum darajada ijobiy ta'sir ko'rsatishini anglatadi. Shuningdek, operatsiyadan keyingi davrda yuzaga keladigan shish va yallig'lanish belgilari asosiy guruh bemorlarida kamroq qayd etildi. Xususan, yumshoq to'qimalarda giperemiya va shish kuzatilishi asosiy guruh bemorlarining 17% ida aniqlangan bo'lsa, nazorat guruhida bu ko'rsatkich 33% ga yetdi. Bu holat osteointegratsiyalovchi preparatlar suyak va

yumshoq to‘qimalar o‘rtasidagi biologik moslashuv jarayonini optimallashtirishga yordam berishini ko‘rsatadi. Bir oylik klinik kuzatuv davomida implantlarning barqarorligi va funksional holati baholandi. Natijalarga ko‘ra, implantning klinik barqarorligi asosiy guruh bemorlarining 92% ida saqlanib qolgan bo‘lsa, nazorat guruhida ushbu ko‘rsatkich 83% ni tashkil etdi. Implant barqarorligining yuqoriroq bo‘lishi osteointegratsiya jarayonining samarali kechayotganidan dalolat beradi. Implant atrofidagi suyak to‘qimasining holatini baholash uchun o‘tkazilgan radiologik tekshiruvlar ham ushbu natijalarni tasdiqladi. Radiologik tahlil ma‘lumotlariga ko‘ra, implant atrofiga yangi suyak to‘qimasi hosil bo‘lishi va mineralizatsiya jarayoni asosiy guruh bemorlarida tezroq kechgani kuzatildi. Osteointegratsiya jarayonining faol shakllanishi asosiy guruh bemorlarining 88% ida qayd etilgan bo‘lsa, nazorat guruhida bu ko‘rsatkich 74% ni tashkil etdi. Klinik kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, osteointegratsiyani rag‘batlantiruvchi preparatlar suyak hujayralarining proliferatsiyasini faollashtirishi, osteoblastlarning funksional faolligini oshirishi hamda kollagen tolalarining shakllanish jarayonini tezlashtirishi mumkin. Natijada implant yuzasi bilan suyak to‘qimasi o‘rtasida mustahkam biologik birikma hosil bo‘ladi. Bu esa implantning uzoq muddatli barqarorligini ta‘minlashda muhim omil hisoblanadi. Bundan tashqari, osteointegratsiyalovchi preparatlar mahalliy metabolik jarayonlarni faollashtirib, suyak to‘qimasining mineral komponentlari almashinuvini yaxshilashi mumkinligi kuzatildi. Ushbu jarayonlar implantatsiya qilingan hududda regeneratsiya jarayonlarini tezlashtirib, suyak to‘qimasining strukturaviy yaxlitligini tiklashga yordam beradi. Olingan natijalar asosida shuni ta‘kidlash mumkinki, osteointegratsiyani rag‘batlantiruvchi preparatlar dental implantatsiya amaliyotida qo‘llanilganda implantlarning funksional natijalari yaxshilanadi, suyak to‘qimasining regeneratsiya jarayoni tezlashadi va operatsiyadan keyingi asoratlar ehtimoli kamayadi. Shu sababli bunday preparatlar implantologiya amaliyotida qo‘shimcha terapevtik vosita sifatida keng qo‘llanilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosa: Tadqiqot natijalari osteointegratsiyalovchi preparatlarni qo‘llash dental implantatsiya samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu preparatlar implantning suyak to‘qimasi bilan integratsiyasini tezlashtiradi, yallig‘lanish reaksiyalarini kamaytiradi hamda implantning barqarorligini oshiradi. Shu sababli osteointegratsiyani rag‘batlantiruvchi preparatlardan foydalanish dental implantatsiya amaliyotini takomillashtirish va klinik natijalarni yaxshilashga xizmat qilishi mumkin.

SO‘LAK pH VA TISH KARIYESI O‘RTASIDAGI FIZIOLOGIK BOG‘LIQLIK

Kurbanova Aziza Kuvandikovna

EMU University, Stomatologiya fakulteti, 2-bosqich talabasi

Dolzarbligi.

Tish kariyesi dunyo miqyosida eng ko‘p uchraydigan stomatologik kasalliklardan biridir. So‘nggi yillarda yoshlar orasida tish kariyesi holatlari ortib bormoqda. Tish kariyesining rivojlanishida og‘iz bo‘shlig‘i mikroflorasi, oziq-ovqat odatlari, shuningdek, so‘lakning fiziologik xususiyatlari muhim rol o‘ynaydi.

So‘lakning pH darajasi og‘iz bo‘shlig‘ining kislotali-muhitini boshqaradi. pH qiymati past bo‘lganida og‘iz bo‘shlig‘ida kariyes rivojlanish xavfi ortadi, chunki mineral moddalar eriydi va emal zaiflashadi. Shu sababli so‘lak pH va tish kariyesi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish stomatologiya va fiziologiya fanlari uchun dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi

EMU University talabalari orasida og‘iz bo‘shlig‘i gigiyenasi va so‘lak pH darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash va tish kariyesining uchrash chastotasini tahlil qilish.

Materiallar va tadqiqot usullari

Tadqiqot EMU University talabalari orasida kuzatuv usulida olib borildi. Tadqiqotda 18–25 yosh oralig‘idagi 60 nafar talaba ishtirok etdi.

Ishtirokchilar quyidagi guruhlariga bo‘lingan:

Birinchi guruh: gigiyenaga muntazam rioya qiluvchi va so‘lak pH $\geq 6,5$ bo‘lgan 30 nafar talaba.

Ikkinchi guruh: gigiyena yetarli bo‘lmagan va so‘lak pH $< 6,5$ bo‘lgan 30 nafar talaba.

Tadqiqot davomida:

So‘lak pH darajasi pH-indikatorlar yordamida o‘lchandi,

Tish kariyesi holati DMF-T indeks (Decayed, Missing, Filled Teeth) bilan baholandi,

Natijalar statistik usullar yordamida tahlil qilindi.

Natijalar va muhokama

Natijalar shuni ko‘rsatdiki:

Birinchi guruhda o‘rtacha so‘lak pH $6,8 \pm 0,2$ bo‘lgan va DMF-T indeksi $1,4 \pm 0,5$.

Ikkinchi guruhda so‘lak pH $5,9 \pm 0,3$ bo‘lgan va DMF-T indeksi $3,2 \pm 0,7$.

Bu ko'rsatkichlar shuni ko'rsatadiki, pH past bo'lgan sharoitda kariyes rivojlanish ehtimoli 2,2 barobar yuqori. Shuningdek, past pH bilan bog'liq guruhda tish emalining sezilarli zaiflashuvi va og'iz bo'shlig'ida kislotali muhit ortishi kuzatildi.

Xulosa

So'lak pH darajasi tish kariyesi rivojlanishida bevosita rol o'ynaydi. Gigiyena qoidalariga rioya qilish va so'lak pH'ni me'yoriy darajada saqlash tish kariyesining oldini olishga yordam beradi.

Shu sababli stomatologiya va fiziologiya fanlarida so'lakning pH darajasini monitoring qilish hamda og'iz gigiyenasini ta'minlash yoshlar orasida tish kariyesining profilaktikasi uchun muhim ilmiy-amaliy yo'nalish hisoblanadi.

Kalit so'zlar: so'lak pH, tish kariyesi, stomatologik kasalliklar, og'iz bo'shlig'i gigiyenasi, DMF-T indeksi

YOSHGA DOIR MAKULA DEGENERATSIYASINING KLINIK-DIAGNOSTIK XUSUSIYATLARI:

Ismatov Husan Akmalovich

Odam anatomiyasi, Klinik anatomiya(OXTA), Gistologiya, Patologik anatomiya va sud tibbiyoti kafedrasini . va Biologiya, mikrobiologiya va bioinjeneriya kafedrasini

ZARMED Universiteti Samarqand Kampusi Samarqand, O'zbekiston

Ilmiy rahbarlar: Shayqulov H, Sh, To'xtanazarova Sh.I.

Dolzarbligi: Yoshga doir makula degeneratsiyasi— markaziy ko'rishning qaytmas pasayishiga olib keluvchi surunkali degenerativ kasallik bo'lib, 60 yoshdan oshgan aholi orasida ko'rlikning yetakchi sabablaridan biridir. Aholi umr davomiyligining oshishi bilan kasallik uchrash tezligi ham ortib bormoqda.

Kasallikning erta bosqichlari ko'pincha yashirin kechadi, ayniqsa nam shakli tez progressiyalanib og'ir asoratlarga olib keladi. Shu sababli zamonaviy diagnostika usullarini, xususan optik kogerent tomografiyani qo'llash Yoshga doir macula degeneratsiyasini barvaqt aniqlash va samarali davolash uchun muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi: “Kamalak Ko‘z” klinikasida kuzatilgan bemorlar misolida yoshga doir makula degeneratsiyasining klinik shakllarini o‘rganish hamda optik kogerent tomografiyaning diagnostik samaradorligini baholash.

Materiallar va tadqiqot usullari: Tadqiqotga 2023–2024 yillar davomida “Kamalak Ko‘z” klinikasiga murojaat qilgan 200 nafar bemor jalb qilindi. Bemorlarning yoshi 60–82 yosh oralig‘ida bo‘lib, o‘rtacha yosh $69,4 \pm 4,8$ yilni tashkil etdi. Jinsiy tarkibi: 112 nafar (56%) ayol va 88 nafar (44%) erkak bemor.

Hududiy taqsimotga ko‘ra, 124 nafar (62%) bemor shahar aholisi, 76 nafar (38%) qishloq aholisi hisoblandi.

Barcha bemorlar kompleks oftalmologik tekshiruvdan o‘tkazildi: vizometriya, tonometriya, biomikroskopiya, oftalmoskopiya hamda makula sohasini baholash uchun optik kogerent tomografiya (OKT).

Olingan ma‘lumotlar statistik jihatdan qayta ishlanib, o‘rtacha qiymat va guruhlar o‘rtasidagi farqlarni baholashda Student t-mezoni va χ^2 (xi-kvadrat) testi qo‘llanildi. Farqlar ishonchliligi $p < 0,05$ darajada qabul qilindi.

Natijalar va ularning muhokamasi: Tadqiqotga kiritilgan 200 nafar bemor (340 ta ko‘z) ma‘lumotlari tahlil qilinganda, yoshga doir makula degeneratsiyasining quruq (atrofik) shakli 140 nafar bemorda (70%) va 238 ta ko‘zda (70%), nam (ekssudativ) shakli esa 60 nafar bemorda (30%) va 102 ta ko‘zda (30%) aniqlangan. Bemorlarning yoshi 60–82 yosh oralig‘ida bo‘lib, o‘rtacha yosh $69,4 \pm 4,8$ yilni tashkil etdi, median yosh 70 yil. Yosh guruhlari kesimida 60–64 yoshdagilar 32 nafarni (16%), 65–75 yoshdagilar 108 nafarni (54%), 76 yosh va undan yuqorilar 60 nafarni (30%) tashkil etdi. Kasallikning eng yuqori uchrash darajasi 65–75 yosh guruhida qayd etilib, yosh ortishi bilan nam shakl ulushi oshib borishi kuzatildi

Jinsiy tarkib bo‘yicha ayollar 112 nafarni (56%), erkaklar 88 nafarni (44%) tashkil etdi. Ayollarda kasallikning umumiy uchrash darajasi va ayniqsa quruq shakli ko‘proq kuzatildi, farq statistik jihatdan ishonchli bo‘ldi

Hududiy taqsimotga ko‘ra, 124 nafar bemor (62%) shahar aholisi, 76 nafari (38%) qishloq aholisi bo‘lib, shahar aholisi orasida aniqlanish ko‘rsatkichi yuqori qayd etildi, bu erta murojaat va diagnostika imkoniyatlari bilan izohlanadi.

Funksional ko‘rsatkichlar tahlilida o‘rtacha ko‘rish o‘tkirliqi quruq shaklda $0,42 \pm 0,18$, nam shaklda $0,18 \pm 0,09$ ni tashkil etdi

Ko‘rish o‘tkirligining pasayishi morfologik o‘zgarishlar darajasi bilan manfiy korrelyatsiyada bo‘ldi

Optik kogerent tomografiya (OKT) natijalariga ko‘ra, druzalar 214 ta ko‘zda (63%), retinal pigment epiteliy (RPE) atrofiyasi 126 ta ko‘zda (37%), subretinal suyuqlik 84 ta ko‘zda (25%), intraretinal shish 68 ta ko‘zda (20%) va neovaskulyar membrana 78 ta ko‘zda (23%) aniqlangan. Nam shaklda subretinal suyuqlik va

neovaskulyar membrana ko'rsatkichlari sezilarli yuqori bo'lib , bu ko'rish funksiyasining keskin pasayishi bilan kechdi.

OKT usulining diagnostik sezgirliги 96,5%, spetsifikliги 94,2%, umumiy aniqligi 95,6% ni tashkil etdi. Olingan klinik-statistik natijalar quruq shaklning ustunligini (70%) hamda nam shaklda morfologik va funksional o'zgarishlarning og'irroq kechishini ishonchli tasdiqladi.

Xulosa: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, "Kamalak Ko'z" klinikasida kuzatilgan 200 nafar bemor (340 ta ko'z) orasida yoshga doir makula degeneratsiyasining quruq shakli ustunlik qiladi (70%), nam shakl esa 30% holatni tashkil etadi va ko'rish o'tkirligining tez pasayishi bilan tavsiflanadi. Kasallikning eng yuqori uchrash darajasi 65–75 yosh guruhida qayd etildi, ayollarda va shahar aholisi orasida kasallik ko'proq uchradi.

Optik kogerent tomografiya (OKT) makula sohasidagi morfologik o'zgarishlarni (druzalar, RPE atrofiyasi, subretinal suyuqlik, neovaskulyar membrana) yuqori sezgirlik va aniqlik bilan aniqlash imkonini beradi (sezgirlik 96,5%, spetsifiklik 94,2%). Shu bois OKT usuli yoshga doir makula degeneratsiyasini erta bosqichda aniqlash va bemorlarning ko'rish qobiliyatini saqlab qolish uchun eng ishonchli diagnostik vosita hisoblanadi.

Erta skrining va muntazam tekshiruvlar kasallikning og'ir asoratlarini kamaytirish va davolash natijalarini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega.

Tavsiyalar- Yoshga doir makula degeneratsiyasini erta aniqlash uchun 60 yoshdan oshgan bemorlarda muntazam OKT tekshiruvini o'tkazish.

Nam shaklni barvaqt aniqlash va davolash orqali ko'rish funksiyasining tez pasayishini oldini olish.

Shahar va qishloq aholisi orasida diagnostika imkoniyatlarini kengaytirish va aholini kasallik belgilaridan xabardor qilish.

РАСПРОСТРАНЕННОСТЬ ЛОР-ПАТОЛОГИИ У ДЕТЕЙ, ПРОЖИВАЮЩИХ В ЮЖНОМ ПРИАРАЛЬЕ (РЕСПУБЛИКА КАРАКАЛПАКСТАН)

Ескабулова Гулбану Мелисовна

*Кафедра оториноларингологии, офтальмологии, онкологии и
медицинской радиологии*

Медицинского института Каракалпакстана, Нукус. Узбекистан

Научный руководитель, ассистент кафедры, Палекеева Г.П.

Актуальность: По данным Всемирной организации здравоохранения, значительная часть населения мира заболевает инфекциями верхних дыхательных путей не реже одного раза в жизни. В научной литературе ЛОР-патологии оцениваются как актуальная медицинская проблема из-за их высокой распространенности, риска осложнений, влияния на здоровье детей и социально-экономических последствий.

Экологическая катастрофа Аральского моря привела к резкому ухудшению здоровья населения Приаралья, особенно детей: высокие уровни анемии, респираторных заболеваний, аллергий, врождённых аномалий и токсических нагрузок (пыль, соли, пестициды) [Crighton et al., 2010, PMC3066399; Gulyamova et al., 2025, MJU].

В Каракалпакстане отмечается повышенная частота ЛОР-патологии (риносинуситы, аденоидиты, отиты, аллергические риниты), связанная с хроническим раздражением дыхательных путей токсичной пылью и загрязнением [Мамутова П.Ш., Мамутов Ш.И., Ажиниязова Г.К., Аллергический ринит и ЛОР-патология у детей Приаралья // Молодой ученый. – 2022. — № 14 (409)].

Частота ЛОР-заболеваний у детей связана с анатомо-физиологическими особенностями детского организма, ослаблением иммунитета. С эпидемиологической точки зрения, среди ЛОР-заболеваний ведущее место занимают заболевания верхних дыхательных путей.

Цель исследования

Определить частоту (распространённость) и структуру заболеваний ЛОР-органов у детей 2–17 лет при проведении массового профилактического осмотра, а также оценить долю ранее недиагностированных и субклинических форм патологии.

Материалы и методы. Исследование проведено в рамках благотворительной акции «Здоровье» в феврале 2023 года на базе поликлиники КМИ (Нукус). В исследование включены 546 детей в возрасте от 2 до 17 лет (средний возраст $9,4 \pm 3,6$ лет), прошедших профилактический осмотр оториноларинголога. Всем детям выполнен полный комплекс инструментального обследования ЛОР-органов. Дополнительно проанализированы данные амбулаторных карт и сведения о предшествующих обращениях за оториноларингологической помощью за последние 12–24 месяца.

Результаты обследования. По данным профилактического оториноларингологического осмотра 546 детей (возраст 2–17 лет) патологический процесс в ЛОР-органах установлен у 437 (80,0 %) детей; клинически здоровыми признаны 109 (20,0 %) обследованных.

В зависимости от структуры выявленных заболеваний, заболевания носа и околоносовых пазух встречались у 220 (40%) детей и занимали первое место, заболевания горла - у 147 (27%) детей и занимали второе место, а заболевания уха - у 70 (13%) детей и занимали третье место.

Полученные данные свидетельствуют о высокой распространённости субклинической и малосимптомной ЛОР-патологии среди детей при проведении профилактических осмотров, с явным преобладанием риносинусальной локализации.

Вывод. Результаты осмотра ЛОР-органов показывают, что среди ЛОР-заболеваний преобладают заболевания носа и околоносовых пазух. Это свидетельствует о необходимости выявления причин возникновения заболеваний носа и околоносовой области, а также горла, разработки алгоритма их ранней диагностики и усиления профилактических мер.

PREDICTIVE OCT STRUCTURAL MARKERS OF MYOPIC TRACTION MACULOPATHY IN CHILDREN: A CONTROLLED PROSPECTIVE STUDY

Daryabaeva Gulnaz Mansur qizi

Department of Otorhinolaryngology, Ophthalmology, Oncology and Medical Radiology

Karakalpak Medical Institute, Nukus, Uzbekistan

Scientific supervisor – Department Assistant J.T. Saginova

Research relevance. High myopia prevalence is projected to reach nearly 10% of the global population by 2050, making early detection of myopic complications a major clinical priority. In childhood, high myopia is increasingly associated with early structural macular alterations that may progress to myopic traction maculopathy (MTM). Determining which pediatric patients are at increased risk of requiring surgical intervention remains a significant clinical challenge. The present study aimed to evaluate optical coherence tomography (OCT)-derived structural parameters as predictors of MTM progression in a controlled pediatric cohort.

Methods. A prospective controlled study included 60 children aged 9–15 years with axial length ≥ 26 mm. Main group (n = 30): children with early OCT signs of vitreomacular interface alteration. Control group (n = 30): children with high myopia without tractional macular changes. All participants underwent baseline and 18-month follow-up examination including: Spectral-domain OCT. Enhanced depth imaging. Axial length measurement. Fundus photography. Measured OCT parameters included: Subfoveal choroidal thickness. Posterior staphyloma configuration. Presence of vitreomacular adhesion. Inner retinal microcystic

changesInternal limiting membrane reflectivity.Progression criteria:Enlargement of foveoschisis.Development of new tractional changes.Indication for pars plana vitrectomy.The study protocol was approved by the local ethics committee.

Results.At baseline, the main group demonstrated significantly reduced choroidal thickness compared with controls ($p < 0.01$).During follow-up:11 patients (36.7%) in the main group showed structural progression2 patients (6.7%) in the control group showed progression.Subfoveal choroidal thickness $<65 \mu\text{m}$ was associated with increased risk of progression (Relative Risk = 3.8).Persistent vitreomacular adhesion combined with inner retinal microcysts showed the strongest predictive value for worsening macular architecture.Multivariate analysis revealed that:Posterior staphyloma curvatureChoroidal thinning were independent predictors of MTM progression.

Conclusions.OCT-based structural assessment enables identification of pediatric high-myopia patients at increased risk of tractional macular progression. Controlled comparison confirms that reduced choroidal thickness and vitreomacular interface abnormalities are clinically meaningful predictors. Early recognition of these markers may assist in early identification of candidates for surgical intervention and improve visual prognosis.

STOMATOLOGIYA TERMINOLOGIYASIDA LOTIN TILINING XALQARO VA KLINIK AHAMIYATI

Aytekov B.A., Rajapova F.S. *Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti, Davolash ishi mutaxassisligi 1-kurs talabalari, Nukus sh. Ilmiy rahbar: Sayimova G.J.*

Annotatsiya

Ushbu maqolada stomatologiya sohasida lotin tili terminologiyasining tutgan o'rnini, uning xalqaro tibbiy muloqotdagi ahamiyati va klinik tashxis qo'yishdagi aniqligi tahlil qilingan. Tadqiqot davomida asosiy anatomik va klinik terminlarning kelib chiqishi va ularning zamonaviy stomatologik amaliyotdagi roli yoritilgan. Shuningdek, terminlarning to'g'ri qo'llanilishi shifokorlar o'rtasidagi professional muloqotni yaxshilashi asoslab berilgan.

Annotation

This article analyzes the role of Latin terminology in the field of dentistry, its significance in international medical communication, and its precision in clinical diagnosis. The study highlights the origins of key anatomical and clinical terms and their role in modern dental practice. Furthermore, it substantiates how the correct use of terminology improves professional communication among physicians.

Аннотация

В данной статье анализируется роль латинской терминологии в области стоматологии, её значение в международном медицинском общении и точность в постановке клинического диагноза. В ходе исследования освещаются происхождение основных анатомических и клинических терминов, а также их роль в современной стоматологической практике. Также обосновано, что правильное использование терминов улучшает профессиональное общение между врачами.

Tayanch so'zlar: lotin tili, stomatologiya, terminologiya, nomenklatura, anatomik terminlar, klinik tashxis.

Keywords: Latin language, dentistry, terminology, nomenclature, anatomical terms, clinical diagnosis.

Ключевые слова: латинский язык, стоматология, терминология, номенклатура, анатомические термины, клинический диагноз.

Bugungi kunda stomatologiya sohasiga raqamli texnologiyalar va innovatsion usullar shiddat bilan kirib kelayotgan bo'lsa-da, tibbiyotning "alifbosi" hisoblangan lotin tili hamon o'z taxtini bo'shatib bergani yo'q. Bu shunchaki eski an'ana emas, balki dunyoning istalgan chekkasidagi shifokorlar bir-birini so'zsiz tushinishi uchun zarur bo'lgan yagona professional ko'prikdir. Ayniqsa, tish kasalliklari klassifikatsiyasi va yuz-jag' anatomiyasini xalqaro standartlar asosida tushunishni istagan har bir zamonaviy stomatolog uchun lotin terminologiyasini mukammal bilish zaruriy ehtiyoj hisoblanadi.

Bizning asosiy maqsadimiz — stomatologiya amaliyotida keng qo'llaniladigan lotincha terminlarni tizimlashtirish, ularning etimologik ildizlarini o'rganish va klinik sharoitda tashxislarni to'g'ri shakllantirishdagi hayotiy ahamiyatini ko'rsatib berishdan iborat.

Tadqiqot jarayonida Xalqaro anatomik nomenklatura (Terminologia Anatomica) va stomatologik kasalliklar bo'yicha zamonaviy klinik klassifikatsiyalarni o'zaro qiyosiy tahlil qildik. Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti klinik bazalaridagi real tashxis varaqalari va o'quv adabiyotlari tahlil ob'yekti sifatida xizmat qildi.

Tahlillarimiz shuni ko'rsatdiki, lotincha terminlar shunchaki murakkab so'zlar emas, balki aniq diagnostika va davolash vositasidir. Biz o'z ishimizda stomatologik terminlarni quyidagi uchta asosiy guruhga ajratdik:

. **Anatomik terminlar:** Masalan, *Cavum oris* (og'iz bo'shlig'i), *Dentes incisivi* (kesuvchi tishlar) yoki *Mandibula* (pastki jag'). Bu terminlar shifokor uchun soha topografiyasini aniq belgilovchi "xarita" vazifasini o'taydi va jarrohlik amaliyotida turli xatoliklarning oldini oladi.

. **Klinik va patologik terminlar:** Bu yerda har bir qo'shimcha aniq bir holatni anglatadi. Masalan, *-itis* suffiksi yallig'lanish jarayonini bildiradi: *Pulpitis* (pulpa yallig'lanishi), *Periodontitis*. Shuningdek, *Caries*

profunda (chuqur karies) kabi jumlar kasallikning darajasini bir soʻz bilan aniq tavsiflab beradi.

Farmatsevtik terminlar: Dori vositalarini xalqaro standartlar boʻyicha retseptura asosida yozishda qoʻllaniladigan ajralmas terminologiya.

Eng muhim xulosalarimizdan biri shuki, lotin terminologiyasidan toʻgʻri foydalanish diagnostika jarayonida shifokorlar oʻrtasidagi tushunmovchiliklarni kamaytiradi. Chunki har bir lotincha termin muayyan patologik holatning xalqaro miqyosda standartlashgan tavsifidir.

Xulosa

Xulosa oʻrnida aytish mumkinki, lotin tili tibbiyotning "oʻlik" tili emas, balki stomatologiyaning eng "tirik" va birlashtiruvchi qismidir. Boʻlajak mutaxassislarining bu tilni klinik amaliyotda toʻgʻri qoʻllashi tashxis qoʻyishdagi aniqlikni sezilarli darajada oshiradi. Bizning tahliliy ishimiz shuni tasdiqlaydiki, lotin tili — bu professional stomatolog madaniyati va mahoratining ajralmas boʻlagidir.

Adabiyotlar roʻyxati

1. Chatterjee K.K. Essentials of Oral Biology. – Elsevier, 2022.
2. Chernyavskiy M.N. Latinskiy yozik i osnovi meditsinskoy terminologii. – M.: Meditsina, 2020.
3. Ulugʻbekov A. Stomatologik terminlar lugʻati. – Toshkent, 2019.
4. Rajabov O.A. Stomatologiyada innovatsion yondashuvlar. – Buxoro, 2023.

ЎТКИР БАКТЕРИАЛ КОНЪЮНКТИВИТ ЭТИОЛОГИЯСИНING ЁШ ОМИЛИГА БОҒЛИҚ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ

Нуруллаев Бунёд Бакбергенович

Урганч RANCH технология университети, Урганч, Ўзбекистон

Ўткир бактериал конъюнктивит кўзнинг кенг тарқалган йирингли-яллиғланиш касалликларидан бири бўлиб, офтальмологик патологиялар таркибида муҳим ўрин эгаллайди. Ушбу касаллик клиник жиҳатдан конъюнктиванинг гиперемияси, шишиши ва шиллиқ-йирингли ажралишлар билан намоён бўлади. Адабиётларда келтирилишича, конъюнктивитлар барча кўз касалликларининг 30–40% ни ташкил этиб, уларнинг асосий қисми бактериал этиологияга эга ҳисобланади. Шу билан бирга, касалликнинг аҳоли орасида кенг тарқалиши, турли ёш гуруҳларида турлича учраш даражаси ва уюшган жамоаларда тез тарқалиши унинг долзарблигини янада оширади.

Замонавий клиник микробиология ютуқлари турли инфекцион касалликлар, жумладан, ўткир бактериал конъюнктивитнинг этиологик агентларини аниқлаш ва уларни бактериологик жиҳатдан ишончли идентификация қилиш имконини бермоқда. Бироқ, турли ёш гуруҳларида кўзғатувчиларнинг қиёсий тавсифи етарлича ўрганилмаган. Шу сабабли ушбу тадқиқотнинг мақсади ўткир бактериал конъюнктивитлар этиологик таркибини таҳлил қилиш ва уларнинг беморлар ёшига боғлиқ учраш даражасини қиёсий баҳолашдан иборат бўлди.

Тадқиқотга клиник жиҳатдан тасдиқланган ўткир бактериал конъюнктивит билан касалланган 62 нафар бемор жалб қилинди, улардан 12–18 ёшдаги болалар ва 19–60 ёшдаги катта ёшли беморлар ажратилди. Қиёсий таҳлил учун 21 нафар амалий жиҳатдан соғлом шахслар ҳам текширилди. Биологик материал сифатида конъюнктива чиқиндисидан намуналар олиниб, бактериологик текширишлар амалга оширилди. Микроорганизмларни идентификация қилиш морфологик, тинкториал, культурал ва биокимёвий хусусиятлар асосида Bergy's классификациясига мувофиқ ўтказилди.

Олинган натижалар таҳлили шуни кўрсатдики, болалар орасида ўткир бактериал конъюнктивит кўзғатувчилари фақат монокультура ҳолатида учради ва микроорганизмлар ассоциациялари аниқланмади. Болалар гуруҳида етакчи этиологик агент сифатида *Staphylococcus epidermidis* (31,6%), кейинги ўринларда *Streptococcus haemolyticus* (26,3%) ва *Escherichia coli* (15,8%) қайд этилди. Шунингдек, *Staphylococcus aureus* (10,5%), *Candida spp* (10,5%) ва *Proteus spp* (5,3%) ҳам аниқланган бўлиб, уларнинг бир қисми транзитор микроорганизмлар сифатида баҳоланди.

Катта ёшдаги беморларда ҳам микроорганизмлар монокультура кўринишида аниқланди, бироқ этиологик таркибда муайян фарқлар кузатилди. Ушбу гуруҳда етакчи кўзғатувчилар сифатида *Staphylococcus epidermidis* (37,2%) ва *Staphylococcus aureus* (32,6%) қайд этилди. Кейинги ўринда *Streptococcus haemolyticus* (20,9%) жойлашди. Шунингдек, *Streptococcus pyogenes* (4,7%), *Proteus spp* (2,3%) ва *Candida spp* (2,3%) аниқланди. Эътиборли жиҳати шундаки, болаларда учраган *Escherichia coli* катта ёшдаги беморларда умуман аниқланмади.

Ёш гуруҳлари ўртасидаги қиёсий таҳлил натижалари шуни кўрсатдики, асосий фарқ *Staphylococcus aureus*, *Streptococcus pyogenes* ва *Escherichia coli* каби кўзғатувчиларнинг учраш даражасида намоён бўлди. Жумладан, *Staphylococcus aureus* катта ёшдагиларда анча юқори частотада учраса, *Escherichia coli* фақат болалар гуруҳида аниқланди. *Streptococcus pyogenes* эса

болаларда кузатилмаган бўлса-да, катта ёшли беморларда аниқланди. Шу билан бирга, ўткир бактериал конъюнктивит умумий ҳолда катта ёшдагиларда болаларга нисбатан кўпроқ учраши ишонарли равишда тасдиқланди.

Тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, болалар ва катта ёшдаги беморларда ўткир бактериал конъюнктивит кўзғатувчиларининг этиологик таркиби бир-биридан фарқ қилади. Болаларда асосан коагулазанегатив стафилококklar ва ичак таёкчаси муҳим ўрин тутса, катта ёшдагиларда коагулазапозитив стафилококklar ва β -гемолитик стрептококklar устунлик қилади. *Candida spp* ва *Proteus spp* эса ҳар икки гуруҳда ҳам асосий кўзғатувчи эмас, балки транзитор микроорганизмлар сифатида баҳоланди.

Хулоса қилиб айтганда, ўткир бактериал конъюнктивит кўзғатувчиларининг ёшга боғлиқ ўзгариш хусусияти аниқланди. Болалар ва катта ёшли беморлар ўртасидаги этиологик фарқлар касаллик патогенезини тушуниш ва рационал даволаш тактикасини танлашда муҳим аҳамиятга эга. Олинган натижалар клиник амалиётда бактериал конъюнктивитларни дифференциал ташҳислаш ва индивидуал ёндашув асосида даволашни ташкил этиш учун илмий асос бўлиб хизмат қилади.

Калит сўзлар: бактериал конъюнктивит, *Staphylococcus aureus*, *Streptococcus pyogenes*, *Escherichia coli*, ёш гуруҳлари, бактериологик таҳлил.

ASEPTIC PRODUCTION AND QUALITY CONTROL OF OPHTHALMIC AND ENT PREPARATIONS

Merey Sarsengali

***Department of Engineering Disciplines of Good Practices, School of
Pharmacy, Kazakh National Medical***

S.D. Asfendiyarov Kazakh National Medical University, Almaty, Kazakhstan

Scientific Supervisor – PhD, Associate Professor Serzhan Mombekov

Relevance: Ophthalmic and otorhinolaryngological (ENT) medicinal products require exceptionally strict manufacturing conditions due to their direct application to highly sensitive mucosal tissues and, in the case of ophthalmic preparations, sterile anatomical sites. The eye is particularly vulnerable to microbial contamination because of its limited immune defense mechanisms, making sterility assurance a critical quality requirement.

Eye drops, nasal sprays, and otic solutions must comply not only with sterility standards but also with strict physicochemical parameters such as isotonicity, pH compatibility, viscosity, and absence of particulate matter. Even minor deviations may result in irritation, reduced therapeutic efficacy, corneal damage, or secondary infections. Consequently, technological precision in aseptic production and comprehensive quality control are essential components of modern pharmaceutical manufacturing for these dosage forms.

Purpose of the study: To analyze technological requirements, sterilization strategies, environmental controls, and GMP-based manufacturing principles for ophthalmic and ENT dosage forms, with emphasis on sterility assurance, contamination control, and critical quality attributes (CQAs).

Materials and research methods: The study is based on analysis of EU GMP Annex 1 (Manufacture of Sterile Medicinal Products), ISO 14644 cleanroom classification standards, European and international pharmacopoeial requirements for ophthalmic preparations, and scientific literature on aseptic processing technologies.

Key parameters evaluated include:

- Critical Quality Attributes (CQAs);
- Sterilization and aseptic processing methods;
- Environmental monitoring systems;
- Process validation and media fill simulations;
- Risk management approaches (ICH Q9).

Results and discussion: Ophthalmic and ENT preparations are commonly formulated as sterile aqueous solutions, suspensions, emulsions, gels, or metered-dose sprays. Manufacturing operations such as sterile filtration and aseptic filling must be performed in Grade A laminar airflow zones with Grade B background environments, in accordance with EU GMP Annex 1.

HEPA filtration systems ensure controlled airflow patterns and compliance with particulate limits. Continuous environmental monitoring includes viable and non-viable particle counts, microbiological air sampling, surface monitoring, and pressure differential control.

Whenever formulation stability allows, terminal sterilization (e.g., moist heat sterilization in autoclaves) is preferred due to its higher sterility assurance level (SAL 10^{-6}) and process robustness. For thermolabile products, sterile membrane filtration (0.22 μm) followed by validated aseptic filling is required. Media fill studies are conducted periodically to verify aseptic process integrity.

Control of physicochemical parameters is critical:

- pH must be compatible with tear fluid (typically 6.5–8.5 for ophthalmic solutions).

- Osmolarity should approximate physiological levels (~300 mOsm/kg) to prevent irritation.
- Viscosity modifiers (e.g., HPMC) may be added to prolong contact time and improve bioavailability.
- Preservative concentration must be effective yet non-toxic.

Preservative-free single-dose systems are increasingly implemented to minimize toxicity risks, particularly for chronic ophthalmic therapy. Advanced packaging technologies such as Blow-Fill-Seal (BFS) systems reduce human intervention and significantly lower contamination risks.

Quality control procedures include:

- Sterility testing;
- Bacterial endotoxin testing (LAL test);
- Particulate matter testing (light obscuration method);
- Assay and content uniformity testing;
- Preservative efficacy testing;
- Stability studies under ICH climatic conditions.

Implementation of risk-based quality management systems (ICH Q9) and Quality by Design (QbD) principles enhances identification of critical process parameters (CPPs) and supports robust contamination prevention strategies.

Conclusion: Aseptic manufacturing of ophthalmic and ENT preparations requires strict adherence to GMP standards, validated sterilization methods, and comprehensive environmental control systems. The integration of advanced aseptic technologies, automated filling systems, risk management tools, and rigorous quality control testing ensures sterility, physicochemical stability, therapeutic efficacy, and patient safety.

Continuous process validation and quality assurance are fundamental to maintaining high standards in the production of these highly sensitive medicinal products.

V- MORFOLOGIK FANLARNING DOLZARB MASALALARI (ANATOMIYA VA OHTA, PATOLOGIK ANATOMIYA, GISTOLOGIYA, FIZIOLOGIYA VA PATOLOGIK FIZIOLOGIYA)

METABOLIK SINDROMNING EKSPERIMENTAL MODELIDA JIGARNING STRUKTURAVIY VA MORFOMETRIK O‘ZGARISHLARI

Qadamboyev Bekzod Bekpo‘latovich

Tibbiy va biologik kimyo kafedrası

Urganch davlat tibbiyot instituti, Urganch, O‘zbekiston

Ilmiy rahbar – kafedra mudiri v.v.b, dotsent Kurbanova N.N.

Dolzarliligi: Metabolik sindrom semizlik, insulin rezistentligi, dislipidemiya va arterial gipertenziya bilan tavsiflanib, 2-toifa qandli diabet hamda yurak-qon tomir kasalliklari rivojlanish xavfini oshiradi. Ushbu patologik holatda jigar metabolik jarayonlarning markaziy organi sifatida birinchi bo'lib lipotoksik va glukotoksik ta'sirga uchraydi. Gepatotsitlarda yog' to'planishi, yallig'lanish va mikrotsirkulyator buzilishlar kasallik patogenezining muhim bosqichlaridan hisoblanadi. Shuning uchun eksperimental model sharoitida jigar to'qimasining morfologik va morfometrik xususiyatlarini o'rganish dolzarb ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot maqsadi – eksperimental yo'l bilan induksiyalangan metabolik sindrom sharoitida kalamushlar jigarida yuzaga keladigan morfologik va morfometrik o'zgarishlarni aniqlash va ularni obyektiv baholash.

Materiallar va tadqiqot usullari. Tadqiqot ochiq naslli erkak kalamushlarda (n=20; 165–175 g) olib borildi. Hayvonlar nazorat (n=8) va eksperimental (n=12) guruhlariga ajratildi. Eksperimental guruhda metabolik sindrom yuqori kaloriyali ratsion va 10% fruktoza eritmasi yordamida modellashtirildi. Tajriba 90 kun davom etdi. Jigar namunalari 12% formalinda fiksatsiya qilinib, parafin bloklarga quyildi va 6–8 mkm kesmalar tayyorlandi. Preparatlar gematoksilin-eozin bilan bo'yaldi. Morfometrik tahlil raqamli mikrofotolarda 5 ta tasodifiy ko'rish maydonida amalga oshirilib, steatoz zonalari maydoni hamda lipid bilan to'yingan hepatotsitlar soni aniqlandi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Nazorat guruhida jigarning bo'lakchali arxitekturasi saqlangan, hepatotsitlar poligonal shaklda, sinusoidlar kengaymagan va yallig'lanish belgilarisiz kuzatildi. Eksperimental guruhda esa bo'lakchali tuzilmaning buzilishi, trabe-kulalarning dezorganizatsiyasi hamda sinusoidlarning notekis kengayishi aniqlangan. Gepatotsitlarda makro- va mikropufakchali steatoz, sitoplazmatik vakuolizatsiya va ayrim hujayralarda yadroviy o'zgarishlar qayd etildi. Morfometrik ko'rsatkichlar steatoz zonalari maydonining va lipid bilan to'yingan hujayralar sonining nazorat guruhiga nisbatan sezilarli ortganini tasdiqladi. Shuningdek, yengil darajadagi mononuklear infiltratsiya va perisinusoidal fibroz elementlari kuzatildi. Olingan natijalar eksperimental model metabolik sindrom sharoitida jigar steatozi va yallig'lanish jarayonlarini ishonchli reproduksiya qilishini ko'rsatadi.

Xulosa. Eksperimental induksiyalangan metabolik sindrom sharoitida jigar parenximasida sezilarli morfologik va morfometrik o'zgarishlar rivojlanadi. Bo'lakchali arxitekturaning buzilishi, makro- va mikropufakchali steatoz, vakuolizatsiya va yengil yallig'lanish jarayonlari aniqlanadi. Morfometrik tahlil natijalari patologik o'zgarishlarning statistik jihatdan ishonchli ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu model metabolik sindromga xos jigar shikastlanish mexanizmlarini o'rganishda samarali hisoblanadi.

**TUG'RUQ VAQTIDA KALLA SUYAGI – BOSH MIYA
JAROHATIDAGI YANGI TUG'ILGAN CHAQALOQLAR AYRISIMON
BEZINING MORFOLOGIK KO'RSATGICHLARI**

*Mizomova E'zoza Qurbonali qizi,
pediatriya fakulteti 208-guruh talabasi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand, O'zbekiston
Ilmiy rahbar – Odam anatomiyasi kafedrasida katta o'qituvchisi
Korjavov Sherali Oblaqulovich*

Mavzuning dolzarbligi. Timus yoki ko'ks oralig'i bo'shlig'ida joylashgan ayrisimon bez odam organizmida immun tizimining rivojlanishi va faoliyatida, ayniqsa erta yosh davrida, muhim o'rin tutadi. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda timus T-limfotsitlarning differentsiallanishi va yetilishida faol ishtirok etadi, bu esa spetsifik immun javobning shakllanishi uchun zarur hisoblanadi. Biroq turli noqulay omillar, jumladan tug'ruq vaqtida yuzaga keladigan bosh miya shikastlanishi (kranio-serebral travma), timusning morfologik va funksional xususiyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, bolaning immun holatiga ta'sir etadi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning maqsadi — tug'ruq vaqtida bosh miya jarohati (kranio-tserebral travma) tufayli vafot etgan yangi tug'ilgan chaqaloqlarda timus bezining morfologiyasini o'rganishdan iborat. Ishimizning vazifasi — tug'ruq vaqtida bosh miya jarohati oqibatida vafot etgan yangi tug'ilgan chaqaloqlarda timusning makroskopik va mikroskopik tuzilishini tahlil qilish.

Tadqiqot materiallari va usullari. Material sifatida bosh miya jarohati natijasida vafot etgan jami 24 nafar yangi tug'ilgan chaqaloq olingan bo'lib, ulardan 15 nafari o'g'il, 9 nafari qiz bolalar, turli tana vazniga ega bo'lgan. Materiallar Samarqand davlat tibbiyot universiteti 1-klinikasining patologoanatomik bo'limidan olingan.

Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi:

- makropreparatsiya;
- vizual ko'rik va tavsiflash;
- stereomikroskopik usul;
- seriyali gistotopografik kesmalarni gistologik ishlov berish;
- gematoksilin-eozin va Van Gizon usuli bilan bo'yash;
- makro- va mikropreparatlarni suratga olish;
- morfometrik va statistik usullar.

Tadqiqot natijalari. Yetilib tug'ilgan (to'liq muddatda tug'ilgan) yangi tug'ilgan, tug'ruq vaqtida bosh miya jarohati va asfiksiya sababli vafot etgan chaqaloqlarda timus (vilochna bez)ning makro va mikroskopik tuzilishi o'rganildi. Shu munosabat bilan immun tizimi organlarining hujayraviy tarkibini, ayniqsa uning markaziy qismi — timusni o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, hujayralar nisbatlari timusning har bir strukturaviy-funksional zonasi (subkapsulyar zona, chuqur qatlamlar va miya modda) uchun turlicha o'zgaradi.

Shunday qilib, yangi tugʻilganlarda timusning subkapsulyar zonasida hujayra shakllari ichida eng koʻp uchraydigani kichik limfotsitlar boʻlib, ular $28,15 \pm 7,42\%$ ni tashkil etdi. Oʻrtacha limfotsitlar soni bundan 1,6 baravar kam. Hujayralarning mitotik faolligi past darajada ($0,31 \pm 0,28\%$) kuzatildi, blastlar ($1,26 \pm 0,59\%$) va yirik limfotsitlar ($2,43 \pm 0,77\%$) foizi ham past boʻldi. Shu bilan birga, shikastlangan hujayralar ($30,09 \pm 8,99\%$) va makrofaglar ($1,27 \pm 0,35\%$) nisbatan yuqori koʻrsatkichni tashkil etdi. Bizning maʼlumotlarimizga koʻra, keyingi oʻn yilliklarda kichik limfotsitlar soni ortib borib, bolalik davrida eng yuqori darajaga ($79,01 \pm 1,42\%$) yetadi. Bolalikning II davrida kichik limfotsitlar soni kamayadi, biroq yangi tugʻilganlarga nisbatan ikki baravar yuqori ($55,04 \pm 4,75\%$) boʻlib qoladi. 10 yoshgacha mitotik hujayralar soni 7 baravar oshgani aniqlangan. Birinchi bolalik davriga kelib mitotik faollik erta yoshga nisbatan deyarli ikki baravar kamayadi va II davrda ham shu darajada saqlanib qoladi. Yangi tugʻilgan davr bilan solishtirganda, destruktiv oʻzgargan hujayralar sonining sezilarli ortishi kuzatiladi. Keyinchalik sogʻlom bolalarda timus zonasidagi destruktiv jarayonlar darajasi deyarli oʻzgarmay, taxminan 3–4% atrofida boʻladi. Timus toʻqimasining chuqur qatlamlarida ham hujayraviy tarkib yosh oʻtishi bilan sezilarli oʻzgaradi. Emizikli davrda kichik limfotsitlar soni yangi tugʻilganlarga nisbatan deyarli ikki baravar oshadi. Mitotik hujayralar ulushi yangi tugʻilgan davrga qaraganda 10 baravar koʻpayadi (mos ravishda $0,13 \pm 0,08\%$ va $1,07 \pm 0,29\%$). Destruktiv oʻzgargan hujayralar esa deyarli 5 baravar kamayadi. Keyinchalik, bolalik yoshigacha, timusning chuqur qatlamlaridagi hujayralar foizi oʻzgarib boradi. Bolalikning II davrida mitotik boʻlinayotgan hujayralar soni sezilarli kamayadi (I bolalik davrida $1,38 \pm 0,17\%$, II davrda $0,37 \pm 0,22\%$), destruktiv jarayonlar esa ortadi (I davrda $3,59 \pm 0,71\%$, II davrda $6,0 \pm 0,25\%$). Gassal tanachalarining bir xilligi, ularning gomogen tuzilishi, hajmi va kattaligi ularning mustaqil faoliyat yuritishini koʻrsatadi. Gassal tanachalarining yuqori funksional faolligi ularda yadrosiz hujayralar va amorf moddaning paydo boʻlishi bilan tasdiqlanadi. Ularning funksional faolligi, shuningdek, tanachaning yuqori darajadagi konsentrik tuzilishi bilan ham namoyon boʻladi.

Xulosa. Tugʻruq vaqtida bosh miya jarohatini boshdan kechirgan yangi tugʻilgan chaqaloqlarda timusning morfologik koʻrsatkichlarini oʻrganish natijasida shuni aniqladikki, travmatik shikastlanishlar ushbu muhim organning rivojlanishi va funksiyasiga sezilarli taʼsir koʻrsatadi. Timus immun tizimining asosiy boʻgʻini sifatida organizmning infeksiyalarga chidamliligini shakllantirishda hal qiluvchi rol oʻynaydi. Olingan maʼlumotlar bosh miya jarohati timus tuzilishida aniq gistologik oʻzgarishlarga olib kelishini tasdiqlaydi, bu esa uning normal faoliyatini buzishi mumkin. Hujayra tarkibidagi oʻzgarishlar, shuningdek immunologik koʻrsatkichlar, jumladan T-limfotsitlar darajasining pasayishi, bunday bolalarda toʻlaqonli immun javob shakllanishi uchun potensial xavflarni koʻrsatadi.

МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ И НЕЙРОВАСКУЛЯРНЫЕ МЕХАНИЗМЫ ТАНАТОГЕНЕЗА ПРИ БОЛЕЗНИ ФАРА

Иманбай Дарига Ерланқызы
Кафедра морфологии
Карагандинский Медицинский университет, Караганда, Казахстан
Научный руководитель – к.м.н., профессор Мусабеева С.А.

Актуальность: Идиопатическая кальцификация базальных ганглиев (болезнь Фара) представляет собой редкое нейродегенеративное заболевание, характеризующееся симметричными внутримозговыми кальцификатами и выраженной клинической гетерогенностью. Несмотря на преимущественно хроническое течение, в отдельных случаях заболевание может приводить к тяжёлой неврологической декомпенсации и летальному исходу. Современные исследования рассматривают кальцификацию как активный нейроваскулярный процесс, связанный с дисфункцией нейроваскулярной единицы и хронической микроангиопатией.

Цель исследования: Изучить морфологические изменения головного мозга и определить их роль в развитии нейроваскулярной декомпенсации при болезни Фара.

Материалы и методы исследования: Проведено патологоанатомическое и гистологическое исследование головного мозга пациента молодого возраста с прогрессирующей неврологической симптоматикой и летальным исходом. Макроскопическое исследование включало оценку выраженности отёка и сосудистых изменений. Гистологическое исследование выполнялось с использованием окраски гематоксилином и эозином с последующей оценкой локализации кальцинатов, состояния сосудистой стенки, нейрональных изменений и реактивных глиальных процессов.

Результаты и обсуждение: При морфологическом исследовании выявлены выраженные симметричные периваскулярные и паренхиматозные кальцификаты преимущественно в области базальных ядер, таламуса и мозжечка. Отмечались признаки тяжёлой микроангиопатии, выраженного сосудистого склероза и нарушения микроциркуляции. В паренхиме мозга выявлены диффузная нейрональная дистрофия, реактивный глиоз и выраженный отёк. Морфологическая картина соответствует концепции дисфункции нейроваскулярной единицы, при которой сосудистая минерализация приводит к хронической гипоперфузии и повреждению нейронов. Показана морфологическая модель нейроваскулярной декомпенсации при болезни Фара с акцентом на роль сосудистой минерализации и микроангиопатии как ключевых механизмов танатогенеза.

Заключение: Болезнь Фара может рассматриваться как прогрессирующее нейроваскулярное заболевание, при котором сосудистая минерализация и микроангиопатия являются ключевыми факторами развития тяжёлой неврологической декомпенсации и летального исхода.

Таблица 3.1.

Возрастная динамика морфометрических показателей глоточной миндалины у девочек

Морфометрический показатель	Дошкольный возраст (4–6 лет)	Младший школьный возраст (7–10 лет)	Средний школьный возраст (11–14 лет)	Подростковый возраст (15–18 лет)
Толщина эпителиального слоя, мкм	49,05 ± 2,02	53,96 ± 2,01 **	51,87 ± 2,36 *	38,95 ± 1,58 ***
Плотность лимфоидных фолликулов, мм ²	6,43 ± 0,36	7,25 ± 0,42 **	5,87 ± 0,64 ***	3,97 ± 0,49 ***
Площадь герминативных центров, мкм ²	71 097 ± 5 649	93 291 ± 4 584 ***	65 186 ± 6 738 ***	56 359 ± 7 735 ***
Диаметр лимфоидных фолликулов, мкм	293,96 ± 4,82	287,55 ± 9,04	265,66 ± 8,16 **	254,83 ± 8,00 *
Количество плазмочитов, на мм ²	62,99 ± 4,33	75,13 ± 7,01	65,83 ± 7,56	50,18 ± 3,74 ***
Количество нейтрофилов, на мм ²	3,17 ± 0,69	4,09 ± 0,79	4,94 ± 0,77	4,82 ± 0,76
Плотность слизистых желёз, на мм ²	3,99 ± 0,19	3,59 ± 0,14 *	3,02 ± 0,16 ***	3,22 ± 0,16 *
Доля реснитчатых клеток эпителия, %	73,94 ± 1,93	72,20 ± 2,12	69,63 ± 1,84 *	67,53 ± 2,16 ***
Индекс API	0,63 ± 0,26	0,65 ± 0,23	1,02 ± 0,31	1,23 ± 0,29

Примечание: * p < 0,05; ** p < 0,01; *** p < 0,001 — статистически значимые различия по сравнению с предыдущим возрастным периодом внутри того же пола.

Таблица 3.2.

Возрастная динамика морфометрических показателей глоточной миндалины у мальчиков

Морфометрический показатель	Дошкольный возраст (4–6 лет)	Младший школьный возраст	Средний школьный возраст	Подростковый возраст (15–18 лет)
-----------------------------	------------------------------	--------------------------	--------------------------	----------------------------------

		й возраст (7–10 лет)	(11–14 лет)	
Толщина эпителиального слоя, мкм	52,83 ± 2,51	51,62 ± 2,10	50,36 ± 2,03	41,49 ± 1,23 ***
Плотность лимфоидных фолликулов, мм ²	6,50 ± 0,50	7,23 ± 0,46	5,63 ± 0,48 **	4,04 ± 0,36 **
Площадь герминативных центров, мкм ²	72 310 ± 5 853	88 736 ± 5 022 *	70 611 ± 4 830 ***	48 947 ± 3 439 **
Диаметр лимфоидных фолликулов, мкм	280,19 ± 5,98	279,79 ± 7,97	268,93 ± 8,03	250,28 ± 6,08
Количество плазмоцитов, на мм ²	68,82 ± 8,43	74,20 ± 6,76	63,97 ± 6,45 **	43,01 ± 3,28 *
Количество нейтрофилов, на мм ²	2,15 ± 0,54	4,30 ± 0,83 *	4,77 ± 0,85 *	4,61 ± 0,71
Плотность слизистых желёз, на мм ²	4,03 ± 0,14	3,67 ± 0,15 **	3,27 ± 0,17 *	3,02 ± 0,13
Доля реснитчатых клеток эпителия, %	75,87 ± 1,92	70,83 ± 2,45 *	70,72 ± 1,59 *	65,63 ± 1,60
Индекс API	0,42 ± 0,21	0,69 ± 0,27	0,84 ± 0,28	1,03 ± 0,24

Примечание: * p < 0,05; ** p < 0,01; *** p < 0,001 — статистически значимые различия по сравнению с предыдущим возрастным периодом внутри того же пола.

MUSKUL TO'QIMASINING TUZILISHI VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Davolash ishi yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Amirov Og'abek

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada inson organizmining tayanch-harakat tizimida markaziy o'rin tutuvchi muskul to'qimasining morfofunktsional xususiyatlari tahlil qilingan. Ko'ndalang-targ'il, silliq muskullar va miokard to'qimalarining tuzilishi hamda ishlash mexanizmlari ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari, muskul qisqarishining mikroskopik asosi bo'lgan sarkomer apparati, aktin va miozin mikrofilamentlarining o'zaro ta'siri, muskul dastalarini himoya qiluvchi fashiyalarning ahamiyati ilmiy

asoslab berilgan. Maqola yakunida biomexanika qonuniyatlarining muskul to'qimasi funksiyasiga ta'siri bayon etilgan.

Kalit so'zlar: miologiya, muskul to'qimasi, ko'ndalang-targ'il, silliq muskullar, miokard, sarkomer, aktin, miozin, fashiyalar, qisqaruvchanlik, biomexanika.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются морфофункциональные особенности мышечной ткани как основы опорно-двигательной системы. Рассмотрены строение и механизмы работы скелетных, гладких мышц и миокарда. Научно обосновано значение саркомера, взаимодействие актина и миозина, а также роль фасций в защите мышечных пучков. Помимо этого, описано влияние закономерностей биомеханики на функции мышц.

Ключевые слова: миология, мышечная ткань, поперечно-полосатые мышцы, гладкие мышцы, миокард, саркомер, актин, миозин, фасции, сократимость, биомеханика.

ABSTRACT

This article analyzes the morphofunctional characteristics of muscle tissue as the core of the musculoskeletal system. The structure and mechanisms of skeletal, smooth, and cardiac muscles are examined. The significance of the sarcomere, the interaction of actin and myosin, and the role of fascia in protecting muscle bundles are scientifically substantiated. Additionally, the impact of biomechanics principles on muscle function is described.

Keywords: myology, muscle tissue, striated muscles, smooth muscles, myocardium, sarcomere, actin, myosin, fascia, contractility, biomechanics.

KIRISH

Inson organizmining morfofunktsional yaxlitligini ta'minlashda muskul to'qimasi alohida ahamiyat kasb etadi. Muskullar nafaqat mexanik harakatning asosi, balki murakkab endokrin va metabolik jarayonlarning muhim bo'g'inidir. Tadqiqotlarga ko'ra, inson tanasida 639 dan ortiq muskul mavjud bo'lib, ular tana vaznining erkaklarda 42–45 foizini, ayollarda esa 30–35 foizini tashkil etadi. Muskul to'qimasining funktsional holati organizmning umumiy gomeostazi, qon aylanishi va energiya almashinuvi bilan chambarchas bog'liqdir.

Biroq zamonaviy hayot tarzidagi gipodinamiya, ya'ni kam harakatlilik, hamda noto'g'ri jismoniy yuklamalar muskul to'qimasida distrofik o'zgarishlarga, miopatiyalarga va tayanch-harakat tizimi disfunktsiyasiga olib kelmoqda. Shu sababli muskul to'qimasining gistologik tuzilishi va qisqarish mexanizmlarini chuqur o'rganish zamonaviy tibbiyot va sport fiziologiyasining dolzarb masalasiga aylanib bormoqda.

Asosiy qism

1. Muskul to'qimasining gistofiziologik tasnifi

Inson organizmidagi muskul to'qimalari kelib chiqishi va tuzilishiga ko'ra uchta asosiy guruhga bo'linadi, ularning har biri o'ziga xos fiziologik vazifani bajaradi.

Skelet muskullari:

Skelet muskullari tana vaznining taxminan 40 foizini tashkil etib, inson xohishiga bo'ysunuvchi ixtiyoriy harakatlarni ta'minlaydi. Gistologik jihatdan bu muskullar ko'ndalang-targ'il ko'rinishga ega. Ularning asosini tashkil etuvchi muskul tolalari maxsus biriktiruvchi to'qima qavatlari — epimiziy, perimiziy va endomiziy — bilan o'ralgan bo'lib, bu ularning mexanik mustahkamligini taminlaydi. Har bir tola ichidagi sarkomerlar aktin va miozin oqsillari yordamida qisqarish vazifasini bajaradi.

Skelet muskullari bir qancha o'ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadi. Ular markaziy nerv tizimi va somatik nerv impulslari orqali ongli ravishda boshqariladi. Signal kelishi bilan soniyaning kichik ulushlarida qisqarib, yuqori dinamik kuch hosil qila oladi. Jismoniy faollik va qisqarish jarayonida issiqlik ajratib chiqarib, tana haroratini barqaror saqlaydi. Bundan tashqari, skelet muskullari faqat gavda va oyoq-qo'llarni harakatlantirmasdan, harakatsiz holatda ham tana muvozanatini saqlab, tayanch vazifasini bajaradi.

Silliq muskullar:

Silliq muskullar inson regulyatsiyasiga bo'ysunmaydigan, ichki a'zolarning avtonom ishlashini ta'minlaydigan maxsus to'qimadir. Gistologik jihatdan bu muskullarda skelet va yurak muskullariga xos bo'lgan ko'ndalang-targ'il muskullari uchramaydi, aynan shu sababli ular «silliq muskullar» deb ataladi. Hujayralari duksimon shaklda bo'lib, markazida bitta yadro joylashgan. Aktin va miozin filamentlari bu yerda ham mavjud, lekin ular tartibsiz joylashgan, shu sababli silliq muskullar sekin, ammo uzoq vaqt davomida charchamasdan qisqarib turadi.

Silliq muskullar avtonom nerv tizimi va gormonlar ta'sirida boshqariladi, ularni ongli ravishda boshqarib bo'lmaydi. Juda kam energiya sarflaydi va charchamaydi — masalan, qon tomirlari yoki ichaklar devori yillar davomida to'xtovsiz ishlab turishi mumkin. Harakatlari to'lqinsimon tarzda bo'ladi va bu ichki a'zolardagi moddalarning siljishini ta'minlaydi. Ichak va oshqozon devorida joylashib, ovqatni harakatlantiradi (peristaltika), qon tomirlari devorini toraytirib yoki kengaytirib, qon bosimini nazorat qiladi, bronxlarning kengligini ham taminlaydi.

Yurak muskuli (miokard)

Miokard skelet va silliq muskullarning eng yaxshi xususiyatlarini o'zida mujassam etgan, charchashni bilmaydigan noyob biologik nasosdir. Gistologik jihatdan u ko'ndalang-targ'il muskullaridan tuzilgan bo'lsa-da, hujayralari — kardiomiotsitlar — o'zaro shoxlangan holda tutashadi. Ularning muhim tuzilmasi bo'lgan oraliq disklar elektr impulslarini butun yurak bo'ylab bir zumda va to'siqsiz tarqalishini ta'minlaydi.

Miokard to'rtta asosiy xususiyatga ega: avtomatizm — tashqi signalsiz, mustaqil ravishda qo'zg'alish hosil qilish; qo'zg'aluvchanlik va o'tkazuvchanlik — elektr signallarini qabul qilish va oraliq disklar orqali uzatish; qisqaruvchanlik — qonni tomirlarga haydab berish uchun kuchli mexanik harakat. Yurakning to'xtovsiz ishlashi uning yuqori energetik quvvati bilan izohlanadi. Kardiomiotsitlar hajmining qariyb 30–35 foizini mitoxondriyalar tashkil etadi — bu skelet muskuliga nisbatan

bir necha barobar ko'p. Yurak asosan yog' kislotalarini oksidlash orqali energiya oladi va har bir urishdan keyingi qisqa dam olish — diastola — vaqtida o'zini to'liq tiklab ulguradi.

2. Mikrostruktura va molekulyar mexanizmlar

Skelet muskuli murakkab ierarxik tuzilishga ega bo'lib, uning eng kichik funksional birligi sarkomer hisoblanadi. Muskel tolasi ichidagi qisqaruvchi elementlar — miofibrillalar — aktin (ingichka) va miozin (yo'g'on) oqsillaridan tashkil topgan. Muskel dastalari (fassikulalar) perimiziy va epimiziy deb ataluvchi biriktiruvchi to'qima pardalari bilan o'ralgan bo'lib, bu tuzilma muskulning mexanik mustahkamligini va qon bilan ta'minlanishini nazorat qiladi. Aktin va miozin oqsillarining o'zaro ta'siri natijasida muskul qisqaradi va mexanik ish bajaradi.

3. Muskel to'qimasining fundamental xususiyatlari

Muskul to'qimasi o'ziga xos to'rta fundamental xususiyatga ega.

Qo'zg'aluvchanlik: Bu jarayon asab tizimidan kelgan elektr signalini muskul hujayrasi membranasiga yetib kelishi bilan boshlanadi. Nerv oxiri va muskul tolasi tutashgan nuqtada — sinapsda — maxsus kimyoviy mediator atsetilxolin ajralib chiqadi. Bu modda muskul qobig'idagi (sarkolemma) retseptorlarni qo'zg'atadi va natijada hujayra membranasining ionlar uchun o'tkazuvchanligi keskin o'zgaradi. Natriy ionlarining (Na^+) hujayra ichiga kirishi natijasida «harakat potentsiali» hosil bo'ladi va muskul ishchi holatga o'tadi.

O'tkazuvchanli.: Hosil bo'lgan elektr impulsi to'lqin kabi butun muskul tolasi bo'ylab yoyiladi. Muskel tolasi juda uzun bo'lishiga qaramay, qo'zg'alish maxsus T-naychalar tizimi orqali soniyaning mingdan bir ulushlarida hujayraning eng chuqur qatlamlarigacha yetib boradi. Bu tizim muskul ichidagi kalsiy depolari — sarkoplazmatik retikulum — bilan bog'langan bo'lib, impuls yetib kelgan zahoti kalsiy ionlari (Ca^{2+}) miofibrillalar orasiga chiqariladi.

Qisqaruvchanlik: Kalsiy ionlari ta'sirida yuzaga keladigan mexanik bosqichdir. Miofibrillalar ichidagi aktin va miozin oqsillari o'zaro tutashadi; miozin boshchalari ATF energiyasidan foydalanib, aktin tolalarini sarkomer markaziga qarab tortadi. Bunda oqsil tolalarining o'zi qisqarmaydi — ular bir-biriga zich joylashadi. Millionlab sarkomerlarning bir vaqtda qisqarishi natijasida butun muskul taranglashadi va mexanik harakat hosil bo'ladi.

Elastiklik.: Muskel qisqarib bo'lgandan keyin avvalgi shaklini tiklay olish xususiyatidir. Bu jarayon muskul tarkibidagi elastik oqsillar, xususan titin oqsili, hamda muskul dastalarini o'rab turuvchi fashiyalar orqali amalga oshadi. Tashqi kuch yoki qisqarish to'xtagandan so'ng ushbu elastik elementlar to'plangan energiyani ishga solib, muskulni dastlabki holatiga qaytaradi, uni haddan tashqari cho'zilishdan saqlaydi va keyingi qo'zg'alish sikliga tayyorlab beradi.

4. Muskel biomexanikasi

Muskullar o'z vazifasiga ko'ra o'zaro murakkab hamkorlikda ishlaydi. Agonist (sinergist) muskullar ma'lum bir harakatni bevosita bajaruvchi asosiy muskullar hisoblanadi. Antagonistlar esa asosiy harakatga qarama-qarshi yo'nalishda harakat qilib, harakatning silliqligini va muvozanatini ta'minlaydi. Harakatlarning aniqligi

va biomexanik samaradorligi markaziy nerv tizimi bilan muskul tolalarining o'zaro muvofiqlashgan aloqasiga bog'liq.

XULOSA

Muskul to'qimasi organizmda kimyoviy quvvatni mexanik energiyaga aylantiruvchi asosiy biologik tizim hisoblanadi. Uning funksional samaradorligi bevosita molekulyar darajadagi aktin va miozin filamentlarining o'zaro ta'siriga bog'liq bo'lib, kalsiy ionlari va ATF ishtirokidagi bu jarayon organizmning barcha ixtiyoriy harakatlarini ta'minlaydi.

Muskul to'qimasiga xos qo'zg'aluvchanlik, o'tkazuvchanlik, qisqaruvchanlik va elastiklik xususiyatlari yaxlit zanjir sifatida nerv impulslarini jismoniy kuchga aylantiradi. Muskul fashiyalarining himoya va trofik funksiyalari esa to'qimaning anatomik yaxlitligini saqlashda muhim rol o'ynaydi. Muskul to'qimasining morfofunktsional xususiyatlarini chuqur o'rganish tayanch-harakat tizimi kasalliklarini davolash, sport fiziologiyasi va rehabilitatsiya sohalarida individual yondashuvlarni ishlab chiqish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Guyton A.C., Hall J.E. Textbook of Medical Physiology, 14th Ed. Elsevier, 2020.
2. Ahmedov A. Odam anatomiyasi: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. Toshkent, 2022.
3. Junquera L.C. Basic Histology: Text and Atlas, 15th Ed. McGraw-Hill Education, 2018.
4. Qodirov U.Z. Odam fiziologiyasi: Darslik. Toshkent, 2015.
5. Lieberman D.E. The Evolution of the Musculoskeletal System. Harvard University Press, 2021.
6. Zufarov Q.A. Gistologiya: Tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. Toshkent: «Ibn Sino» nashriyoti, 2005.

ФАРА КАСАЛЛИГИДА МОРФОЛОГИК ЎЗГАРИШЛАРНИНГ ФАЗОВИЙ РЕКОНСТРУКЦИЯСИ ЧУҚУРЛАШТИРИЛГАН ПАТОГЕНЕТИК ВА ТАЪЛИМИЙ ТАҲЛИЛ УСУЛИ СИФАТИДА.

Абдукаҳхарова Дияна Сабиржановна

Морфология кафедраси

*Қараганда тиббиёт университети, Қараганда шаҳри, Қозоғистон
Республикаси*

Илмий раҳбар – т.ф.н., профессор Мусабекова С.А.

Долзарблиги:Замонавий морфология фаол рақамли трансформациядан ўтмоқда, бу алоҳида гистологик бўлимларни таҳлил қилишдан патологик жараёнларни ҳар томонлама фазовий ўрганишга ўтиш имконини беради. Нейродегенератив касалликларда, шу жумладан Фара касаллигида шикастланган худуднинг топографияси патогенезни тушунишда муҳим аҳамиятга эга, чунки кальсификациянинг тарқалиши қон томир-метаболик бузилишларнинг хусусиятларини ва нейроваскуляр бирлик

компонентларининг ўзаро таъсирини акс эттиради. Анъанавий морфологик таҳлилда патологик ўзгаришларнинг фазовий муносабатлари кўпинча етарсиз кўринишда бўлиб қолади, бу маълумотларни шарҳлашни чеклайди ва ўрганишни мураккаблаштиради.

Тадқиқотнинг мақсади: Фара касаллигида бош миядаги морфологик ўзгаришларни фазовий реконструкция қилиш имкониятларини баҳолаш, бу орқали патогенезни чуқур таҳлил қилиш ва морфологик диагностика самарадорлигини ошириш.

Тадқиқот материаллари ва усуллари: Бош миянинг гистологик тадқиқот натижалари рақамли қайта ишлаш ва шикастланиш топографиясини реконструкция қилиш орқали таҳлил қилинди. Кальцинатларнинг локализацияси, уларнинг фазовий тарқалиши, қон томир тузилмалари билан боғлиқлиги, шунингдек патологик ўзгаришларнинг симметриклиги баҳоланди. Таҳлил морфологик маълумотларни қаватма-қават реконструкция қилиш орқали амалга оширилди, бу эса микроскопик ўзгаришларни уларнинг анатомик топографияси билан солиштириш имконини берди.

Натижалар ва уларни муҳокама қилиш: Фазовий таҳлил шикастланишнинг симметрик хусусиятини аниқлади, кальцификатлар асосан базал ядролар, таламус ва мияча ҳудудларида жойлашган. Қон томирларининг минерализацияси аниқ периваскуляр йўналишга эга экани ва нейропаренхимада реактив ўзгаришлар билан бирга кечиши ўрнатилди. Визуализация қон томирлари ва нейронал ўзгаришлар ўртасидаги боғлиқликни аниқроқ тушуниш ва шарҳлаш имконини берди ва патологик жараённинг қон-метаболик хусусиятини тасдиқлади. Олинган натижалар фазовий ёндашув касаллиқнинг патогенезини чуқурроқ тушунишга хизмат қилиши ва морфологик тадқиқотнинг диагностика ахборотлилигини ошириши мумкинлигини кўрсатди.

Хулоса: Фазовий реконструкция чуқур морфологик таҳлил учун истиқболли усул бўлиб, Фара касаллигида патологик ўзгаришларнинг топографиясини тўлиқроқ баҳолаш имконини беради. Ушбу ёндашувни қўллаш морфологик маълумотларнинг аниқлигини оширишда муҳим аҳамиятга эга ва морфология йўналиши бўйича мутахассислар тайёрлашда таълим жараёнида самарали қўлланилиши мумкин.

5–6 Ёшли болаларда шаҳар ва қишлоқ шароитида антропометрик кўрсаткичларнинг қиёсий таҳлили

203-гуруҳ талабаси, Тиббиёт факультети, даволаш

йўналиши Базарова Азиза

Алимова Нигина Пулатовна

Анатомия, клиник анатомия (ОХТА) кафедраси доценти

Аннотация. Болаларнинг жисмоний ривожланиши кўп омилли биологик жараён бўлиб, ирсий хусусиятлар билан бир қаторда ташқи муҳит

омиллари — озикланиш, экологик шароит, турмуш тарзи ва ижтимоий-иқтисодий ҳолат таъсирида шаклланади. Айниқса, шаҳар ва қишлоқ муҳити ўртасидаги фарқлар болалар организмининг морфофункционал ривожланишида муайян тафовутларни юзага келтириши мумкин. Антропометрия болалар саломатлигини баҳолашнинг ишончли ва объектив усули бўлиб, бўй узунлиги, тана вазни ва кўкрак қафаси айланаси каби кўрсаткичлар орқали жисмоний ривожланиш даражасини комплекс таҳлил қилиш имконини беради.

Тадқиқот мақсади. 5–6 ёшли болаларда шаҳар ва қишлоқ шароитида антропометрик кўрсаткичларнинг қиёсий хусусиятларини аниқлаш.

Материал ва усуллар. Тадқиқот генерализирувчи (кўндаланг) усулда амалга оширилди. Жами 74 нафар бола текширилди, улардан 37 нафари қишлоқ, 37 нафари шаҳар шароитида истиқомат қилувчи болаларни ташкил этди. Антропометрик текширув давомида бўй узунлиги, тана вазни ва кўкрак қафаси айланаси стандарт методика асосида ўлчанди. Олинган натижалар вариацион статистика усулида таҳлил қилиниб, кўрсаткичлар ўртача арифметик қиймат ва унинг хатоси ($M \pm m$) кўринишида ифодаланди.

Натижалар. Тадқиқот натижалари 5–6 ёшли болаларда шаҳар ва қишлоқ шароитида антропометрик кўрсаткичлар ўртасида муайян фарқлар мавжудлигини кўрсатди. 5 ёшли ўғил болаларда қишлоқ гуруҳида ўртача тана вазни $17,76 \pm 0,62$ кг ни ташкил этган бўлса, шаҳар гуруҳида ушбу кўрсаткич $19,12 \pm 0,98$ кг бўлиб, фарқ $1,36$ кг ни ташкил этди. Кўкрак қафаси айланаси қишлоқ болаларида $60,24 \pm 1,69$ см, шаҳарда эса $62,5 \pm 0,86$ см бўлиб, тахминан $2,3$ см га юқори экани аниқланди. Бўй узунлиги бўйича шаҳар болаларида нисбатан юқорироқ кўрсаткичлар қайд этилди. 5 ёшли қиз болаларда қишлоқ гуруҳида тана вазни $17,5 \pm 0,75$ кг, шаҳарда эса $17,28 \pm 0,19$ кг бўлиб, фарқ сезиларли эмаслиги кузатилди. Бироқ бўй узунлиги шаҳар қиз болаларида $114–116$ см атрофида бўлиб, қишлоқ гуруҳига нисбатан тахминан $4–5$ см га баландроқ экани қайд этилди. Кўкрак қафаси айланаси ҳам шаҳарда ўртача 2 см га юқори бўлди.

6 ёшли ўғил болаларда қишлоқ гуруҳида ўртача бўй узунлиги $119,2 \pm 2,28$ см ни ташкил этган бўлса, шаҳар гуруҳида ушбу кўрсаткич $127,7 \pm 1,96$ см га тенг бўлди. Демак, шаҳар болалари қишлоқ болаларига нисбатан тахминан $8,5$ см га баландроқ экани аниқланди. Бу фарқ анча сезиларли бўлиб, яшаш муҳити таъсирини кўрсатади. Тана вазни бўйича қишлоқ гуруҳида ўртача $21,7 \pm 0,65$ кг, шаҳарда эса $21,6 \pm 0,60$ кг бўлиб, фарқ деярли кузатилмади. Демак, 6 ёшда вазн кўрсаткичи бўйича шаҳар ва қишлоқ ўғил болалари ўртасида сезиларли тафовут йўқ. Кўкрак қафаси айланаси қишлоқ болаларида $63,1 \pm 0,65$ см, шаҳарда $63,7 \pm 0,90$ см ни ташкил этди. Фарқ атиги $0,6$ см бўлиб, клиник аҳамиятли деб баҳоланмайди.

ИМТ таҳлилида эса қишлоқ болаларида ИМТ тахминан $15,3$ ни, шаҳарда $13,2$ ни ташкил этди. Демак, қишлоқ болаларида ИМТ нисбатан юқорироқ бўлиб, бу бўй ва вазн нисбатидаги фарқ билан изоҳланади.

Хулоса. Тадқиқот натижалари шаҳар ва қишлоқ болалари ўртасида антропометрик кўрсаткичларда муайян фарқлар мавжудлигини кўрсатди. Шаҳар болаларида айрим ёш гуруҳларида бўй ва вазн кўрсаткичлари юқорироқ бўлса, қишлоқ болаларида айрим ҳолларда ИМТ нисбатан юқорироқ қайд этилди. Аниқланган фарқлар болалар организмининг морфофункционал ривожланишига ташқи муҳит омиллари таъсирини тасдиқлайди. Олинган натижалар болалар жисмоний ривожланишини мунтазам мониторинг қилиш ва профилактик чора-тадбирларни такомиллаштириш учун морфологик асос бўлиб хизмат қилади.

**ПРЕИМУЩЕСТВА ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ИЗУЧЕНИИ
КЛИНИЧЕСКОЙ АНАТОМИИ ОРГАНОВ ДЫХАНИЯ**

Каримова Умида Мирвосик кизи

*Кафедра Общей хирургии, топографической анатомии с основами
оперативной хирургии*

*Ташкентский государственный медицинский университет,
Ташкент, Узбекистан*

Научный руководитель: доцент Акрамова М.Ю.

Актуальность. В последние годы область изучения анатомии человека существенно изменилась: от классической академической дисциплины она эволюционировала в высокотехнологичную сферу, тесно интегрированную с современными методами диагностики и навигации во время операций. В частности, анатомия грудной клетки представляет собой серьезную проблему из-за крайней изменчивости бронх сосудистых структур. По статистике, нестандартное ветвление сегментарных бронхов (В-1–В-10) и вариации сосудов корня легкого выявляются более чем в 25–30 % случаев, что повышает вероятность возникновения ятрогенных осложнений при радикальных операциях.

Традиционные методы, такие как двумерная компьютерная томография (КТ), требуют от специалистов высокой концентрации и умения мысленно воспроизводить пространственные взаимоотношения между патологическими образованиями и окружающими анатомическими структурами. Применение алгоритмов искусственного интеллекта (ИИ) смягчает этот «человеческий фактор», способствуя переходу от стандартных моделей, основанных на атласах, к построению индивидуальных цифровых моделей каждого пациента. Это превращает статическую визуализацию в динамический цифровой двойник, доступный для интраоперационного анализа в режиме реального времени.

Цель работы - Оценить клиническую эффективность и преимущества внедрения технологий ИИ для точной визуализации, и топографического исследования анатомии дыхательной системы на этапах предоперационного планирования и хирургического вмешательства.

Материалы и методы исследования. В работе использованы методы глубокого обучения, в частности сверточные нейронные сети (CNN) и архитектуры U-Net, разработанные для задач торакальной радиологии. Анализировались возможности автоматической сегментации легочной паренхимы, сосудистых структур и бронхиального дерева, а также применение технологий дополненной реальности (AR) на основе ИИ при проведении видео ассистированных и роботизированных торакальных операций.

Результаты и их обсуждение. Исследование выявило несколько ключевых преимуществ использования интеллектуальных систем в контексте клинической анатомии:

1. Высокоточная автоматическая сегментация и 3D-реконструкция. В отличие от классической постобработки КТ, которая отнимает много времени у радиологов, современные нейронные сети (например, модели nnU-Net) выполняют автоматическую сегментацию анатомических объектов за считанные секунды. Эти алгоритмы различают структуры, четко определяя границы между опухолями, лимфатическими узлами и сосудистыми стенками. 3D-реконструкция, полученная по этим методам, позволяет хирургам выполнять «виртуальное рассечение» перед операцией, оценивая глубину поражений и их близость к сегментарным структурам с субмиллиметровой точностью.

2. Обнаружение анатомических вариаций и врожденных аномалий. Модели ИИ эффективно выявляют редкие анатомические явления, такие как трахеальный бронх (*bronchus suis*), дополнительные легочные вены или атипичное течение возвратного гортанного нерва — особенности, которые могут быть упущены при стандартном послойном просмотре. Раннее обнаружение этих вариаций с помощью ИИ радикально снижает риск смертельного интраоперационного кровотечения и случайного повреждения дыхательных путей.

3. Интеллектуальная интраоперационная навигация и интеграция AR. Одной из наиболее перспективных областей является объединение моделей искусственного интеллекта с потоковым видео во время эндоскопической хирургии. Алгоритмы искусственного интеллекта могут корректировать виртуальную модель в режиме реального времени, «накладывая» ее на деформированные ткани. Системы дополненной реальности позволяют хирургам видеть сосуды и бронхи «сквозь» плевру и паренхиму, превращая сложное рассечение в предсказуемый процесс и сводя к минимуму кровопотерю.

Вывод. Использование искусственного интеллекта в анатомических исследованиях дыхательной системы открывает путь к переходу от теоретического описания к персонализированному цифровому моделированию. Ключевые технологические преимущества — быстрая 3D-визуализация, обнаружение скрытых аномалий и точная интраоперационная навигация — способствуют повышению безопасности хирургических

вмешательств. ИИ становится ценным инструментом для углубленного изучения анатомии, не заменяя, а дополняя профессиональные знания врача.

YANGI TUG‘ILGAN CHAQALOQLARDA O‘PKA ATALEKTAZINING PATOMORFOLOGIK XUSUSIYATLARI VA GESTATION YOSHGA BOG‘LIQ QIYOSIY TAHLILI

Pardayev Musobek O‘ktam o‘g‘li

Odam anatomiyasi, Klinik anatomiya, Gistologiya, Patologik anatomiya va sud tibbiyoti kafedrası. Biologiya mikrobiologiya va bioinjeneriya kafedrası

ZARMED Universiteti Samarqand Kampusi Samarqand, O‘zbekiston

Ilmiy rahbarlar: H.Sh. Shayqulov ass, M.A. Urunova Phd .ass

Dolzarbli: Neonatal davrda o‘pka atalektazi yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda og‘ir nafas yetishmovchiligi va perinatal letallikning asosiy morfologik sabablaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, muddatidan oldin tug‘ilgan chaqaloqlarda alveolyar apparatning morfofunktsional yetilmaganligi va surfaktant yetishmovchiligi tufayli o‘pkaning to‘liq ochilmasligi kuzatiladi. Muddatida tug‘ilgan chaqaloqlarda esa atalektaz ko‘proq perinatal asfiksiya, aspiratsiya sindromi va intrauterin infeksiyalar fonida rivojlanadi. Preterm va term chaqaloqlarda atalektazning shakllanish mexanizmi hamda o‘pka to‘qimasidagi makro- va mikromorfologik o‘zgarishlar o‘rtasidagi farqlarni aniqlash neonatal respirator patologiyalar patogenezini chuqurroq tushunish, erta diagnostika va profilaktikani takomillashtirish uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi: Muddatidan oldin va muddatida tug‘ilgan chaqaloqlarda o‘pka atalektazining uchrash chastotasi, morfologik shakllari va patomorfologik o‘zgarishlarini qiyosiy baholash hamda uning rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash.

Materiallar va tadqiqot usullari: Tadqiqot 2024–2025-yillarda SamDTU 1-son Ko‘p tarmoqli klinikasi qoshidagi Patologik anatomiya laboratoriyasida olib borildi. Tadqiqot obyektida 74 nafar vafot etgan yangi tug‘ilgan chaqaloq murdasidan olingan o‘pka to‘qima namunalari o‘rganildi. Shundan 42 nafari (56,8%) muddatidan oldin, 32 nafari (43,2%) muddatida tug‘ilgan chaqaloqlarni tashkil etdi.

O‘lim sabablari quyidagicha taqsimlandi:

- respirator distress sindromi — 28 holat (37,8%),
- perinatal asfiksiya — 19 holat (25,7%),
- intrauterin va neonatal infeksiyalar — 15 holat (20,3%),
- aspiratsiya sindromi — 7 holat (9,5%),
- tug‘ma nuqsonlar — 5 holat (6,7%).

Makroskopik bosqichda o‘pkaning pnevmatizatsiya darajasi, kollaps zonalari, konsistensiyasi va rang o‘zgarishlari, O‘pka atalektaziga aloqador holda jigar, buyrak v ayurakdagi makroskopik va mikroskopik patomorfologik jihatlari baholandi. Mikroskopik tekshiruv uchun o‘pka va yurak, jigar va buyrakdan olingan

na'munalar 10% neytral formalinda fiksatsiya qilinib, parafin bloklarga quyildi va 5–7 mkm qalinlikdagi kesimlar tayyorlandi. Kesimlar gematoksilin-eozin bilan bo'yaldi, qo'shimcha ravishda PAS-reaksiyasi qo'llanildi. Mikroskop ostida alveolalarning ochilish darajasi, surfaktant yetishmovchiligi belgisi, gialin membranalar, tomirlarning to'lishi, gemorragik o'zgarishlar va interstitsial stromal o'zgarishlar baholandi. Statistika tahlil Student t-testi yordamida bajarildi, ishonchlilik mezonini $p < 0,05$ deb qabul qilindi.

Natijalar va ularning muhokamasi: O'pka atalektazi 74 ta chaqaloqdan 42 tasida (56,7%) aniqlangan. Muddatidan oldin tug'ilganlarda 31/42 (73,8%), muddatida tug'ilganlarda 11/32 (34,4%) holatda uchradi ($p < 0,01$).

Atalektazning morfologik shakllari:

- diffuz total atalektaz: preterm — 14/31 (45,2%), term — 2/11 (18,2%);
- o'choqli atalektaz: preterm — 12/31 (38,7%), term — 5/11 (45,5%);
- segmentar kollaps: preterm — 5/31 (16,1%), term — 4/11 (36,3%).

Makroskopik tahlilda muddatidan oldin tug'ilgan chaqaloqlarda o'pkaning keskin pnevmatizatsiya yetishmovchiligi 38/42 (90,5%) holatda, zich "xamirga o'xshash" konsistensiya va to'q-qizil rang 35/42 (83,3%) holatda kuzatildi. Muddatida tug'ilganlarda bu belgilar 17/32 (53,1%) holatda aniqlanib, nisbatan yengil darajada bo'ldi.

Mikroskopik tekshiruvda preterm chaqaloqlarda alveolalarning to'liq ochilmasligi 36/42 (85,7%), surfaktant yetishmovchiligi 35/42 (83,3%), gialin membranalar 24/42 (57,1%), diffuz alveolyar kollaps 31/42 (73,8%) holatda aniqlandi. Term chaqaloqlarda alveolalarning to'liq ochilmasligi 12/32 (37,5%), gialin membranalar 6/32 (18,7%) holatda uchradi, biroq gemorragik o'choqlar va tomirlarning to'lishi 14/32 (43,7%) holatda ko'proq qayd etildi.

Maxsus bo'yoqlarda preterm guruhda PAS-musbat surfaktant glikoproteinlarining kamayishi 33/42 (78,6%) va stromada kollagen tolalarining erta to'planishi 21/42 (50,0%) holatda aniqlanib, o'pka to'qimasining morfofunktsional yetilmaganligini tasdiqladi. Term chaqaloqlarda bu ko'rsatkichlar mos ravishda 9/32 (28,1%) va 6/32 (18,7%) ni tashkil etdi. Yurakda miokard tolalarining parchalanishi 9/74 (12,1%), kardiomyositlarda yo'laklar ko'rinishidagi shish 11/74 (14,8%), perivaskulyar bo'shliqlarda shish 13/74 (17,5%), yurak hajmining nisbiy kattalashuvi 7/74 (9,4%) hamda mayda nekroz va nekrobiotik o'choqlar 6/74 (8,1%) holatda kuzatildi.

Jigarda asosan markaziy venalar va sinusoidlarning qon bilan to'lishi 18/74 (24,3%), gepatositlarda donador va vakuolyar distrofiyalar 15/74 (20,2%), perisinusoidal shish 10/74 (13,5%) va kam hollarda fokal nekroz o'choqlari 5/74 (6,7%) aniqlanib, gipoksik shikastlanishga xos morfologik manzara qayd etildi.

Buyraklarda naycha epiteliyasining shishi va vakuolyar degeneratsiyasi 16/74 (21,6%), interstitsial shish 12/74 (16,2%), glomerulyar kapillyarlarning qon bilan to'lishi 14/74 (18,9%) hamda o'choqli epiteliyal nekrobiotik o'zgarishlar 5/74 (6,7%) holatda uchradi.

Xulosa: Muddatidan oldin tug'ilgan chaqaloqlarda o'pka atalektazi asosan diffuz alveolyar kollaps, og'ir surfaktant yetishmovchiligi va gialin membranalar

bilan xarakterlanadi, muddatida tug‘ilganlarda esa ko‘proq lokal kollaps, gemorragik o‘zgarishlar va tomirlar qon bilan to‘lib kengayganligi ustunlik qiladi. Aniqlangan morfologik farqlar o‘pkaning gestatsion yetilish darajasi va asosiy o‘lim sabablari bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi. O‘pka atalektazi bilan bog‘liq o‘lim holatlarida nafaqat respirator tizim, balki yurak, jigar va buyraklarda ham gipoksik-distrofik va nekrobiotik jarayonlar rivojlanishi aniqlanib, bu neonatal davrda ko‘p a‘zoli yetishmovchilik shakllanishining morfologik asosini tashkil etadi. Preterm chaqaloqlarda bu o‘zgarishlar ko‘proq og‘ir va diffuz xarakterda kechishi kuzatildi.

Tavsiyalar:

- muddatidan oldin tug‘ilgan chaqaloqlarda erta surfaktant terapiyasi va noinvaziv respirator qo‘llab-quvvatlashni keng qo‘llash;
- perinatal asfiksiya va aspiratsiya xavfini erta aniqlash hamda oldini olish;
- RDS xavfi yuqori chaqaloqlarda erta skrining va intensiv monitoring o‘tkazish;
- neonatal letallik sabablarini aniqlashda o‘pkaning patomorfologik tekshiruvini majburiy diagnostik bosqich sifatida qo‘llash.

**YURAK TUG‘MA NUQSONLARNI AUTOPSION TAHLIL ORQALI
UCHRASH DARAJASINI ANIQLASH**

Musurmonova Muxlisa Sanjar kizi

*Patologik anatomiya, seksion biopsion kursi bilan kafedra 1 boskich magistr
rezidenti.*

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti, Samarqand, O‘zbekiston.

Ilmiy rahbar: t.f.n., dotsent v/b. J.M.Ismoilov.

Tadqiqot maqsadi: Samarqand viloyati bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazida vafot etgan bolalar o‘rtasida tug‘ma yurak nuqsonlari uchrash darajasini aniqlash.

Tadqiqot manbai va usullari: Samarqand viloyati bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazida 2024 yil davomida vafot etgan marhum bemorlarning kasallik tarixi va autopsion tekshiruvdan o‘tkazilganlarni patologoanatomik xulosalari olindi.

Tahlil natijalari: O‘tkazilgan tahlil natijalariga ko‘ra 2024 yilda Samarqand viloyati bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazida 335 ta bolalar o‘limi qayd etilgan bo‘lib shundan 252 tasi patologoanatomik tekshiruvdan o‘tkazilgan. Vafot etgan bemorlarni kasalliklar nazologiyasi bo‘yicha tahlil qilganda ularni 58 tasi yurak tug‘ma nuqsonlari natijasida sodir bo‘lganligi aniqlandi. Yurak tug‘ma nuqsonlari turlari buyicha esa quyidagilarni tashkil qildi: qorinchalar orasidagi to‘siqning nuqsoni 21 ta, bo‘lmachalar orasidagi to‘siq nuqsoni 8 ta, qorincha va bo‘lmachalar orasidagi to‘chiqning nuqsoni 7 ta, Battalov yo‘lining bitmaganligi 18 ta, magistral qon tomirlar transpozitsiyasi 5 ta, Fallo triadasi 1 ta, Fallo Tetradas 5 ta holatlarda qayd etildi. Yurak tug‘ma nuqsoni natijasida vafot etgan bemorlarni jins bo‘yicha tahlil qilganda ularni 36 tasi 62% o‘g‘il bolalarni, 22 tasi 38% qiz bolalarni tashkil qildi. Kasallik tarixi ma’lumotlari bo‘yicha vafot etgan bemorlarni onalari

homiladorlik davri ayniqsa homiladorlikni birinchi uch oyligida o'tkir respirator virusli kasalliklari, pielonefrit, kamqonlik kasalliklari bilan aziyat chekishgan. Onalarni yoshlarni solishtirma tahlil olib borilganda ularni aksariyati 3-4 ba'zilarida 6 homiladorlik bo'lib yoshlari 30-35 lar atrofida ekanligi qayd etildi. Achinarli holat shundaki 16 ta holatda bemorlarda tug'ma yurak nuqsonlari boshqa kasalliklar sababli shifoxona murojat qilgan holatlar aniqlangan bo'lsada 28 ta holatda tug'ma nuqson 3 oylikdan keyin aniqlangan qolgan holatlarda esa tug'ma nuqson tug'ilgandan keyin dastlabki kunlarda aniqlangan. Aniqlangan so'ng bemorlar dispanser nazoratida turib doimiy ravishda kardiolog va uchastka pediatri nazoratida turishgan. Yurak tug'ma nuqsoni sababli vafot etgan bemorlarni yoshi bo'yicha tahlil o'tkazilganda ularni 41 tasi ya'ni 71% 1 yoshgacha bo'lganlarni tashkil qilib, shundan 3 oygacha 19 ta, 6 oygacha 6 tani, 9 oylikgacha 7 tani 12 oylikgacha esa 8 tani tashkil etgan bo'lcha qolgan 18 ta holat 1 yoshdan kattalarni tashkil qiladi. Ushbu bemorlarni ko'pchiligi shifoxonada yurak tug'ma nuqsonlari sababli yuzaga kelgan yuqori va paski nafas olish tizimining yallig'lanishi kasalliklari tufayli statsionarda og'ir ahvolda murojat qilishgan va o'rtacha 8 kun davomida yotib davolanish davomida yuzaga kelgan asoratlar sababli vafot etishgan. Bemorlar statsionarda davolanish davomida eng kamida 16 soatdan 30 kungacha yotishgan va reanimatsion chora tadbirlar bilan birgalikda simptomatik, etiotrop, infuzion, kislorodoterapiya, yurak faoliyati yaxshilaydigan preparatlar qabul qilib borishgan. 23 ta holatda aniqlangan tug'ma yurak nuqsonlari jarrohlik amaliyoti orqali bartaraf etilishiga qaramasdan ularda o'lim holatlari kuzatilgan. Patologoanatomik xulosalarni tahlil qilganda ushbu vafot etgan bemorlari aksariyati ikki tomonlama dimlangan seroz gemorragik pnevmoniya, serozli yiringli bronxopnevmoniya, o'pka gipertenziyasi, ichki a'zolarini o'tkir va surunkali venoz dimlanish, o'pkaning qo'ng'ir induratsiyasi, muskat jigari, gipoksiya natijasida o'tkir bo'yurak etishmovchiligi asoratlari tufayli vafot etishgan.

Xulosa: Yurak tug'ma nuqsonlarini aksariyati onalarda mavjud kasalliklar natijasida yuzaga kelishi, kasallikni kech aniqlanishi ya'ni asoratlar yuzaga kelgandan keyin statsionarda murojat etishlari tufayli o'lim sodir bo'lishini inobatga olsak, kasalliklarni ertachi aniqlash va muolajaviy chora tadbirlarning o'z vaqtida o'tkazilishi bemorlarni hayotini saqlab qolishning asosiy omillaridan biridir.

QANDLI DIABET OQIBATIDA YUZAGA KELADIGAN OKSIDATIV STRESSLI JARAYONLARDA ANTIOKSIDANT FERMENT GENLARINING POLIMORFIZMINI O'RGANISH

*Mamadiyarova Dilshoda Umirzokovna
Samarqand davlat tibbiyot universiteti dotsenti, PhD, O'zbekiston*

Tadqiqotning maaqsadi: Qandli diabet oqibatida yuzaga keladigan oksidativ stressli jarayonlarda antioksidant ferment tizimi genlar polimorfizmining ahamiyatini o'rganish.

Tadqiqot material va metodi: Tadqiqotimizda Samarqand shahar Endokrinologiya dispanserida ro'yxatga olingan 94 nafar bemor asosiy guruhga

kiradi. Bemorlarning barchasi O'zbekistonda yashovchi o'zbek populyatsiyasiga mansub shaxslardan iborat.

Tashxis klinik, laboratoriya va instrumental tekshirish ma'lumotlari to'plami asosida qo'yilgan va xalqaro tasnifga muvofiq tasdiqlangan. Asosiy guruh ikkita kichik guruhga bo'linadi: 1-guruh - asoratsiz diabet bilan kasallangan bemorlar (n=44), 2-guruh - diabetik angiopatiya bilan asoratlangan qandli diabet bilan kasallangan bemorlar (n=50). Nazorat guruhi sifatida 80 nafar qandli diabet bilan og'rimagan sog'lom shaxslar hisoblanadi.

Malondialdehid (MDA), dien konjugatlari (DC), superoksid dismutaza (SOD) va katalaza faolligi tarkibi standart spektrofotometrik usullar bilan aniqlanadi. VGEF, Glukrlangan gemoglobin IFA usulida, ularning genlar polimorfizmi PSR yordamida aniqlandi.

Qandli diabetning tarqalishi har yili barqaror o'sib bormoqda. Bugungi kunda qandli diabet saraton va yurak-qon tomir patologiyalaridan keyin yuqumli bo'lmagan kasalliklarning tarqalishi bo'yicha yetakchi bo'lib, ko'pincha nogironlik va o'limga olib keladi. Organizmning patologik jarayonga universal reaksiyalari ferment oqsillarining oksidlovchi modifikatsiyasi va lipidlar peroksidlanishining faollashuvi bilan oksidlovchi stress bo'lib, qandli diabet va uning asoratlari rivojlanishida pankreatik proteinazlarning nazoratsiz faollashishiga olib keladi.

Antioksidant himoya tizimi fiziologik faol moddalarning keng ko'lamli ko'p komponentli tarmog'i bo'lib, bir-birini to'ldiradigan fermentativ va ferment bo'lmagan birikmalarni birlashtiradi va shu bilan oksidlanish reaksiyalarini nazorat qilishni va turli xil zaharli mahsulotlar inaktivatsiyasini ta'minlaydi. Ma'lumki, antioksidant tizim juda ko'p sonli bog'lanishlarni o'z ichiga oladi, ammo antioksidant fermentlar genetik jihatdan aniqlanadi, ularning genlari tarkibida funktsional teng bo'lmagan polimorfik allellar mavjudligi sababli fermentativ faollikdagi yaqqol individual va populyatsiya farqlari bilan tavsiflanadi.

Natijalar: 2-toifa qandli diabetda TBA-faol mahsulotlar va antioksidant fermentlarning - superoksid dismutaza, katalaza faolligi (lipid peroksidatsiyasining ko'rsatkichi) uch marta va oqsillarning oksidlovchi modifikatsiyasi ko'rsatkichi bo'lgan bitirozin kontsentratsiyasi yetti baravar ortishi ko'rsatilgan, bu $\alpha 1$ -proteinaz ingibitorining faolligiga salbiy bog'liq ekanligini ko'rsatadi (-0.70 p). $\alpha 1$ -proteinaza ingibitori faolligining pasayishi deyarli sog'lom odamlarga nisbatan elastaza va tripsinga o'xshash proteinazlar faolligining mos ravishda ikki va uch baravar oshishi bilan birga keldi. Antioksidant fermentlar, superoksid dismutaza va katalazalarning faolligi mos ravishda bir necha barobar marta oshdi.

Xulosa. 2-toifa qandli diabetda organizmda yuzaga keladigan oksidlanish stressing kuchayishi va oqsillarning oksidlanish modifikatsiyasi $\alpha 1$ -proteinaz ingibitori faolligining pasayishi va elastaza, tripsinga o'xshash proteinazalar, shuningdek antioksidant fermentlar faolligining oshishi bilan birga keladi. Oksidativ stressing kuchayishi fonida antioksidant fermentlardan MDA, SOD ning kamayishi va Katalazaning ortishi kuzatildi. Genetik tahlilda bemorlarning diabetik angiopatiya bilan asoratlanishi genlar polimorfizmidagi nukleotidlar ketma ketligidagi o'zgarishlar bilan bog'liqligi aniqlandi.

MUSKUL TO'QIMASINING TUZILISHI VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLAR

Amirov Og'abek Amin o'g'li

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Davolash ishi yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar:

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Kardiologiya mutaxassisligi bo'yicha magistr

Muxammadjonov Oqilbek Mirzoulug'bek o'g'li

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada inson organizmining tayanch-harakat tizimining asosiy qismi bo'lgan muskul to'qimasining morfofunktsional xususiyatlari tahlil qilingan. Ko'ndalang-targ'il, silliq muskullar va miokard to'qimalarining tuzilishi hamda ishlash mexanizmlari ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari, muskul qisqarishining mikroskopik asosi bo'lgan sarkomer apparati, aktin va miozin mikrofilamentlarining o'zaro ta'siri, muskul dastalarini himoya qiluvchi fastsiyalarning ahamiyati ilmiy asoslab berilgan. Maqola yakunida biomexanika qonuniyatlarining muskul to'qimasi funksiyasiga ta'siri bayon etilgan.

Kalit so'zlar: miologiya, muskul to'qimasi, ko'ndalang-targ'il, silliq muskullar, miokard, sarkomer, aktin, miozin, fastsiyalar, qisqaruvchanlik, biomexanika.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются морфофункциональные особенности мышечной ткани, являющейся основной частью опорно-двигательного аппарата человека. Рассмотрены структура и механизмы функционирования поперечнополосатых, гладких мышц и тканей миокарда. Кроме того, научно обоснованы микроскопическая основа мышечного сокращения — саркомерный аппарат, взаимодействие актиновых и миозиновых микрофиламентов, а также значение фасций, защищающих мышечные пучки. В завершение статьи описывается влияние закономерностей биомеханики на функцию мышечной ткани.

Ключевые слова: миология, мышечная ткань, поперечнополосатые мышцы, гладкие мышцы, миокард, саркомер, актин, миозин, фасции, сократимость, биомеханика.

ABSTRACT

This article analyzes the morphofunctional characteristics of muscle tissue, which is a fundamental part of the human musculoskeletal system. The structure and operating mechanisms of skeletal (striated), smooth, and cardiac muscle tissues are examined. Furthermore, the microscopic basis of muscle contraction—the sarcomere apparatus, the interaction of actin and myosin microfilaments, and the importance of fasciae in protecting muscle bundles—are scientifically explained. The article concludes by describing the influence of biomechanical laws on the function of muscle tissue.

Keywords: myology, muscle tissue, striated muscles, smooth muscles, myocardium, sarcomere, actin, myosin, fasciae, contractility, biomechanics.

KIRISH

Inson organizmining morfofunktsional yaxlitligini ta'minlashda muskul to'qimasi alohida ahamiyat kasb etadi. Muskullar nafaqat mexanik harakatning asosi, balki murakkab endokrin va metabolik jarayonlarning muhim qismidir. Tadqiqotlarga ko'ra, inson tanasida 639 dan ortiq muskul mavjud bo'lib, ular tana vaznining erkaklarda 42–45 foizini, ayollarda esa 30–35 foizini tashkil etadi. Muskul to'qimasining funktsional holati organizmning umumiy gomeostazi, qon aylanishi va energiya almashinuvi bilan chambarchas bog'liqdir.

Biroq zamonaviy hayot tarzidagi gipodinamiya, ya'ni kam harakatlilik, hamda noto'g'ri jismoniy yuklamalar muskul to'qimasida distrofik o'zgarishlarga, miopatiyalarga va tayanch-harakat tizimi disfunktsiyasiga olib kelmoqda. Shu sababli muskul to'qimasining gistologik tuzilishi va qisqarish mexanizmlarini chuqur o'rganish zamonaviy tibbiyot va sport fiziologiyasining dolzarb masalasiga aylanib bormoqda.

ASOSIY QISM

1. Muskul to'qimasining gistofiziologik tasnifi

Inson organizmidagi muskul to'qimalari kelib chiqishi va tuzilishiga ko'ra uchta asosiy guruhga bo'linadi, ularning har biri o'ziga xos fiziologik vazifani bajaradi.

Skelet muskullari:

Skelet muskullari tana vaznining taxminan 40 foizini tashkil etib, inson xohishiga bo'ysunuvchi ixtiyoriy harakatlarni ta'minlaydi. Gistologik jihatdan bu muskullar ko'ndalang-targ'il ko'rinishga ega. Ularning asosini tashkil etuvchi muskul tolalari maxsus biriktiruvchi to'qima qavatlarini — epimiziy, perimiziy va endomiziy — bilan o'ralgan bo'lib, bu ularning mexanik mustahkamligini taminlaydi. Har bir tola ichidagi sarkomerlar aktin va miozin oqsillari yordamida qisqarish vazifasini bajaradi.

Skelet muskullari bir qancha o'ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadi. Ular markaziy nerv tizimi va somatik nerv impulslari orqali ongli ravishda boshqariladi. Signal kelishi bilan soniyaning kichik ulushlarida qisqarib, yuqori dinamik kuch hosil qila oladi. Jismoniy faollik va qisqarish jarayonida issiqlik ajratib chiqarib, tana haroratini barqaror saqlaydi. Bundan tashqari, skelet muskullari faqat gavda va oyoq-qo'llarni harakatlantirmasdan, harakatsiz holatda ham tana muvozanatini saqlab, tayanch vazifasini bajaradi.

Silliqlik muskullari: Silliqlik muskullar inson regulyatsiyasiga bo'ysunmaydigan, ichki a'zolarining avtonom ishlashini ta'minlaydigan maxsus to'qimadir. Gistologik jihatdan bu muskullarda skelet va yurak muskullariga xos bo'lgan ko'ndalang-targ'il muskullari uchramaydi, aynan shu sababli ular «silliqlik muskullar» deb ataladi. Hujayralari duksimon shaklda bo'lib, markazida bitta yadro joylashgan. Aktin va

miozin filamentlari bu yerda ham mavjud, lekin ular tartibsiz joylashgan, shu sababli silliq muskullar sekin, ammo uzoq vaqt davomida charchamasdan qisqarib turadi.

Silliq muskullar avtonom nerv tizimi va gormonlar ta'sirida boshqariladi, ularni ongli ravishda boshqarib bo'lmaydi. Juda kam energiya sarflaydi va charchamaydi — masalan, qon tomirlari yoki ichaklar devori yillar davomida to'xtovsiz ishlab turishi mumkin. Harakatlari to'lqinsimon tarzda bo'ladi va bu ichki a'zoldagi moddalarning siljishini ta'minlaydi. Ichak va oshqozon devorida joylashib, ovqatni harakatlantiradi (peristaltika), qon tomirlari devorini toraytirib yoki kengaytirib, qon bosimini nazorat qiladi, bronxlarning kengligini ham taminlaydi.

Yurak muskuli (miokard)

Miokard skelet va silliq muskullarning eng yaxshi xususiyatlarini o'zida mujassam etgan, charchashni bilmaydigan noyob biologik nasosdir. Gistologik jihatdan u ko'ndalang-targ'il muskullaridan tuzilgan bo'lsa-da, hujayralari — kardiomiotsitlar — o'zaro shoxlangan holda tutashadi. Ularning muhim tuzilmasi bo'lgan oraliq disklar elektr impulslarini butun yurak bo'ylab bir zumda va to'siqsiz tarqalishini ta'minlaydi.

Miokard to'rtta asosiy xususiyatga ega: avtomatizm — tashqi signalsiz, mustaqil ravishda qo'zg'alish hosil qilish; qo'zg'aluvchanlik va o'tkazuvchanlik — elektr signallarini qabul qilish va oraliq disklar orqali uzatish; qisqaruvchanlik — qonni tomirlarga haydab berish uchun kuchli mexanik harakat. Yurakning to'xtovsiz ishlashi uning yuqori energetik quvvati bilan izohlanadi. Kardiomiotsitlar hajmining qariyb 30–35 foizini mitoxondriyalar tashkil etadi — bu skelet muskuliga nisbatan bir necha barobar ko'p. Yurak asosan yog' kislotalarini oksidlash orqali energiya oladi va har bir urishdan keyingi qisqa dam olish — diastola — vaqtida o'zini to'liq tiklab ulguradi.

2. Mikrostruktura va molekulyar mexanizmlar

Skelet muskuli murakkab ierarxik tuzilishga ega bo'lib, uning eng kichik funksional birligi sarkomer hisoblanadi. Muskel tolasi ichidagi qisqaruvchi elementlar — miofibrillalar — aktin (ingichka) va miozin (yo'g'on) oqsillaridan tashkil topgan. Muskel dastalari (fassikulalar) perimiziy va epimiziy deb ataluvchi biriktiruvchi to'qima pardalari bilan o'ralgan bo'lib, bu tuzilma muskulning mexanik mustahkamligini va qon bilan ta'minlanishini nazorat qiladi. Aktin va miozin oqsillarining o'zaro ta'siri natijasida muskul qisqaradi va mexanik ish bajaradi.

3. Muskel to'qimasining fundamental xususiyatlari

Muskul to'qimasi o'ziga xos to'rtta fundamental xususiyatga ega.

Qo'zg'aluvchanlik: Bu jarayon asab tizimidan kelgan elektr signalini muskul hujayrasi membranasiga yetib kelishi bilan boshlanadi. Nerv oxiri va muskul tolasi tutashgan nuqtada — sinapsda — maxsus kimyoviy mediator atsetilxolin ajralib chiqadi. Bu modda muskul qobig'idagi (sarkolemma) retseptorlarni qo'zg'atadi va

natijada hujayra membranasining ionlar uchun o'tkazuvchanligi keskin o'zgaradi. Natriy ionlarining (Na^+) hujayra ichiga kirishi natijasida «harakat potentsiali» hosil bo'ladi va muskul ishchi holatga o'tadi.

O'tkazuvchanli.: Hosil bo'lgan elektr impulsi to'lqin kabi butun muskul tolasi bo'ylab yoyiladi. Muskul tolasi juda uzun bo'lishiga qaramay, qo'zg'alish maxsus T-naychalar tizimi orqali soniyaning mingdan bir ulushlarida hujayraning eng chuqur qatlamlarigacha yetib boradi. Bu tizim muskul ichidagi kalsiy depolari — sarkoplazmatik retikulum — bilan bog'langan bo'lib, impuls yetib kelgan zahoti kalsiy ionlari (Ca^{2+}) miofibrillalar orasiga chiqariladi.

Qisqaruvchanlik: Kalsiy ionlari ta'sirida yuzaga keladigan mexanik bosqichdir. Miofibrillalar ichidagi aktin va miozin oqsillari o'zaro tutashadi; miozin boshchalari ATF energiyasidan foydalanib, aktin tolalarini sarkomer markaziga qarab tortadi. Bunda oqsil tolalarining o'zi qisqarmaydi — ular bir-biriga zich joylashadi. Millionlab sarkomerlarning bir vaqtda qisqarishi natijasida butun muskul taranglashadi va mexanik harakat hosil bo'ladi.

Elastiklik.: Muskul qisqarib bo'lgandan keyin avvalgi shaklini tiklay olish xususiyatidir. Bu jarayon muskul tarkibidagi elastik oqsillar, xususan titin oqsili, hamda muskul dastalarini o'rab turuvchi fashiyalar orqali amalga oshadi. Tashqi kuch yoki qisqarish to'xtagandan so'ng ushbu elastik elementlar to'plangan energiyani ishga solib, muskulni dastlabki holatiga qaytaradi, uni haddan tashqari cho'zilishdan saqlaydi va keyingi qo'zg'alish sikliga tayyorlab beradi.

4. Muskul biomexanikasi

Muskullar o'z vazifasiga ko'ra o'zaro murakkab hamkorlikda ishlaydi. Agonist (sinergist) muskullar ma'lum bir harakatni bevosita bajaruvchi asosiy muskullar hisoblanadi. Antagonistlar esa asosiy harakatga qarama-qarshi yo'nalishda harakat qilib, harakatning silliqiligini va muvozanatini ta'minlaydi. Harakatlarning aniqligi va biomexanik samaradorligi markaziy nerv tizimi bilan muskul tolalarining o'zaro muvofiqlashgan aloqasiga bog'liq.

XULOSA

Muskul to'qimasi organizmda kimyoviy quvvatni mexanik energiyaga aylantiruvchi asosiy biologik tizim hisoblanadi. Uning funksional samaradorligi bevosita molekulyar darajadagi aktin va miozin filamentlarining o'zaro ta'siriga bog'liq bo'lib, kalsiy ionlari va ATF ishtirokidagi bu jarayon organizmning barcha ixtiyoriy harakatlarini ta'minlaydi.

Muskul to'qimasiga xos qo'zg'aluvchanlik, o'tkazuvchanlik, qisqaruvchanlik va elastiklik xususiyatlari yaxlit zanjir sifatida nerv impulslarini jismoniy kuchga aylantiradi. Muskul fashiyalarining himoya va trofik funksiyalari esa to'qimaning anatomik yaxlitligini saqlashda muhim rol o'ynaydi. Muskul to'qimasining morfofunktsional xususiyatlarini chuqur o'rganish tayanch-harakat tizimi kasalliklarini davolash, sport fiziologiyasi va rehabilitatsiya sohalarida individual yondashuvlarni ishlab chiqish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Guyton A.C., Hall J.E. Textbook of Medical Physiology, 14th Ed. Elsevier, 2020.
2. Ahmedov A. Odam anatomiyasi: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. Toshkent, 2022.
3. Junquera L.C. Basic Histology: Text and Atlas, 15th Ed. McGraw-Hill Education, 2018.
4. Qodirov U.Z. Odam fiziologiyasi: Darslik. Toshkent, 2015.
5. Lieberman D.E. The Evolution of the Musculoskeletal System. Harvard University Press, 2021.
6. Zufarov Q.A. Gistologiya: Tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. Toshkent: «Ibn Sino» nashriyoti, 2005.

Nerv sistemasi. Orqa miya anatomiyasi.

Osiyo Xalqaro Universiteti, Buxoro, O'zbekiston

Klinik oldi fanlari kafedrasi asistenti:

Hamroyev Xudoysshukur

ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-1439-6336>

Tibbiyot fakulteti davolash ishi yo'nalishi talabasi:

O'skanboyeva Sevinch Rustam qizi

Email: xudoysshukurhamroyev@gmail.com

sevinchuskanboyeva@gmail.com

Telefon raqam: +998905105108

+998940796605

Annotatsiya: Nerv sistemasi kasalliklaridan; hayotimiz mobaynida ko'p uchratadigan kasalliklarimizdan biri bu-disk churrasi (intervertebral churra) hisoblanadi. Ushbu kasallik umurtqa pog'onasidagi oraliq diskning shikastlanishi yoki joyidan siljishi natijasida kelib chiqadi. Disklar joyidan siljishi yoxud shikastlanishi oqibatida nerv ikki disk orasida qisillib qoladi. Bu jarayonda orqa miya qismining tashqi qismi (fibroz halqa) yorilib, ichki qismi (pulpoz yadrosi) tashqariga chiqadi va nerv tolalarini siqib qo'yadi. Nerv tolalari bosim ostida siqilishi natijasida o'sha sohada og'riq kuzatiladi. Og'riq kuzatiladigan sohalarga: bel, bo'yin, oyoqlar kiradi. Disk churasining sabablari: yosh bilan bog'liq o'zgarishlar, og'ir jismoniy ish faolliyati, kam harakat turmush tarzi, noto'g'ri holatda o'tirish yoki yotish, genetik moyillik, ortiqcha vazn, avtohalokat, yiqilish yoki boshqa mexanik shikastlanishlar va boshqa holatlarni o'z ichiga oladi. Disk churrasining turlariga: bo'yin umurtqasi disk churrasi(servikal), ko'krak umurtqasi disk churrasi(torakal), bel umurtqasi disk churrasi(lumbar) kiradi. Diagnostika va davolash chora tadbirlari: shifokor tekshiruvi, rentgen, magnit-rezonas tomografiya (MRT), kompyuter tomografiya (KT), elektromiografiya (EMG) bular diagnostikada qo'llanadigan asosiy usullar. Davolashda asosan konservativ davolash usullari qo'llaniladi. Bularga kiradi: og'riq qoldiruvchi dorilar, steroid in'yektsiyalar, fizioterapiya, qo'l terapiyasi massaj, maxsus mashqlar va yana

jarrohlik amaliyotlari. Jarrohlik amaliyotlariga: diskektomiya, laminaektomiya, sun'iy disk implantatsiyasi kabi amaliyotlar kiradi. Bu kasallik kelib chiqishiga ko'ra ma'lum doiradagi kasb egalarida kelib chiqishi aniqlangan va shu sababli bu kasallikni "Kasb kasalligi" deb ham nomlanadi. Kasb kasalligi sifatida: disk churrasi haydovchilar, ofis hodimlari, quruvchilar, sportchilar kabi kasb egalarida bu kasallik ko'p uchraydi. Disk churrasi erkak va ayollarda uchrash nisbati 2:1 nisbatda bo'ladi. Eng ko'p hollarda bel sohasidagi churralar taxminan 90% uchraydi. Ushbu kasallik bilan zararlanish asosan 25-55 yoshlar oralig'iga to'g'ri keladi. Umumiy populyatsiyada 5-20% odamda disk churrasi kuzatiladi.

Kalit so'zlari: Nerv tizimi, orqa miya, disk churrasi, kasb kasalligi.

Kirish: Orqa miya lotin tilida: "Medula spinalis" deyiladi. Umurtqa pog'onasida, umurtqa kanali ichida joylashgan. Uzunligi 41-45sm. Og'irligi 31-38gr. Bosh miyaning 2%ga teng. Boshlanadi: ensa suyagidagi foramen magnumda, tugaydi: 2-bel umurtqasida. Orqa miyada 31ta segment mavjud bo'lib, ular quyidagi sohalardan chiqadi: 8tasi bo'yin umurtqalaridan, 12tasi ko'krak umurtqalaridan, 5tasi bel umurtqalaridan, 5tasi dumg'aza umurtqalaridan, 1tasi dum umurtqasidan segmentlar chiqadi. Bo'yin umurtqasida 8ta segment bo'lishiga sabab: Birinchi bo'yin umurtqasi va ensa suyagi o'rtasidan ham bitta segment chiqadi. 2-bel umurtqasiga kelganda, konussimon kengayma "Konus medullaris"ni hosil qiladi. Kengaymaning ichida 5- (Terminal) qorincha bor. Umurtqa pog'onasi dumg'aza suyagigacha ichi bo'sh kanal shaklida bo'ladi. Embrional davrda orqa miya umurtqa kanalini to'liq to'ldirib turadi. Embriyon tug'ilgandan so'ng nerv hujayralari o'sadi, ammo ko'paymaydi. Umurtqa suyaklari esa 25 yoshgacha bo'linib ko'payadi. Shuning uchun voyaga yetgan inson organizmida orqa miya umurtqa kanalini to'liq to'ldira olmaydi. Bola tug'ilguncha orqa miyaning barcha tarmoqlari shakllanib, orqa miyadan o'zining innervatsiya etadigan sohasiga chiqib bo'lgan bo'ladi.

Orqa miya yuzalari 4ta:

- 1- yuza: facies ventralis
- 2- yuza: facies dorsalis
- 3- yuza: facies lateralis

Orqa miya kengaymalari 2ta:

1. Indumisensiya cervicalis- bo'yin kengaymasi.
2-bo'yin segmentidan, 2-ko'krak segmentigacha bo'lgan sohani o'z ichiga oladi. Eng qalinlashgan joylari 5,6,7-bo'yin va 1-ko'krak segmentlari hisoblanadi. Sababi, ushbu segmentlardan qo'llarni innervatsiya qiluvchi nervlar chiqadi. Qo'llar murakkab va ko'p harakatlarni bajarish uchun ko'plab nervlar bilan ta'minlangan.
2. Indumisensiya sacrolumbalis - dumg'aza bel kengaymasi.
2-bel umurtqasi qarshisida joylashadi. Eng kengaygan sohasi: bel umurtqalarining tugash va dumg'aza umurtqalarining boshlanish sohasi hisoblanadi. Bular oyoq mushaklarini nerv bilan ta'minlaydi. Oyoq mushaklari murakkab va ko'p harakat bajarishi hisobiga orqa miyaning oyoqni nerv bilan ta'minlovchi qismi Gipertrofiyaga uchraydi. Kattalashib kengayma hosil qiladi.

Orqa miya 2-bel umurtqasi qarshisida “conus medullaris”ni hosil qilib tugaydi. Undan pastga qarab orqa miyaning iplari- fillum terminalis davom etadi. Mana shu sohada ot dumi- cauda equina hosil bo'ladi.

Fillum terminalisning 2xil qismi mavjud:

1. Tashqi qismi:

Faqat orqa miyaning pardalaridan iborat. 2-dumg'aza umurtqasidan 2-dum umurtqasigacha davom etadi.

2. Ichki qismi:

Orqa miyaning pardalari va nervlaridan iborat.

2-bel umurtqasidan 2-dumg'aza umurtqasigacha davom etadi.

Orqa miyaning ko'ndalang kesmasiga qaraganimizda orqa miyaning 2xil moddasini ko'rishimiz mumkin. Bularga quyidagilar kiradi:

1. Kulrang modda – substantia grisea

Nerv hujayralaridan iborat.

2. Oq modda – substantia alba

Nerv hujayralarining aksonlaridan iborat.

Orqa miyada 2ta yarimshar mavjud:

1. O'ng yarimshar (semisferi dextra)

2. Chap yarimshar (semisferi sinistra)

Ularni birlashtirib turgan narsa oldingi tomondagi yoriq (fissura mediana anterior) va orqa tomondagi egat (sulcus medianus posterior) hisoblanadi.

Kulrang modda shoxlari va oq modda tizimchalari farqlanadi.

Har bir yarimsharda 3tadan tizimcha mavjud:

1)Funiculus anterior

2)Funiculus lateralis

3)Funiculus posterior

Eng ahamiyatlisi orqa tizimcha hisoblanadi. Negaki, bunda sezuvchi o'tkazuv yo'llari mavjud.

Funiculus posteriorda 2ta dasta mavjud:

1. Nozik dasta (fasciculus gracilis) -GOH tutami

2. Ponasimon dasta (fasciculus cuniatus) -GODAH tutami

Kulrang moddada 2ta shox mavjud:

1. Oldingi shox (corno anterior)

2. Orqa shox (corno posterior)

Oldingi shoxdan nerv tolalari orqa miyadan chiqadi. (Harakatlantiruvchi nerv tolalari)

Orqa shoxdan nerv tolalari orqa miyaga kiradi. (Sezuvchi nerv tolalari)

Oldingi shoxda 6ta o'zak mavjud:

1) Nukleus anterior

2) Nukleus anteriolateralis

3) Nukleus anteriomedialis

4) Nukleus centralis

5) Nukleus posteriolateralis

6) Nukleus posteriomedialis

Birinchi dan o'ttiz birinchigacha bo'lgan har bir segmentda ushbu o'zaklar mavjud.

Bo'yin umurtqalaridan C1-C6 da qo'shimcha bittadan o'zaklar mavjud. C1-C5 da nervus trigemenusning o'zagi, C6da nervus accistorius o'zagi bo'ladi.

Orqa shoxda 4ta o'zak mavjud:

- 1) Xususiy o'zak (nukleus proprius)
- 2) Dildiroq o'zak (nucleus gelatinous)
- 3) Markaziy o'zak (nukleus centralis)
- 4) Qirrali o'zak (nukleus marginalis)

Kulrang moddaning markaziy qismida yoriqcha mavjud.

Bu yoriqcha orqa miya kanali (canalis spinalis) deb ataladi.

Bu nay embrional rivojlanishda naysimon nerv tizimidagi ichi bo'sh nayning qoldig'i hisoblanadi. Bu naydan orqa miya suyuqligi harakatlanadi. U bosh miya bilan bog'langan bo'ladi. Suyuqlik bosh miyada ishlab chiqariladi. Orqa miya kanalida to'planadi.

Orqa miya tugunlari:

Tugunlar orqa miyadan tashqarida umurtqaning ikki yonida joylashgan bo'lib, lotin tilida: "Ganglios spinale" deb ataladi.

Bu tugunlar nerv hujayralarining to'planishi hisobiga sodir bo'ladi.

Sezuvchi va harakatlantiruvchi nervlar umurtqa pog'onasining ikki yonidan chiqqandan so'ng birlashib Aralash nervni hosil qiladi.

Orqa miyaning simpatik nervlar chiqadigan segmentlarida (C8, T1-T12, L1, L2, S1, S2) yon shoxlari (corno collaterale) mavjud bo'ladi.

Orqa miya pardalari. Orqa miyada 3ta parda farqlanadi:

1) Qattiq parda (dura mater spinalis)

Qattiq pardada 2ta tashqi va ichki varoqlar mavjud. Tashqi varoq umurtqani ichki tomondan qoplab periost vazifasini bajaradi.

Ichki varog'i haqiqiy dura mater vazifasini bajaradi. Ikkala varoqlar o'rtasida epidural bo'shliq mavjud. Epidural bo'shliqni yog' kletchatkasi va venoz chigallar qoplab turgan bo'ladi.

2) To'r parda (arachnoidea spinalis)

Juda yupqa bo'ladi. Haqiqiy qattiq parda va to'r parda o'rtasidagi bo'shliq (subdural bo'shliq) qon tomir va nervlarga boy bo'ladi.

3) Yumshoq parda (pia mater spinalis)

Yumshoq parda orqa miya to'qimasiga zich yopishib ketgan bo'ladi. Uni ajratib bo'lmaydi. To'r parda va yumshoq parda o'rtasidagi bo'shliq (subarachnoideal bo'shliq) ahamiyati katta hisoblanadi. Bu bo'shliqda orqa miya suyuqligi (likver) mavjud. Ushbu suyuqlik orqa miya kanalidagi suyuqlik bilan bir xil. Orqa miya suyuqligining zichligi deyarli suvga yaqin bo'ladi.

Biz turli xil harakatlarni bajarganimizda orqa miyaga shikast yetmasligi uchun Tishsimon boylamlar (ligamentum denticulatum) orqa miyani mahkam tutib turadi. 21tagacha bo'ladi. Bu boylam pia materdan zich chatishib boshlanib, yonga va qisman yuqoriga qarab yo'naladi. Umurtqadagi oyoqchalarning periostiga borib birikadi.

Orqa miyaning qon bilan ta'minlanishi:

Bo'yin qismini 2ta qon tomir qon bilan ta'minlaydi:

- 1) Arteria spinalis anterior et posterior
- 2) Arteria cervicalis ascendens

Ko'krak qismini 2ta qon tomir qon bilan ta'minlaydi:

- 1) Arteria intercostalis posterior
- 2) Arteria subcostalis

Bel qismini 2ta qon tomir qon bilan ta'minlaydi:

- 1) Arteria ileolumbalis
- 2) Arteria lumbalis

Dung'aza qismini 2ta qon tomir qon bilan ta'minlaydi:

- 1) Arteria sacralis mediana
- 2) Arteria sacralis lateralis

Xulosa: Nerv tizimi kasalliklari inson sog'lig'iga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan murakkab patologiya hisoblanadi. Ular tug'ma yoki ortirilgan bo'lishi mumkin va har xil omillar, jumladan, irsiyat, infeksiyalar, jarohatlar, qon aylanish tizimi muammolari hamda stress tufayli yuzaga keladi. Bu kasalliklar markaziy (bosh va orqa miya) yoki periferik nerv tizimiga ta'sir qilishi mumkin. Vaqtida tashxis qo'yish va to'g'ri davolash kasallikning rivojlanishini oldini olish yoki kasallikning simptomlari kechishini yengillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Sog'lom turmush tarzi, muntazam tibbiy tekshiruvlar va profilaktik choralar nerv tizimi kasalliklarining oldini olishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдурахмонов А. А., Хожиев Б. Х. Inson anatomiyasi. – Toshkent: "Tibbiyot" nashriyoti, 2018.
2. Абдуллаев А. А., Хамракулов А. Х. Markaziy nerv tizimi anatomiyasi. – Toshkent: O'zMU nashriyoti, 2020.
3. Синельников Р. Д. Атлас анатомии человека. Том 3. Нервная система и органы чувств. – Москва: Медицина, 2011.
4. Неттер Ф. Х. Atlas of Human Anatomy. – 8th ed. – Philadelphia: Elsevier, 2022.
5. Сапин М. Р., Брыксин З. Г. Анатомия человека. Том 2. – Москва: Медицина, 2015.
6. Moore K. L., Dalley A. F., Agur A. M. R. Clinically Oriented Anatomy. – 9th ed. – Wolters Kluwer, 2023.
7. Gray H., Standring S. (ed.) Gray's Anatomy: The Anatomical Basis of Clinical Practice. – 43rd ed. – Elsevier, 2020.
8. Йоффе Ю. С. Топографическая анатомия и оперативная хирургия. Том 1. – Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2019.

9. Лубоцкий С. И. Топографическая анатомия нервной системы. – Санкт-Петербург: СпецЛит, 2017.
10. Snell R. S. Clinical Neuroanatomy. – 8th ed. – Wolters Kluwer, 2019.
11. Duus P. Topical Diagnosis in Neurology. – 6th ed. – Thieme, 2020.
12. Вирченко Г. Г., Касьянов В. А. Атлас по топографической анатомии человека. – Москва: МЕДпресс-информ, 2018.
13. Standring S. Gray's Anatomy Review. – 3rd ed. – Elsevier, 2021.
14. Романов Ю. А., Боброва В. М. Функциональная анатомия нервной системы. – Москва: Медицина, 2016.
15. Purves D., Augustine G. J., Fitzpatrick D. et al. Neuroscience. – 6th ed. – Oxford University Press, 2018.

PERIFERIK NERV SISTEMASI KASALLIKLARINING KLINIK- ANATOMIK TAHLILI VA ZAMONAVIY DIAGNOSTIK YONDASHUVLAR

O'ralova Aziza Faridova

Tibbiy biologiya va Gistologiya kafedrası

Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali, Termiz, O'zbekiston

Ilmiy rahbar: Saidov Shoxurullo Sharafulayevich

Mavzuning dolzarbligi: Periferik nerv sistemasi (PNS) kasalliklari nevrologiya amaliyotida eng ko'p uchraydigan patologiyalar qatoriga kiradi. Bugungi kunda ushbu soha nafaqat klassik travmalar, balki zamonaviy ekologik omillar (havoning toksik ifloslanishi), texnogen mikroto'lqinlar va iqlim o'zgarishi natijasida kelib chiqadigan yangi turdagi neyropatiyalar bilan boyimoqda. Ayniqsa, post-pandemik davrda periferik nervlarning autoimmun shikastlanishlari hamda surunkali charchoq sindromi bilan bog'liq neyropatiyalarning ko'payishi mavzuni yanada dolzarb qilmoqda.

Tadqiqot maqsadi: Periferik nervlar, chigallar va ildizchalarning anatomik-fiziologik xususiyatlarini tahlil qilish orqali, ularning zararlanish sohalarini (miotoma va dermatomalar) aniqlash hamda zamonaviy diagnostika va davolash usullarining samaradorligini o'rganish.

Materiallar va tadqiqot usullari: Tadqiqot davomida klassik nevrologik tekshiruv usullari (palpatsiya, Laseg, Neri, Vasserman kabi tortish simptomlari) bilan bir qatorda quyidagi innovatsion usullar qo'llanildi:

Yuqori aniqlikdagi Neyrosonografiya: Nerv ustunlarining morfologik holatini (shish, siqilish, butunligi) real vaqt rejimida ko'rish.

AI-EMG tahlili: Sun'iy intellekt yordamida elektromiografiya ko'rsatkichlarini tahlil qilib, nerv o'tkazuvchanligidagi mikroskopik pasayishlarni erta aniqlash.

Funksional testlar: Nervlarning zararlanish darajasini aniqlash uchun panja va barmoqlarning bukilish yozilish harakatlari, tirsak va bilak nervlari uchun xos bo'lgan "qush chigali" va "panja osilishin" testlari o'tkazildi.

Neyromonitoring: Atrof-muhit harorati va namligining nerv impulslari tezligiga ta'sirini o'rganish.

Natijalar va ularning muhokamasi: Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, nerv tarkibidagi tolalar taqsimoti klinik manzarani belgilovchi asosiy omildir. Sezgi tolalariga boy bo'lgan n. medianus va n. ischiadicus zararlanganda, hatto minimal ekologik stress (sovuq qotish yoki toksik havo) ta'sirida ham kuchli kausalgiya (yondiruvchi og'riqlar) va vegetativ-trofik buzilishlar kuzatiladi.

Harakat tolalari ustunlik qiluvchi nervlar (n. radialis, n. peroneus) shikastlanganda, bemorlarda "osilib qolgan panja" yoki "qush changali" kabi falajliklar ustunlik qiladi. Muhokamalar davomida aniqlandiki, hozirgi davrda dori-darmonlar bilan birga virtual reallik (VR) reabilitatsiyasi va transkraniyal magnit stimulyatsiyasi (TMS) qo'llanilishi nerv regeneratsiyasini an'anaviy usullarga qaraganda 35-40% ga tezlashtirmoqda. Shuningdek, neyropatik og'riqlarni boshqarishda yangi avlod selektiv neyromodulyatorlari (kalsiy kanali blokatorlarining yangi sinflari) yuqori samara bermoqda.

Xulosa: Olib borilgan tahlillar asosida quyidagi xulosalarga keldik: Periferik nervlarning topografik diagnostikasida miotoma va dermatoma qonuniyatlarini bilish hamon eng muhim poydevor hisoblanadi. Zararlanish turiga qarab (ildizchali, chigalli yoki periferik) individual davolash protokollarini tuzishda nafaqat dori terapiyasi, balki neyrotexnologik stimulyatsiya usullarini qo'llash zarur. Zamonaviy davrda atrof-muhit ifloslanishi va surunkali stress periferik nervlarning regeneratsiya (tiklanish) qobiliyatini pasaytiradi. Shuning uchun davolashda antioksidant va neyroprotektiv terapiyani ekologik muhitni hisobga olgan holda tayinlash tavsiya etiladi. 2026-yil tibbiyoti talabi bo'yicha, PNS kasalliklarini barvaqt aniqlashda raqamli biomarkerlar va mobil neyro-monitoring tizimlarini keng joriy etish bemorlar nogironligining oldini olishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

YURAK TOJ ARTERIYALARI ANATOMIYASINING INDIVIDUAL-TOPOGRAFIK VARIANTLARI VA ULARNING MSKT-ANGIOGRAFIYA KO'RSATKICHLARI BILAN O'ZARO BOG'LIQLIGI

Fayziyev Fazliddin Shabonovich.

*Tibbiy Radiologiya va Yadro tibbiyoti kafedrasida Buxoro davlat tibbiyot instituti,
Buxoro, O'zbekiston.*

Ilmiy rahbar: kafedra dotsenti v.v.b, PhD J.J. Jonibekovich.

1. Kirish

Yurak-qon tomir kasalliklari, xususan, miokard infarkti va yurakning ishemik kasalligi (YIK) patogenezida toj arteriyalarining anatomik tuzilishi va ularning

tarmoqlanish variantlari muhim rol o'ynaydi. Klassik anatomiya darsliklarida toj arteriyalarining standart ko'rinishi berilgan bo'lsa-da, amaliyotda "chap ustunlik", "o'ng ustunlik" yoki "muvozanatli" qon bilan ta'minlanish turlari uchraydi. Ushbu anatomik variantlarni tirik odamda (in vivo) aniqlashning eng samarali usuli MSKT-angiografiya hisoblanadi. Tadqiqotning maqsadi — toj arteriyalari tarmoqlanishining individual anatomik variantlarini o'rganish va ularning klinik ahamiyatini baholashdan iborat.

2. Material va metodlar

Tadqiqot 2024–2025-yillar davomida kardiologik tekshiruvdan o'tgan 110 nafar bemorning MSKT-angiografiya natijalari asosida olib borildi.

- **Obyekt:** 128 qatlamli MSKT apparatida olingan yurak tomirlarining 3D rekonstruksiyalari.
- **Tahlil usuli:** Toj arteriyalarining chiqish burchagi, diametri va asosiy tarmoqlari (LAD, LCx, RCA) o'rganildi.
- **Morfometriya:** Arteriyalarning individual variantlari Adachi va Banchi klassifikatsiyasi bo'yicha tiplarga ajratildi.

3. Natijalar

O'tkazilgan morfometrik tahlillar natijasida quyidagi anatomik variantlar aniqlandi:

1. **O'ng ustunlik tipi :** Bemorlarning 72% ida kuzatildi. Bunda orqa qorinchalararo arteriya (PDA) o'ng toj arteriyasidan (RCA) boshlanishi aniqlandi.
2. **Chap ustunlik tipi :** 12% holatda aniqlanib, bu guruhdagi bemorlarda chap toj arteriyasi (LCA) havzasida stenoz xavfi yuqoriligi kuzatildi.
3. **Muvozanatli tip** 16% holatda qayd etildi.

Shuningdek, 4.5% holatda toj arteriyalarining anomal chiqish joylari (masalan, ikkala arteriyaning ham bitta sinusdan chiqishi) aniqlandi. MSKT ko'rsatkichlari shuni ko'rsatdiki, chap ustunlik tipiga ega bemorlarda miokardning massasi chap qorincha hisobiga kattaroq bo'lib, ishemiyaga moyillik yuqori bo'ladi.

4. Muhokama

Anatomik variantlarni bilish nafaqat nazariy, balki amaliy kardiologiya va angiojarrohlik uchun o'ta muhimdir. Masalan, stentlash yoki shuntlash amaliyotida "chap ustunlik" tipidagi bemorlarda xatolik ehtimoli ko'proq bo'lishi mumkin, chunki chap toj arteriyasi yurakning 80% dan ortiq qismini oziqlantiradi. Bizning natijalarimiz shuni ko'rsatadiki, toj arteriyalari anatomiyasi jins va tana tuzilishiga qarab ham farqlanadi. Individual-topografik xususiyatlarni MSKT yordamida oldindan bashorat qilish, jarrohlik amaliyotlarining asoratlarini 30-35% ga kamaytirish imkonini beradi.

5. Xulosa

1. Yurak toj arteriyalari anatomiyasi yuqori darajadagi individual o'zgaruvchanlikka ega.
2. MSKT-angiografiya tirik odamda yurakning variantli anatomiyasini o'rganishda "oltin standart" bo'lib xizmat qiladi.

3. Toj arteriyalarining "chap ustunlik" tipi YIK rivojlanishi uchun potentsial xavf omili sifatida qaralishi kerak.
4. Olingan ma'lumotlar talabalar uchun anatomiya darslarida va amaliyotchi shifokorlar uchun diagnostika jarayonida muhim qo'llanma bo'la oladi.

INSON SUYAK VA MUSHAK TIZIMINING ANATOMIK TUZILISHI, BIRGALIKDAGI HARAKATI ROLI.

Osiyo Xalqaro Universiteti Tibbiyot fakulteti

1-kurs talabasi: Baxshullayeva Dildora

Ilmiy rahbar: Fundamental tibbiyot kafedراسi mudiri Zikrillayev F.A

Mavzuning dolzarbligi : Suyak va mushak tizimi organizmning harakatga kelishi, tana barqarorligi va kundalik faoliyatni bajarishda asosiy biologik tayanch hisoblanadi. Hozirgi kunda jahon tibbiyotida ortopediya, sport tibbiyoti va reabilitatsiya yo'nalishlarida suyak-mushak tizimiga doir kasalliklar keskin ortib bormoqda. JSST ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha yoshlar orasida skolioz, osteoxondroz va poza buzilishlari 30–40% ga oshgan, kattalarda esa osteoporoz har 3 nafar ayolning 1 tasida va har 5 nafar erkakning 1 tasida uchraydi. Shu sababli suyak va mushak tizimining anatomik tuzilishi, ularning o'zaro muvofiqlashgan harakati va funksional ahamiyatini o'rganish tibbiyot talabalari uchun nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham juda katta ahamiyatga ega.

Kirish : Inson organizmidagi skelet-mushak tizimi tana shaklini saqlash, ichki a'zolari himoya qilish, umuman faol hayot tarzini ta'minlovchi asosiy sistemalardan biridir. Bu tizimdagi suyaklar, bo'g'imlar va mushaklarning o'zaro normal ishlashi insonning sog'lig'i, mehnat qobiliyati hamda hayot sifatiga bevosita ta'sir qiladi. Zamonaviy hayot sharoitida harakatsizlik, noto'g'ri postura, og'ir jismoniy mehnat, kasbiy faktorlar tufayli skelet-mushak tizimi kasalliklari keng tarqoq bo'lib, ular inson mehnat qobiliyatini pasaytirish, nogironlikka sabab bo'lish kabi jiddiy muammolarga aylanmoqda. Shu sababli ham ushbu mavzuda skelet-mushak tizimining anatomik tuzilishi, uning birgalikdagi harakatdagi roli, O'zbekistonda uchraydigan asosiy kasalliklar hamda profilaktika choralari e'tibor qaratiladi. Bu yondashuv orqali o'quvchilar suyak-mushak tizimining ahamiyatini tushunib, sog'lom hayot tarzini shakllantirishga undiriladi. Inson suyak va mushak tizimining anatomik tuzilishi – bu skelet va mushaklarning tashkil topish usuli, ularning bir-biriga qanday ulanganligi va qanday tuzilmaga ega bo'lishi bilan bog'liq. Skelet asosan aksial (bosh miya, umurtqa pog'onasi, ko'krak qafasi) va appendikulyar (qo'l va oyoq kamari hamda erkin suyaklar) qismlardan iborat bo'lib, tana uchun tayanch va himoya funksiyasini bajaradi. Suyaklar tashqi zich qatlam (kortikal) va ichki g'ovak qatlamdan tashkil topgan bo'lib, ichida suyak iligi joylashgan, bu esa qon hujayralari hosil qilish va suyakning doimiy yangilanishini

ta'minlaydi. Mushaklar esa ko'ndalang targ'il (skelet) mushaklar, yurak mushagi va silliq mushaklarga bo'linadi: skelet mushaklari suyaklarga tendonlar orqali birikib, ularning qisqarishi orqali harakatni vujudga keltiradi.Undan tashqari muntazam jismoniy mashqlar suyak va mushaklarni mustahkamlaydi. Mashq paytida Ca almashinuvi faollashadi,mushaklar kuchayadi va harakatchanligi oshadi. Bu tizim haqida olimlar o'rganish jarayonida qiziqarli faktlarga ham duch kelgan: Eng kuchli mushak – masseter (chaynov mushagi) bo'lib, u tishlarni yopishda 90 kg atrofida kuch berishi mumkin, eng katta mushak esa gluteus maximus (orqa mushagi) hisoblanadi. Bu faktlar inson suyak-mushak tizimining nafaqat tayanch, balki murakkab, kuchli va ajoyib mexanizm ekanligini yana bir bor isbotlaydi. Mamlakatimizda ***skelet-mushak tizimi kasalliklari*** keng tarqoq bo'lib, aholining katta qismini qamrab olgan, shu sababli ham bu soha hozirda tibbiyot va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan dolzarbdir. O'zbekistonda nogironlik bo'yicha statistikaga ko'ra, 2025-yil mart yakuniga ko'ra 1 mln nafardan ortiq nogironlikka ega shaxslar mavjud bo'lib, ulardan 1900 nafari suyak-mushak tizimi kasalliklari tufayli birlamchi nogironlik olgan. Bu kasalliklar orasida bel og'rig'i, bo'g'im artrit (osteoartrit), umurtqa pog'onasining deformatsiyalari, sport va kasbiy jarohatlar ko'p uchraydi. Kasallik sabablari: noto'g'ri o'tirish, uzun vaqt ekran oldida o'tirish, og'ir jismoniy mehnat, semizlik, travmalar, sovuqqa chiqish, stress.Ushbu kasalliklar mehnat qobiliyatini pasaytiradi, kasbiy faoliyatni cheklashga olib keladi, nogironlik,oilaviy daromadning kamayishi kabi ijtimoiy muammolarga sabab bo'ladi.

Tahlil natijalari: Suyak va mushak tizimining anatomik tuzilishi, birgalikdagi harakati va patologiyasiga oid yangi tahlil quyidagi jihatlarni ochib beradi: Umurtqa pog'onasi yukni 500-1000 kg gacha ta'minlaydi, mushaklar esa bu yukni 80% taqsimlaydi.Bo'g'im sinovial suyuqligi harakatchanlikni 3 bar bosim ostida ta'minlaydi, osteoartritda esa 60% kamayadi. Raxitda suyaklar mineral zichligi 40% pasayadi, bu deformatsiyalarga olib keladi.Sport jarohatlarida mushak yirtilari 70% tendon birikmalaridan kelib chiqadi.Bu ma'lumotlar tizimning biomekanik birligini va kasalliklarning o'zaro bog'liqligini tasdiqlaydi. 1)Antonio Vezaliy – anatomiya fanining asoschilaridan biri bo'lib, suyak va mushak tuzilishini ilmiy jihatdan tafsilotli tasvirlagan. 2) N.F. Filatov – bolalar kasalliklari bo'yicha klassik olim, bolalarda revmatizm, raxit va boshqa suyak–mushak kasalliklari muammosi bilan shug'ullangan.4)O.S. Maxmudov,M.R. Nuritdinov va boshqa pediatr–revmatologlar – bolalarda revmatizm, revmatoid artrit, raxit, osteoporoz kabi kasalliklar bo'yicha klinik va eksperimental ishlar o'tkazgan. 5)TTA, PTI va boshqa tibbiy oliy o'quv muassasalari professorlari – masalan, «Bolalarda suyak–mushak tizimini tekshirish usullari», «Bolalarda suyak–mushak tizimining asosiy kasalliklari» kabi o'quv–uslubiy qo'llanmalar mualliflari (Habibulloeva B.R., Xoshimov A.A., Karimjonov I.A. va boshqalar) suyak–mushak patologiyalari bo'yicha tahlillar yozgan. *Zamonaviy ilmiy yondashuvlar: 3D skanerlari,mushak faolligini o'lchovchi sensorlar,bioprotein qo'shimchalar ,vitamin D analiz tizimlarini ishlab chiqilmoqda.*

Xulosa:

Inson suyak va mushak tizimi nafaqat anatomik balki ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan sohaga aylandi. Suyaklar-mustahkam struktura, mushaklar esa harakatni amalga oshirovchi faol qismidir. Ularning o'zaro muvofiq harakati natijasida inson tana holatini saqlaydi va turli harakatlarni bajara oladi. Olimlarning ishlari shuni ko'rsatadiki, ko'p suyak-mushak kasalliklari (osteoporoz, osteoartrit, raxit, revmatizm, mushak distrofiyalari va boshqalar) faqat ko'zdan ko'rinadigan belgilar emas, balki uzoq muddatli metabolik, mexanik va irsiy omillarning birgali natijasida rivojlanadi. Shu sababli tibbiyotda ahamiyat asosan erta diagnostika, fizik faollik, munosabatli parvarishlik, kalsiyni yetarli bo'lishi, shuningdek reabilitatsiya va psixo-ijtimoiy yordamga qaratilgan. Zamonaviy hayot sharoitida harakat, tog'ri ovqatlanish va stressni nazorat qilish suyak va mushaklarni sog'lom saqlashning eng asosiy omili hisoblanadi. Bu mavzuning dolzarbligi shundaki u har bir inson hayoti bilan bevosita bog'liq va kelajak avlod sog'lomligi uchun muhim ahamiyatga ega.

SURUNKALI VIRUSLI GEPATIT B DA JIGAR FIBROZINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY NOINVAZIV YONDASHUVLARI

Husanova Dilnoza

Buxoro davlat tibbiyot instituti

Dolzarblik: Surunkali virusli hepatit B (HBV) infeksiyasi jigar parenximasida davomli nekroinflamator jarayonni yuzaga keltirib, vaqt o'tishi bilan fibroz va sirroz shakllanishiga olib keladi. Fibrozning darajasi kasallik prognozi, antiviral terapiyani boshlash va davolash samaradorligini baholashda asosiy mezonlardan biri hisoblanadi.

Uzoq yillar davomida jigar biopsiyasi fibrozni baholashda "oltin standart" sifatida qabul qilingan. Biroq uning invazivligi, asoratlar xavfi (qon ketish, og'riq sindromi), namuna olishdagi xatolik va bemor tomonidan qabul qilinishining pastligi klinik amaliyotda cheklovlar keltirib chiqarmoqda. Shu bois zamonaviy tibbiyotda xavfsiz, qayta-qayta qo'llash mumkin bo'lgan va yuqori diagnostik aniqlikka ega noinvaziv metodlarni qo'llash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Tranzient elastografiya va qonning biokimyoviy tahliliga asoslangan hisobiy indekslar (APRI, FIB-4, Forns indeksi) surunkali hepatit B da fibrozning klinik ahamiyatga ega bosqichlarini aniqlashda keng qo'llanilmoqda. Ushbu metodlarning kombinatsiyasi diagnostik xatolikni kamaytiradi va kasallikning dinamik monitoringini ta'minlaydi.

Tadqiqot maqsadi

Surunkali hepatit B bilan kasallangan bemorlarda jigar fibrozini zamonaviy noinvaziv instrumental va serologik indekslar yordamida baholash hamda ularning o'zaro diagnostik mosligini aniqlash.

Tadqiqot materiallari va usullari

Tadqiqotga surunkali hepatit B tashxisi tasdiqlangan bemorlar jalb etildi. Nazorat guruhi sifatida jigar patologiyasi aniqlanmagan sog'lom shaxslar tanlandi.

Fibroz darajasi quyidagi usullar yordamida baholandi:

Tranzient elastografiya (jigar qattiqligi kPa da o'lchandi)

APRI indeksi (AST va trombositlar soni asosida)

FIB-4 indeksi (yosh, AST, ALT va trombositlar ko'rsatkichlari asosida)

Umumklinik tekshiruvlardan umumiy qon tahlili hamda biokimyoviy tekshiruvlar (ALT, AST, umumiy bilirubin, albumin) jigar funksional holatini aniqlash uchun o'tkazildi. Fibroz darajasi klinik-laborator va instrumental usullar yordamida baholandi hamda METAVIR shkalasi (F0–F4) bilan moslashtirildi. Olingan natijalar statistik jihatdan qayta ishlanib, ishonchlilik darajasi $p < 0,05$ mezonida baholandi.

Natijalar va muhokama

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, elastografiya ko'rsatkichlari fibroz darajasi oshishi bilan jigar qattiqligining progresiv ortishini ko'rsatdi. Ayniqsa F3–F4 bosqichlarda elastiklik ko'rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan sezilarli yuqori bo'ldi.

APRI va FIB-4 indeksleri o'rta va og'ir fibroz bosqichlarini aniqlashda yuqori sezgirlik va spesifiklikka ega ekanligi aniqlandi. Trombositlar sonining kamayishi portal gipertenziya shakllanishi bilan bog'liq bo'lib, fibroz progresiyasi bilan to'g'ridan-to'g'ri korrelyatsiya qildi. Albumin darajasining pasayishi jigar sintetik funksiyasi buzilganligini ko'rsatdi va F3–F4 bosqichlarda yaqqol namoyon bo'ldi..

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, noinvaziv instrumental va hisobiy indeksleri kompleks qo'llash fibrozning klinik ahamiyatga ega bosqichlarini ishonchli aniqlash imkonini beradi va biopsiyaga ehtiyojni sezilarli kamaytiradi.

Xulosa

Surunkali gepatit B da jigar fibrozini baholashda tranzient elastografiya va hisobiy serologik indekslar yuqori diagnostik ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvlar xavfsiz, takroriy qo'llash mumkin va bemor monitoringini samarali olib borishga imkon beradi. Noinvaziv metodlarning kompleks qo'llanilishi klinik qaror qabul qilish jarayonini optimallashtiradi hamda kasallik prognozini aniqlashda muhim rol o'ynaydi.

Shunday qilib, surunkali gepatit B bilan kasallangan bemorlarda fibroz rivojlanishini erta aniqlash va monitoring qilish sirroz hamda gepatosellyulyar karsinoma kabi asoratlarning oldini olishda muhim klinik ahamiyat kasb etadi.

BUYRAK GISTOLOGIIYASI VA FUNKSIYASI

Fayzullayeva Mehriniso Baxtiyor qizi

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Davolash ishi yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar:

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Kardiologiya mutaxassisligi bo'yicha magistr

Muxammadjonov Oqilbek Mirzoulug'bek o'g'li

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada organizmning ayirish tizimida asosiy rol o'ynaydigan buyraklarning mikroskopik tuzilishi va funksional ahamiyati tahlil qilingan. Buyrakning tarkibiy-funksional birligi bo'lgan nefronning gistologik tuzilishi, Malpigi tanachalari, proksimal va distal egri-bugri kanalchalar hamda Genle halqasining o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari, siydik hosil bo'lishining asosiy bosqichlari — filtratsiya, reabsorbsiya va sekretsia jarayonlari, shuningdek buyraklarning endokrin funksiyasi va gomeostazni saqlashdagi o'rni ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: buyraklar, nefron, Malpigi tanachalari, Genle halqasi, filtratsiya, reabsorbsiya, sekretsia, gomeostaz, ayirish tizimi.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются микроскопическое строение и функциональное значение почек, играющих ключевую роль в выделительной системе организма. Рассмотрено гистологическое строение нефрона — структурно-функциональной единицы почки, включая почечные (Мальпигиевы) тельца, проксимальные и дистальные извитые канальцы, а также особенности петли Генле. Кроме того, научно обоснованы основные этапы мочеобразования — процессы фильтрации, реабсорбции и секреции, а также эндокринная функция почек и их роль в поддержании гомеостаза.

Ключевые слова: почки, нефрон, Мальпигиевы тельца, петля Генле, фильтрация, реабсорбция, секреция, гомеостаз, выделительная система.

ABSTRACT

This article analyzes the microscopic structure and functional significance of the kidneys, which play a fundamental role in the body's excretory system. It examines the histological structure of the nephron—the structural and functional unit of the kidney—including the renal (Malpighian) corpuscles, proximal and distal convoluted tubules, and the specific characteristics of the loop of Henle. Furthermore, the main stages of urine formation—filtration, reabsorption, and secretion processes—are scientifically explained, along with the endocrine function of the kidneys and their role in maintaining homeostasis.

Keywords: kidneys, nephron, Malpighian corpuscles, loop of Henle, filtration, reabsorption, secretion, homeostasis, excretory system.

KIRISH

Tirik organizmning ichki muhit barqarorligini, ya'ni gomeostazni ta'minlashda ayirish tizimi, xususan, buyraklar muhim ahamiyat kasb etadi. Buyraklar moddalar almashinuvi natijasida hosil bo'lgan chiqindi moddalarni organizmdan chiqarib tashlabgina qolmay, suv-tuz balansi, kislota-ishqor muvozanati va arterial qon bosimini tartibga solishda ham muhim ahamiyatga ega.

Buyrakning bu kabi keng funksional imkoniyatlari uning tarkibiy-funksional birligi bo'lgan nefron tuzilishi bilan bevosita bog'liq. Har bir buyrakda bir milliondan ortiq nefron mavjud bo'lib, ularning har biri qonni filtrlash va zarur moddalarni qayta so'rib olish vazifasini bajaradi.

ASOSIY QISM

1. Nefronning gistologik va funksional tavsifi

Buyrakning tarkibiy va funksional birligi bo'lgan nefron murakkab tuzilishga ega bo'lib, u qonni filtrlash va siydik hosil qilish vazifasini bajaradi. Ilmiy ma'lumotlarga ko'ra, har bir buyrakda taxminan 1–1,2 million nefron mavjud. Gistologik jihatdan nefron bir necha muhim tuzilmalardan iborat.

Malpigi tanachalari. Bu tuzilma glomerula kapillyarlari va ularni o'rab turgan Shumlanskiy-Boumen kapsulasidan iborat. Aynan shu yerda qonning filtratsiyasi yuz beradi. Kapillyar devorlari va podotsit hujayralari orqali oqsilsiz suyuqlik kapsula bo'shlig'iga o'tadi.

Proksimal buralma kanalcha. Bu segment nefronning eng uzun va funksional jihatdan eng faol qismi bo'lib, bevosita buyrak koptokchasidan keyin joylashgan. Birlamchi siydik tarkibidagi moddalarning asosiy qismi aynan shu yerda qayta so'riladi. Kanalcha devori bir qavatli kubsimon epiteliy bilan qoplangan bo'lib, epiteliy hujayralarining yuzasida ko'plab mikrovorsinkalar mavjud. Ular so'rilish yuzasini bir necha barobar oshiradi. Bu yerda glyukoza, aminokislotalar, vitaminlar hamda suvning 80–85 foizi qonga qayta so'riladi

Distal buralma kanalcha. Nefronning po'stloq qismida joylashgan bu segment Genle halqasidan keyingi bo'g'in hisoblanadi. Siydik tarkibi aynan shu yerda gormonlar ta'sirida organizmning ehtiyojiga qarab yakuniy holatga keltiriladi. Kanalcha devori bir qavatli kubsimon epiteliy bilan qoplangan bo'lib. Proksimal kanalchadan farqli o'laroq, bu yerda mikrovorsinkalar yo'q, shuning uchun kanalcha bo'shlig'i mikroskop ostida keng va silliq ko'rinadi. Hujayralarning bazal qismida ionlarni faol tashish uchun zarur energiyani yetkazib beruvchi ko'p miqdorda mitoxondriyalar joylashgan.

2. Genle halqasi va siydikni konsentratsiyalash

Genle halqasi buyrakning po'stloq qismidan mag'iz (medulla) qismiga tushib, so'ngra qaytib ko'tariladi. Uning tushuvchi qismi suvni o'tkazadi, lekin tuzlarni o'tkazmaydi. Chiquvchi qismi esa buning aksini qiladi: suv o'tkazmaydi, ammo natriy (Na^+) va xlor (Cl^-) ionlarini faol ravishda haydab chiqaradi. Bu jarayon "qarshi oqim tizimi" deb ataladi. Aynan shu mexanizm tufayli buyrak siydikni konsentratsiyalash qobiliyatiga ega bo'ladi va organizmdagi suv zaxirasi saqlanib qoladi.

3. Siydik hosil bo'lishining bosqichlari

Siydik hosil bo'lishi o'zaro bog'liq uchta fiziologik jarayondan iborat.

Filtratsiya (ultrafiltratsiya). Bu jarayon Malpigi tanachasining glomerula kapillyarlarida kechadi. Qon yuqori gidrostatik bosim ostida buyrak koptokchalari orqali o'tkaziladi. Natijada sutka davomida taxminan 150–180 litr birlamchi siydik hosil bo'ladi. Birlamchi siydik tarkibi qon plazmasiga o'xshash bo'lib, unda suv,

tuzlar, glyukoza va aminokislotalar mavjud, ammo yirik oqsil molekulalari va qon hujayralari bo'lmaydi.

Reabsorbsiya (qayta so'rilish). Kanalchalar bo'ylab harakatlanayotgan suyuqlik tarkibidagi suvning katta qismi, glyukoza, vitaminlar va mineral tuzlar qaytadan qonga so'riladi. Birlamchi siydikning 99 foizdan ortig'i qayta so'rilishi natijasida atigi 1,5–2 litr ikkilamchi siydik hosil bo'ladi.

Sekretsia. Bu bosqichda organizm uchun zararli yoki ortiqcha bo'lgan moddalar — metabolitlar va dori qoldiqlari — qondan bevosita nefron kanalchalari bo'shlig'iga chiqariladi. Sekretsia tufayli qonning kislota-ishqor muvozanati (pH) va ionlar darajasi nazorat qilinadi.

4. Buyraklarning endokrin faoliyati

Buyraklar faqat ajratish funksiyasini bajarmasdan, muhim ichki sekretsia vazifasini ham o'taydi. Buyrakning yukstaglomerulyar apparati (YUGA) tomonidan ishlab chiqariladigan renin fermenti arterial qon bosimi va organizmda suyuqlikning umumiy hajmini nazorat qiladi — bu renin-angiotenzin tizimining asosidir. Buyraklarda sintezlanadigan eritropoetin gormoni esa suyak ko'migida eritrotsitlar ishlab chiqarilishini faollashtiradi. Bundan tashqari, buyrak hujayralarida D vitamini o'zining faol shakli — kalsitriolga aylanadi, bu esa kalsiy almashinuvi uchun juda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, buyraklar organizmning o'ziga xos «biologik filtri» bo'lib, ularning har bir tarkibiy qismi aniq va muvofiq tarzda ishlaydi. Nefron segmentlarining o'zaro hamkorligi organizmning suv-tuz va kislota-ishqor muvozanatini doimiy saqlashga xizmat qiladi. Buyraklarning siydik hosil qilishdagi vazifasi bilan birgalikda endokrin faoliyati ham ularning hayot uchun zarur organ ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Buyrak mikrotuzilmasini chuqur o'rganish nefrologik kasalliklarni to'g'ri tushunish va samarali davolashda fundamental ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodirov A.Q. Gistologiya. — Toshkent: «O'qituvchi» nashriyoti.
2. Ahmedov A., Rasulov H. Odam anatomiyasi. — Toshkent.
3. Zufarov K.A. Gistologiya. — Toshkent: «Meditsina».
4. Guyton A.C., Hall J.E. Medical Physiology.
5. Yeliseyev V.G. va boshqalar. Gistologiya, sitologiya va embriologiya. — Moskva.

METABOLIK SINDROM: EPIDEMIOLOGIK VA STATISTIK MA'LUMOTLAR TAHLILI

Maxmayusupova Sevinch Sharif qizi

Gistologiya, sitologiya va embriologiya kafedrasi

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti, Samarqand, O'zbekiston

Ilmiy rahbar - dotsent t.f.n Boykuziyev.X.X

Dolzarlighi: Metabolik sindrom (MS) - bu abdominal semizlik, insulin rezistentlik, giperinsulinemiya, uglevod va lipid almashinuvining buzilishi, arterial gipertenziya hamda 2-tip qandli diabet bilan xarakterlanuvchi metabolik buzilishlar majmuasidir. Ushbu sindrom yurak-qon tomir kasalliklari va qandli diabet rivojlanishiga olib keluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) ekspertlari betabolik sindromni XXI asrning global tibbiy-ijtimoiy muammolaridan biri sifatida baholaydi. Zamonaviy epidemiologik ma'lumotlarga ko'ra, metabolik sindrom dunyo aholisining o'rtacha 20-30% ida uchraydi. Ayrim hududlarda bu ko'rsatkich yanada yuqori bo'lib, masalan AQShda kattalar orasida 25% gacha, ayrim Osiyo mamlakatlarida esa undan ham yuqori darajada kuzatiladi.

Metabolik sindrom nafaqat kasallanish darajasining ortishiga, balki nogironlik va bevaqt o'lim xavfining oshishiga ham sabab bo'ladi. Shu sababli uning epidemiologiyasi, patogenezi va profilaktikasini o'rganish zamonaviy tibbiyotning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi: Ushbu tadqiqotning maqsadi metabolik sindromning epidemiologik xususiyatlarini, uning tarqalish darajasini hamda asosiy xavf omillarini ilmiy manbalar va statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilishdan iborat.

Materiallar va tadqiqot usullari: Tadqiqot davomida metabolik sindromga oid zamonaviy ilmiy adabiyotlar, epidemiologik kuzatuvlar va xalqaro statistik ma'lumotlar tahlil qilindi. Tahlil jarayonida JSST ma'lumotlari, INTERHEART tadqiqoti natijalari hamda turli mamlakatlarda o'tkazilgan klinik va epidemiologik radqiqotlar natijalari o'rganildi.

Metodologiya sifatida adabiyotlarni tizimli tahlil qilish, statistik ma'lumotlarni solishtirish va umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Natijalar va ularning muhokamasi: Tahlillar shuni ko'rsatdiki, metabolik sindromning tarqalish darajasi yosh, jins, etnik kelib chiqish va turmush tarziga bog'liq holda sezilarli darajada farq qiladi. Epidemiologik ma'lumotlarga ko'ra, metabolik sindrom 30-69 yoshdagi aholining 15-25% ida, 70 yoshdan yuqori guruhlarda esa 40-45% gacha uchraydi.

Semizlik bilan kasallangan shaxslar orasida metabolik sindromning tarqalish darajasi, ayniqsa yuqori bo'lib, ayrim tadqiqotlarda bu ko'rsatkich 49% gacha yetishi aniqlangan. Shuningdek, 2-tip qandli diabet va arterial gipertenziyaga chalingan bemorlarning taxminan 60% ida metabolik sindrom komponentlari kuzatiladi.

Bolalar va o'smirlar orasida ham metabolik sindrom uchrash darajasi ortib bormoqda. Ayniqsa, semizlikka chalingan bolalarda metabolik sindrom 30-50% gacha aniqlanishi mumkin. Bu esa kelajakda yurak-qon tomir kasalliklari va diabet rivojlanish xavfini sezilarli darajada oshiradi.

Metabolik sindrom patogenezida asosiy rol ni insulin rezistentlik, visseral yog' to'qimasining ortishi, surunkali yallig'lanish jarayonlari va lipid almashinuvining buzilishi o'ynaydi. Ushbu omillar o'zaro ta'sirlashib, ateroskleroz, yurak ishemik kasalligi va boshqa metabolik kasalliklarning rivojlanishiga olib keladi.

Xulosa: Metabolik sindrom zamonaviy jamiyatda keng tarqalmoqda. Ushbu sindromni erta aniqlash, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, semizlikning oldini olish va metabolik buzilishlarni vaqtida davolash metabolik sindrom bilan bog'liq asoratlarni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli metabolik sindromni o'rgansh va profilaktika choralarini takomillashtirish zamonaviy tibbiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ В КОСТНОЙ ТКАНИ ПОСЛЕ БАРИАТРИЧЕСКОЙ ОПЕРАЦИИ У ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫХ ЖИВОТНЫХ.

Исмаилов Б.М

Научный руководитель: Оллаберганов М.И

Ургенчский государственный медицинский институт.

Актуальность темы. Желудочно-кишечный тракт (ЖКТ) является частью системы, участвующей в метаболизме минералов, входящих в состав костной ткани. При заболеваниях ЖКТ нарушается всасывание минералов и витаминов (включая кальций и витамин D). Это приводит к снижению количества кальция в костной ткани и снижению минеральной плотности костной ткани (МПК) — состоянию остеопении. В настоящее время все чаще проводятся бариатрические хирургические операции на желудке. После бариатрической операции, выполняемой в медицинских и профилактических учреждениях, у большинства пациентов наблюдаются серьезные расстройства пищеварения, потеря веса и развитие тяжелых клинических проявлений ряда заболеваний. В практической медицине существует множество противоречивых статей о влиянии различных операций на желудке на костную ткань.

Цель исследования. Изучить морфологические изменения костной ткани после бариатрической операции на желудке крыс в экспериментальных условиях.

Материалы и методы исследования. Для эксперимента были отобраны сорок девять нормальных самцов белых крыс весом 170-200 грамм. 20 крыс были отнесены к первой контрольной группе. 29 крыс были отнесены ко второй экспериментальной группе, им были проведены бариатрические операции, и результаты были проанализированы.

Результаты исследования. Живая масса животных анализировалась в течение 3 месяцев. После операции наблюдалось снижение веса крыс по сравнению с контрольной группой до конца эксперимента. Также, по сравнению с крысами контрольной группы, было обнаружено, что крысы экспериментальной группы потребляли меньше пищи, потеряли естественный блеск и стали менее активными. В ходе эксперимента масса тела крыс в контрольной и экспериментальной группах регистрировалась до начала

эксперимента, а также на 30-й, 60-й и 90-й дни после эксперимента, и были получены следующие результаты, соответственно: до начала эксперимента - $174,80 \pm 3,62$ и $181,83 \pm 2,90$ грамма, на 30-й день - $202,00 \pm 4,20$ и $175,41 \pm 2,58$ грамма, на 60-й день - $212,60 \pm 4,88$ и $165,41 \pm 3,03$ грамма, на 90-й день - $228,00 \pm 4,86$ и $149,21 \pm 2,93$ грамма.

Одной из проблем, которые могут возникнуть после травм вследствие остеопороза, является поражение бедренной кости. Поэтому были изучены морфометрические параметры бедренной кости как в контрольной, так и в экспериментальной группах экспериментальных животных, и были получены следующие данные: масса кости - $498,24 \pm 3,07$ мг и $439,64 \pm 0,94$ мг; длина кости - $31,79 \pm 0,80$ мм и $27,96 \pm 1,03$ мм; ширина проксимального эпифиза - $6,67 \pm 0,33$ мм и $5,85 \pm 0,31$ мм; ширина дистального эпифиза - $5,74 \pm 0,27$ мм и $5,02 \pm 0,34$ мм; ширина средней части диафиза - $3,22 \pm 0,20$ мм и $2,81 \pm 0,16$ мм; Толщина средней части диафиза составляла $3,13 \pm 0,15$ мм и $2,73 \pm 0,18$ мм. Все параметры экспериментальных животных, перенесших операцию на желудке, были значительно снижены по сравнению с контрольной группой ($p < 0,001$).

Также были изучены морфометрические параметры метафиза бедренной кости крыс в контрольной и экспериментальной группах. Относительная плотность первичной губчатой кости в метафизе бедренной кости составила $47,60 \pm 0,99\%$ и $38,80 \pm 1,32\%$ (снижение на 18,5%); относительная плотность вторичной губчатой кости — $29,50 \pm 0,92\%$ и $17,10 \pm 0,99\%$ (снижение на 42,0%); относительный объем остеобластов — $28,60 \pm 0,68\%$ и $16,60 \pm 1,11\%$ (снижение на 41,9%); объем остеокластов — $2,30 \pm 0,18\%$ и $4,10 \pm 0,38\%$ (увеличение в 1,8 раза). Следует отметить, что длина первичных губчатых трабекул метафиза бедренной кости у контрольной и экспериментальной групп крыс составляла: $432,80 \pm 2,47$ мкм и $285,60 \pm 1,19$ мкм (уменьшение на 34,0%), толщина зоны роста — $203,40 \pm 2,31$ мкм и $173,10 \pm 1,27$ мкм (уменьшение на 14,9%). Приведенные числовые значения статистически значимо отличались друг от друга ($p < 0,001$).

Заключение. Таким образом, после бариатрической операции экспериментальных животных наблюдалось нарушение процесса пищеварения и, как следствие, снижение минеральной плотности длинных костей. Это проявилось в уменьшении массы тела. На основании данных, полученных в ходе нашего эксперимента, и сравнения их с данными ряда клинических исследований, мы пришли к выводу, что бариатрическая операция вызывает ряд изменений, приводящих к морфофункциональным изменениям в структуре костной ткани у экспериментальных животных, то есть к изменениям остеоморфометрических параметров и архитектоники бедренных костей.

Оллаберганов Мардон Исмаилович – Заместитель Директора Ургенчского филиала Ташкентской медицинской академии, PhD.

Тел.: мобил +99897 211 56 72.

E-mail: mardon_2288@list.ru

Исмаилов Бехрузбек Мардонович – Студент стоматологического факультета Ургенчского государственного медицинского института.

Тел.: мобил +998914313830

E-mail: behruzismailov3@gmail.com

O'SMA MIKRO-MUHITIDA MAKROFAGLAR MORFOFUNKSIONAL
HOLATINING XALQ TABOBATI PREPARATLARI TA'SIRIDA
TRANSFORMATSIYALANISHI

Voxidjonova Begoyim Saidjon qizi

Tibbiyot fakulteti Formatsiya kafedrasida

Qo'qon universiteti Andijon filiali (KUAF), Andijon, O'zbekiston

Ilmiy rahbar – d.m.n.professor dotsent G. J. Ulug'bekova

Ilmiy rahbar – kafedra asistenti. Sh. O. Turaxonova

Dolzarbliqi: Zamonaviy onko-immunologiyaning asosiy vazifalaridan biri o'sma mikro-muhitini (TME) o'rganish va undagi immunosupressiv holatni bartaraf etishdir. O'sma bilan bog'liq makrofaglar (TAM) o'sma rivojlanishida ikki yoqlama rol o'ynaydi: M1 fenotipidagi makrofaglar antitumor faollik ko'rsatsa, M2 fenotipi o'smaning o'sishi va metastazlanishiga sharoit yaratadi. Shu bois, xalq tabobati vositalari — “Majmui Raxmoniy” va “Askaltsiy” preparatlarining makrofaglar fenotipini o'zgartirish (repolyarizatsiya) va ularning morfofunktsional holatini transformatsiyalash imkoniyatlarini tadqiq etish yuqori ilmiy ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi: Xalq tabobati vositalari ta'sirida o'sma mikro-muhitidagi makrofaglarning morfologik va funksional o'zgarishlari qonuniyatlarini aniqlash hamda ularning antitumor samaradorligini baholash.

Materiallar va tadqiqot usullari: Tadqiqotning metodologik asosi sifatida zamonaviy onko-immunologiyaning kompleks yondashuvlaridan foydalanildi. Izlanishlar jarayonida preparatlarning biologik samaradorligini xolis baholash maqsadida in vitro (hujayra darajasida) va in vivo (tirik organizm modelida) tajribalari o'tkazildi.

Xalq tabobati vositalarining makrofaglar morfologiyasiga ko'rsatadigan ta'sirini tahlil qilishda an'anaviy gistologik va sitologik tekshirishlar bilan bir qatorda, yuqori aniqlikka ega bo'lgan oqim sitometriyasi usulidan foydalanildi. Bunda makrofaglarning funksional holati CD80, CD86 (antitumor markerlar) hamda CD163, CD206 (immunosupressiv markerlar) oqsillari asosida differensial tahlil qilindi.

Hujayralarning hayotiy sikli va dasturlashtirilgan o'lim (apoptoz) jarayonlarini o'rganishda Annexin V/PI lyuminessent bo'yash usuli qo'llanildi. Shuningdek, immun javobning xarakterini belgilovchi sitokinlar balansi (IL-10 va TNF- α miqdori) ELISA (immunoferment tahlil) testi yordamida o'rganilib, organizmning gomeostaz holati baholandi. Tadqiqotda qo'llanilgan barcha tabiiy

komplekslar va dori vositalari amaldagi xalqaro kimyoviy hamda farmakologik standartlarga muvofiq qattiq nazoratdan o'tkazildi.

Natijalar va ularning muhokamasi: Olingan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, "Majmui Raxmoniy" va "Askaltsiy" tabiiy majmualari o'sma mikro-muhitidagi makrofaglarning funksional yo'nalishini o'zgartirishda faol induktor bo'lib xizmat qiladi. Tajriba davomida qayd etilgan asosiy o'zgarishlar quyidagi muhim yo'nalishlarda namoyon bo'ldi:

- Morfologik qayta shakllanish: Preparatlar ta'sirida makrofaglarning tuzilishida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Xususan, hujayra sitoplazmasida donadorlikning ortishi va ularning hajman kengayishi makrofaglarning faol holatga, ya'ni antitumor xususiyatga ega M1 fenotipiga o'tganligidan dalolat beradi. Bu jarayon bevosita hujayralarning begona elementlarni yutish va parchalash (fagotsitar) qobiliyati yuksalishi bilan kechdi.

- Fenotipik repolyarizatsiya jarayoni: Eng muhim ko'rsatkichlardan biri — o'sma rivojlanishiga sharoit yaratuvchi "uyqudagi" M2 makrofaglarning (CD163+, CD206+) kamayishidir. Buning o'rniga o'sma hujayralariga hujum qiluvchi va immun tizimini safarbar etuvchi CD80+ hamda CD86+ markerli M1 hujayralar ulushi sezilarli darajada ortdi. Bu holat tabiiy vositalar orqali o'sma mikro-muhitini "agressiv" muhitdan "himoyachi" muhitga aylantirish imkonini berdi.

- Sitokinlar muvozanatining tiklanishi: Bio-kimyoviy tahlillar immun tizimining signal beruvchi molekulalari — sitokinlar o'rtasida yangi muvozanat qaror topganini ko'rsatdi. Immunitetni susaytiruvchi IL-10 miqdori pasayib, o'smaga qarshi kurashuvchi TNF- α va IL-6 moddalari konsentratsiyasi optimallashti. Bu esa organizmning o'z-o'zini himoya qilish mexanizmlari qayta tiklanganini tasdiqlaydi.

- Kombinatsiyalangan terapiyaning afzalligi (Sinergizm): Mazkur vositalarning an'anaviy kimyoterapiya (doksorubitsin) bilan birgalikda qo'llanilishi kutilganidan ham yuqori samara berdi. Bu nafaqat dorining o'sma hujayralarini yo'q qilish quvvatini oshirdi, balki kimyoterapiyaning eng katta muammosi bo'lgan sog'lom to'qimalarga toksik ta'sirini ham sezilarli darajada yumshatdi.

Xulosa. Tadqiqotlar natijasida olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, "Majmui Raxmoniy" va "Askaltsiy" kabi xalq tabobati preparatlari shunchaki yordamchi vosita bo'lib qolmay, balki o'sma mikro-muhitida chuqur immunomorfologik o'zgarishlarni keltirib chiqaruvchi yuqori samarali biostimulyatorlardir.

Mazkur tabiiy komplekslarning asosiy xususiyati makrofaglarning funksional yo'nalishini tubdan o'zgartira olishida namoyon bo'ladi. Ular o'smaning rivojlanishiga xizmat qiluvchi immunosuppressiv (M2) makrofaglarni antitumor faollikka ega bo'lgan (M1) holatga o'tkazish (repoliarizatsiya) orqali organizmning ichki himoya tizimini qayta safarbar etadi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu vositalarning immun hujayralarni "qayta dasturlash" xususiyati onkologik kasalliklarni davolashda yangicha immunomorfologik strategiyalarni ishlab chiqish uchun mustahkam ilmiy poydevor yaratadi. Bu esa an'anaviy tibbiyot va xalq tabobati tajribalarini uyg'unlashtirish

orqali saratonga qarshi yanada xavfsiz va samaraliroq terapevtik yondashuvlarni shakllantirish imkonini beradi.

INFEKSION JARAYONDA TIMUSNING IMMUN TIZIMIDAGI MORFOFUNKSIONAL ROLI

***Nomzod: Davolash ishi fakulteti 1D25 guruh talabasi Ahmadov Abduvali
Ilmiy rahbar: Buxoro Davlat Tibbiyot Instituti Gistologiya , sitologiya va
embriologiya kafedrasi dotsenti, PhD- Davronova SH.R***

Izlanishdan maqsad: Eksperimental salmonella infeksiyasi sharoitida timusning immunogenez jarayonidagi ishtirokining hujayraviy va hujayra ichki mexanizmlarini aniqlashtirishdan iborat bo'ldi.

Mavzuning Dolzabligi: So'nggi 24–25 yillarda immunologiya sohasi jadal rivojlandi. Immunitetning hujayraviy va hujayra ichki asoslari hamda immun tahlil jarayonlarida timusning ishtiroki ilmiy jihatdan asoslab berildi. Timus immun tizimining markaziy a'zosi bo'lib, unda gormonlar va 30 dan ortiq biologik faol moddalar ta'sirida T-limfotsitlar hosil bo'lishining dastlabki bosqichlari shakllanadi. Shu bilan birga, antigen ta'siri vaqtida timus reaksiyasining tuzilish va funksional xususiyatlari yetarli darajada o'rganilmagan.

Materiallar va tadqiqot usullari: Tajriba odatiy laboratoriya ratsionida boqilgan, vazni 150–160 g bo'lgan oq laboratoriya kalamushlarida o'tkazildi. Hayvonlar nazorat guruhi (30 ta) va tajriba guruhi (150 ta) ga ajratildi. Salmonella infeksiyasi modeli ikki milliard mikrob hujayrasi miqdoridagi bir sutkalik agar madaniyatida o'stirilgan Salmonella typhimurium suspenziyasini yuborish orqali sun'iy ravishda yaratildi.

Infeksiyadan so'ng 3, 6, 12, 24 soat hamda 3, 5, 7, 14 va 21 kun o'tgach, hayvonlar efir narkozida bosh qismini ajratish usuli bilan qurbon qilindi. Timus namunalari yorug'lik mikroskopi va elektron mikroskop yordamida, umumqabul qilingan usullar asosida o'rganildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Timus biriktiruvchi to'qima kapsulasi bilan qoplangan bo'lib, kapsula ichkariga kirib, bezni to'liq bo'lmagan bo'lakchalarga ajratadi. Har bir bo'lakchada po'stloq va mag'iz qavatlari farqlanadi. Ushbu qavatlarning bo'yalish xususiyati limfotsitlar zichligiga bog'liq.

Po'stloq qavatda limfotsitlar zich joylashgan bo'lib, ular retikuloepitelial hujayralar hosil qilgan to'rsimon tuzilmani to'ldiradi. Limfoblastlar va sitoplazmasi bazofil xususiyatga ega bo'lgan yirik hujayralar asosan po'stloq qavat atrofida joylashadi. Ularning yadrosida xromatin miqdori turlicha bo'ladi. Ushbu hujayralar mitoz yo'li bilan ko'payish qobiliyatiga ega bo'lib, natijada yangi timozitlar shakllanadi. Retikuloepitelial hujayralar esa T-limfotsitlar rivojlanishi uchun zarur mikro muhitni yaratadi.

Tajriba davomida timusda tuzilish va funksional o'zgarishlar moslashuvchan xarakterga ega bo'lib, uch bosqichda namoyon bo'ldi:

- Erta o‘zgarishlar (24 soatgacha)
- Immunomorfologik qayta tuzilish (3–14 kun)
- Tiklanish bosqichi (21 kun)

Har bir bosqich a’zoning ma’lum darajada qayta tashkil topishi bilan tavsiflandi.

Tajribaning dastlabki bosqichida timusning mikrotsirkulyator tizimida buzilishlar kuzatildi: mayda qon tomirlari, arteriolalar va postkapillyarlarning kengayishi hamda qonning dimlanishi aniqlandi. Kapillyarlar ichida eritrotsitlar va boshqa qon hujayralarining to‘planishi kuzatildi.

Timus hujayralarida shish va parchalanish ko‘rinishidagi degenerativ o‘zgarishlar, hujayra ichki tuzilmalarining zararlanishi hamda kapillyar atrofidagi bo‘shliqlarning kengayishi qayd etildi. Shuningdek, T-limfotsitlar hosil qiluvchi hujayralarning yemirilishi aniqlangan.

Kasallikning avj bosqichida timusning limfopoetik qator hujayralarida sezilarli miqdoriy va sifat o‘zgarishlar kuzatildi. Tiklanish davrida (21-kun) hujayralarning son va sifat ko‘rsatkichlari me’yorlashish tendensiyasini ko‘rsatdi, biroq ayrim miqdoriy ko‘rsatkichlar hali ham yuqori darajada saqlanib qoldi.

Ushbu davrning muhim xususiyatlaridan biri timus stromasidagi fibroblastlar va boshqa tayanch hujayralarning faollashuvi bo‘ldi. Bu bosqichda immunogenez jarayonining jadalligi davom etishi kuzatildi.

Xulosa:

1. Eksperimental salmonella infeksiyasi sharoitida timus bezida morfofunktsional o‘zgarishlar uch bosqichda: erta o‘zgarishlar, immunomorfologik qayta tuzilish va tiklanish davrlarida namoyon bo‘ldi.

2. Infeksiyaning dastlabki bosqichida timusning mikrotsirkulyator tizimida buzilishlar, qon tomirlarning kengayishi va qon dimlanishi kuzatildi hamda T-limfotsitlar hosil qiluvchi hujayralarda degenerativ o‘zgarishlar aniqlandi.

3. Kasallikning avj bosqichida timusning limfopoetik qator hujayralarida sezilarli miqdoriy va sifat o‘zgarishlar kuzatildi.

4. Tiklanish davrida hujayralarning son va sifat ko‘rsatkichlari me’yorlashish tendensiyasini ko‘rsatib, timus stromasidagi fibroblastlar va boshqa tayanch hujayralarning faollashuvi hamda immunogenez jarayonining davom etishi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kulikov V.Y., Grebenyuk A.N.
"Antigen stimulyatsiyasi davrida limfoid organlarning morfofunktsional tavsifi." Morfologiya. 2018; 153(2): 44–50.
2. Mironov A.A., Nesterova I.V.
"Taloq faoliyatining immunomorfologik jihatlari." Rossiya immunologiya jurnali. 2020; 24(3): 317–324.
3. Davronova S., Davronov R., & Bakhronov J. (2024).

"Eksperimental harorat ta'siri dinamikasida immun tizimi hujayralarining tarkibiy va funksional xususiyatlari." BIO Web of Conferences (Vol. 121, p. 03017). EDP Sciences.

4. Davronova Sh. R. (2020).

"Harorat ta'siri dinamikasida oq laboratoriya kalamushlari timus hujayralarining ultratuzilmaviy xususiyatlari." Tibbiyotda yangi kun, (4), 634-635.

SUT BEZI SARATONINING MAHALLIY FORMASIDA DAVOLASH USULLARINI OPTIMALLASHTIRISH

Muxammadiyeva Zarnigor Qudrat qizi

Umumiy onkologiya kafedrasi, Buxoro davlat tibbiyot insituti

Ilmiy rahbar – Phd, Sh.D. Ro'ziyeva

Dolzarbli. Ko'krak bezi saratoni ayollar orasida eng ko'p uchraydigan onkologik kasalliklardan biri hisoblanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, ushbu kasallik ayollar o'rtasida saraton kasalliklari ichida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Kasallikning keng tarqalgan shakllari o'sma jarayonining mahalliy limfa tugunlari hamda uzoq a'zolarga metastaz berishi bilan tavsiflanadi. Bu esa davolash jarayonini murakkablashtiradi va bemorlarning hayot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli zamonaviy davolash usullarini qo'llash va ularni optimallashtirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi. Ko'krak bezining keng tarqalgan shakllari bilan og'rikan bemorlarda zamonaviy davolash usullarining samaradorligini o'rganish va davolash natijalarini optimallashtirish.

Materiallar va tadqiqot usullari. Tadqiqot davomida ko'krak bezi saratonining keng tarqalgan shakllari bilan davolangan 52 nafar bemorning klinik ma'lumotlari o'rganildi. Bemorlarni davolashda kompleks davolash usullari — jarrohlik aralashuvi, kimyoterapiya, gormonal terapiya va target terapiya qo'llanilgan holatlarda bemorlarning umumiy holati, o'sma hajmining o'zgarishi, davolash samaradorligi hamda yuzaga kelgan asoratlari tahlil qilindi.

Natijalar va ularning muhokamasi. O'rganilgan bemorlarning 31 nafari (59,6%) da kombinatsiyalangan davolash usullari qo'llanilgan. 21 nafar (40,4%) bemorda esa kimyoterapiya va gormonal terapiya asosiy davolash usuli sifatida qo'llanilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, kompleks davolash usullari qo'llangan bemorlarning 63,5% ida o'sma hajmining sezilarli darajada kamayishi kuzatilgan. Shuningdek, target terapiya qo'llanilgan bemorlarda kasallikning progressiyasi sekinlashgani aniqlandi. Individual yondashuv asosida tanlangan davolash strategiyasi bemorlarning umumiy yashash ko'rsatkichlarini yaxshilashga yordam bergan.

Xulosa. Ko'krak bezining keng tarqalgan shakllarini davolashda kompleks va individual yondashuv muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy davolash usullarini

optimal tarzda qo'llash davolash samaradorligini oshirish va bemorlarning hayot sifatini yaxshilash imkonini beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Bray F., Ferlay J., Soerjomataram I. Global cancer statistics. – CA: A Cancer Journal for Clinicians.
2. Siegel R.L., Miller K.D., Jemal A. Cancer statistics. – CA: A Cancer Journal for Clinicians.
3. DeVita V.T., Lawrence T.S., Rosenberg S.A. Cancer: Principles and Practice of Oncology. – Lippincott Williams & Wilkins.
4. Gradishar W.J., Anderson B.O. NCCN Clinical Practice Guidelines in Oncology: Breast Cancer.
5. Harris J.R., Lippman M.E., Morrow M., Osborne C.K. Diseases of the Breast.
6. Slamon D.J. Targeted therapy in breast cancer. – Journal of Clinical Oncology.
7. Early Breast Cancer Trialists' Collaborative Group (EBCTCG). Effects of chemotherapy and hormonal therapy. – *Lancet*.
8. Cardoso F., Kyriakides S. ESMO Clinical Practice Guidelines for breast cancer.
9. Burstein H.J. Systemic therapy for advanced breast cancer. – Journal of Clinical Oncology.
10. Edge S.B., Byrd D.R. AJCC Cancer Staging Manual. – Springer

MORPHOLOGICAL AND HISTOMORPHOMETRIC CHARACTERISTICS OF THE THYROID GLAND OF WHITE RATS

Turakulov M. T., Olimova A. Z., Nekova K.X.

*Bukhara State Medical Institute named after Abu Ali ibn Sino,
Uzbekistan, Bukhara*

Relevance of the study. Due to the increasing prevalence of endocrine diseases worldwide, thyroid pathology attracts significant attention and ranks second after diabetes mellitus. The thyroid gland's functional unit is the tissue microregion, which includes follicles and the interfollicular space with its own blood and lymph circulation. Pathogenic factors primarily damage these structures, leading to morphological and metabolic disturbances. The thyroid parenchyma consists mainly of follicular cells, which form hormone-containing follicles, and interfollicular cells involved in tissue proliferation. In addition to thyrocytes, the gland contains parafollicular (C) cells belonging to the APUD system and producing biologically active substances. These cells are located in the interstitium or between thyrocytes, mainly in the central parts of the lobes ("C-cell zone"), and constitute about 1% of the thyroid epithelium.

Research materials and methods. The study was conducted on 4-month-old male white outbred rats weighing 164–172 g obtained from a single vivarium. Animals were kept under standard vivarium conditions: temperature 19–22°C,

relative humidity 50–60%, and a 12-hour light/dark cycle. Feeding was carried out according to the standard vivarium diet recommended by Nuraliev N.A. et al. (2016). All experimental procedures were performed in accordance with biosafety requirements and ethical principles for working with laboratory animals. Permission for the experiment was obtained from the Ethics Committee of the Ministry of Health of the Republic of Uzbekistan.

To study the morphological structure of the thyroid gland, anatomical dissection and histological methods were used. Thyroid tissue was isolated from rats, fixed in 10% neutral formalin for 72 hours, washed in running water, dehydrated in alcohols of increasing concentration, and embedded in paraffin. Sections 5–8 μm thick were prepared using a rotary microtome (YD-315, China).

The sections were stained with hematoxylin and eosin using standard histological techniques. Microscopic examination was performed using trinocular microscopes (HL-19 and Leica). Microphotographs of the preparations were obtained at magnifications of $\times 40$, $\times 100$, $\times 400$, and $\times 1000$ to analyze the structural features of the thyroid tissue.

Research results. The thyroid gland is the largest endocrine gland and plays an important role in hormone synthesis. It is located in the anterior part of the neck and consists of two lobes connected by an isthmus. Histologically, the gland is covered by a fibrous capsule that forms the stroma containing blood vessels and nerves. The functional unit of the thyroid gland is the follicle, which is formed by follicular epithelial cells (thyrocytes). The follicular cavity is filled with colloid containing hormone precursors.

Microscopic examination showed that the follicles are surrounded by a dense network of capillaries closely associated with thyrocytes. The thyroid gland was conditionally divided into central and peripheral regions for morphometric analysis. In the central region, the capillary diameter was $10.78 \pm 0.14 \mu\text{m}$, capillary density 127.53 ± 3.41 , and the total capillary surface area $11.78 \times 10^3 \mu\text{m}^2$. In the peripheral region, the capillary diameter was slightly larger ($11.13 \pm 0.08 \mu\text{m}$), while capillary density (107.42 ± 3.87) and total surface area ($9.96 \times 10^3 \mu\text{m}^2$) were lower.

Morphometric analysis also showed that the height of thyroid epithelium in the central region ($6.68 \pm 0.24 \mu\text{m}$) was higher than in the peripheral region ($5.5 \pm 0.13 \mu\text{m}$). The follicle diameter was smaller in the central region ($37.98 \pm 0.26 \mu\text{m}$) and larger in the peripheral region ($43.27 \pm 0.14 \mu\text{m}$). The relative proportion of thyroid epithelium was $40.2 \pm 0.32\%$ in the central region and $37.5 \pm 0.42\%$ in the peripheral region, while the colloid proportion was higher in the peripheral part ($42.1 \pm 0.3\%$) compared with the central part ($32.1 \pm 0.2\%$).

Histological examination using Van Gieson staining demonstrated thin collagen fibers in the interstitial tissue and around vascular walls. The follicles in the central region were mostly round or oval, while larger follicles were observed in the peripheral part. Thyrocytes in the central region had a prismatic shape, whereas in the peripheral region they were more cuboidal and lower in height.

Conclusion. In conclusion, comparing the central and peripheral parts of the thyroid gland slices in the control group, epithelial cells make up a larger part in the central part, and the amount of colloidal substance is higher in the peripheral part.

When examining the thyroid gland parameters of white-bred rats, the following results were obtained: the capillary diameter in the central part was $10.78 \pm 0.14 \mu\text{m}$. The capillary number density in the central part was 127.53 ± 3.41 and in the peripheral part was 107.42 ± 3.87 . The total surface area of capillaries in the cross section $\times 10^3 \mu\text{m}^2$ is 11.78 ± 0.11 in the central part and 9.96 ± 0.13 in the peripheral part. The relative surface area of the vascular bed is 9.3 ± 0.3 in the central part, 8.6 ± 0.4 in the peripheral part, the height of the thyroid epithelium is 6.68 ± 0.24 in the peripheral part and 5.5 ± 0.13 in the peripheral part. The diameter of the follicle is $37.98 \pm 0.26 \mu\text{m}$ in the central part and 43.27 ± 0.14 in the peripheral part, the surface area of the follicle is $1178.52 \pm 18.28 \mu\text{m}^2$ and 1548.23 ± 16.32 in the peripheral part. When considering the relative proportions of the components of the follicle, the thyroid epithelium is 40.2 ± 0.32 in the central part and 37.5 ± 0.42 in the peripheral part. The colloid is 32.1 ± 0.2 in the central part, 42.1 ± 0.3 in the peripheral part, and the stroma is 17.5 ± 0.5 in the central part and 12.8 ± 0.4 in the peripheral part.

INSULINREZISTENTLIK VA SURUNKALI YALLIG‘LANISHNING METABOLIK SINDROM PATOGENEZIDAGI O‘RNI”

Odilov Diyorbek Dilshod o‘g‘li

Patologiya kafedrası

*Qoraqalpog‘iston tibbiyot instituti, Nukus shahar, O‘zbekiston
Respublikasi.*

*Ilmiy rahbar – Patologiya kafedrası katta o‘qituvchisi
Ajiniyazova Guljamila Kenesbayevna*

Dolzarbliqi. Metabolik sindrom butun dunyoda keng tarqalgan bo‘lib, 2-tip qandli diabet va yurak-qon tomir kasalliklarining asosiy xavf omillaridan biridir. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, uning patogenezida insulinrezistentlik va surunkali past darajadagi yallig‘lanish markaziy o‘rin tutadi. Ayniqsa, visseral semizlik sharoitida proyallig‘lanish sitokinlari insulin signalizatsiyasini buzib, glyukoza va lipid almashinuvi izdan chiqishiga olib keladi.^[1] Ushbu mexanizmlarni chuqur o‘rganish metabolik sindromning oldini olish va davolash strategiyalarini takomillashtirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi. Metabolik sindrom patogenezida insulinrezistentlik va surunkali past darajadagi yallig‘lanishning o‘zaro bog‘liqligi hamda ularning metabolik buzilishlar rivojlanishidagi rolini aniqlash.

Materiallar va tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida so‘nggi 10 yil davomida chop etilgan ilmiy maqolalar PubMed va Scopus ma‘lumotlar bazalarida tahlil qilindi. Shuningdek, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti hamda O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining rasmiy statistik ma‘lumotlari o‘rganildi. Bundan tashqari, metabolik sindrom va insulinrezistentlik tashxisi bilan

davolanayotgan bemorlarning anamnestik, laborator va instrumental tekshiruv natijalari retrospektiv tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar statistik usullar yordamida qayta ishlanib, natijalar taqqoslama tahlil asosida baholandi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, insulinrezistentlik metabolik sindromning asosiy patogen omili bo'lib, u uglevod, yog' va oqsil almashinuvi, hujayra o'sishi va differensatsiyasining buzilishiga olib keladi. Insulinrezistentlik semizlik, ayniqsa visseral yog' to'qimasi ortishi natijasida adipotsitlar va immun hujayralar tomonidan ajraladigan proyallig'lanish sitokinlari (TNF- α , IL-6, IL-1 β) bilan kuchayadi. Semizlik va ortiqcha energiya qabul qilinishi lipid va glyukoza metabolizmining buzilishiga, ektopik lipid to'planishi va lipotoksiklikka olib keladi. Shu bilan birga, β -hujayralarning funksiyasi pasayadi, giperglukagonemiya rivojlanadi va 2-tip qandli diabet xavfi ortadi.^[2] Insulinrezistentlik lipid profili o'zgarishiga (HDL kamayishi, LDL va triglitseridlar ortishi), periferik qarshilikning oshishi va arterial gipertenziya rivojlanishiga sabab bo'ladi. Molekulyar mexanizmlarda reseptor va postreseptor darajada insulin signal yo'llarining buzilishi, PKC induksiyasi, eNOS faolligining pasayishi va ion transport mexanizmlarining bloklanishi metabolik sindrom komponentlarining bir-biri bilan bog'liqligini tushuntiradi.^[3,4] Klinik misol sifatida WHO tavsiyalariga muvofiq, 55 yoshli ayol bemorda visseral semizlik, arterial gipertenziya va oilaviy 2-tip qandli diabet tarixi qayd etildi. Laborator tekshiruvlarda och qorin glyukozasi 6,9 mmol/l, gemoglobin A1c 6,6%, HDL kamayishi, LDL va triglitseridlar ortishi, TNF- α va IL-6 darajasining yuqoriligi aniqlangan. Visseral yog' to'qimasi orqali ajralgan proyallig'lanish sitokinlari metabolik buzilishlarni kuchaytirgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, insulinrezistentlik va surunkali past darajadagi yallig'lanish metabolik sindromning rivojlanishida markaziy rol o'ynaydi va ularni nazorat qilish profilaktika va davolash strategiyalari uchun dolzarbdir.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, insulinrezistentlik va surunkali past darajadagi yallig'lanish metabolik sindrom rivojlanishida markaziy rol o'ynaydi. Visseral yog' to'qimasi ortishi, adipotsitlar va immun hujayralar orqali ajraladigan proyallig'lanish sitokinlari insulin signalizatsiyasini buzadi, glyukoza va lipid almashinuvi o'zgaradi. Natijada giperqlikemiya, giperlipidemiya va arterial gipertenziya rivojlanadi. Ushbu mexanizmlarni aniqlash metabolik sindromni oldini olish, profilaktika va davolash strategiyalarini takomillashtirish uchun dolzarbdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Guyton AC, Hall JE. Textbook of Medical Physiology. 14th edition. Philadelphia: Elsevier; 2021.
2. Jameson JL, De Groot LJ. Endocrinology: Adult and Pediatric. 7th edition. Philadelphia: Elsevier; 2016.
3. World Health Organization. Global report on diabetes. Geneva: WHO; 2016.
4. DeFronzo RA, Ferrannini E. Pathogenesis of insulin resistance in metabolic syndrome. Journal of Clinical Investigation. 1991; 87(2): 484–492.

TALABALARDA YURAK-QON TOMIR TIZIMI FUNKSIONAL HOLATIGA ANTROPOMETRIK KO‘RSATKICHLARNING TA‘SIRI.

Baltabaeva Shaxnoza Qalbay qızı

*“Fiziologiya, biofizika va tibbiyotda axborot texnologiyasi” kafedrası
Qoraqalpog‘iston tibbiyot instituti davolash fakulteti 218-guruh talabasi,*

Nukus, Qoraqalpog‘iston

Ilmiy rahbar – assistent Babajanova Venera AYTEKOVNA

Dolzarbli: Hozirgi kunda yoshlar salomatligini saqlash va mustahkamlash jamiyat oldida turgan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, talabalik davri organizmning morfofunktsional jihatdan faol shakllanish va moslashuv bosqichi bo‘lib, bu davrda turli omillar ta‘sirida yurak-qon tomir tizimida sezilarli o‘zgarishlar yuz berishi mumkin. So‘nggi yillarda kamharakat turmush tarzi, noto‘g‘ri ovqatlanish, ortiqcha tana vazni va stress omillari yoshlar orasida yurak-qon tomir kasalliklari xavfini oshirmoqda. Butunjahon sog‘liqni saqlash tashkiloti — World Health Organization ma‘lumotlariga ko‘ra, yurak-qon tomir kasalliklari dunyo bo‘yicha o‘limning yetakchi sabablaridan biri bo‘lib qolmoqda va ularning shakllanishi ko‘pincha yosh davrdan boshlanadi.

Shu bois, talabalarda yurak-qon tomir tizimi funksional holatiga antropometrik ko‘rsatkichlarning ta‘sirini ilmiy asosda o‘rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi - Talabalarda yurak-qon tomir tizimining funksional holatini baholash hamda antropometrik ko‘rsatkichlar (bo‘y uzunligi, tana vazni, tana massasi indeksi va boshqa somatometrik ko‘rsatkichlar) bilan yurak-qon tomir tizimi funksional parametrlarining o‘zaro bog‘liqligini aniqlash va ilmiy jihatdan asoslashdan iborat. Shuningdek, talabalarning antropometrik ko‘rsatkichlariga bog‘liq holda turli psixoemotsional sharoitlarda yurak-qon tomir tizimi adaptatsion reaksiyalarining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Materiallar va tadqiqot usullari. Tadqiqotlarda 157 nafar amaliy sog‘lom talaba qizlar va 35 nafar talabalar ishtirok etdi. Tekshirilgan kontingentning o‘rtacha yoshi $21,13 \pm 0,08$ yoshni tashkil etdi. Tana uzunligi va og‘irligi umumiy qabul qilingan antropometriya talablariga muvofiq o‘lchandi. TVI vaznning (kg) bo‘yga (m^2) nisbati bilan aniqlandi. Tekshirilgan talabalarni belgilangan TVI ko‘rsatkichlari bo‘yicha taqsimlash xalqaro TVI tasnifi asosida amalga oshirildi.

Quyidagi antropometrik ko‘rsatkichlar o‘lchandi:

- Bo‘y uzunligi (sm)
- Tana vazni (kg)
- Tana massasi indeksi ($TMI = kg/m^2$)
- Ko‘krak qafasi aylanasining o‘lchami (sm)

Yurak-qon tomir tizimining funksional holatini baholash uchun:

- Yurak urish tezligi (YUT)
- Arterial qon bosimi (sistolik va diastolik)
- Rufye sinamasi

Natijalar va ularning muhokamasi. Tadqiqotning antropometrik ma'lumotlarini tahlil qilish natijasida erkaklarda tana uzunligining o'rtacha qiymati $174,67 \pm 1,48$, va MTning o'rtacha qiymati - $69,48 \pm 2,20$ ekanligi aniqlandi. Ayollarda bu ko'rsatkichlar mos ravishda $164,07 \pm 0,61$ va $56,68 \pm 0,67$ ni tashkil etdi. TVI ning o'rtacha qiymati $21,29 \pm 0,22 \text{ kg/m}^2$ ni tashkil etdi, bu me'yorga to'g'ri keladi. Biroq, individual TVI qiymatlari sezilarli darajada o'zgarib turdi. Shu bilan birga, tekshirilgan talabalar orasida past TVI ($< 18,50 \text{ kg/m}^2$) 6,82%, normal TVI ($18,50-24,99 \text{ kg/m}^2$) - 84,09%, yuqori TVI ($25,0-30,0 \text{ kg/m}^2$) - 8,33% va semizlik ($\geq 30,0$) - 0,76% ni tashkil etdi. Erkaklar va ayollarda TVI ko'rsatkichi qiymatlarini taqqoslash erkaklarda ushbu ko'rsatkichning sezilarli darajada yuqori qiymatlarini aniqlashga imkon berdi.

Rufye sinamasi yurak-qon tomir tizimining jismoniy yuklamaga moslashuv darajasini baholash uchun qo'llaniladigan funksional testdir. U yurakning zahira imkoniyatlarini va tiklanish tezligini aniqlashga yordam beradi.

O'tkazish tartibi:

1. Tekshiriluvchi 5 daqiqa tinch holatda o'tiradi.
2. 15 soniya davomida puls sanaladi (P_1).
3. 45 soniya davomida 30 marta o'tirib-turish mashqi bajariladi.
4. Mashq tugagach:
 - o Dastlabki 15 soniyada puls sanaladi (P_2), 1 daqiqadan so'ng yana 15 soniyada puls sanaladi (P_3). (Barcha puls ko'rsatkichlari 1 daqiqaga aylantiriladi.)

Hisoblash formulasi:

$$IR = P_1 + P_2 + P_3 - 200/10$$

Bu yerda: **IR** — Rufye indeksi

- P_1 — tinch holatdagi puls
- P_2 — yuklamadan keyingi puls
- P_3 — tiklanish davridagi puls

Natijalarni baholashda Rufye indeksi buyicha 0-3 juda yaxshi, 4-6 yaxshi, 7-9 qoniqarli, 10-14 qoniqarsiz, 15 va yuqori juda yomon.

Ahamiyati: Past indeks yurakning yaxshi moslashuvini, yuqori indeks esa yurak-qon tomir tizimi funksional imkoniyatlarining pastligini bildiradi.

Xulosa. Turli xil psixoemotsional sharoitlarda talabalarda yurak-qon tomir tizimi ko'rsatkichlarining o'zgarishi bo'yicha olingan faktlarni tana vazni indeksi va sessiyalararo davrda yurak faoliyatini tartibga solishning alohida ko'rsatkichlari o'rtasida chiziqli bog'liqlik mavjudligi sifatida ko'rib chiqish mumkin. Bizning ma'lumotlarimiz tana vazni indeksining oshishi bilan yurakka simpatik ta'sirning kuchayishi haqidagi fikrni tasdiqlaydi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tana vazni indeksining oshishi bilan simpatik ta'sirning kuchayishi rejimida yurak faoliyatining vegetativ regulyatsiyasi mexanizmlarining gomeostatsiyasi sodir bo'ladi. Psixoemotsional zo'riqish sharoitida, ya'ni imtihon paytida, vegetativ asab tizimining simpatik bo'limi faolligi ko'rsatkichlarining sezilarli darajada oshishi sodir bo'ladi. Shu bilan birga, simpatik ta'sir bilan bog'liq ko'rsatkichlarning siljish tabiati dastlabki darajaga va tana vazni indeksiga bog'liq bo'ladi.

YOSHGA DOIR MAKULA DEGENERATSIYASINING KLINIK-DIAGNOSTIK XUSUSIYATLARI:

Ismatov Husan Akmalovich

Odam anatomiyasi, Klinik anatomiya(OXTA), Gistologiya, Patologik anatomiya va sud tibbiyoti kafedrasi . va Biologiya, mikrobiologiya va bioinjeneriya kafedrasi

ZARMED Universiteti Samarqand Kampusi Samarqand, O'zbekiston

Ilmiy rahbarlar: Shayqulov H.Sh., To'xtanazarova.Sh.I.

Dolzarbliigi: Yoshga doir makula degeneratsiyasi— markaziy ko'rishning qaytmas pasayishiga olib keluvchi surunkali degenerativ kasallik bo'lib, 60 yoshdan oshgan aholi orasida ko'rlikning yetakchi sabablaridan biridir. Aholi umr davomiyligining oshishi bilan kasallik uchrash tezligi ham ortib bormoqda.

Kasallikning erta bosqichlari ko'pincha yashirin kechadi, ayniqsa nam shakli tez progressiyalanib og'ir asoratlarga olib keladi. Shu sababli zamonaviy diagnostika usullarini, xususan optik kogerent tomografiyani qo'llash Yoshga doir macula degeneratsiyasini barvaqt aniqlash va samarali davolash uchun muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi: "Kamalak Ko'z" klinikasida kuzatilgan bemorlar misolida yoshga doir makula degeneratsiyasining klinik shakllarini o'rganish hamda optik kogerent tomografiyaning diagnostik samaradorligini baholash.

Materiallar va tadqiqot usullari: Tadqiqotga 2023–2024 yillar davomida "Kamalak Ko'z" klinikasiga murojaat qilgan 200 nafar bemor jalb qilindi. Bemorlarning yoshi 60–82 yosh oralig'ida bo'lib, o'rtacha yosh $69,4 \pm 4,8$ yilni tashkil etdi. Jinsiy tarkibi: 112 nafar (56%) ayol va 88 nafar (44%) erkak bemor.

Hududiy taqsimotga ko'ra, 124 nafar (62%) bemor shahar aholisi, 76 nafar (38%) qishloq aholisi hisoblandi.

Barcha bemorlar kompleks oftalmologik tekshiruvdan o'tkazildi: vizometriya, tonometriya, biomikroskopiya, oftalmoskopiya hamda makula sohasini baholash uchun optik kogerent tomografiya (OKT).

Olingan ma'lumotlar statistik jihatdan qayta ishlanib, o'rtacha qiymat va guruhlar o'rtasidagi farqlarni baholashda Student t-mezone va χ^2 (xi-kvadrat) testi qo'llanildi. Farqlar ishonchliligi $p < 0,05$ darajada qabul qilindi.

Natijalar va ularning muhokamasi: Tadqiqotga kiritilgan 200 nafar bemor (340 ta ko'z) ma'lumotlari tahlil qilinganda, yoshga doir makula degeneratsiyasining quruq (atrofik) shakli 140 nafar bemorda (70%) va 238 ta ko'zda (70%), nam (ekssudativ) shakli esa 60 nafar bemorda (30%) va 102 ta ko'zda (30%) aniqlangan. Bemorlarning yoshi 60–82 yosh oralig'ida bo'lib, o'rtacha yosh $69,4 \pm 4,8$ yilni tashkil etdi, median yosh 70 yil. Yosh guruhlari kesimida 60–64 yoshdagilar 32 nafarni (16%), 65–75 yoshdagilar 108 nafarni (54%), 76 yosh va undan yuqorilar 60 nafarni (30%) tashkil etdi. Kasallikning eng yuqori uchrash darajasi 65–75 yosh guruhida qayd etilib, yosh ortishi bilan nam shakl ulushi oshib borishi kuzatildi

Jinsiy tarkib bo'yicha ayollar 112 nafarni (56%), erkaklar 88 nafarni (44%) tashkil etdi. Ayollarda kasallikning umumiy uchrash darajasi va ayniqsa quruq shakli ko'proq kuzatildi, farq statistik jihatdan ishonchli bo'ldi

Hududiy taqsimotga ko'ra, 124 nafar bemor (62%) shahar aholisi, 76 nafari (38%) qishloq aholisi bo'lib, shahar aholisi orasida aniqlanish ko'rsatkichi yuqori qayd etildi, bu erta murojaat va diagnostika imkoniyatlari bilan izohlanadi.

Funksional ko'rsatkichlar tahlilida o'rtacha ko'rish o'tkirligi quruq shaklda $0,42 \pm 0,18$, nam shaklda $0,18 \pm 0,09$ ni tashkil etdi

Ko'rish o'tkirligining pasayishi morfologik o'zgarishlar darajasi bilan manfiy korrelyatsiyada bo'ldi

Optik kogerent tomografiya (OKT) natijalariga ko'ra, druzalar 214 ta ko'zda (63%), retinal pigment epiteliy (RPE) atrofiyasi 126 ta ko'zda (37%), subretinal suyuqlik 84 ta ko'zda (25%), intraretinal shish 68 ta ko'zda (20%) va neovaskulyar membrana 78 ta ko'zda (23%) aniqlangan. Nam shaklda subretinal suyuqlik va neovaskulyar membrana ko'rsatkichlari sezilarli yuqori bo'lib, bu ko'rish funksiyasining keskin pasayishi bilan kechdi.

OKT usulining diagnostik sezgirligi 96,5%, spetsifikligi 94,2%, umumiy aniqligi 95,6% ni tashkil etdi. Olingan klinik-statistik natijalar quruq shaklning ustunligini (70%) hamda nam shaklda morfologik va funksional o'zgarishlarning og'irroq kechishini ishonchli tasdiqladi.

Xulosa: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, "Kamalak Ko'z" klinikasida kuzatilgan 200 nafar bemor (340 ta ko'z) orasida yoshga doir makula degeneratsiyasining quruq shakli ustunlik qiladi (70%), nam shakl esa 30% holatni tashkil etadi va ko'rish o'tkirligining tez pasayishi bilan tavsiflanadi. Kasallikning eng yuqori uchrash darajasi 65–75 yosh guruhida qayd etildi, ayollarda va shahar aholisi orasida kasallik ko'proq uchradi.

Optik kogerent tomografiya (OKT) makula sohasidagi morfologik o'zgarishlarni (druzalar, RPE atrofiyasi, subretinal suyuqlik, neovaskulyar membrana) yuqori sezgirlik va aniqlik bilan aniqlash imkonini beradi (sezgirlik 96,5%, spetsifiklik 94,2%). Shu bois OKT usuli yoshga doir makula degeneratsiyasini erta bosqichda aniqlash va bemorlarning ko'rish qobiliyatini saqlab qolish uchun eng ishonchli diagnostik vosita hisoblanadi.

Erta skrining va muntazam tekshiruvlar kasallikning og'ir asoratlarini kamaytirish va davolash natijalarini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega.

Tavsiyalar- Yoshga doir makula degeneratsiyasini erta aniqlash uchun 60 yoshdan oshgan bemorlarda muntazam OKT tekshiruvini o'tkazish.

Nam shaklni barvaqt aniqlash va davolash orqali ko'rish funksiyasining tez pasayishini oldini olish.

Shahar va qishloq aholisi orasida diagnostika imkoniyatlarini kengaytirish va aholini kasallik belgilaridan xabardor qilish.

MORFOLOGIK FANLARNING DOLZARB MASALALARI: KLINIK ANATOMIYA (OXTA)

Abduraxmonov Shoxijahon O‘tkirjonovich
Osiyo Xalqaro Universiteti, Buxoro, O‘zbekiston
Ilmiy rahbar: Tog‘aydullayeva Dildora Dilmurodovna

KIRISH

Klinik anatomiya morfologik fanlar tizimida markaziy o‘rin tutadi va zamonaviy tibbiyotning nazariy hamda amaliy poydevorini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Inson organizmining makroskopik, mikroskopik va topografik tuzilishini tizimli o‘rganish kasallik patogenezini chuqur anglash, klinik simptomlarning morfologik asoslarini aniqlash va individual davolash strategiyalarini ilmiy asoslash imkonini beradi.

Individual anatomik variatsiyalarni hisobga olish diagnostika aniqligini 15–25% oshiradi va jarrohlik asoratlarini sezilarli darajada kamaytiradi. Zamonaviy radiologik usullar – kompyuter tomografiyasi, magnit-rezonans tomografiya va ultratovush tekshiruvlarida anatomik bilimlarning amaliy ahamiyati oshadi.

Tibbiy ta’limda klinik anatomiya nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtirish orqali talabalarda tizimli klinik fikrlashni va kasbiy kompetensiyani shakllantiradi. Virtual 3D modellar va simulyatsion o‘quv texnologiyalari murakkab topografik tuzilishlarni vizual anglash imkonini beradi.

Tadqiqot maqsadi

Tadqiqotning asosiy maqsadi klinik anatomiya fanining diagnostika va davolash jarayonidagi ilmiy-amaliy ahamiyatini aniqlash, morfologik bilimlarning klinik qaror qabul qilishdagi rolini asoslash hamda integrativ o‘qitish yondashuvining samaradorligini baholashdan iborat.

Vazifalar

- * Organ va tizimlarning morfologik xususiyatlarini klinik nuqtai nazardan tahlil qilish;
- * Anatomik variatsiyalarning diagnostika va jarrohlik amaliyotidagi ahamiyatini aniqlash;
- * Talabalarining klinik tafakkurini rivojlantirish usullarini baholash;
- * Simulyatsion va virtual modellar yordamida o‘qitish samaradorligini tekshirish;
- * Klinik anatomiya ta’limini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Materiallar va tadqiqot usullari

50 dan ortiq zamonaviy morfologik va klinik adabiyotlar tahlil qilindi. Ilmiy umumlashtirish, qiyosiy morfologik baholash, tizimli tahlil va statistik usullar natijalarni ishonchli baholash imkonini berdi.

Talabalarining amaliy ko‘nikmalari:

- * Simulyatsion mashg‘ulotlar: 20–25% samaradorlik oshdi
- * Virtual 3D anatomik modellar: murakkab tuzilishlarni vizual tushunish 30% osonlashdi
- * Diagnostik qaror qabul qilish: 15–20% tezlashdi

Organ tuzilishining funksional ahamiyati patofiziologik jarayonlar bilan bog‘liq holda tahlil qilindi. Topografik va funksional morfologiya jihatlariga alohida e‘tibor berildi.

Natijalar va muhokama

- * Individual anatomik variatsiyalarni hisobga olish tashxis aniqligini 20% oshirdi.
- * Nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtirish talabalarda klinik tafakkur va kasbiy kompetensiyani sezilarli darajada rivojlantirdi.
- * Simulyatsiya texnologiyalari murakkab topografik tuzilishlarni tushunishni osonlashtirdi va jarrohlik amaliyotida xavfsizlikni oshirdi.
- * Virtual modellar bilan ishlash talabalarning amaliy ko‘nikmalarini 25–30% yaxshiladi.
- * Integrativ yondashuv tizimli fikrlashni shakllantirdi, klinik qaror qabul qilish tezligini oshirdi va o‘quv jarayonining samaradorligini kuchaytirdi.
- * Klinik korrelyatsiya ko‘rsatdi: individual variatsiyalarni hisobga olish minimal invaziv jarrohlikda asoratlarni sezilarli kamaytiradi.

Xulosa

Klinik anatomiya morfologik fanlar tizimida nazariy va amaliy jihatdan markaziy ahamiyatga ega. Anatomik bilimlarni amaliyot bilan integratsiyalash diagnostika aniqligini oshiradi, jarrohlik xavfsizligini ta‘minlaydi va minimal invaziv protseduralarda samaradorlikni kuchaytiradi.

Nazariy va amaliy bilimlarni uyg‘unlashtirish asosida tashkil etilgan klinik anatomiya ta‘limi bo‘lajak mutaxassislarning professional tayyorgarligini oshiradi, klinik tafakkurini rivojlantiradi va tibbiy ta‘lim sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Integrativ yondashuv tibbiy ta‘lim sifatini oshirish va klinik tafakkurni rivojlantirishning samarali usuli hisoblanadi.

ASEPTIC PRODUCTION AND QUALITY CONTROL OF OPHTHALMIC AND ENT PREPARATIONS

Bolatkyzy Zhasmin

*Department of Engineering Disciplines of Good Practices, School of
Pharmacy, Kazakh National Medical*

*S.D. Asfendiyarov Kazakh National Medical University, Almaty, Kazakhstan
Scientific Supervisor – PhD, Associate Professor Serzhan Mombekov*

Relevance: Modern morphological sciences investigate cellular regeneration mechanisms, tissue remodeling processes, and structural alterations associated with pathological conditions. Advances in regenerative medicine have created demand for biologically active pharmaceutical substances capable of stimulating tissue repair, angiogenesis, extracellular matrix synthesis, and cellular differentiation. Biotechnological production of growth factors (e.g., EGF, VEGF), recombinant proteins, cytokines, monoclonal antibodies, and bioactive peptides represents a

major breakthrough in modern pharmaceutical manufacturing. These complex macromolecules require highly controlled production systems to ensure structural integrity, correct folding, biological activity, and absence of contaminants.

Due to their high molecular complexity and sensitivity to environmental conditions, ensuring purity, safety, and batch-to-batch reproducibility is particularly critical for these products.

Purpose of the study: To analyze technological principles, production stages, and quality assurance strategies involved in the biotechnological manufacturing of morphologically active pharmaceutical substances intended for tissue regeneration and repair.

Materials and research methods: The study is based on analysis of scientific literature on recombinant DNA technology, microbial and mammalian cell culture systems, upstream and downstream bioprocessing technologies, and GMP guidelines for biological medicinal products.

Key aspects evaluated include:

- Gene cloning and expression systems;
- Fermentation and cell cultivation technologies;
- Purification and isolation methods;
- Critical process parameters (CPPs);
- Quality control and validation strategies.

Results and discussion: Biotechnological production typically begins with recombinant DNA engineering, where the gene encoding the target protein is inserted into an appropriate expression vector.

This vector is introduced into host systems such as:

- Escherichia coli (for rapid protein expression);
- Yeast systems (e.g., Saccharomyces cerevisiae);
- Mammalian cell lines (e.g., CHO cells) for complex glycoproteins.

The upstream process includes fermentation (microbial systems) or cell cultivation in bioreactors under strictly controlled conditions. Critical parameters include temperature, pH, dissolved oxygen, agitation rate, and nutrient composition. These factors directly influence protein yield, folding efficiency, and post-translational modifications.

Downstream processing is a crucial stage that determines product purity and safety. It includes:

- Cell lysis (if intracellular expression);
- Centrifugation and filtration;
- Chromatographic purification (affinity, ion exchange, size exclusion);
- Ultrafiltration and diafiltration;
- Special attention is paid to removal of host cell proteins (HCP), DNA residues, endotoxins, viral particles, and other impurities.

Structural integrity must be confirmed using advanced analytical methods such as:

- SDS-PAGE and Western blot;
- Mass spectrometry;
- Circular dichroism;

- High-performance liquid chromatography (HPLC).
Biological activity is evaluated using in vitro bioassays, receptor-binding studies, and cell proliferation assays. Sterility testing, endotoxin analysis (LAL test), and stability studies under ICH conditions are mandatory.

Strict GMP compliance, including validated bioreactors, controlled cleanroom environments, process validation, and risk management (ICH Q9), ensures reproducibility and patient safety.

Biotechnological substances such as growth factors, cytokines, and recombinant proteins demonstrate significant therapeutic potential in:

- Wound healing;
- Burn treatment;
- Bone and cartilage regeneration;
- Treatment of degenerative and inflammatory diseases;
- Tissue engineering applications.

Conclusion: Biotechnological manufacturing plays a central role in the production of morphologically active pharmaceutical substances for regenerative medicine. The integration of advanced recombinant technologies, optimized upstream and downstream processing, and strict GMP-based quality control ensures high purity, structural stability, biological activity, and therapeutic effectiveness.

Continuous innovation in bioprocess engineering and quality assurance systems further expands the potential of regenerative pharmaceutical therapies.

ВЛИЯНИЕ ПИТЬЕВОЙ ВОДЫ РАЗЛИЧНОГО КАЧЕСТВА НА КРУПНЫЕ СЛЮННЫЕ ЖЕЛЕЗЫ

Тешаева Дилбар Шухратовна

Хасанова Дилноза Ахроровна

Ассистент кафедры анатомии и клинической анатомии (ОХТА) Бухарского
государственного медицинского института имени Абу Али ибн
Сино. Узбекистан, г. Бухара, ул. Гиждуван, 23. info@bsmi.uz

Актуальность проблемы. Известно, что нехватка питьевой воды с каждым днём становится одной из крупнейших проблем. Учёные подчёркивают необходимость использования подземных вод в качестве источника питьевой воды. Однако состав питьевой воды отличается от водопроводной воды по определённым параметрам. Использование соленоватых подземных вод в качестве источника питьевой воды приводит к ряду изменений в организме. Также постоянное потребление воды с различным качественным составом оказывает влияние на слюнные железы и, соответственно, на их продукт — слюну. Как известно, одной из основных причин возникновения заболеваний в организме являются внешние факторы. Каждое вещество, попадающее в организм из внешней среды, оказывает прямое и косвенное влияние на органы пищеварения. Если это негативное воздействие будет происходить постоянно, могут наблюдаться серьёзные изменения. До сегодняшнего дня влияние подземных вод на некоторые

органы, например, щитовидную железу, уже изучалось. Однако воздействие на слюнные железы до сих пор не исследовано, что повышает актуальность данной темы. Как известно, полость рта считается «зеркалом» организма. Слюнные железы играют важную роль для организма. Они не только запускают процесс пищеварения, но и защищают полость рта и зубы, уничтожают бактерии и способствуют поддержанию гигиены рта. Именно слюна определяет уровень pH в ротовой полости. Нарушение функции слюнных желез или снижение их активности может привести к различным проблемам со здоровьем. Поэтому сохранение здоровья слюнных желез имеет важное значение для общего состояния организма.

Задачи исследования:

1. В лабораторных условиях определить качественный состав грунтовой воды, добываемой с глубины 10 метров на территории Бухарского государственного медицинского института, а также водопроводной воды, и сравнить полученные результаты с Государственными стандартами Узбекистана O'zDSt 950:2011.
2. Выявить морфологические особенности изменений в слюнных железах у здоровых белых беспородных крыс в возрасте 6–9 месяцев и весом 250–300 граммов, потреблявших подземные воды.
3. В течение 3 месяцев определить иммунологический состав слюны у белых беспородных крыс, употреблявших подземную воду, и сравнить его с составом слюны крыс, употреблявших водопроводную воду.

Анализ частных результатов:

В качестве объекта исследования были выбраны здоровые белые беспородные лабораторные крысы массой 250–300 г. Всего было отобрано 130 крыс, которые были разделены на 2 группы. Первая группа — 50 крыс, употреблявших централизованную (водопроводную) питьевую воду. Вторая группа — 80 крыс, употреблявших грунтовую воду, добытую с глубины 10 метров. Эксперимент проводился следующим образом: Первая (контрольная) группа лабораторных крыс ежедневно в течение 3 месяцев получала централизованную водопроводную воду. Вторая группа ежедневно в течение 3 месяцев употребляла грунтовую воду, добытую с глубины 10 метров. Ниже приведены нормы состава питьевой воды согласно Государственному стандарту Узбекистана от 2011 года (O'zDSt 950:2011), а также качественные показатели подземной воды и водопроводной воды, употребляемых объектами исследования: Эти данные подтверждают, что некоторые показатели качества подземной воды превышают допустимые нормы, что обосновывает необходимость дальнейшего изучения их влияния на здоровье, в частности на состояние слюнных желез.

Состав воды, её влияние на морфологию слюнных желёз и иммунологические показатели слюны у лабораторных крыс (на примере подземных вод, используемых на территории Бухарского государственного медицинского института)

Настоящее исследование посвящено анализу химического состава подземных вод, добываемых с глубины 10 метров на территории Бухарского государственного медицинского института, а также изучению их воздействия на морфологическое состояние слюнных желёз и иммунологические показатели слюны у лабораторных белых беспородных крыс. Полученные данные были сравнены с нормативами Государственного стандарта Узбекистана O'zDSt 950:2011 и показателями водопроводной воды.

Выводы:

1. Необходимо скорректировать химический состав подземной воды, добываемой насосом с глубины 10 метров на территории Бухарского государственного медицинского института, в соответствии с требованиями O'zDSt 950:2011.
2. У лабораторных крыс, употреблявших подземную воду, наблюдались морфологические изменения в клетках околоушной слюнной железы, включая гипертрофию и интерстициальный отёк.
3. Иммунологические показатели слюны у этих животных указывают на снижение противовоспалительных реакций и антимикробной защиты, а также на активацию воспалительных процессов.

VI- TIBBIY BIOLOGIYA, MIKROBIOLOGIYA VA YUQUMLI KASALLIKLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

OKSIDATIV STRESS SHAROITIDA HUYAYRA MITOXONDRIYALARI DISFUNKSIYASINING MOLEKULAR MEXANIZMLARI VA APOPTOTIK JARAYONLAR FAOLLASHUVI

Sobirjonov Shohjahon Payrav O'g'li

Annotatsiya

Oksidativ stress hujayra ichidagi reaktiv kislorod shakllari (ROS) ortiqcha to'planishi bilan xarakterlanib, mitoxondrial funksional yetishmovchilik va apoptotik jarayonlar induksiyasiga olib keladi. Ushbu tezisdagi oksidativ stress sharoitida mitoxondriya membrana potensialining pasayishi, sitoxrom-c ajralishi va kaspaza kaskadining faollashuvi o'rtasidagi patogenetik bog'liqlik tahlil qilindi. Olingan natijalar mitoxondrial disfunktsiya hujayra o'limi mexanizmlarining markaziy bo'g'ini ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: oksidativ stress, mitoxondriya, ROS, apoptos, kaspazalar.

Dolzarbligi

So‘nggi yillarda oksidativ stress ko‘plab surunkali kasalliklar — yurak-qon tomir patologiyalari, neyrodegenerativ jarayonlar va metabolik sindrom patogenezida muhim omil sifatida qaralmoqda. ROS miqdorining ortishi lipid peroksidlanishi, oqsil denaturatsiyasi va DNK shikastlanishiga olib keladi. Ayniqsa, mitoxondriyalar energiya almashinuvining asosiy markazi bo‘lishi bilan birga apoptotik signalizatsiyaning regulyatori hisoblanadi.

Maqsad

Oksidativ stress sharoitida mitoxondrial disfunktsiya ko‘rsatkichlari va apoptotik markerlar o‘rtasidagi molekulyar bog‘liqlikni aniqlash.

Material va usullar

In vitro sharoitda hujayra kulturasida oksidlovchi stress induksiyasi amalga oshirildi. Mitoxondriya membrana potentsiali fluorometrik usulda, sitoxrom-c ajralishi va kaspaza-3 faolligi immunoferment tahlil orqali baholandi. Olingan natijalar statistik qayta ishlanib, ishonchlilik darajasi aniqlashtirildi.

Natijalar

Oksidativ stress ta‘sirida mitoxondriya membrana potentsiali sezilarli pasaydi, sitoxrom-c sitoplazmaga ajralishi ortdi hamda kaspaza-3 faolligi oshgani qayd etildi. Bu holat apoptotik jarayonlarning mitoxondrial yo‘l orqali faollashganini tasdiqlaydi.

Xulosa

Mitoxondrial disfunktsiya oksidativ stress sharoitida hujayra o‘limi mexanizmlarining asosiy triggeri hisoblanadi. Antioksidant himoya tizimini kuchaytirish va mitoxondrial barqarorlikni saqlashga qaratilgan terapevtik yondashuvlar istiqbolli yo‘nalish bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

IMMUN TIZIMNING BIOLOGIK ASOSLARI VA KASALLIKLARDAN HIMOYALANISHDAGI ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR

*Saidxanova Umida Xabibullayevna-202-bosqich . Biotexnologiya,ingineriing va
farmatsiya fakulteti*

*Ilmiy raxbar: Xasanova G R- farmakognoziya va farmatsevtik texnologiyalar
kafedrasi assistenti, SamDTU*

Annotatsiya.Inson immun tizimi organizmning ichki barqarorligini saqlash va turli patogen omillarga qarshi kurashishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan murakkab regulyator tizimdir. Hozirgi davrda immunologiya fani infeksiyon

kasalliklar, allergiyalar, autoimmun va onkologik jarayonlarning mexanizmlarini tushuntirishda yetakchi o‘rinni egallamoqda. Ushbu tezisda immun tizimning funksional tuzilishi, asosiy immun javob shakllari hamda zamonaviy immunologik tadqiqotlarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: immun tizim, immun javob, limfotsitlar, sitokinlar, hujayraviiy va gumoral immunitet.

Dolzarbli. So‘nggi yillarda global miqyosda immun tizim bilan bog‘liq kasalliklarning ko‘payishi kuzatilmoqda. Ekologik muhitning yomonlashuvi, turmush tarzining o‘zgarishi, stress omillari va yuqumli kasalliklarning tarqalishi immun tizim faoliyatining izdan chiqishiga olib kelmoqda. Natijada immunodefitsit holatlar, allergik va autoimmun kasalliklar soni ortib bormoqda. Shu sababli immunologik jarayonlarni chuqur o‘rganish zamonaviy tibbiyotning muhim ilmiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi. Immun tizimning asosiy tarkibiy qismlari va ularning biologik funksiyalarini tahlil qilish, immun javob mexanizmlarini ochib berish hamda zamonaviy immunologik yondashuvlarning ahamiyatini baholash.

Materiallar va usullar. Tadqiqot ishida immunologiya sohasiga oid ilmiy manbalar, monografiyalar va zamonaviy tadqiqot maqolalari tahlil qilindi. Olingan ma’lumotlar tahliliy, taqqoslash va umumlashtirish usullari yordamida qayta ishlangan.

Natijalar va muhokama. O‘tkazilgan adabiyotlar tahlili va umumlashtirilgan ilmiy ma’lumotlar asosida immun tizimning murakkab, ko‘p bosqichli va o‘zaro bog‘liq mexanizmlar orqali faoliyat yuritishi aniqlandi. Immun himoya jarayonlarida markaziy va periferik immun a’zolar muvofiqlashgan holda ishlaydi. Suyak iligida immun hujayralarning dastlabki shakllanishi amalga oshsa, timusda T-limfotsitlarning differensiyalanishi va funksional yetilishi sodir bo‘ladi. Limfa tugunlari va taloq esa immun javobning asosiy “faol maydonlari” hisoblanadi. Tug‘ma immunitet organizmga begona omillar kirib kelishining dastlabki bosqichida tezkor javob qaytaradi. Bu jarayonda fagotsitlar, tabiiy killer hujayralar, komplement tizimi va yallig‘lanish mediatorlari muhim rol o‘ynaydi. Tug‘ma immun javobning asosiy ustunligi — uning tezligi bo‘lsa, kamchiligi nisbatan past spetsifiklik bilan izohlanadi.

Orttirilgan immunitet esa yuqori darajadagi spetsifiklik va immunologik xotira bilan tavsiflanadi. T-limfotsitlar hujayraviiy immunitetni shakllantirib, virus bilan zararlangan yoki o‘zgargan hujayralarni aniqlash va yo‘q qilishda ishtirok etadi. B-limfotsitlar tomonidan ishlab chiqarilgan antitanalar esa patogenlarni neytrallash, ularni fagotsitozga tayyorlash va komplement tizimini faollashtirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayonlar organizmning uzoq muddatli himoyasini ta’minlaydi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sitokinlar immun hujayralar o'rtasidagi axborot almashinuvida markaziy o'rinni egallaydi. Ular immun javobning kuchi, davomiyligi va yo'nalishini boshqaradi. Sitokinlar muvozanatining buzilishi yallig'lanish jarayonlarining surunkalashuvi, allergik reaksiyalar yoki autoimmun kasalliklarning rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Zamonaviy immunologik tadqiqotlar immun tizimni nishonga oluvchi davolash usullarini ishlab chiqishga qaratilgan. Xususan, immunoterapiya usullarining joriy etilishi onkologik va surunkali infeksiyon kasalliklarni davolashda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Biologik faol preparatlar va monoklonal antitanalar immun javobni aniq boshqarish imkonini berib, davolash samaradorligini oshirmoqda.

Xulosa. Immun tizim faoliyatini o'rganish inson salomatligini saqlash va turli kasalliklarning oldini olishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Immunologiya sohasidagi zamonaviy tadqiqotlar tashxis va davolash samaradorligini oshirish imkonini bermoqda

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abbas A.K., Lichtman A.H. *Cellular and Molecular Immunology*.
2. Janeway C.A. *Immunobiology*.
3. Xaitov R.M. *Zamonaviy immunologiya asoslari*.
4. Brooks G.F. **Jawetz, Melnick & Adelberg's Medical Microbiology**. Lange, 2022.
5. Z.A Nurizova, Z/R Fayzullaeva Mikrobiologiya, virusiologiya va immunologiya.

ANTIBIOTIKLARGA CHIDAMLI BAKTERIYALARNING MIKROBIOLOGIK XUSUSIYATLARI.

*Aliboyeva Shahzoda Ulug'bekovna – Biotexnologiya, injenering va Farmatsiya
Farmakognoziya va farmatsevtik texnologiyalar kafedrasi assistenti*

Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand, O'zbekiston

Ilmiy rahbar-kafedra assistenti Xasanova G.R.

Dolzarblik. Hozirgi kunda antibiotiklarga chidamli mikroorganizmlarning keng tarqalishi infeksiyon kasalliklarni davolash samaradorligini pasaytirib, mikrobiologiya va tibbiyot sohasida jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Antibiotiklardan noto'g'ri foydalanish bakteriyalarda rezistentlik mexanizmlarining shakllanishiga olib kelmoqda, bu esa samarali davolash usullarini ishlab chiqishni talab etadi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy ahamiyati klinik bakteriya shtammlarining antibiotiklarga sezuvchanligini mikrobiologik usullar asosida baholashdan iborat. Zamonaviy sharoitda antibiotik rezistentligi global sog'liqni saqlash tizimi uchun

muhim tahdid hisoblanadi. Shu bois, antibiotiklarga chidamli bakteriyalarni o'rganish va monitoring qilish infeksiyon kasalliklarni samarali nazorat qilishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot maqsadi

Mazkur tadqiqotning maqsadi — klinik namunalardan ajratib olingan *Escherichia coli*, *Staphylococcus aureus* va *Klebsiella pneumoniae* shtammlarining antibiotiklarga sezuvchanlik darajasini mikrobiologik usullar yordamida aniqlash, ularning rezistentlik mexanizmlarini baholash hamda turli bakteriya turlarida chidamlilik darajasini solishtirma tahlil qilishdan iborat.

Materiallar va usullar

Tadqiqot ishlari 2024–2025-yillar davomida laboratoriya sharoitida olib borildi. Tadqiqot obyekti sifatida klinik namunalardan ajratib olingan *Escherichia coli*, *Staphylococcus aureus* va *Klebsiella pneumoniae* bakteriya shtammlari tanlab olindi. Namunalar oziqlantiruvchi muhitlar — go'sht-peptonli agar va Endo muhitida ekildi. Bakteriyalarni identifikatsiya qilishda mikroskopik (Gram bo'yash usuli), biokimyoviy (katalaza, oksidaza, fermentatsiya testlari) va madaniy usullardan foydalanildi. Antibiotiklarga sezuvchanlik Kirby–Bauer disk-diffuziya usuli orqali aniqlandi. Olingan natijalar statistik jihatdan tahlil qilindi.

Natijalar

Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'rganilgan bakteriya shtammlarining sezilarli qismi keng qo'llaniladigan antibiotiklarga nisbatan yuqori darajada chidamlilik ko'rsatdi. Ayniqsa, *Staphylococcus aureus* shtammlarida penitsillin va ampisilinga nisbatan rezistentlik yuqori ekani aniqlandi. *Escherichia coli* namunalarida esa sefalosporinlar guruhiga mansub antibiotiklarga nisbatan o'rtacha chidamlilik kuzatildi. Olingan natijalar antibiotiklardan noto'g'ri va nazoratsiz foydalanish mikroorganizmlarda rezistentlik rivojlanishiga olib kelayotganini ko'rsatdi.

Xulosa

O'tkazilgan tadqiqot antibiotiklarga chidamli bakteriyalar muammosi mikrobiologiya va tibbiyot sohasida dolzarb ekanini tasdiqlaydi. Antibiotiklarni oqilona qo'llash, mikrobiologik monitoringni kuchaytirish va yangi antibakterial preparatlarni ishlab chiqish zarur. Ushbu natijalar infeksiyon kasalliklarni samarali davolashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar

- Jawetz E., Melnick J., Adelberg E. **Medical Microbiology**. McGraw-Hill, 2022.
Tortora G.J., Funke B.R., Case C.L. **Microbiology: An Introduction**. Pearson, 2021.
Murray P.R., Rosenthal K.S. **Medical Microbiology**. Elsevier, 2023.

World Health Organization. **Antimicrobial Resistance: Global Report.** WHO, 2024.

Brooks G.F. **Jawetz, Melnick & Adelberg's Medical Microbiology.** Lange, 2022.
Z.A Nurizova, Z/R Fayzullaeva Mikrobiologiya, virusiologiya va immunologiya.

SURUNKALI GASTRIT PROFILAKTIKASIDA HELICOBACTER PYLORI INFEKSIYASINI ERTA DIAGNOSTIKA QILISHNING AHAMIYATI

Mamasiddiqov Salohiddin Bahtiyor o'g'li

Normal anatomiya kafedresi

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti, Farg'ona, O'zbekiston

Ilmiy rahbar-kafedra assistenti Sh.I.Jaloliddinov

Dolzarbli. Surunkali gastrit oshqozon-ichak tizimining eng keng tarqalgan kasalliklaridan biri hisoblanib, turli yosh guruhlarida uchrashi bilan xarakterlanadi. Ushbu kasallik uzoq davom etuvchi yallig'lanish jarayonlari bilan kechib, oshqozon shilliq qavatining struktur va funksional o'zgarishlariga olib keladi. Surunkali gastrit bemorlarning umumiy sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatib, mehnat qobiliyatining pasayishiga va hayot sifatining yomonlashishiga sabab bo'ladi.

Hozirgi vaqtda surunkali gastrit rivojlanishida asosiy etiologik omillardan biri sifatida *Helicobacter pylori* infeksiyasi muhim o'rin egallaydi. Ushbu bakteriya oshqozon shilliq qavatida uzoq vaqt davomida saqlanib qolib, surunkali yallig'lanish jarayonini yuzaga keltiradi. *Helicobacter pylori* tomonidan ishlab chiqariladigan fermentlar va toksinlar epiteliy hujayralarining shikastlanishiga, shilliq qavat himoya mexanizmlarining zaiflashishiga hamda oshqozon sekretsiasining buzilishiga olib keladi.

Helicobacter pylori infeksiyasi o'z vaqtida aniqlanmasa, oshqozon shilliq qavatida atrofik o'zgarishlar, eroziya va yara jarayonlari rivojlanishi mumkin. Ayrim hollarda esa uzoq davom etuvchi infeksiya oshqozon saratoni rivojlanish xavfini oshiradi. Shu sababli *Helicobacter pylori* infeksiyasini erta bosqichlarda aniqlash surunkali gastrit profilaktikasining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Infeksiyani erta aniqlash orqali kasallikning rivojlanishini to'xtatish, yallig'lanish jarayonining chuqurlashib ketishining oldini olish hamda kasallik asoratlarini kamaytirish mumkin. Shu jihatdan *Helicobacter pylori* infeksiyasini erta diagnostika qilish masalasi zamonaviy tibbiyotning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi surunkali gastrit profilaktikasida *Helicobacter pylori* infeksiyasini erta diagnostika qilishning ahamiyatini aniqlash hamda diagnostika usullarining amaliy samaradorligini baholashdan iborat.

Materiallar va tadqiqot usullari. Tadqiqot davomida oshqozon-ichak tizimi bilan bog‘liq shikoyatlar bilan murojaat qilgan bemorlar kompleks ravishda tekshirildi. Tadqiqot materiallarini klinik kuzatuv natijalari, laborator tahlillar hamda instrumental tekshiruv ma‘lumotlari tashkil etdi.

Helicobacter pylori infeksiyasini aniqlashda zamonaviy diagnostika usullaridan foydalanildi. Noinvaziv usullar sifatida najasda *Helicobacter pylori* antigenini aniqlash, serologik testlar hamda nafas testlari qo‘llanildi. Ushbu usullar infeksiyani aniqlashda yuqori sezgirlik va ishonchlilikka ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Invaziv diagnostika usuli sifatida fibrogastroduodenoskopiya bajarildi hamda tekshiruv davomida oshqozon shilliq qavatidan biopsiya materiallari olindi. Olingan namunalar morfologik tekshiruvdan o‘tkazildi. Tadqiqot natijalari statistik ishlov berish usullari yordamida tahlil qilindi.

Natijalar va ularning muhokamasi. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari *Helicobacter pylori* infeksiyasi aniqlangan bemorlarda oshqozon shilliq qavatida yallig‘lanish o‘zgarishlari ko‘proq uchrashini ko‘rsatdi. Bunday bemorlarda epigastral sohada og‘riq, dispeptik belgilar hamda ovqat hazm qilish jarayonining buzilishlari tez-tez qayd etildi.

Helicobacter pylori infeksiyasi mavjud bo‘lgan bemorlarda oshqozon shilliq qavatining giperemiyasi, shishishi va eroziyaga moyilligi ko‘proq kuzatildi. Morfologik tekshiruv natijalari yallig‘lanish infiltratsiyasi mavjudligini tasdiqladi.

Infeksiyani erta bosqichlarda aniqlash va eradikatsiya terapiyasini o‘z vaqtida boshlash klinik belgilar kamayishiga hamda oshqozon shilliq qavatining tiklanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi. Davolash o‘tkazilgan bemorlarda yallig‘lanish jarayonining pasayishi kuzatildi.

Olingan natijalar *Helicobacter pylori* infeksiyasini erta aniqlash surunkali gastrit rivojlanishining oldini olishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Shuningdek, kasallikning og‘ir shakllari va asoratlari rivojlanish xavfi kamayishi aniqlandi.

Xulosa. *Helicobacter pylori* infeksiyasini erta aniqlash surunkali gastrit profilaktikasining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy diagnostika usullarini qo‘llash infeksiyani dastlabki bosqichlarda aniqlash imkonini beradi.

Helicobacter pylori infeksiyasini o‘z vaqtida aniqlash va eradikatsiya terapiyasini o‘tkazish oshqozon shilliq qavatidagi yallig‘lanish jarayonini kamaytiradi hamda surunkali gastrit rivojlanishining oldini olishga yordam beradi.

Erta diagnostika va profilaktik choralarini keng qo'llash orqali oshqozon kasalliklarining tarqalishini kamaytirish hamda bemorlar hayot sifatini yaxshilash mumkin.

IRSIY KASALLIKLAR: TIBBIY BIOLOGIYA NUQTAI NAZARIDAN KELIB CHIQISHI, ERTA DIAGNOSTIKASI VA PROFILAKTIKASI

Doliyev Ahmadjon Ulug'bek o'g'li

Email: ahmadjondoliyev@gmail.com

Osiyo xalqaro universiteti 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Shukurova Shoxina Tuyg'unovna

Osiyo xalqaro universiteti "Umumiy fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi

e-mail:shukurovashoxinatuygunovna@oxu.uz

Dolzarbli. Zamonaviy tibbiy biologiyaning eng dolzarb muammolaridan biri bu inson genomidagi o'zgarishlar va ularning fenotipik namoyon bo'lishidir. Inson genomi loyihasi yakunlanganidan so'ng, tibbiyotda "Genomika erasi" boshlandi. Bugungi kunda ma'lum bo'lgan 10,000 dan ortiq irsiy kasalliklarning har biri inson hayotining sifati va davomiyligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Global miqyosda genetik patologiyalar bolalar o'limining qariyb 25-30 foizini tashkil etishi ushbu sohaning naqadar muhimligini ko'rsatadi. Irsiy kasalliklar nafaqat yakka tartibdagi bemorning muammosi, balki butun jamiyatning genetik yuki (genetic load) hisoblanadi. Genetik yuk — bu populatsiyada to'planib boruvchi zararli mutatsiyalar majmuasi bo'lib, u tabiiy tanlanish bosimidan omon qolgan retsessiv genlar hisobiga shakllanadi.

Tadqiqot maqsadi. O'zbekiston sharoitida ushbu muammo o'ziga xos demografik va madaniy xususiyatlarga ega. Markaziy Osiyo xalqlari orasida, xususan o'zbek xalqida oila institutining mustahkamligi va qarindoshlar o'rtasidagi yaqin munosabatlar ba'zan endogamiya (yaqin qarindoshlar nikohi) holatlariga olib keladi. Bu esa avtosom-retsessiv turdagi og'ir kasalliklar — fenilketonuriya, spinal mushak atrofiyasi, mukovissidoz kabi patologiyalarning uchrash chastotasini oshiradi. Shuning uchun irsiy kasalliklarning erta diagnostikasi va ularning oldini olish milliy genofondni saqlashning strategik vazifasi hisoblanadi. Ushbu tadqiqotning bosh maqsadi — irsiy kasalliklarning molekulyar-genetik kelib chiqish mexanizmlarini tibbiy biologiya qonuniyatlari asosida fundamental tahlil qilish hamda diagnostika va profilaktikaning eng samarali innovatsion modellarini ishlab chiqishdir.

Materiallar va tadqiqot usullari. Mutageniz jarayonining hujayra darajasidagi bosqichlarini, jumladan DNK replikasiyasi va reparatsiyasi xatolarini o'rganish. Xromosoma abberatsiyalarining sitogenetik tabiatini va ularning embrional rivojlanishga ta'sirini tahlil qilish. Zamonaviy molekulyar diagnostika

usullari (PCR, NGS, WES) ning samaradorligini qiyosiy baholash. Tibbiy-genetik maslahat berish tizimini takomillashtirish orqali populatsiyadagi genetik xavfni kamaytirish yo'llarini ko'rsatish. Tadqiqot jarayonida zamonaviy genetik va bioinformatikaning eng so'nggi yutuqlari metodologik asos qilib olindi. Sitogenetik tahlil usullari: Xromosoma kasalliklarini aniqlashda kariotiplash usuli qo'llanildi. Bunda periferik qon limfotsitlari fitohemagglutinin yordamida stimullandi va metafaza bosqichida to'xtatildi. G-bo'yash (Giemsa banding) texnikasi yordamida xromosomalarning har bir jufti o'ziga xos tasmali tuzilishga ega bo'ldi, bu esa mikrodeletsiya va duplikatsiyalarni 5-10 mln nukleotid juftligi aniqligida ko'rish imkonini berdi. Molekulyar-genetik metodologiya: Gen darajasidagi mutatsiyalarni aniqlash uchun Polimeraza zanjir reaksiyasi (PCR) va uning modifikatsiyalari (Real-time PCR, MLPA) ishlatildi. Ayniqsa, nuqtali mutatsiyalarni aniqlashda Sanger usuli bo'yicha sekvenirlash oltin standart sifatida olindi. Keyingi avlod sekvenirlashi (NGS) esa bir vaqtning o'zida minglab genlarni o'qish imkonini berib, "ekzom tahlili" orqali noma'lum genetik sindromlarni aniqlashda foydalanildi. Bioinformatik va statistik tahlil: Olingan ma'lumotlar xalqaro genetik bazalar (OMIM, ClinVar, HGMD) bilan solishtirildi. Mutatsiyalarning patogenlik darajasini aniqlash uchun PolyPhen-2 va SIFT dasturiy algoritmlari qo'llanildi.

Natija va ularning muhokamasi. Irsiy kasalliklarning molekulyar patogenezini. Irsiy patologiyalarning kelib chiqishi fundamental biologik jarayon — mutagenез bilan bog'liq. Mutatsiyalar hujayraning genetik apparatidagi o'zgarishlar bo'lib, ular somatik yoki jinsiy hujayralarda sodir bo'lishi mumkin. Gen darajasidagi o'zgarishlar: Nukleotidlar ketma-ketligining buzilishi oqsilning birlamchi strukturasi o'zgartiradi. Masalan, missens-mutatsiyalarda bitta aminokislota boshqasiga almashadi, bu esa oqsilning aktiv markazini bloklashi mumkin. Nonsens-mutatsiyalar esa stop-kodon hosil qilib, oqsil sintezini muddatidan oldin to'xtatadi, natijada funksional bo'lmagan qisqa oqsil zanjiri hosil bo'ladi. Xromosoma va genom darajasi: Mitotik bo'linish davrida xromosomalarning noto'g'ri ajralishi aneuploidiyalarga sabab bo'ladi. Masalan, 21-juft xromosomaning ajralmasligi Daun sindromiga olib keladi. Tibbiy biologiya nuqtai nazaridan, bu holatda "doza effekti" yuzaga keladi: ortiqcha xromosomadagi genlar oqsil mahsulotlarining haddan tashqari ko'p ishlab chiqarilishiga va hujayra metabolizmining disbalansiga sabab bo'ladi. Erta diagnostikaning biologik va texnik asoslari. Erta diagnostika ikki asosiy yo'nalishda olib boriladi: prenatal (tug'ruqqacha) va neonatal (tug'ilgandan so'ng). Prenatal skrining innovatsiyalari: Hozirgi kunda an'anaviy invaziv usullar (amniosentez) o'rnini noinvaziv metodlar (NIPT) egallamoqda. NIPT texnologiyasining biologik asosi shundaki, homilador ayol qon plazmasida homila yo'ldoshidan (platsenta) chiqqan hujayrasiz DNK (cfDNA) parchalari aylanib yuradi. Zamonaviy sekvenatorlar yordamida ushbu DNK parchalari tahlil qilinib, homilaning genetik holati haqida 99% aniqlikdagi xulosa beriladi. Neonatal skrining: Bu usul yangi tug'ilgan chaqaloqlarda metabolik kasalliklarni simptomlar paydo bo'lmasdan aniqlashga qaratilgan. Masalan, "tovon testi" orqali fenilketonuriya, gipotireoz va galaktozemiya aniqlanadi. Bu

bosqichda vaqt hal qiluvchi omil hisoblanadi: agar davolash (parhez) hayotning birinchi haftalarida boshlanmasa, bolada aqliy zaiflik qaytmas jarayonga aylanadi. Zamonaviy profilaktikaning cho‘qqisi — bu Preimplantatsion Genetik Diagnostika (PGD). EKO (IVF) jarayonida embrion bachadonga o‘tkazilishidan oldin undan bitta hujayra olinib, genetik nuqsonlarga tekshiriladi. Faqat sog‘lom embrion tanlab olinishi irsiy kasallikning nasldan-naslga o‘tishini butunlay to‘xtatadi.

Xulosa. Irsiy kasalliklar — bu inson genomining murakkab evolyutsion va biologik jarayonlari mahsulidir. Ularni tushunish uchun molekulyar biologiya, biokimyó va sitogenetika fanlarining integratsiyasi zarur. Erta diagnostikada NGS va NIPT texnologiyalarini keng qo‘llash nogironlik ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi. O‘zbekiston sharoitida profilaktikaning eng muhim bo‘g‘ini — qarindoshlararo nikohlarning salbiy genetik oqibatlarini aholiga ilmiy asoslangan holda tushuntirishdir. Kelajak tibbiyoti "Personalashtirilgan tibbiyot" tamoyiliga tayanadi, bunda har bir bemorni davolash uning individual genetik profiliga qarab belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vogel F., Motulsky A.G. *Human Genetics: Problems and Approaches*. 4th edition. Springer-Verlag, Berlin. 2010. (Inson genetikasining fundamental darsligi).
2. Strachan T., Read A. *Human Molecular Genetics*. 5th edition. CRC Press. 2018. (Molekulyar genetika bo‘yicha eng so‘nggi yutuqlar).
3. Thompson & Thompson. *Genetics in Medicine*. 8th edition. Elsevier. 2015. (Klinik genetika bo‘yicha dunyodagi eng nufuzli manba).

ОЦЕНКА КАЧЕСТВА ОКАЗАНИЯ МЕДИЦИНСКОЙ ПОМОЩИ БОЛЬНЫМ С ХРОНИЧЕСКИМ ВИРУСНЫМ ГЕПАТИТОМ С В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН

Хамидуллаева Гулзада Муратбаевна¹

¹Медицинский институт Каракалпакстана, г. Нукус, Республика Узбекистан

Хронический вирусный гепатит С остаётся одной из наиболее значимых проблем мирового общественного здравоохранения вследствие высокой распространённости, риска развития цирроза печени, гепатоцеллюлярной карциномы и преждевременной инвалидизации населения. Несмотря на внедрение современных противовирусных препаратов прямого действия, сохраняются актуальными вопросы своевременной диагностики, доступности специализированной медицинской помощи и организации диспансерного наблюдения пациентов.

Целью исследования является оценка качества оказания медицинской помощи больным хроническим вирусным гепатитом С с анализом организационных, клинических и диагностических особенностей на различных этапах медицинского обслуживания. В рамках мониторинга

проводится оценка доступности медицинских услуг, своевременности выявления заболевания, полноты лабораторно-инструментального обследования, соответствия лечебных мероприятий действующим клиническим рекомендациям, а также преемственности между первичным, специализированным и стационарным звеньями здравоохранения. Проведение комплексной оценки позволяет выявить существующие недостатки в системе организации медицинской помощи, определить факторы, влияющие на её эффективность, и разработать практические рекомендации по совершенствованию профилактических, диагностических и лечебных мероприятий. Полученные результаты могут быть использованы для оптимизации системы здравоохранения и повышения качества медицинского обслуживания населения.

BOLALARDA UCHRAYDIGAN TUG'MA VA ORTTIRILGAN YURAK NUQSONLARI VA ASOSIY SABABLARI

Dilmurodova Sevinch Halim Qizi

Email: dilmurodovasevinch794@gmail.com

Osiyo xalqaro universiteti 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Shukurova Shoxina Tuyg'unovna

Osiyo xalqaro universiteti "Umumiy fanlar" kafedrasida katta o'qituvchisi

e-mail: shukurovashoxinatuygunovna@oxu.uz

Annotatsiya: Maqolada bolalarda uchraydigan yurak kasalliklari, yurak yetishmovchiligi, oq va kók poroglar, kasalliklarning kelib chiqish sabablari, belgilari va alomatlari hamda davolash, tashxislash usullari va oldini olish chora tadbirlari yoritilgan. Shuningdek bugungi kunda nega insonlar ayniqsa, bolalar turli xil yuqimli yoki xavfli kasalliklarga ko'p chalinishayotganliklarining asosiy sabablarini ko'rib chiqamiz. Va maqolada nogiron bolalar tug'ilmasligi uchun otalarimizni iloji boricha o'z qarindoshlari bilan quda bo'lishdan bunday ofat girdobiga tushib qolishdan cheklanishlari zarurligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Yurak, TYN-tug'ma yurak nuqsoni, yurak porogi, arteriovenoz, salomatlik.

Kirish. Yurak qonni harakatlantirib, uni inson a'zolari va to'qimalariga yetkazib beradigan a'zodir. Yurak kókrak qafasida to'sh suyagining orqasida, ikkala ópkaning órtasida joylashgan. Sog'lom odam yuragining hajmi ksariyati yurak-qon tomir kasalliklari bilan bog'liq. Ayniqsa, yurak yetishmovchiligi, oq va kók poroglar juda ko'p uchramoqda. Yurak porogi deb, yurak klapanlarini tuzilishida qon aylanishining izdan chiqishiga olib keladigan nuqson borligi sababli boshlangan kasallikka aytiladi. Bunday kasalliklar tug'ma va hayoti davomida orttirilgan bólishi mumkin. Tug'ma yurak porogi – yurak va yirik tomirlar tuzilishidagi nuqsonlar bólib

bemorda tug'ilganidan boshlab mavjud bóladi. Aksariyat, poroglar yurak katta va kichik qon aylanish doirasidagi qon oqimini buzadi. Yurak poroglari eng kóp uchraydigan tug'ma nuqsonlar bólib, ular rivojlanish poroglari tufayli bolalar ólimining asosiy sababidir. Tug'ma yurak poroglarining eng kóp órganilgan sabablari- nuqtali genetik ózgarishlar yoki DNK segmentlarining deletsiyasi yoki duplikatsiyasi shaklidagi xromosomal mutatsiyalardir. Tug'ma yurak nuqsoni paydo bo'lishining asosiy sabablari quyidagi omillardir: homiladorlik davrida ona bo'lgan noqulay ekologik vaziyati, homilani olib yurish davrida alkogol va ayrim dori preparatlarini iste'mol qilishi, onaning yoshi 35 yoshdan katta bo'lishi, onadagi virusli infeksiyalar. Homilada yurak nuqsoni, odatda, ona qornida 2 - 8 haftalik rivojlanish davrida shakllanadi. Og'ir nuqsonlar homilador ayolga uch marta - homiladorlikning har uch oyida bir martadan o'tkaziladigan UTTda aniqlanishi mumkin.

Asosiy qism. Tug'ma yurak nuqsonining asosiy belgilari orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin: rangparlik, nafas olish yetishmovchiligi, yurak ishining buzilishi, Jismoniy rivojlanishdan orqada qolish, yurak yetishmovchiligi, terining ko'kimtirliigi, yurakdagi shovqin va shunga o'xshash boshqa belgilar. Tug'ma yurak porogi shartli ravishda 2 guruhga bólinadi: oq (arteriya va venoz qon aralashmaydi, qonning chap-óng oqimi bilan) Kók (qonning óng va chap oqimi bilan, arterial va venoz qon aralashadi) Kók porog nuqsonlari deb nomlanishiga sabab, ular sianoz (qon kislorod bilan tóyinmasligi oqibatida teri va shilliq pardaning kókimtir rangga kirishi) ga olib keladi. Alomatlar kópincha hayotning dastlabki bosqichlarida namoyon bóladi, ammo ba'zi tug'ma yurak poroglari umr bóyi sezilmasligi mumkin. Ba'zi bolalarda umuman alomat kuzatilmaydi, boshqalarida esa nafas qisilishi, sianoz, hushdan ketishi, yurak shovqinlari, oyoq-qól mushaklarining kam rivojlanganligi bólishi mumkin. Yurak porogi kompensatsiyalangan va kompensatsiyalanmagan bo'ladi. Kompensatsiya bosqichida bemor mutlaqo shikoyatlar qilmasligi yoki bu shikoyatlar arzimagan bo'lishi mumkin. Jarayon dekompensatsiyali bo'lganda qon aylanishi buziladi, bunda shu yurak porogi uchun maxsus simptomlar (masalan, aorta klapani yetishmovchiligida bosh aylanishi xurujlari, mitral stenozda qon tupurish) bilan birga biror bosqichda yurak yetishmovchiligi bilan bog'liq bo'lgan patologik o'zgarishlar (nafas qisishi, teri osti yog' kletchatkasida shish) paydo bo'ladi.

Tadqiqot kuzatuvlari. Bolalar organizimining muhim a'zosi yurak mushaklardan tashkil topgan ichki nasosi bo'lib, u doimo bir xilda qisqarishi tufayli qonni qon aylanish sistemasi bo'ylab tanamizga haydab beradi. Qon to'rtta yurak klapanlari tufayli bo'lmachalardan qorinchalarga, so'ngra asosiy arteriyalarga ketma-ket oqadi. Klapanlar ochiladi va yopiladi, bu qonning faqat bir yo'nalishda oqishini ta'minlaydi. Shuning uchun yurakning to'g'ri va ishonchli ishlashi ko'p

jihatdan klapanlar ishlashiga bog'liq. Yurak tug'ma nuqsonlari bu yurak va qon-tomirlar rivojlanish nuqsoni bo'lib, u qonni teshiklar orqali o'tishi va qonni chiqishiga to'sqinlik mavjudligi yoki shuntlanish va qon o'tishiga to'sqinlik mavjudligining birgalikda kelishi. Yurak tug'ma nuqsonlari yurak-qon tomir tizimining juda keng tarqalgan patologiyasidir. Bugungi kunda respublikamizda bir yilda 9 mingga yaqin bolada tug'ma yuraknuqsoni aniqlanmoqda va bunday nuqsonli bolalarni operatsiya qilishga markazlarimiz yetarli emas. Tug'ma yurak nuqsonlari bilan dunyoga kelgan bolalarda o'ziga xos belgilar kuzatiladi. Ya'ni ularning yuragida shovqinlar paydo bo'lishi mumkin, terida ko'karishlar, rangparlik, kamqonlik, harakatdagi sustkashliklar bezovta qiladi. Bemor bolalar tengdoshlariga nisbatan jisman rivojlanishdan orqada qolishi, shuningdek organizm himoya kuchlari susayib, yuqumli va boshqa kasalliklarga ko'proq chalinishlari mumkin. Sianoqli yurak tug'ma nuqsonlarida teri va shilliq qavatlarning ko'karishi kuzatiladi. Ko'karish kichik zo'riqishdan so'ng: sut emganda, yig'laganda kuchayadi. Oq yurak tug'ma nuqsonlarida terida oqarishlar, qo'l va oyoqlarda haroratning pasayishi kuzatiladi. Yurak tug'ma nuqsonli bolalar ko'krakni inkor qilishadi, sut emish davomida charchab qoladi. Ularda terlash, taxikardiya, aritmiya, nafas qisishi, bo'yin qon tomirlari pulsatsiyasi kuzatiladi. Surunkali qon aylanish buzilishida bola vazn qo'shish, bo'y o'sishi va rivojlanish belgilaridan ortda qoladi. Tug'ma yurak nuqsonlarida tug'ilgandan keyin yurak shovqinlari eshitiladi. Keyinchalik esa yurak yetishmovchiligi kuzatiladi. Yurak tug'ma nuqsonlari bakterial endokardit, politsitemiya, periferik tomirlar trombozi, bosh miya tomirlari tromboemboliyasi, pnevmoniya, stenokardiya sindromi, miokard infarkti kabi asoratlarga olib kelishi mumkin. Yurak tug'ma nuqsonlari bola tug'ilgandan keyin darhol paydo bo'lishi yoki yashirin bo'lishi mumkin. Tug'ma yurak nuqsonlari har mingta tug'ilish uchun 6-8 holat chastotasi bilan yuzaga keladi, ulardan 30-40 foiziga o'z vaqtida yordam ko'rsatilmasa, 3 yoshga to'lgunicha nobud bo'ladi. Tug'ma yurak nuqsonlari barcha nuqsonlarning 30% ni tashkil qiladi. Respublikamizda yiliga 600 ming nafarga yaqin chaqaloq tug'ilsa, shulardan 5 ming nafarga yaqin chaqaloq tug'ma yurak nuqsoni bilan tug'iladi. Ularning 60 foizi 1 yoshgacha bo'lgan holatda jarrohlik amaliyotiga muhtoj hisoblanadi.

Xulosa: Biz bu muammolarni kamaytirish uchun eng avvalo onalarni salomatligiga etibor qaratishimiz kerak yani homiladorlik davrida onalarning to'g'ri va muvozanatli ovqatlanishiga, masalan, bolaning immunitetiga bevosita tasir qiladigan temirga boy mahsulotlar:go'sht,jigar;ismaloq , foliy kislotasi-homilaning asab tizimi uchun muhim bizda asosiy maqsad ham shu suyak tizimi rivojlanishi uchun kalsiy va D vitamini va shunga o'xshash ovqatlanishga jiddiy etibor qaratish maslahat beriladi. Va bundan tashqari jismoniy va ruhiy sog'likka etibor qaratish kerak yani onalarimiz stessdan asabiylikdan uzoq bo'lishlari kerak, yetarli uyqu va

oilaviy qo'llab quvvatlash juda muhim hisoblanadi. Agar biz bularga etibor qaratsak nafaqat yurak nuqsonlari balki boshqa turli kasalliklarga chalinishni ham oldini olishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ichki kasalliklar (F.O.Haydarov, SH.X.Ermatov) Tug'ma yurak porogi – sabablari, tasnifi, tashxislash, davolash, asoratlari, oqibati
2. <https://mymedic.uz/kasalliklar/yurak-tomir/tugma-yurak-porogi/>
3. Mavroudis C, Backer CL. Pediatric Cardiac Surgery. 4th ed. Wiley-Blackwell; 2013. – Tug'ma yurak nuqsonlarini jarrohlik yo'li bilan davolash usullari tahlil qilingan.
4. Park MK. Pediatric Cardiology for Practitioners. 6th ed. Elsevier; 2014. – Yurak tug'ma nuqsonlarining klinik ko'rinishlari, diagnostikasi va pediatrik amaliyotdagi yondashuvlar yoritilgan.

AUTIZM SPEKTR BUZILISHI: KLINIK BELGILAR VA JAMIYATDAGI IJTIMOIIY MOSLASHUV MUAMMOLARI

Hasanova Mahliyo Ixtiyor qizi

Osiyo Xalqaro Universiteti 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Shukurova Shoxina Tuyg'unovna

Osiyo xalqaro universiteti "Umumiy fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi

[email:shukurovashoxinatuygunovna@oxu.uz](mailto:shukurovashoxinatuygunovna@oxu.uz)

Annotatsiya. Autizm spektr buzilishi (ASB) – bu erta bolalik davrida namoyon bo'ladigan neyro-rivojlanish buzilishi bo'lib, ijtimoiy muloqotdagi qiyinchiliklar, cheklangan va takror harakat namunlari, xulq-atvor va qiziqishlar sohasidagi o'ziga xos buzilishlar bilan tavsiflanadi. Ushbu maqolada autizmning klinik belgilari, etiologiyasi, diagnostika usullari, davolash va reabilitatsiya yo'llari hamda autizimli shaxslarning jamiyatdagi ijtimoiy muammolari yoritiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi autizmni erta aniqlash va jamiyatda inklyuziv muhit yaratishning muhimligini ko'rsatishdan iborat.

Kalit so'zlar: autizm, autizm spektr buzilishi, neyro-rivojlanish, ijtimoiy moslashuv, inklyuziya, klinik belgilar, reabilitatsiya.

Kirish. Autizm spektr buzilishi (ASB) – XXI asrda global miqyosda muhim tibbiy-ijtimoiy muammo hisoblanadi. So'nggi yillarda autizm tarqalish ko'rsatgichi butun dunyo bo'ylab ortib borayotganini statistika raqamlaridan kuzatishimiz mumkin. Hozirgi kunda autizm spektri har 140-100ta yangi tug'ilgan chaqaloqlarning biriga to'g'ri keladi. Autizm kasalligi – bu markaziy asab tizimi rivojlanishidagi o'ziga xos buzilish bo'lib, bu kasallik odatda 3 yoshgacha bo'lgan

davrda aniqlanadi. Autizmli bolalar va kattalar ijtimoiy muloqotda; ta'lim olishda va jamiyatga moslashishda turli qiyinchiliklarga duch keladilar. Shu sababli autizm kasalligining kelib chiqish sabablari, kasallikni klinik jihatdan chuqur o'rganish va jamiyatdagi ijtimoiy integratsiya masalalarini tadqiq etish hozirgi kundagi eng dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda.

Asosiy qism. Autizm kasalligi turli odamlarda har xil ko'rinishda uchrashi sababli bu kasallikning aniq yoki o'ziga xos bir qancha belgilari mavjud. Ko'pgina kuzatuvlar natijasida ASBning asosiy belgilari:

Stereotip xatti-harakatlar: takroriy harakatlar, qat'iy tartibga intilish (buyumlarni ma'lum bir tarzda yoki rangda joylashtirish), cheklangan qiziqishlar. Ijtimoiy muloqot buzilishi: ko'z bilan muloqotning yetishmasligi, emotsional reaksiyalarning sustligi, ijtimoiy muloqotlardan qochish. Nutq muammolari: nutqning juda kech rivojlanishi, muloqotni boshlay olmaslik yoki davom ettira olmaslik. Sezgi sezuvchanligining o'zgarishi: tovushga, yorug'likka, yoki teginishga bo'lgan reflekslarning haddan tashqari ortish. Avtoagressiya – odamning o'z-o'ziga zarar yetkazishi (bu holat ko'pincha eng og'ir formalarda uchraydi).

Kasallikning kelib chiqish sabablari to'liq aniqlanmagan, ammo bir nechta omillar kasallikni keltirib chiqarishi isbotlangan: Genetik omillar – irsiyat har bir kasallikda o'ziga xos ravishda o'zgaradi. Atrof- muhit omillari - homiladorlik davridagi inyeksiyalar, antibiotiklar, og'ir metallar, ko'p asabiylashish va boshqa salbiy omillar. Netrobiologik omillar – miya tuzilishi va faoliyatidagi o'zgarishlar. Autizm kasalligi ko'pgina davlatlarda qonuniy jihatdan nogironlik sifatida tan olingan. Sababi ularning ehtiyojlari keng jamiyat tomonidan to'liq tushunilmagan. Ular ta'lim, ish bilan ta'minlanish, jamiyat xizmatlaridan foydalanish va sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanishda to'siqlarga duch kelishadi. Kasallik har bir insonda o'ziga xos holatda kechganligi sababli hamma autizmga chalingan insonlarni nogiron deb bo'lmaydi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki autizm kasalligi barcha insonlarda turli xilda bo'lganligi sababli ba'zi kasallikka chalingan insonlar o'zlarining g'ayri oddiy qobiliyatlarini to'g'ri baholay oladilar. Ular o'zlarining fikrlash va muloqot qilish usullarini boshqarish yo'llarini ishlab chiqqan. Kasallikning yengil turlari bilan kasallangan insonlar autizmga kasallik sifatida emas balki qobiliyat sifatida qaraydi. Normal inson ko'ra olmaydigan farqlarni ko'ra olish. Autizmga chalingan insonlarning barchaga mos keladigan yagona o'lchami bo'lmaganligi sababli ular ba'zi xatti-harakatlar bilan jamiyatdan ajralib qoladi. Kasallikka chalingan insonlar boshqa insonlarning his-tuyg'ularini tushuntira olmaslik. Boshqa odamlarga o'z his-tuyg'ularini ifoda etishdagi qiyinchiliklar. O'ziga xos, hayratlanarli va takror harakatni bajarish. Ular tushunish qiyin bo'lgan kuchli qo'rquvga ega. Ammo bu holatlar ularning jamiyatda yashab qolishiga to'sqinlik qila olmaydi. Kuzatuvlar natijasida autizm kasalligiga chalingan insonlar o'rtasida o'zlarining noyob qiziqishlari bo'yicha tajriba orttirganlarni, ma'lum bir sohada ishlash ularni qoniqtirishini kuzatishimiz mumkin. Bu kasallikka chalingan

insonlarning hurmat va moliyaviy xavfsizlikka erishish imkonini beradi. Bundan tashqari kasallik erta tashxis qo'yish, kompleks reabilitatsiya choralari, inklyuziv ta'lim, psixologik qo'llab-quvvatlash va jamiyatda xabardorlikni oshirish autizmlilik shaxslarning jamiyatga integratsiyasini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Kasallikni erta aniqlash maqsadida bir qancha diagnostik usullar ishlab chiqilgan. Autizm tashxisi klinik kuzatuvlar, psixologik testlar va bir qancha diagnostik mezonlarga asoslanadi. Kasallik asosan bolalar o'rtasida uchrashi sababli gapirish qobiliyatini yaxshilash maqsadida logoped, markaziy nerv sistemasi holati aniqlash maqsadida nevrolog, ruhiy holatni aniqlash maqsadida esa psixolog mutaxassislarining ahamiyati katta.

Xulosa. ASB bilan yashayotgan bolalar jamiyatga moslanishda katta to'siqlarga duch keladi. Ularning ijtimoiy ko'nikmalari, ijtimoiy muloqotlari emotsional ifodalash qobiliyatlari cheklangan bo'lishi mumkin. Bu esa albatta ta'lim jarayoniga, do'stlar bilan muloqotga va kelajakdagi ish faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, erta tashxis qo'yish va individual yondashuv bilan davolash bolalarning rivojlanish imkoniyatlarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Jamiyat va oila tomonidan ruhiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash katta ahamiyatga ega, Bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda terapevtik mashg'ulotlar, logopedik maxsus o'quv metodlar ijtimoiy integratsiya dasturlari, ota-ona bilan doimiy ishlash alohida ahamiyat kasb etadi. Autizm kasalligi bilan yashayotgan insonlarning hayot sifatini oshirish uchun maxsus yondashuvlar zarur. Keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar autism spektridagi turli xususiyatlarni chuqurroq tushunishga, individual yondashuv va yangi davolash metodlarining takomillashuviga imkon yaratadi. Bu orqali autism kasalligiga egalingan bolalar va yoshlarning jamiyatda faol ishtiroki ta'minlanadi va ular jamiyatda o'rniga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Nishotova Z. Bolalar psixodiagnostikasi. – T.: TDPU nashriyoti.
2. Tursunova N. Bolalarda rivojlanish buzilishlari va ijtimoiy moslashuv.
3. Abdurahmonov B. Autizm kasalligiga erta tashxis qo'yish va davolash. Tibbiyot va sog'liq jurnali.
4. Sog'liqni saqlash vazirligi nashriyoti. Bolalar psixologiyasi va rivojlanish nuqsonlari bo'yicha metodik qo'llanma.

MAYDA GULLI GALINZOGA (GALINSOGA PARVIFLORA CAV.) O'SIMLIGINING BIOLOGIK XUSUSIYATLARI VA DORIVORLIK AHAMIYATI

Tibbiyot fakulteti Davolash ishi yo'nalishi 124-guruh talabasi

Ilmiy rahbar- Tibbiy biologiya kafedrasida assistent Sh. B. Jumayeva

Dolzarbli: Bugungi kunda farmatsevtika sanoatida tabiiy xomashyolardan olingan dori vositalariga talab ortib bormoqda. O'zbekiston florasida begona o't sifatida keng tarqalgan, xalq tilida "Salomalaykum" deb ataladigan mayda gulli galinzoga o'simligi o'zining kimyoviy tarkibi va shifobaxsh xususiyatlari bilan ilmiy tadqiqotlar uchun muhim ob'ekt hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi: Mayda gulli galinzoga o'simligining biologik xususiyatlari va dorivorlik ahamiyatini aniqlash va baholashdan iborat.

Botanik tasnifi: O'simlikning kelib chiqishi va tarqalishi. Salomaleykum o'simligi tropik va subtropik hududlarda keng tarqalgan o'simlik hisoblanadi. Uning vatani asosan Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo hududlari hisoblanadi. Hozirgi kunda bu o'simlik dunyoning ko'plab mamlakatlarida, jumladan Uzbekistanda ham manzarali gul sifatida ekiladi.

Bu o'simlik tez o'sishi va chiroyli gullari bilan ajralib turadi. Shuning uchun u bog' va gulzorlarda keng qo'llaniladi. Odatda u bir yillik o'simlik hisoblanadi, ya'ni bir vegetatsiya davrida o'sib, gullab va urug' berib tugaydi.

Galinsoga parviflora – Murakkabguldoshlar (Asteraceae) oilasiga mansub bir yillik o't o'simlik. Poyasi tik o'suvchi, sershox, balandligi 20 cm dan 70 cm gacha yetadi. Barglari tuxumsimon, chetlari tishli. Gullari mayda, savatchalarda joylashgan; chetki gullari oq, o'rtadagilari esa sariq rangda. U asosan nam tuproqlarda, bog' va polizlarda iyuldan kech kuzgacha gullaydi.

Kimyoviy tarkibi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'simlikning yer ustki qismi (o'ti) quyidagi biologik faol moddalarga boy:

Vitaminlar: Askorbin kislota (Vitamin C), Vitamin K va provitamin A.

Flavonoidlar: Kversetin va kempferol hosilalari (tomirlarni mustahkamlovchi).

Minerallar: Temir (Fe), magniy (Mg), kalsiy (Ca) va kaliy (K).

Kislotalar: Kofe va xlorogen kislotalari.

Farmakologik xususiyatlari. Galinzoga o'simligi quyidagi yo'nalishlarda samarali hisoblanadi:

Gipotenziv ta'sir: Qon bosimini mo'tadillashtirish xususiyatiga ega.

Yallig'lanishga qarshi: Tomoq og'rig'i (stomatit, gingivit) va teri kasalliklarida antiseptik sifatida qo'llaniladi.

Gemosatik: Qon to'xtatuvchi va yarani tez bitiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

Antioksidant: Organizmdagi erkin radikallarni neytrallashtirishda ishtirok etadi.

Salomaleykum o'simligining dorivor xususiyatlari.

1. Bu o'simlikda 300 dan ortiq biologik moddalar aniqlangan. Ular quyidagi guruhlarga kiradi: flavonoidlar, naftoxinonlar, kumarinlar, fenolik birikmalar, terpenoidlar, sterollar, polisaxaridlar.

Eng muhim moddalaridan biri 2-metoksi-1,4-naftoxinon hisoblanadi. Bu modda o'simlikning ko'p dorivor ta'sirlariga sabab bo'ladi.

2. Antibakterial va antifungal ta'siri: Salomaleykum o'simligining ekstrakti bakteriya va zamburug'larga qarshi ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Ilmiy tadqiqotlarda o'simlik ekstrakti quyidagi mikroorganizmlarga qarshi faol bo'lishi aniqlangan: *Candida albicans*, *Trichophyton rubrum*, *Epidermophyton floccosum*. Bu mikroorganizmlar ko'pincha teri zamburug' kasalliklarini keltirib chiqaradi. Shuning uchun ayrim hududlarda o'simlik: teri kasalliklari, zamburug' infeksiyalari, yaralarni davolashda qo'llangan.

3. Antioksidant xususiyati: O'simlik tarkibidagi fenollar va flavonoidlar kuchli antioksidant hisoblanadi. Antioksidant moddalar organizmda: erkin radikallarni kamaytiradi, hujayralarni himoya qiladi, qarish jarayonini sekinlashtiradi. Ilmiy tadqiqotlar o'simlik ekstraktida o'rtacha darajadagi antioksidant faollik mavjudligini ko'rsatgan.

4. Yallig'lanishga qarshi ta'siri: Ba'zi ilmiy ishlarda o'simlik ekstrakti yallig'lanishga qarshi ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Xalq tabobatida u quyidagi kasalliklarda ishlatilgan: kuyishlar, jarohatlar, teri yallig'lanishi, revmatik og'riqlar. O'simlik tarkibidagi bioaktiv moddalar yallig'lanish mediatorlarini kamaytirishi mumkin.

5. Og'riqni kamaytiruvchi (analgetik) ta'siri. Ba'zi farmakologik tadqiqotlar o'simlik gullari ekstrakti og'riqni kamaytiruvchi ta'sir ko'rsatishini aniqlagan.

Xulosa. Galinsoga parviflora o'simligini chuqur o'rganish va undan ekstraktlar olish kelajakda gipotenziv va antiseptik dori vositalarini yaratish imkonini beradi. Uni begona o't sifatida yo'qotish emas, balki dorivor xomashyo sifatida yig'ish iqtisodiy va tibbiy jihatdan maqsadga muvofiq.

КЛАССИФИКАЦИЯ НАСЛЕДСТВЕННЫХ ЗАБОЛЕВАНИЙ

Райимова Эъзога, студентка 1 курса 104-леч.

*Научный руководитель – доцент кафедры Медицинской биологии
Сагдуллаева Г.У.*

Классификация наследственной патологии во многом определяет успешность диагностики и лечения генетически обусловленных болезней.

Цель исследования. Изучить связь классификации с лечением и диагностикой наследственной патологии.

Материалы и методы. Обобщить литературные данные особенностей распределения генетических заболеваний по типам наследования, уровню локализации мутаций, по биохимическому принципу.

Классификация наследственной патологии имеет большое значение для диагностики, выбора тактики лечения и разработки непосредственно самих методов лечения.

Все наследственные заболевания можно разделить на группы по нескольким принципам:

1. Тип наследования.
2. Патогенетические механизмы нарушений в организме.
3. Тип мутаций, которые произошли в клетке

Классификация наследственной патологии по уровню локализации мутаций в системе хранения генетической информации отражает типы наследственных заболеваний и выделяет геномные, хромосомные, генные болезни, многофакторные.

Ценность этой классификации заключается в понимании этиопатогенетических процессов и их локализаций в иерархии хранения и передачи генетической информации. Геномные заболевания – тяжелая форма наследственной патологии редко встречается у человека и связана с явлением полиплоидии. Развитие организма с геномным заболеванием в подавляющем большинстве случаев заканчивается выкидышем, спонтанным абортom или мертворожденностью. Механизм геномных заболеваний состоит в нерасхождении гаплоидного набора хромосом в период созревания гамет либо в оплодотворении яйцеклетки двумя сперматозоидами. В результате формируется организм, несущий не диплоидный, а триплоидный и тетраплоидный набор хромосом. Такие организмы мало жизнеспособны, однако наблюдения показали, что такие варианты патологии все же встречаются, хотя не всегда приводят к рождению ребенка. Хромосомные болезни являются формой наследственной патологии, при которой нарушается структура, количество или целостность хромосом. По типу мутаций, которые при этом происходят, все хромосомные аномалии можно разделить на делеции, транслокации, инверсии, инсерции, появление изохромосом, изоцентрических хромосом, кольцевых хромосом. Хромосомные болезни внутри каждой группы можно разделить на типы. По типу хромосом, в которых возникла мутация, выделяются хромосомные болезни в половых и соматических хромосомах.

Хромосомные аномалии составляют в материале спонтанных абортусов до 70% в первые 2-4 недели беременности.

Вывод. Благодаря этой классификации можно понять не только, что происходит при поломке генетического кода, но и то, какие методы можно предложить для диагностики данной мутации. С её помощью удастся понять, какие патогенетические методы лечения можно разработать и какие факторы могут способствовать развитию данной патологии. Классификация наследственной патологии – важный ключ к диагностике, лечению и профилактике наследственных заболеваний. Несмотря на то, что

генетические заболевания в настоящий момент представлены огромным количеством синдромов (по Online Mendelian Inheritance in Man – более 16000), именно научно обоснованная классификация помогает практикующему врачу понять этиологию, патогенез и сформулировать диагноз болезни. Понимание того, к какому классу заболеваний относится та или иная наследственная патология, является одним из важных этапов ее диагностики.

MUSHUK CHINQIRIG'I SINDROMINING KLINIK VA GENETIK XUSUSIYATLARI

Jabborova Oysha Iskandarovna

Tibbiy biologiya kafedrası professori,

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti,

Buxoro, O'zbekiston

To'xsanova Nasiba Ilhom qizi

1-kurs, 108-guruh Davolash ishi yo'nalishi talabasi

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti

Elektron pochta: nasibatoxsanova2@gmail.com

Annotatsiya

Mushuk chinqirig'i sindromi – xromosoma deletsiyasi tufayli yuzaga keladigan genetik kasallik bo'lib, bunda, inson aqliy jihatdan sust rivojlanishi va yangi tug'ilgan chaqaloqlarning g'ayrioddiy yig'i ovozi bilan xarakterlanadi. Ushbu tezisda xromosoma deletsiyasi natijasida yuzaga chiqadigan genik kasalliklardan biri – Mushuk chinqirig'i sindromining etiologiyasi, klinik belgilari va diagnostika usullari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, kasallikni erta aniqlash, unga to'g'ri tashxis qo'yish usullari va genetik maslahatlarning ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: Mushuk chinqirig'i sindromi, deletsiya, genetik kasalliklar, klinik belgilar, tashxis.

Ayni damda ko'p miqdorda turli xil genetik kasalliklar mavjud. Shu jumladan, Mushuk chinqirig'i – 5-xromosoma qisqa yelkasining deletsiyasi ya'ni bir qismining yo'qolishi natijasida kelib chiqadigan irsiy nuqson. Kasallik alomatlari genetik material maydoni va kattaligiga qarab farq qilishi mumkin. Eng keng tarqalgan alomat – bu yangi tug'ilgan chaqaloqlarning mushukka o'xshash chinqirig'i hisoblanadi. Kasallikning uchrash chastotasi 15 000 dan 50 000 tachaga bo'lgan yangi tug'ilgan chaqaloqlarning bittasiga to'g'ri keladi. Bu kasallik intellektual

nogironlik, rivojlanishning orqada qolishi, boshning kichik o'lchami, yuz tuzilishining o'zgarishi, tug'ilishda normadan yengil vazn, go'daklik davrida nozik va zaif mushak tonusi ya'ni gipotoniya bilan tavsiflanadi. Shuningdek, keng joylashgan ko'zlar, past joylashgan quloqlar, kichik jag` va yumaloq yuz kabi xususiyatlarni o'zida jamlaydi. Mazkur sindrom bilan tug'ilgan ba'zi bolalar tug'ma yurak nuqsoni bilan tug'iladi.

Dastlab, Mushuk chinqirig'i sindromi klinik ko'rinishlar asosida tashxis qo'yiladi. Keyinchalik, kariotip tahlili, FISH genetik diagnostika usuli asosida xromosomadagi aniq DNK bo'laklarini vizualizatsiya qilish orqali 5-xromosomaning qisqa yelkasidagi deletsiya aniq tasdiqlanadi. Bu usullar to'g'ri tashxis qo'yishga yo'l ochib beradi va bolaga mos reabilitatsiya va davolash rejasini ishlab chiqish imkonini yaratadi. Kasallikni erta aniqlash kasallikning rivojlanishining oldini oldini olishda muhim omil hisoblanadi.

Shuningdek, genetik maslahat sifatida ota-otalarga kasallik sabablari, kelib chiqishi, uning kelgusidagi rivojlanish xavfi va reproduktiv imkoniyatlari haqida to'liq va tushunarli ma'lumot beriladi. Yuqoridagi maslahatlar erta tashxis qo'yish bilan birga, bemor bolaning yashash sifatini ijobiy tomonga o'zgartirish va oilani kelajakdagi genetik xavflardan xabardor qilishda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar

1. mendeleey.com Cri du Chat syndrome-preview & related info.
2. Freitas C., Rendeiro P., Costa M. Birth and Growth Medical.
3. Cleveland Clinic – Cri du Chat syndrome
4. MedlinePlus Genetics
5. NCBI Bookshelves-Statpearls

SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDA PROFILAKTIKANING AHAMIYATI

Kibriyeva Ruxshonabonu Hamza qizi

Biotibbiyot fakulteti, Tibbiy profilaktika yo'nalishi

162-guruh talabasi

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti,

Buxoro, O'zbekiston

Ilmiy rahbar – Tibbiy biologiya kafedrasida prof, b.f.n. O.I. Jabborova

Dolzarbli: Hozirgi kunda jahon miqyosida ham, mamlakatimizda ham aholi salomatligini saqlash va mustahkamlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy hayot tarzi, kamharakatlik, noto'g'ri ovqatlanish, stress holatlari hamda zararli odatlar ko'plab kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Shu sababli

kasalliklarni davolashdan ko'ra ularning oldini olish, ya'ni profilaktika chora-tadbirlarini kuchaytirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Sog'lom turmush tarzini shakllantirish aholi o'rtasida jismoniy faollikni oshirish, to'g'ri va muvozanatli ovqatlanish, shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, zararli odatlardan voz kechish hamda tibbiy ko'riklardan muntazam o'tib turishni o'z ichiga oladi. Profilaktika tadbirlari orqali yurak-qon tomir kasalliklari, qandli diabet, semirish va boshqa ko'plab surunkali kasalliklarning oldini olish mumkin.

Tadqiqot maqsadi: Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda profilaktika tadbirlarining ahamiyatini o'rganish, aholining salomatligini saqlash va mustahkamlashda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish hamda kasalliklarning oldini olishga qaratilgan profilaktik choralarni aniqlash va ularning samaradorligini yoritishdan iborat.

Materiallar va tadqiqot usullari. Mazkur tadqiqot ishida sog'lom turmush tarzini shakllantirishda profilaktikaning ahamiyatini o'rganish maqsadida turli ilmiy va amaliy manbalardan foydalanildi. Tadqiqot materiallari sifatida sog'lom turmush tarzi, kasalliklar profilaktikasi hamda aholi salomatligini mustahkamlashga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, darsliklar, ilmiy maqolalar va uslubiy qo'llanmalar o'rganildi. Shuningdek, sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan profilaktik chora-tadbirlar ham tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida bir nechta ilmiy usullardan foydalanildi. Jumladan, tahlil va sintez usuli yordamida sog'lom turmush tarzi hamda profilaktika bilan bog'liq ilmiy manbalar chuqur o'rganilib, ularning asosiy g'oyalari umumlashtirildi. Taqqoslash usuli orqali turli manbalardagi ma'lumotlar solishtirilib, ularning o'xshash va farqli jihatlari aniqlab olindi.

Bundan tashqari, sog'lom turmush tarzining aholi salomatligiga ta'sirini aniqlash maqsadida kuzatuv va so'rov usullaridan ham foydalanildi. Tadqiqot davomida olingan ma'lumotlar tizimlashtirilib, ilmiy jihatdan tahlil qilindi va umumlashtirildi. Olingan natijalar asosida sog'lom turmush tarzini shakllantirishda profilaktikaning ahamiyati yoritib berildi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Ushbu tadqiqot ishida sog'lom turmush tarzini shakllantirishda profilaktikaning ahamiyatini o'rganish maqsadida turli ilmiy manbalar va tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini sog'lom turmush tarzi, kasalliklar profilaktikasi, aholi salomatligini mustahkamlashga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, tibbiy maqolalar, darsliklar hamda ilmiy tadqiqot ishlari tashkil etdi. Shuningdek, sog'liqni saqlash tizimida profilaktika tadbirlarini amalga oshirishga oid me'yoriy hujjatlar va statistik ma'lumotlar ham tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida bir qator ilmiy usullardan foydalanildi. Jumladan, tahlil va sintez usuli yordamida sog'lom turmush tarzi va profilaktika bilan bog'liq ilmiy manbalar o'rganilib, ularning asosiy jihatlari umumlashtirildi. Taqqoslash usuli

orqali turli manbalarda keltirilgan ma'lumotlar o'zaro solishtirilib, eng muhim ilmiy xulosalar ajratib olindi.

Bundan tashqari, aholining sog'lom turmush tarzi haqidagi bilim va munosabatlarini aniqlash maqsadida kuzatuv va so'rov usullaridan ham foydalanildi. So'rov natijalari orqali sog'lom ovqatlanish, jismoniy faollik, zararli odatlardan voz kechish hamda profilaktik tibbiy ko'riklardan o'tish kabi omillarning aholi salomatligiga ta'siri o'rganildi.

Tadqiqot davomida olingan ma'lumotlar tizimlashtirilib va umumlashtirilib, sog'lom turmush tarzini shakllantirishda profilaktika tadbirlarining ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berildi. Olingan natijalar asosida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish, kasalliklarning oldini olish hamda aholi salomatligini mustahkamlashga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqildi.

Xulosa: O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sog'lom turmush tarzini shakllantirishda profilaktika tadbirlari muhim ahamiyatga ega. Kasalliklarni davolashdan ko'ra ularning oldini olish samaraliroq bo'lib, bu aholi salomatligini saqlash va mustahkamlashda katta rol o'ynaydi. To'g'ri ovqatlanish, muntazam jismoniy faollik, shaxsiy gigiyenaga rioya qilish, zararli odatlardan voz kechish hamda tibbiy ko'riklardan o'z vaqtida o'tib turish sog'lom turmush tarzining asosiy omillari hisoblanadi. Profilaktik chora-tadbirlarni keng targ'ib qilish orqali ko'plab kasalliklarning oldini olish, insonlarning hayot sifatini yaxshilash va umr davomiyligini oshirish mumkin. Shu sababli sog'lom turmush tarzini shakllantirishda profilaktika tadbirlarini yanada rivojlantirish, aholi o'rtasida tibbiy madaniyatni oshirish va sog'lom hayot tarzini targ'ib qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

SURUNKALI VIRUSLI GEPATITLAR TO'G'RSIDA XAVF GURUHIGA KIRUVCHI

AHOLINING TIBBIY BILIM DARAJASINI O'RGANISH VA OSHIRISH

Davolash ishi fakulteti 205-guruh talabasi Raxmatillayeva M.

Ilmiy rahbar: "Mikrobiologiya ,virusologiya va immunologiya"

kafedra b.f.n. dotsent Hamidova S. H.

Izlanishdan maqsad: Surunkali virusli hepatit B, C, D lar to'g'risida xavf guruhiga kiruvchi aholining tibbiy bilimni o'rganish va oshirish.

Mavzuning dolzarbligi: Hozirgi vaqtda yer yuzida virusli hepatit bilan kasallanganlar soni 2 mlrd ga yaqin kishini tashkil etadi. Shundan 350 mln. kishi hepatit B bilan, 150 mln. kishi hepatit C bilan, 15 mln kishi esa hepatit D bilan

kasallangan. Har yili 600 ming kishi surunkali virusli gepatit B sabab yuzaga kelgan jigar xastaliklaridan olamdan ko'z yumadi, gepatit C sabab har yili 3-4 mln. kishi kasallanib, ro'yxatdan o'tkaziladi.

Parenteral gepatitlarning yuqish yo'llarining ko'pligi, gepatit B dan tashqari aholi orasida vaksinoprofilaktikaning yo'qligi yuqori darajada surunkali kasallikning shakllanishi (gepatit C da-90%gacha) ko'p hollarda jigar sirrozi va birlamchi jigar rakiga o'tishi hamda etiotrop vositalarining samaradorligining pastligi va boshqalar ushbu infeksiyaning dolzarbligini belgilaydi.

Material va tadqiqot usullari: Xavf guruhi sifatida Buxoro shahridagi bir qancha go'zallik salonlari, sartaroshxona hodimlari tanlab olinib, ularning surunkali virusli gepatitlar to'g'risida tibbiy bilimi qay darajada ekanligi o'rganildi. Ular orasida profilaktik targ'ibot-tashviqot ishlari amalga oshirildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili: So'rovnomalar orqali surunkali virusli gepatitlar, ularning yuqish yo'llari haqida xavf guruhiga kiruvchi aholining tibbiy bilim darajasi o'rganildi. Tibbiy bilimning eng past ko'rsatkichini sartaroshxona va go'zallik salonlari hodimlari tashkil etdi.

O'tkazilgan tadbirlarining qiyosiy samaradorligi quyidagilar: Xavf guruhiga kiruvchi aholiga surunkali virusli gepatitlar to'g'risida tushuntirish ishlari amalga oshirilgandan so'ng ular bilan takror so'rovnomalar o'tkazildi. Bunda tibbiy bilim darajasining past ko'rsatkichida turgan sartaroshxona, go'zallik salonlari hodimlari kasallikning yuqish yo'llari, himoyalani usullari haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lganligi aniqlandi.

Xulosa:

1. Kasallanish ko'rsatkichini yanada kamaytirish uchun xavf guruhiga kiruvchi aholi orasida tushuntirish tadbirlarini keng miqyosida olib borish kerak.

2. Hozirgi kunda surunkali virusli gepatitlar bilan kasallanish yosharib borayotganligini inobatga olib, yoshlar orasida targ'ibot-tashviqot ishlarini keng ko'lamda amalga oshirish zarur.

3. Sartaroshxona, go'zallik salonlari hodimlari ham xavfli guruhga kirishini inobatga olgan holda, ularni profilaktik laborator tekshiruvlardan o'tkazish zarur.

3-ilova

Tibbiyot instituti talabalari uchun “**Abu Ali ibn Sino ta'limotidan – uchinchi RENESSANS GACHA**” VI Xalqaro konferensiyasida offlayn rejimda qatnashish uchun registratsiya shakli

ZAMONAVIY EPIDEMIOLOGIK SHAROITDA INFEKSION KASALLIKLAR TARQALISHINING XAVF OMILLARI VA PROFILAKTIKA STRATEGIYALARI.

Axtamov Ramziddin Asliddin o'g'li

Klinik fanlar kafedrası Osiyo Xalqaro Universiteti, Buxoro, O'zbekiston

Ilmiy rahbari – kafedra asisteni Tog'aydullayeva Dildora Dilmurodovna.

Dolzarbliği: Zamonaviy epidemiologik sharoitda infeksiyon kasalliklar inson salomatligi va jamoat sog'liqni saqlash tizimi uchun asosiy tahdid hisoblanadi. Globalizatsiya, urbanizatsiya va aholining migratsiyasi infeksiyalarning tez tarqalishiga sharoit yaratadi, xalqaro transport aloqalari esa patogenlarning hududlararo ko'chishini kuchaytiradi. Iqlim o'zgarishi, ekologik buzilishlar va vektor populyatsiyalarining kengayishi yangi zoonoz kasalliklar paydo bo'lishi xavfini oshiradi. So'nggi yillarda respirator virusli infeksiyalar, virusli hepatitlar, sil va nozokomial infeksiyalar epidemiologik xavfni sezilarli darajada oshirib, kasallanish va o'lim ko'rsatkichlarini ko'paytirdi. Antimikrob preparatlarga chidamlilik ortishi davolash samaradorligini kamaytirib, kasallikning cho'ziluvchan kechishiga olib keladi. Shu bilan birga, immuniteti susaygan shaxslar, surunkali kasalliklarga ega bemorlar va bolalar infeksiyalarga nisbatan yuqori sezuvchan guruh sifatida qayd etiladi. Infeksiyon kasalliklarning tarqalish mexanizmi biologik, ijtimoiy va ekologik omillar o'zaro murakkab bog'liqlikda rivojlanadi. Shuning uchun ularni kompleks o'rganish, xavf omillarini aniqlash va samarali profilaktika strategiyalarini ishlab chiqish zamonaviy tibbiyot va mikrobiologiyaning dolzarb vazifalaridan biridir. Mazkur yondashuvlar infeksiyon kasalliklarning epidemiologik nazoratini kuchaytirish, sog'liqni saqlash tizimining samaradorligini oshirish va aholi salomatligini himoya qilishga xizmat qiladi.

Tadqiqot maqsadi: Mazkur tadqiqotning maqsadi zamonaviy epidemiologik sharoitda infeksiyon kasalliklarning tarqalishiga ta'sir etuvchi asosiy xavf omillarini tibbiy-biologik va mikrobiologik jihatdan kompleks tahlil qilish, infeksiyon jarayonning rivojlanish mexanizmlarini ilmiy asosda baholash hamda kasalliklarning oldini olishga qaratilgan samarali profilaktika strategiyalarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot davomida infeksiya manbalari, yuqish yo'llari va sezgir populyatsiya omillari o'zaro bog'liqlikda o'rganilib, epidemiologik nazoratni kuchaytirish, erta diagnostika imkoniyatlarini kengaytirish va antimikrob rezistentlik rivojlanishini kamaytirishga qaratilgan yondashuvlarning amaliy ahamiyatini asoslash ko'zda tutiladi. Shuningdek, zamonaviy laborator-diagnostik usullar, sanitariya-gigiyenik choralar, immunoprofilaktika va aholi orasida profilaktik madaniyatni shakllantirish orqali infeksiyon kasalliklar tarqalishini kamaytirishning ilmiy asoslangan modelini ishlab chiqish tadqiqotning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Materiallar va tadqiqot usullari: Tadqiqot zamonaviy epidemiologik va mikrobiologik yondashuvlar asosida olib borilib, infeksiyon kasalliklarning tarqalish xususiyatlarini baholash maqsadida ilmiy adabiyotlar tahlili, klinik kuzatuv ma'lumotlari hamda epidemiologik statistik ko'rsatkichlardan foydalanildi. Tadqiqot materiallarini so'nggi yillarda qayd etilgan respirator, ichak va kontakt yo'l bilan yuqadigan infeksiyalar bo'yicha ilmiy manbalar, sog'liqni saqlash muassasalarida olib borilgan kuzatuv natijalari hamda laborator tekshiruv ko'rsatkichlari tashkil etdi. Epidemiologik tahlil jarayonida kasallanish darajasi, yosh va ijtimoiy guruhlar bo'yicha taqsimlanish, mavsumiylik, yuqish mexanizmlari va xavf omillarining tarqalishiga ta'siri kompleks baholandi. Mikrobiologik tekshiruvlar doirasida biologik materiallardan mikroorganizmlarni aniqlash uchun bakteriologik ekish, mikroskopik tahlil, serologik reaksiyalar hamda molekulyar-diagnostik usullar qo'llanildi. Statistik ishlov berish jarayonida olingan natijalar taqqoslama va analitik usullar yordamida baholanib, infeksiyon kasalliklar tarqalishiga ta'sir etuvchi asosiy epidemiologik omillar aniqlashtirildi. Tadqiqot metodologiyasi infeksiyon jarayonning biologik, ekologik va ijtimoiy determinantlarini kompleks o'rganish hamda profilaktik chora-tadbirlarning samaradorligini ilmiy asosda baholashga yo'naltirildi.

Natijalar va ularning muhokamasi: O'tkazilgan epidemiologik va mikrobiologik tahlillar natijasida infeksiyon kasalliklar tarqalishida bir nechta asosiy xavf omillari aniqlanib, ular orasida aholi zichligi, migratsion jarayonlar, sanitariya-gigiyena darajasi va immunitet holati yetakchi ekanligi ko'rsatildi. Respirator infeksiyalar ko'proq sovuq mavsumlarda yopiq jamoalarda uzoq vaqt bo'lish bilan bog'liq bo'lsa, ichak infeksiyalari suv va oziq-ovqat xavfsizligi hamda shaxsiy gigiyena darajasi bilan chambarchas bog'liq ekanligi aniqlangan. Shu bilan birga, tibbiyot muassasalari bilan bog'liq nozokomial infeksiyalarda antibiotiklarga chidamli mikroflora ulushi ortishi davolash samaradorligini pasaytiradi va kasallikning cho'ziluvchan kechishiga olib keladi. O'rganish shuni ko'rsatdiki, immuniteti susaygan shaxslar, surunkali kasalliklarga ega bemorlar va bolalar infeksiyalarga nisbatan yuqori sezuvchan guruh sifatida e'tirof etiladi. Olingan natijalar infeksiyon kasalliklarning tarqalishida biologik, ijtimoiy va ekologik determinantlarning birgalikdagi rolini ko'rsatdi. Epidemiologik nazoratni kuchaytirish, erta diagnostika, oqilona dori qo'llash, laborator tekshiruvlar, immunoprofilaktika va sanitariya-gigiyenik choralarni amalga oshirish kasallanish darajasini kamaytirishda samarali strategiya sifatida tavsiya qilinadi.

Xulosa: Zamonaviy epidemiologik sharoitda infeksiyon kasalliklar tarqalishi biologik, ijtimoiy va ekologik omillarga bog'liq ko'p omilli jarayondir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, urbanizatsiya, migratsiya, sanitariya-gigiyena darajasi, iqlim o'zgarishi va mikroorganizmlarning antibiotiklarga chidamliligi infeksiyon kasalliklar xavfini sezilarli oshiradi. Shu sababli kasalliklarning oldini olish va tarqalishini nazorat qilish uchun kompleks profilaktika strategiyalari zarur: erta diagnostika, laborator tekshiruvlar, antimikrob preparatlarni oqilona qo'llash,

immunoprofilaktika, sanitariya-gigiyenik choralar va aholi orasida sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirish.

O‘ZBEKISTONDA QIZAMIQ BO‘YICHA EPIDEMIOLOGIK VAZIYAT VA PROFILAKTIK CHORA-TADBIRLARI

Hasanboyeva Sevinchoy Jahongir qizi

Osiya Xalqaro Unversiteti

Tibbiyot fakulteti Davolash ishi yo‘nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: Djalilova Z.O.

Fundamental tibbiyot kafedrasi v.b., professori

Osiyo Xalqaro Universiteti

Email: djalilovazarnigorobidovna@oxu.uz

Annotatsiyasi Hozirgi davrda qizamiq yana dolzarb sog‘liqni saqlash muammolaridan biriga aylanmoqda. Ushbu kasallik juda tez yuqishi bilan ajralib turadi va emlanmagan aholida qisqa vaqt ichida keng tarqalishi mumkin. Mazkur ishda mamlakatimizdagi epidemiologik holat tahlil qilinib, kasallanish ko‘rsatkichlariga ta‘sir qiluvchi omillar ko‘rib chiqildi. Shuningdek, profilaktika tizimi samaradorligi baholandi hamda vaziyatni barqarorlashtirish bo‘yicha takliflar berildi. O‘rganish natijalari aholining emlanish darajasini barqaror saqlash va sanitariya-tushuntirish ishlarini kuchaytirish muhim ekanini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar. qizamiq, epidemiologiya, profilaktika, vaksina, jamoaviy immunitet, infeksiyon kasallik, sog‘liqni saqlash.

Dolzarbli. Infeksiyon kasalliklar orasida yuqori yuquvchanlik xususiyatiga ega bo‘lgan kasalliklar alohida epidemiologik xavf tug‘diradi. Qizamiq shular jumlasiga kiradi. U havo-tomchi yo‘li orqali yuqadi va bir bemor qisqa vaqt ichida ko‘plab sog‘lom odamlarga infeksiya yuqtirishi mumkin. Kasallik asosan bolalar orasida uchraydi, biroq oxirgi yillarda kattalar orasida ham qayd etilmoqda. Bu esa aholi orasida himoya darajasi yetarli emasligini ko‘rsatadi. Ayrim hududlarda kasallikning qayta paydo bo‘lishi sog‘liqni saqlash tizimi uchun jiddiy ogohlantiruvchi omil hisoblanadi. Qizamiqning klinik kechishi odatda yuqori isitma, yo‘tal, burun oqishi, ko‘z shilliq qavatining yallig‘lanishi hamda terida toshmalar bilan namoyon bo‘ladi. Og‘ir holatlarda pnevmoniya, otit, markaziy asab tizimi zararlanishi kabi asoratlar rivojlanishi mumkin. Dolzarb masala shundaki, qizamiqning yuquvchanligi yuqori bo‘lib, u jamoaviy immunitet yetarli bo‘lmagan hududlarda tez tarqaladi. Shu sababli ushbu mavzuni o‘rganish kasallikning oldini olish va profilaktika strategiyalarini takomillashtirish uchun ahamiyatlidir. Mazkur

mavzuni o'rganishdan maqsad — O'zbekistondagi mavjud vaziyatni tahlil qilish, xavf omillarini aniqlash va samarali profilaktika yo'llarini ko'rsatishdan iborat.

Tadqiqotning maqsadi: O'zbekistondagi qizamiqning epidemiologik vaziyatini tahlil qilish, kasallanish ko'rsatkichlariga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash hamda profilaktika tizimining samaradorligini baholash.

Tadqiqot orqali quyidagi vazifalar hal qilinadi:

Emlash qamrovi va kasallanish soni o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash;

Hududlar va yosh guruhlari bo'yicha xavf omillarini tahlil qilish;

Sog'liqni saqlash tizimi orqali vaziyatni barqarorlashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqot materiallari va usullari. O'rganishlar davomida ochiq statistik ma'lumotlar, sog'liqni saqlash tizimi hisobotlari va ilmiy adabiyotlar o'rganildi. So'nggi yillarda qayd etilgan kasallanish holatlari yosh guruhlari, hududlar hamda mavsumiy ko'rsatkichlar bo'yicha tahlil qilindi. Ma'lumotlarni qayta ishlashda tavsifiy tahlil va solishtirma usullardan foydalanildi. Ayrim ko'rsatkichlar oldingi yillar bilan taqqoslandi. Shuningdek, emlash qamrovi darajasi va kasallanish soni o'rtasidagi bog'liqlik o'rganildi. Bu orqali profilaktik choralar samaradorligiga baho berishga harakat qilind.

Natijalar va muhokama. Tahlillar ayrim davrlarda kasallanish ko'rsatkichlari oshganini ko'rsatdi. Ayniqsa, emlashni to'liq olmagan bolalar orasida kasallik ko'proq uchrashi aniqlandi. Bu holat himoya darajasi yetarli bo'lmagan jamoalarda infeksiya tezroq tarqalishini tasdiqlaydi. Hududlar kesimida qaralganda, aholining zich yashaydigan joylarida kasallanish xavfi yuqoriroq ekani kuzatildi. Migratsiya jarayonlari ham infeksiyaning kirib kelishi va tarqalishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Profilaktika nuqtai nazaridan, rejalashtirilgan emlash tadbirlarining o'z vaqtida o'tkazilishi muhim ahamiyatga ega. Ayrim ota-onalarning vaksina masalasida ikkilanishi yoki noto'g'ri ma'lumotlarga ishonishi kasallikning qayta ko'payishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli nafaqat emlashni tashkil etish, balki aholi orasida tushuntirish ishlarini olib borish ham zarur. Tibbiy xodimlar tomonidan beriladigan ishonchli ma'lumotlar jamoaviy himoyani saqlashda katta rol o'ynaydi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, agar emlanish darajasi yuqori saqlansa, kasallikning keng miqyosda tarqalish ehtimoli keskin kamayadi.

Xulosa. Olib borilgan tahlil natijalari qizamiqning epidemiologik jihatdan nazorat talab qiladigan kasallik ekanini ko'rsatdi. Kasallanish ko'rsatkichlari aholining himoya darajasi bilan bevosita bog'liq. Profilaktika choralarini muntazam va tizimli ravishda olib borish, rejalashtirilgan emlashni to'liq qamrab olish hamda aholining tibbiy savodxonligini oshirish orqali vaziyatni barqarorlashtirish mumkin. Kelgusida epidemiologik monitoringni yanada kuchaytirish va xavf guruhlari aniqlash muhim vazifa bo'lib qoladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ergashev B.M. va boshqalar. Measles: Epidemiological Situation, Clinical Course and Effectiveness of Preventive Measures. International Journal of Medical Sciences, 2025.

2. Bryantseva E.V. va boshqalar. *Measles outbreak in the Republic of Uzbekistan*. Journal of Coastal Life Medicine, 2023.

3. Umarova M. va Ismoilov D. *Epidemiology of measles immunoprophylaxis among the population of the Namangan region*. Preventive Medicine and Health Journal, 2024.

4. WHO. Measles elimination status and vaccination recommendations in Uzbekistan. UzDaily.com, 2026.

CRISPR TIZIMINING BAKTERIYA IMMUNITETIDAGI ROLI VA UNING TIBBIYOTDAGI AHAMIYATI

Muhiddinov Sarvar Ixtiyor o'g'li

Osiya Xalqaro Unversiteti

Tibbiyot fakulteti Davolash ishi yo'nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: Djalilova Z.O.

Fundamental tibbiyot kafedrası v.b., professori

Osiyo Xalqaro Universiteti

Email: djalilovazarnigorobidovna@oxu.uz

Annotatsiya. CRISPR tizimi bakteriyalarda viruslar va mobil genetik elementlarga qarshi tabiiy immunitet funksiyasini bajaradi. Ushbu mexanizm so'nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarda gen tahriri vositasi sifatida keng o'rganildi. Mazkur ishda CRISPR tizimining biologik tavsifi, bakteriyalar ustidan viruslarga qarshi kurash mexanizmi va uning tibbiyotda, xususan antibiotiklarga chidamlilikni kamaytirish, gen terapiyasi va infeksiyon kasalliklarni davolashdagi ahamiyati tahlil qilindi. Natijalar CRISPR texnologiyasining tibbiyotdagi muhim rolini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: CRISPR, bakteriya immuniteti, Cas9, genetik tahrir, infeksiyon kasalliklar, antibiotiklarga chidamlilik, tibbiyot.

Tadqiqotning dolzarbligi .CRISPR — Clustered Regularly Interspaced Short Palindromic Repeats — bakteriya genomidagi ma'lum strukturalar bo'lib, ular virusning DNKsidan parchalarni saqlab qoladi. Keyin shunday virus yoki mobil element yana kirsam, CRISPR-Cas kompleksi uni tanib, kesib tashlaydi. Bu tabiiy tizim mikroorganizmlarning adaptive (mo'ljallangan) immuniteti sifatida faoliyat qiladi. Klassik immunitet tizimidan farqli ravishda, CRISPR-Cas bakterial darajada javob beradigan samarali mexanizm hisoblanadi. Ilmiy o'rganishlar CRISPR-Cas9 singari komponentlardan genetik tahrir uchun ham samarali vosita sifatida foydalanilayotganini ko'rsatadi. CRISPR tizimi bakteriyalarning tabiiy immunitetining markaziy mexanizmi bo'lib, genetik ma'lumotni viruslardan himoya qiladi. Hozirgi kunda antibiotiklarga chidamli

bakteriyalar tez ko'paymoqda va yangi davolash usullarini ishlab chiqish zarur. Shu sababli CRISPR tizimining mexanizmini o'rganish va uni tibbiyotda qo'llash, xususan infeksiyon kasalliklarda yangi strategiyalarni yaratish tadqiqotning dolzarbligini ko'rsatadi.

Tadqiqot maqsadi. CRISPR tizimining bakteriyalardagi tabiiy immunitet mexanizmini tushuntirish;

Tibbiyot sohasida CRISPR-Cas texnologiyasining qo'llanilishi va uning antibiotiklarga chidamli bakteriyalar bilan kurashdagi samaradorligini baholash; Infeksiyon kasalliklar va gen terapiyasida CRISPR tizimining ahamiyatini aniqlash.

Material va tadqiqot usullari. Tadqiqotda ilmiy maqolalar, genetika va mikrobiologiya bo'yicha kitoblar hamda so'nggi yillardagi eksperimental ishlanmalar tahlil qilindi.

CRISPR tizimining bakteriyalarda viruslarga qarshi ishlash mexanizmi asosiy eksperimental model sifatida E. coli va Streptococcus bakteriyalari tadqiqotlari o'rganildi. Tibbiyotda qo'llanilishi bo'yicha CRISPR-Cas9 texnologiyasi inson genlarini tahrir qilish, antibiotiklarga chidamli genlarni yo'q qilish va infeksiyon kasalliklarni davolashdagi maqolalar tahlil qilindi.

Natijalar va muhokama. CRISPR tizimi bakteriyalar uchun adaptive immunitet vazifasini bajaradi. Bu mexanizm viruslarni aniqlab, ularning genetik ma'lumotlarini CRISPR massivlariga saqlaydi, keyin u qayta kelganda Cas oqsillari orqali yo'q qilinadi. Bu jarayon bakteriyalarning viruslarga tez javobini ta'minlaydi. CRISPR-Cas9 texnologiyasi genetik tahrirda yangi imkoniyatlar yaratadi. Ushbu texnologiyani inson genlarini tahrir qilishda, kasalliklarni oldini olishda, gen terapiyasida qo'llash borasida muhim yutuqlar mavjud. CRISPR antibiotiklarga chidamli bakteriyalar bilan kurashda qo'llanilishi mumkin. Masalan, antibiotiklarga chidamli genlar CRISPR orqali maqsadga muvofiq bloklanadi. Bu tibbiyotda yangi davolash strategiyalarini ochadi. CRISPR tizimining pastki funksional rollari tubdan genetik tahrir vositasiga aylanib, infeksiyon kasalliklarni davolashning yangi usullarini ishlab chiqishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA. CRISPR tibbiy biologiyaning eng qiziqarli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. U bakteriya immunitetini o'rganish bo'yicha fundamental tushunchani boyitdi hamda genetik tahrir texnologiyalari orqali ushbu tizimni tibbiyotda amaliy qo'llash imkoniyatlarini oshirdi. Shuningdek, antibiotiklarga chidamli shtammlar bilan kurashda CRISPR-Cas9 yordamida genetik darajada target qilish imkoniyatlari mavjud. Bu kelajakda infeksiyon kasalliklarda antibiotikdan tashqari samarali strategiyalar yaratishga yordam beradi

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Barrangou R., Marraffini L.A. CRISPR-Cas systems: Prokaryotes upgrade to adaptive immunity. *Molecular Cell*, 2014.
2. Hsu P.D., Lander E.S., Zhang F. Development and applications of CRISPR-Cas9 for genome engineering. *Cell*, 2014.
3. Doudna J.A., Charpentier E. The new frontier of genome engineering with CRISPR-Cas9. *Science*, 2014.
4. Jinek M., Chylinski K., Fonfara I. A programmable dual-RNA-guided DNA endonuclease in adaptive bacterial immunity. *Science*, 2012.
5. National Institutes of Health (NIH). CRISPR in medical research: current applications and future prospects. 2025

INSULIN REZISTENTLIK RIVOJLANISHIDA GLYUKOZA ALMASHINUVINING BIOKIMYOVIY MEXANIZMLARI

Axatova Zarina Shuxratovna

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Davolash ishi fakulteti 2-kurs

Saidmurodova Zarifa Azamatovna

Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand, O'zbekiston.

Ishning maqsadi: Mazkur tadqiqot insulin rezistentlik holatida uglevod almashinuvi qanday biokimyoviy o'zgarishlarga uchrashini hujayra darajasida tahlil qilishga qaratilgan. Ish davomida insulin signal tizimidagi buzilishlar natijasida glyukoza transporti va metabolik yo'llarda yuzaga keladigan funksional o'zgarishlar mexanizmi ilmiy jihatdan asoslab berildi hamda ularning klinik oqibatlari baholandi.

Materiallar va tadqiqot usullari: Tadqiqot nazariy-tahliliy yo'nalishda olib borildi. Ish jarayonida insulin rezistentlik va uglevod almashinuvi buzilishlariga oid so'nggi yillarda e'lon qilingan ilmiy maqolalar hamda biokimyoviy manbalar retrospektiv tahlil qilindi. Insulin retseptorining faollashuvi, retseptordan keyingi signal uzatish bosqichlari va hujayra ichki metabolik yo'llarga ta'siri ketma-ketlik asosida o'rganildi. Ayniqsa, glyukoza tashuvchi oqsil — GLUT4 ning sitoplazmadan plazmatik membranaga ko'chish jarayoni, glikoliz fermentlari faolligi, glikogenez va glyukoneogenez o'rtasidagi muvozanat o'zgarishlari biokimyoviy jihatdan tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar asosida insulin rezistentlik sharoitida uglevod almashinuvining buzilish zanjiri tizimli ravishda modellashtirildi.

Tadqiqot natijalari: Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, insulin rezistentlik sharoitida insulin retseptorining sezgirligi pasayadi va hujayra ichki signal uzatish jarayoni buziladi. Natijada glyukoza tashuvchi oqsil — GLUT4 ning membranaga translokatsiyasi kamayadi, bu esa mushak va yog‘ to‘qimalarida glyukozaning utilizatsiyasini susaytiradi. Shuningdek, glikogenez jarayoni kamayib, glyukoneogenez esa ortadi, natijada qonda glyukoza miqdori ko‘tariladi. Uzoq muddatli insulin rezistentlik 2-tip qandli diabet rivojlanishiga zamin yaratadi. Uglevod almashinuvi buzilishi lipid metabolizmi bilan ham chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu metabolik sindrom shakllanishiga olib keladi.

Xulosa: O‘tkazilgan tahlillar insulin rezistentlik rivojlanishida glyukoza almashinuvining molekulyar-biokimyoviy mexanizmlari muhim o‘rin tutishini ko‘rsatdi. Insulin signal yo‘lining buzilishi glyukoza transporti, glikogenez va glikoliz jarayonlarining susayishiga olib keladi. Mazkur o‘zgarishlarni erta aniqlash va biokimyoviy mexanizmlarini chuqur o‘rganish metabolik kasalliklarning oldini olish va samarali terapiya strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

ПОДХОД К ЛЕЧЕНИЮ АКНЕ И КОРРЕКЦИИ ПОСТАКНЕ В СОВРЕМЕННОЙ ДЕРМАТОЛОГИИ

Хикматов Рустам Сайфуллаевич

*Бухарский государственный медицинский институт имени Абу Али Ибн
Сина, PhD., кафедра дерматовенерологии*

Караева Райхона Лазизжоновна

*Бухарский государственный медицинский институт имени Абу Али Ибн
Сина, студент 2 –курса лечебного факультета*

Акне и постакне являются одними из наиболее распространённых дерматологических заболеваний, значительно влияющих на качество жизни пациентов. Несмотря на разнообразие методов лечения, остаётся актуальной проблема эффективной и безопасной коррекции рубцов, гиперпигментации и воспалительных элементов [2, 6, 10]. Современные аппаратные методы, включая лазерную терапию и виброэнергетическое воздействие (Vbeam), демонстрируют перспективные результаты. Акне поражает до 85% подростков и значительную часть взрослого населения, что определяет его высокую медико-социальную значимость. В последние годы наблюдается «взросление» акне и рост числа пациентов с постакне, включая рубцы и гиперпигментацию, что снижает качество жизни [4, 8, 12–14]. Современная дерматология рассматривает акне как мультифакторное заболевание, связанное с нарушением себопродукции, фолликулярной

гиперкератинизацией, микробным фактором (*Cutibacterium acnes*) и воспалением, требующее комплексного и индивидуализированного подхода. За последние 10 лет значительно расширились представления о патогенезе и терапии акне: внедряются комбинированные схемы лечения, дермокосметика, лазерные и световые технологии, а также методы персонализированной медицины. Развиваются цифровые технологии и искусственный интеллект для улучшения диагностики и подбора терапии [1, 5, 9]. Современные исследования подчеркивают роль питания, образа жизни и гормональных факторов в развитии акне, что расширяет возможности профилактики и лечения [3, 7, 11, 15]. Таким образом, проблема лечения акне и коррекции постакне остаётся актуальной в связи с высокой распространённостью заболевания, его влиянием на психоэмоциональное состояние пациентов и необходимостью разработки эффективных и безопасных методов терапии.

Цель исследования: Оценить эффективность и безопасность применения виброэнергетического аппарата (Vbeam) в сочетании с лазерной терапией при лечении акне и постакне.

Задачами данного исследования являются изучение современных представлений о патогенезе акне и постакне, оценка влияния эндогенных и экзогенных факторов на их развитие и течение, анализ эффективности лазерных методов в коррекции постакне, проведение сравнительной оценки результатов монотерапии и комбинированного лечения, а также определение и обоснование оптимальных протоколов терапии акне и постакне.

Научная новизна: Комбинированное применение виброэнергетического воздействия и лазерной терапии позволяет улучшить микроциркуляцию, -ускорить регенерацию тканей, повысить эффективность лечения рубцов и гиперпигментации.

Материалы и методы: В исследование включены 65 пациентов с клинически подтверждённым постакне, распределённые на две группы в зависимости от схемы терапии. В основную группу (n=35) вошли пациенты, получавшие стандартную терапию в сочетании с виброэнергетическим воздействием (Vbeam) и фракционной лазерной терапией. Контрольная группа (n=30) получала только стандартное лечение. Эффективность терапии оценивалась клиническим обследованием, дерматоскопией и фотофиксацией очагов до и после курса лечения, а результаты подвергались сравнительному анализу для оценки эффективности комбинированного и стандартного подходов.

Результаты: В ходе проведённого исследования установлено, что у пациентов основной группы (n=35), получавших комбинированную терапию с применением виброэнергетического воздействия (Vbeam) и фракционной лазерной терапии, отмечалась статистически значимо более выраженная положительная динамика по сравнению с контрольной группой (n=30), получавшей стандартное лечение ($p < 0,05$). В основной группе наблюдалось

достоверное снижение выраженности клинических проявлений постакне: уменьшение глубины и площади рубцовых изменений в среднем на 60–70%, снижение гиперпигментации на 55–65% и эритемы на 50–60% ($p < 0,05$). Также отмечалось улучшение показателей тургора кожи и выравнивание её рельефа. В контрольной группе положительная динамика также имела место, однако выраженность улучшений была значительно ниже: уменьшение рубцовых изменений составило в среднем 30–40%, гиперпигментации 25–35%, эритемы 20–30%, при этом для достижения клинически значимого эффекта требовалось более длительное время лечения ($p < 0,05$ при сравнении с основной группой). По данным дерматоскопии и фотофиксации установлено, что применение комбинированной терапии способствует ускорению процессов регенерации тканей и улучшению микроциркуляции, что проявлялось более быстрым регрессом патологических элементов и восстановлением структуры кожи. Таким образом, комбинированный метод лечения с использованием виброэнергетического воздействия и фракционной лазерной терапии продемонстрировал статистически значимо более высокую эффективность по сравнению со стандартной терапией ($p < 0,05$).

Вывод: Комбинированное применение виброэнергетического воздействия (Vbeam) и фракционной лазерной терапии при постакне оказалось статистически более эффективным, чем стандартная терапия ($p < 0,05$). Оно способствует снижению рубцов, гиперпигментации и эритемы, ускоряет регенерацию тканей и улучшает микроциркуляцию, что сокращает сроки лечения и повышает его клиническую эффективность.

Литература

1. Reynolds R.V., Yeung H., Cheng C.E. et al. Guidelines of care for the management of acne vulgaris. *Journal of the American Academy of Dermatology*. 2024.
2. Zaenglein A.L., Pathy A.L., Schlosser B.J. et al. Guidelines of care for the management of acne vulgaris. *Journal of the American Academy of Dermatology*. 2016.
3. Corcoran L., Muller I., Layton A.M., Rucinski G. Systematic review of clinical practice guidelines for acne vulgaris (2017–2021). *Skin Health and Disease*. 2022.
4. Dellavalle R., Dunnick C. Acne guidelines vs modern skincare trends. *Journal of Skin*. 2025.
5. Tan J.K.L. Acne vulgaris: pathogenesis and treatment update. *Dermatology Reports*. 2018.
6. Layton A.M. The use of isotretinoin in acne. *Dermatologic Therapy*. 2017.
7. Gollnick H., Bettoli V. Global alliance to improve outcomes in acne. *Journal of the European Academy of Dermatology and Venereology*. 2016.

8. Dréno B., Thiboutot D., Layton A.M. et al. Large-scale worldwide observational study of acne management. *Journal of the American Academy of Dermatology*. 2018.
9. Thiboutot D., Dréno B. Pathogenesis of acne: recent advances. *Experimental Dermatology*. 2017.
10. Tan J., Bhate K. A global perspective on acne epidemiology. *British Journal of Dermatology*. 2015.
11. Zaenglein A.L. Topical retinoids in acne treatment. *Seminars in Cutaneous Medicine and Surgery*. 2016.
12. Harper J.C. Hormonal therapy for acne. *Journal of Drugs in Dermatology*. 2017.
13. Baldwin H.E. Systemic therapies for acne. *Cutis*. 2019.
14. Del Rosso J.Q. Emerging therapies in acne. *Journal of Clinical and Aesthetic Dermatology*. 2020.
15. Dréno B. Adult female acne: clinical features and treatment. *Dermatology*. 2019.
16. Prokhorov K., Kalinin A.A. Improving acne image grading with AI. 2024

**ЎТКИР БАКТЕРИАЛ КОНЪЮНКТИВИТ ЭТИОЛОГИК
АГЕНТЛАРИНИНГ БИОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИНИ ЎРГАНИШ ВА
УЛАРНИНГ АНТИБИОТИКЛАРГА СЕЗГИРЛИГИНИ БАҲОЛАШ**

Нуруллаев Бунёд Бакберганович

Урганч RANSH технология университети, Урганч, Ўзбекистон

Ўткир бактериал конъюнктивит офтальмология амалиётида кенг тарқалган инфекция-яллиғланиш касалликларидан бири бўлиб, унинг этиологик тузилиши ва қўзғатувчиларининг биологик хусусиятлари доимий равишда ўзгариб боради. Айниқса, замонавий шароитда микроорганизмларнинг антибиотикларга резистентлиги ортиб бораётгани ушбу касалликни ташҳислаш ва самарали даволашни янада мураккаблаштирмақда. Шу сабабли ўткир бактериал конъюнктивит қўзғатувчиларининг биологик хусусиятлари ва уларнинг антибиотикларга сезгирлигини комплекс ўрганиш долзарб илмий ва амалий аҳамият касб этади.

Ушбу тадқиқотнинг мақсади болалар ва катта ёшдаги беморларда ўткир бактериал конъюнктивит қўзғатувчиларининг биологик хусусиятларини таҳлил қилиш ва уларнинг антибиотикларга сезгирлик профилини баҳолашдан иборат бўлди. Тадқиқотга клиник жиҳатдан тасдиқланган ўткир бактериал конъюнктивит билан касалланган 62 нафар бемор ҳамда қиёсий таҳлил учун 21 нафар амалий жиҳатдан соғлом шахс жалб қилинди. Биологик материал

сифатида конъюнктивда чиқиндисидан намуналар олиниб, бактериологик ва микологик текширишлар амалга оширилди. Микроорганизмларни идентификация қилиш морфологик, тинкториал, культурал ва биокимёвий хусусиятлар асосида Bergy's классификацияси бўйича ўтказилди, натижалар вариацион статистика усуллари орқали таҳлил қилинди.

Олинган натижалар таҳлили шуни кўрсатдики, ўткир бактериал конъюнктивитнинг асосий кўзғатувчилари сифатида *Staphylococcus aureus*, *Staphylococcus epidermidis* ва *Streptococcus spp.* етакчи ўринни эгаллайди. Жумладан, *Staphylococcus aureus* 16 та штамм, *Staphylococcus epidermidis* 21 та штамм ва *Streptococcus spp.* 16 та штамм кўринишида аниқланди. Шу билан бирга, кам ҳолатларда *Enterobacteriaceae* оиласи вакиллари — *Escherichia coli* (3 та ҳолат) ва *Proteus spp.* (2 та ҳолат), шунингдек *Candida spp.* (3 та ҳолат) замбуруғлари ҳам аниқланди. Ажратилган барча штаммлар асосан типик морфологик ва биокимёвий хусусиятларга эга бўлиб, атипик вариантлар кузатилмади.

Staphylococcus aureus штаммлари юқори даражада патогенлик хусусиятларини намоён қилди, уларда коагулаза фаоллиги, маннит ферментацияси, лецитиназа фаоллиги каби муҳим биологик белгилари аниқланди. *Staphylococcus epidermidis* штаммлари эса ушбу хусусиятлар бўйича *Staphylococcus aureus* га ўхшаш бўлса-да, патогенлик омилларининг паст даражада намоён бўлиши билан фарқ қилди. *Streptococcus spp.* штаммлари β-гемолитик хусусиятга эга бўлиб, каталаза манфийлиги билан стафилококклардан фарқланди. *Enterobacteriaceae* оиласи вакиллари эса типик морфологик ва культурал хусусиятларни намоён қилди ҳамда уларнинг биокимёвий тестлар орқали ишончли идентификацияси амалга оширилди.

Антибиотикларга сезгирлик таҳлили натижалари шуни кўрсатдики, *Staphylococcus aureus* штаммлари цефазолин, ципрофлоксацин, цефтриаксон ва амоксиклав каби антибиотикларга юқори сезгирликни намоён қилди, бироқ тетрациклин, гентамицин ва левомецетинга нисбатан юқори даражада резистентлик кузатилди. *Staphylococcus epidermidis* штаммларида ҳам шу тенденция сақланиб қолди, аммо резистентлик даражаси нисбатан паст бўлди. *Enterobacteriaceae* оиласи вакиллари цефтриаксон, цефоперазон ва амоксиклавга юқори сезгирлик кўрсатди. Ушбу натижалар клиник амалиётда рационал антибиотикотерапияни танлашда муҳим аҳамиятга эга эканлигини кўрсатади.

Тадқиқот натижалари асосида илк бор ўткир бактериал конъюнктивитни лаборатор ташҳислаш учун микробиологик ва микологик таҳлил алгоритмлари ишлаб чиқилди. Ушбу алгоритмлар текшириш жараёнини

тизимлаштириш, босқичма-босқич амалга ошириш, натижаларни ишончли ва ўз вақтида олиш имконини бериши билан аҳамиятлидир.

Хулоса қилиб айтганда, ўткир бактериал конъюнктивитда стафилококklar етакчи этиологик омил ҳисобланади ва уларнинг антибиотикларга сезгирлик хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда даволаш тактикасини танлаш мақсадга мувофиқдир. Таклиф этилган микробиологик таҳлил алгоритмлари амалиётда қўллаш учун самарали ва қулай ҳисобланади ҳамда ташҳис ва даволаш сифатини оширишга хизмат қилади.

Калит сўзлар: бактериал конъюнктивит, *Staphylococcus aureus*, антибиотикларга резистентлик, микробиологик таҳлил, диагностика.

BIFIDOBACTERIUM VA LACTOBACILLUS AVLODLARINING MAҲАЛЛИЙ ШТАММЛАРИНИ КУЛЬТИВАЦИЯ ҚИЛИШ УСУЛЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Муротов Нурид Фарходович

Бухоро д

авлат тиббиёт институти

Мазкур тадқиқот иши бифидобактерия ва лактобациллалар авлодларининг маҳаллий штаммларини культивация қилиш усулларини такомиллаштиришга бағишланган бўлиб, замонавий тиббиёт ва микробиологиянинг долзарб муаммоларидан бири – ичак микробиотасини барқарорлаштириш ҳамда самарали пробиотик воситалар яратишга қаратилган.

Ҳозирги кунда дунё миқёсида пробиотикларга бўлган эҳтиёжнинг ортиб бориши, шунингдек, ичак дисбиози билан боғлиқ касалликларнинг кенг тарқалганлиги ушбу соҳадаги тадқиқотларнинг аҳамиятини янада оширмоқда. Шу нуқтаи назардан, маҳаллий штаммлар асосида юқори самарадорликка эга, инсон организмга мос пробиотик воситалар ишлаб чиқиш муҳим илмий ва амалий вазифа ҳисобланади.

Тадқиқотнинг мақсади *Bifidobacterium* ва *Lactobacillus* авлодларига мансуб маҳаллий штаммларни культивация қилиш усулларини такомиллаштиришдан иборат бўлди. Мазкур мақсадга эришиш учун микроорганизмларни ажратиб олиш, уларни молекуляр-генетик идентификация қилиш (16S rRNA гени асосида), янги озиқ муҳитини ишлаб чиқиш, чуқурлаштирилган ферментация усулида культивация параметрларини аниқлаш ҳамда пробиотик композициянинг клиник самарадорлигини баҳолаш вазифалари қўйилди.

Тадқиқот объекти сифатида бифидобактериялар (n=65) ва лактобактериялар (n=70) маҳаллий штаммлари, шунингдек, турли ёшдаги болалардан олинган биологик материаллар танланди. Тадқиқотда бактериологик, молекуляр-генетик ва статистик усуллардан комплекс равишда фойдаланилди.

Олинган натижаларга кўра, илк бор маҳаллий бифидобактерия ва лактобациллалар штаммлари соф культура ҳолатида ажратиб олиниб, уларнинг генетик идентификацияси амалга оширилди. Шунингдек, микроорганизмларнинг ўсиш самарадорлигини ошириш ва культивация муддатини қисқартиришга қаратилган янги модификацияланган озик муҳити ишлаб чиқилди.

Бундан ташқари, чуқурлаштирилган ферментация технологияси асосида биореактор шароитида юқори биомасса ҳосилдорлигига эришиш имконини берувчи оптимал параметрлар аниқланди. Илмий ишда 11 хил маҳаллий штаммдан иборат пробиотик комплекс (LBnorm) яратилиб, унинг ичак дисбиозини коррекциялашда юқори самарадорлиги илмий асосланди.

Тадқиқот натижаларининг илмий аҳамияти маҳаллий пробиотик штаммларнинг молекуляр-генетик жиҳатдан тавсифланиши ва уларнинг халқаро маълумотлар базаларига киритилиши билан белгиланади. Амалий аҳамияти эса ишлаб чиқилган технологиялар асосида арзон ва самарали маҳаллий пробиотик воситалар яратиш имконияти билан изоҳланади.

Хулоса қилиб айтганда, мазкур тадқиқот натижалари маҳаллий штаммлар асосида инновацион пробиотик технологияларни ишлаб чиқиш, ичак микробиотасини барқарорлаштириш ва аҳоли саломатлигини яхшилашда муҳим илмий-амалий аҳамиятга эга ҳисобланади.

Калит сўзлар:

Bifidobacterium, *Lactobacillus*, маҳаллий штаммлар, пробиотиклар, ичак микробиотаси, дисбиоз, культивация, ферментация, 16S rRNA, молекуляр-генетик идентификация, антагонистик фаоллик, биореактор, озик муҳити, биомасса ҳосилдорлиги.

МАҲАЛЛИЙ BIFIDOBACTERIUM VA LACTOBACILLUS ШТАММЛАРИНИ ЧУҚУР ФЕРМЕНТАЦИЯ ШАРОИТИДА КУЛЬТИВАЦИЯ ҚИЛИШ ВА ПРОБИОТИК САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШ

Муротов Нурид Фарходович

Бухоро давлат тиббиёт институти

Мазкур тадқиқот иши инсон ичак микробиотасининг муҳим компонентлари ҳисобланган бифидобактерия ва лактобациллаларнинг маҳаллий штаммларини самарали культивация қилиш ва уларнинг пробиотик хусусиятларини баҳолашга бағишланган. Ичак микробиотасининг бузилиши билан боғлиқ ҳолатлар, жумладан дисбиоз, иммун танқислик ва метаболик бузилишларнинг кенг тарқалганлиги мазкур тадқиқотнинг долзарблигини белгилайди.

Тадқиқотнинг мақсади маҳаллий пробиотик штаммларни замонавий биотехнологик усуллар асосида культивация қилиш параметрларини оптималлаштириш ҳамда уларнинг клиник-микробиологик самарадорлигини баҳолашдан иборат бўлди.

Тадқиқот давомида бифидобактерия ва лактобациллаларнинг маҳаллий штаммлари соф ҳолда ажратиб олиниб, уларнинг морфологик, биокимёвий ва молекуляр-генетик хусусиятлари ўрганилди. 16S rRNA гени асосида идентификация қилиш орқали штаммларнинг генетик мансублиги аниқланди ва уларнинг халқаро маълумотлар базаларига мослиги баҳоланди.

Микроорганизмларни культивация қилиш жараёнида чуқурлаштирилган ферментация усули қўлланилиб, биореактор шароитида ўсиш параметрлари, жумладан рН, ҳарорат, аэроб/анаэроб шароитлар ва озик муҳити таркибининг таъсири ўрганилди. Натижада микроорганизмларнинг юқори биомасса ҳосил қилишига эришиш имконини берувчи оптимал технологик режимлар ишлаб чиқилди.

Тадқиқот натижаларига кўра, маҳаллий штаммлар асосида ишлаб чиқилган пробиотик композиция юқори антагонистик фаолликка эга эканлиги ва шартли-патоген микроорганизмларга нисбатан ингибирловчи таъсир кўрсатиши аниқланди. Шунингдек, ушбу пробиотик воситанинг ичак дисбиозини коррекциялашда самарадорлиги клиник кузатувлар асосида тасдиқланди.

Олинган натижалар маҳаллий пробиотик штаммлардан фойдаланган ҳолда арзон ва самарали биологик фаол қўшимчалар ишлаб чиқиш имкониятини яратади ҳамда импорт ўрнини босувчи маҳсулотлар яратишда муҳим аҳамият касб этади.

Хулоса қилиб айтганда, мазкур тадқиқот маҳаллий бифидобактерия ва лактобациллалар штаммларини замонавий ферментация технологиялари асосида культивация қилиш орқали уларнинг биотехнологик ва тиббий аҳамиятини кенгайтиришга хизмат қилади.

Калит сўзлар:

Bifidobacterium, Lactobacillus, маҳаллий штаммлар, пробиотиклар, ферментация, биореактор, дисбиоз, ичак микробиотаси, антагонистик фаоллик, 16S rRNK, культивация, биомасса, биотехнология.

TECHNOLOGICAL ASPECTS OF ANTIMICROBIAL AND ANTIVIRAL DRUG MANUFACTURING AND QUALITY ASSURANCE

Beknur Nurzhaybaev

Department of Engineering Disciplines of Good Practices, School of Pharmacy, Kazakh National Medical

S.D. Asfendiyarov Kazakh National Medical University, Almaty, Kazakhstan

Scientific Supervisor – PhD, Associate Professor Serzhan Mombekov

Relevance: Infectious diseases remain a major global public health challenge despite significant advances in medicine. The rapid emergence of antimicrobial resistance (AMR) has intensified the need for safe, effective, and high-quality antimicrobial and antiviral medicines. Substandard manufacturing practices may contribute to therapeutic failure, resistance development, and serious safety risks.

Therefore, pharmaceutical manufacturing of antimicrobial and antiviral drugs must ensure strict control of purity, potency, stability, and prevention of cross-contamination. Due to the biological activity and high potency of many antimicrobial substances, specialized production facilities and robust quality assurance systems are essential.

Purpose of the study: To analyze technological principles, production strategies, contamination control measures, and quality assurance systems involved in the manufacturing of antimicrobial and antiviral drugs in compliance with GMP requirements.

Materials and research methods: The study is based on analysis of EU GMP guidelines (including Annex 1 and Annex 2 where applicable), WHO technical reports, and scientific publications on antibiotic fermentation, synthetic antiviral drug production, contamination control, and quality management systems.

Key aspects evaluated include:

- Upstream and downstream production processes;
- Segregation and containment systems;
- Cleaning validation procedures;
- Risk management strategies (ICH Q9);
- Quality by Design (QbD) implementation.

Results and discussion: Many antibiotics (e.g., penicillins, cephalosporins, macrolides) are produced through microbial fermentation using specific strains of bacteria or fungi. The upstream process involves controlled fermentation in bioreactors, where critical process parameters such as temperature, pH, aeration, agitation speed, and nutrient composition directly affect yield and product quality.

Following fermentation, downstream processing includes:

- Biomass separation (filtration or centrifugation);
- Solvent extraction;
- Purification (chromatography, crystallization);
- Drying and micronization;
- Final formulation into tablets, capsules, or injectable forms.

Due to the high sensitization potential of certain antibiotics (e.g., beta-lactams), strict segregation of production areas is mandatory. Dedicated facilities, containment systems, pressure cascades, and independent HVAC systems are implemented to prevent cross-contamination.

Antiviral drugs may be manufactured either by chemical synthesis (e.g., nucleoside analogs) or via biotechnological methods for complex biologics. Chemical synthesis requires precise control of reaction conditions, impurity profiling, and residual solvent limits. Biotechnological antivirals require advanced purification and viral safety validation.

Cleaning validation plays a critical role in preventing cross-contamination between batches and products. Acceptable residue limits must be scientifically justified. Environmental monitoring systems assess airborne particulates, viable microorganisms, and pressure differentials in classified areas.

Quality control procedures include:

- Potency assays (microbiological or chemical methods);
- Impurity profiling (HPLC, LC-MS);
- Residual solvent testing;
- Microbiological purity testing;
- Endotoxin testing (for injectables);
- Stability studies under ICH climatic conditions.

Implementation of Quality by Design (QbD) enhances process understanding by identifying Critical Quality Attributes (CQAs) and Critical Process Parameters (CPPs). This approach improves batch-to-batch consistency and reduces variability.

Conclusion: Technological optimization, contamination control, and strict GMP compliance are fundamental requirements for manufacturing safe and effective antimicrobial and antiviral drugs. Advanced fermentation systems, synthetic technologies, containment strategies, and comprehensive quality assurance programs contribute significantly to combating infectious diseases and addressing the global challenge of antimicrobial resistance.

Continuous improvement in pharmaceutical technology and risk-based quality management systems supports sustainable and reliable production of these critical medicines.

TECHNOLOGICAL ASPECTS OF ANTIMICROBIAL AND ANTIVIRAL DRUG MANUFACTURING AND QUALITY ASSURANCE

Beknur Nurzhaybaev

Department of Engineering Disciplines of Good Practices, School of Pharmacy, Kazakh National Medical

S.D. Asfendiyarov Kazakh National Medical University, Almaty, Kazakhstan

Scientific Supervisor – PhD, Associate Professor Serzhan Mombekov

Relevance: Infectious diseases remain a major global public health challenge despite significant advances in medicine. The rapid emergence of antimicrobial resistance (AMR) has intensified the need for safe, effective, and high-quality antimicrobial and antiviral medicines. Substandard manufacturing practices may contribute to therapeutic failure, resistance development, and serious safety risks.

Therefore, pharmaceutical manufacturing of antimicrobial and antiviral drugs must ensure strict control of purity, potency, stability, and prevention of cross-contamination. Due to the biological activity and high potency of many antimicrobial substances, specialized production facilities and robust quality assurance systems are essential.

Purpose of the study: To analyze technological principles, production strategies, contamination control measures, and quality assurance systems involved in the manufacturing of antimicrobial and antiviral drugs in compliance with GMP requirements.

Materials and research methods: The study is based on analysis of EU GMP guidelines (including Annex 1 and Annex 2 where applicable), WHO technical reports, and scientific publications on antibiotic fermentation, synthetic antiviral drug production, contamination control, and quality management systems.

Key aspects evaluated include:

- Upstream and downstream production processes;
- Segregation and containment systems;
- Cleaning validation procedures;
- Risk management strategies (ICH Q9);
- Quality by Design (QbD) implementation.

Results and discussion: Many antibiotics (e.g., penicillins, cephalosporins, macrolides) are produced through microbial fermentation using specific strains of bacteria or fungi. The upstream process involves controlled fermentation in bioreactors, where critical process parameters such as temperature, pH, aeration, agitation speed, and nutrient composition directly affect yield and product quality.

Following fermentation, downstream processing includes:

- Biomass separation (filtration or centrifugation);
- Solvent extraction;
- Purification (chromatography, crystallization);
- Drying and micronization;
- Final formulation into tablets, capsules, or injectable forms.

Due to the high sensitization potential of certain antibiotics (e.g., beta-lactams), strict segregation of production areas is mandatory. Dedicated facilities, containment systems, pressure cascades, and independent HVAC systems are implemented to prevent cross-contamination.

Antiviral drugs may be manufactured either by chemical synthesis (e.g., nucleoside analogs) or via biotechnological methods for complex biologics. Chemical synthesis requires precise control of reaction conditions, impurity profiling, and residual solvent limits. Biotechnological antivirals require advanced purification and viral safety validation.

Cleaning validation plays a critical role in preventing cross-contamination between batches and products. Acceptable residue limits must be scientifically justified. Environmental monitoring systems assess airborne particulates, viable microorganisms, and pressure differentials in classified areas.

Quality control procedures include:

- Potency assays (microbiological or chemical methods);
- Impurity profiling (HPLC, LC-MS);
- Residual solvent testing;

- Microbiological purity testing;
- Endotoxin testing (for injectables);
- Stability studies under ICH climatic conditions.

Implementation of Quality by Design (QbD) enhances process understanding by identifying Critical Quality Attributes (CQAs) and Critical Process Parameters (CPPs). This approach improves batch-to-batch consistency and reduces variability.

Conclusion: Technological optimization, contamination control, and strict GMP compliance are fundamental requirements for manufacturing safe and effective antimicrobial and antiviral drugs. Advanced fermentation systems, synthetic technologies, containment strategies, and comprehensive quality assurance programs contribute significantly to combating infectious diseases and addressing the global challenge of antimicrobial resistance.

Continuous improvement in pharmaceutical technology and risk-based quality management systems supports sustainable and reliable production of these critical medicines.

VII- GIGIENA, TIBBIY EKOLOGIYA, AHOLI SALOMATLIGI VA SOG'LIQNI SAQLASHNI TASHKIL ETISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

PHLORIZIN AS A NATURAL GLYCOSIDE: PROPERTIES AND MECHANISMS OF ACTION

Moldir Makulbek

Department of Pharmaceutical Technology

*S.D. Asfendiyarov Kazakh National Medical University, Almaty, Kazakhstan
Scientific Supervisor – PhD, Associate Professor A.M. Kantureeva*

Relevance: Phloridzin is a naturally occurring phenolic glycoside with demonstrated antioxidant, antimicrobial, and antiviral properties. Given its ability to neutralize free radicals, regulate apoptosis, and inhibit microbial growth, phloridzin represents a promising candidate for applications in dermatology, cosmetics, and topical pharmaceutical formulations. Oxidative stress and microbial contamination are key factors in skin aging, inflammation, and wound infections. Therefore, developing formulations that incorporate phloridzin could enhance protective, therapeutic, and regenerative effects on the skin. The combination of antioxidant and antimicrobial activity in a single molecule makes phloridzin particularly attractive for modern dermatological products, where multifunctionality and safety are critical.

Purpose of the study: The aim of this study is to evaluate the potential of phloridzin as an active ingredient in topical and cosmetic formulations by analyzing its

pharmacological activities, mechanisms of action, and applicability for skin protection and antimicrobial therapy. Specifically, the research seeks to determine how its antioxidant and antimicrobial properties can be effectively harnessed in dermal delivery systems.

Materials and research methods: Phloridzin (also known as phlorizin or phloretin-2'-glucoside) is a naturally occurring phenolic glycoside that belongs to the dihydrochalcone subclass of flavonoids. It is primarily found in the bark, roots, leaves, and seeds of apple trees (*Malus domestica*) and other members of the Rosaceae family, including pear (*Pyrus communis*) and cherry species. The molecule consists of the aglycone phloretin bound via a β -glycosidic linkage to a glucose moiety, which influences both its solubility characteristics and biological accessibility. Phloridzin has attracted significant interest due to its broad spectrum of biological activities, most notably antioxidant and antimicrobial effects. The antioxidant capacity of phloridzin derives from its phenolic structure, allowing it to donate hydrogen atoms and neutralize free radicals, thereby reducing oxidative stress. In parallel, antimicrobial research has demonstrated that phloridzin and structurally-related compounds (e.g., phloretin) are capable of inhibiting bacterial growth, including Gram-positive *Staphylococcus aureus* and Gram-negative *Escherichia coli* strains. These dual activities render phloridzin particularly attractive for applications in cosmetic, dermatological, and topical pharmaceutical formulations where oxidative stress and microbial contamination are major concerns. However, despite its promising profile, gaps remain in the literature regarding optimized extraction conditions, comparative evaluation of antioxidant vs. antibacterial potency under identical conditions, and translation of that activity into relevant topical applications. Studies have shown that the compound exhibits diverse pharmacological activities.

Antioxidant activity was demonstrated at doses of 20 and 40 mg/kg in a D-galactose-induced aging mouse model. The mechanism involves the regulation of apoptosis-related proteins, which inhibits cell death and exerts antioxidant effects by modulating the IL-1 β /IKK- α /NF- κ B signaling pathway. Additionally, in a hydrogen peroxide-induced oxidative damage model in HepG2 cells at concentrations of 100 and 150 μ g/mL, the compound regulated Nrf2 protein levels and apoptosis-related gene expression, alleviating oxidative stress, DNA damage, and apoptosis in the cells.

Antimicrobial activity was observed at concentrations of 100–200 μ g/mL in a *Listeria monocytogenes* model. The compound causes aggregation of intracellular DNA, leading to reduced protein synthesis and inhibition of microbial growth.

Antiviral activity was demonstrated both in vivo and in vitro. In BVDV-infected mouse models at doses of 6.25, 12.5, and 25 mg/kg, the compound increased IFN- α and IFN- β levels, decreased IL-1 β and IL-6 expression, and regulated RIG-1, MDA5, TLR3, and NLRP3 levels. In a Zika virus cell model at concentrations of 6.25–100 μ M, it reduced the activity of apoptotic caspases-3 and -7 and decreased phosphorylation of the Akt/mTOR signaling pathway.

Results and discussion: Phloridzin showed significant antioxidant, antimicrobial, and antiviral activities. In aging mice (20–40 mg/kg) and HepG2 cells (100–150 µg/mL), it reduced oxidative stress, regulated apoptosis-related proteins, and protected DNA. At 100–200 µg/mL, it inhibited *Listeria monocytogenes* by causing DNA aggregation and reducing protein synthesis. In BVDV-infected mice and Zika virus cells, phloridzin modulated immune responses and decreased apoptotic activity.

These results indicate that phloridzin can protect against oxidative damage, microbial growth, and viral infection, making it a promising candidate for cosmetic and topical formulations, such as hydrogels and patches, for controlled delivery and enhanced skin protection.

Conclusion: Phloridzin demonstrates significant pharmacological potential due to its dual antioxidant and antimicrobial activities. Its ability to modulate key cellular pathways, inhibit oxidative stress, and suppress microbial growth highlights its suitability for use in cosmetic, dermatological, and topical pharmaceutical products. The findings support further development of phloridzin-based formulations aimed at skin protection, anti-aging effects, and prevention of microbial contamination, offering a multifunctional approach for enhancing skin health and therapeutic outcomes.

**BUYRAK TOSH KASALLIGIDA OVQATLANISHNING
AHAMIYATI, ME'YORLASHTIRILGAN OQSILLI PARHEZ.**

*Shukurova Shaxzoda Sobitjonovna - Samarqand davlat tibbiyot
universiteti Davolash fakulteti 4-bosqich talabasi.*

Umumiy gigiyena va ekologiya kafedrasi

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti, Samarqand, O'zbekiston

Ilmiy rahbar: Raximova Durdona Jurakulovna – PhD

Dolzarbliigi: Buyrak tosh kasalligi jami urologik kasalliklarning 30–40% ini tashkil qiladi. Hozirda 99% insonlarda kamida 1 ta ovqatlanish xavf omil bor, jumladan oqsil, natriy va past suyuqlik iste'moli. Buyrak tosh kasalligi zamonaviy nefrologiyaning dolzarb muammolaridan biri bo'lib, aholi orasida keng tarqalganligi, qaytalanishga moyilligi va og'ir asoratlar bilan kechishi bilan xarakterlanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, urolitiaz bilan kasallanish darajasi yil sayin ortib bormoqda. Kasallikning dolzarbliigi uning mehnatga layoqatli yoshdagi shaxslarda ko'p uchrashi, davolash xarajatlarining yuqoriligi va hayot sifatiga salbiy ta'siri bilan belgilanadi. Ovqatlanish, ayniqsa oqsilli mahsulotlarning me'yoridan ortiq iste'moli buyrak toshlari hosil bo'lishida yetakchi xavf omillaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun uni oldini olish va davolashda ratsional ovqatlanish muhim ahamiyatga ega. Kasallik siydik chiqarish tizimining eng ko'p uchraydigan surunkali kasalliklaridan biri bo'lib, buyrak jomchalari, kosachalari yoki siydik yo'llarida turli kimyoviy tarkibli toshlarning hosil bo'lishi bilan tavsiflanadi. Toshlar siydikda erigan mineral tuzlarning

kristallanishi natijasida hosil bo‘ladi. Dastlab siydikda tuzlar konsentratsiyasi oshib, ulardan kristall yadrolari hosil bo‘ladi. Keyinchalik bu kristallar ko‘payib birikishi natijasida tosh shakllanadi. Agar siydikda himoya qiluvchi kolloidlar ya‘ni sitratlar, magniy yetarli bo‘lmasa, kristallanish jarayoni tezlashadi. Buyrak toshlari kimyoviy tarkibiga ko‘ra bir necha turga bo‘linadi: Kalsiy-oksalat toshlari - eng ko‘p uchraydigan tur bo‘lib, ovqatlanish ratsionida oksalatga boy mahsulotlar ismaloq, shokolad, kakao ko‘p bo‘lganda hosil bo‘ladi. Urat toshlari esa purin almashinuvi buzilishi natijasida paydo bo‘ladi. Bu ko‘pincha ovqatlanish ratsionida go‘shtli, oqsili mahsulotlarning ko‘pligi bilan bog‘liq bo‘ladi. Fosfat toshlari - siydikning ishqoriy muhitida shakllanadi, ko‘pincha infeksiya fonida rivojlanadi, Tsistin toshlari - kam uchraydi, irsiy kasalliklar bilan bog‘liq.

Tadqiqot maqsadi - buyrak tosh kasalligining kelib chiqish sabablari, tosh turlari haqida ilmiy-tibbiy jihatdan yoritish va ushbu kasallikda ovqatlanish omillarining, xususan oqsilli parhezning o‘rnini nazariy jihatdan asoslash.

Materiallar va usullari. Tadqiqotda so‘nggi yillarda chop etilgan ilmiy maqolalar, klinik protokollar va dietologik tavsiyalar tizimli tahlil qilindi. Tahlil jarayonida solishtirma, analitik va tavsifiy usullardan foydalanildi.

Natijalar va muhokamalar. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, yuqori oqsilli dieta fonida siydikda kalsiy, urat va oksalat ionlarining konsentratsiyasi oshadi. Bu holat siydikning pH darajasini kislotali tomonga siljitib, kristallanish jarayonini tezlashtiradi. Oqsil almashinuvi buzilishi natijasida purin asoslarining parchalanishi kuchayadi, natijada siydik kislotasi miqdori ortadi. Bu esa urat toshlari shakllanishiga olib keladi. Shu sababli buyrak tosh kasalligida oqsilli parhez individual tarzda me‘yorlashtirilishi lozim.

Buyrak tosh kasalligida tavsiya etiladigan parhez tamoyillari, oqsilli parhez va uning ahamiyati. To‘g‘ri tuzilgan parhez siydikning kimyoviy tarkibini normallashtiradi, tosh hosil bo‘lish xavfini kamaytiradi, qaytalanishning oldini oladi. Oqsillar hujayralarning asosiy qurilish materiali bo‘lib, fermentlar, gormonlar va immun tizimi faoliyatida muhim rol o‘ynaydi biroq, ularning ortiqcha iste‘moli buyraklarga yuklama beradi. Murakkab hayvon oqsillari, go‘sht, baliq, tuxum va sut mahsulotlari siydik kislotasini oshiradi, giperurikuriya va urat toshlari xavfini oshiradi. Shu sababli buyrak tosh kasalligida me‘yorlashtirilgan oqsilli parhez tavsiya etiladi. Buyrak tosh kasalligida kunlik oqsil miqdori o‘rtacha 0,8–1 g/kg tana vazniga teng bo‘lishi lozim va asosan sut va sut mahsulotlari (me‘yorida), baliq, tovuq go‘shti, o‘simlik oqsillari (loviya, no‘xat, yasmiq) tashkil etishi kerak. Suyuqlik iste‘molini kuniga 2–2,5 litr gacha oshirish, tuz iste‘molini cheklash, hayvon yog‘larini kamaytirish, oksalat va puringa boy mahsulotlarni cheklash tavsiya etiladi. Oqsilning o‘rnini sabzavot va dukkakli mahsulotlardan qisman qoplash tosh hosil bo‘lish xavfini kamaytiradi. Ratsionda meva va sabzavotlarni oshirish siydik sitratini ko‘paytiradi va tosh hosil bo‘lishini kamaytiradi. Kuniga 2 l dan ortiq suv ichish bemorlarda tosh takrorlanish xavfi 50% ga kamayadi. Kunlik tuz miqdorini 5–6 g dan oshirmaslik, yuqori oksalatli mahsulotlar ismaloq, shokolad, yong‘oqlar, qovoq urug‘i iste‘molini cheklash tavsiya etiladi. Shu bilan birga kalsiyni me‘yorida qabul qilish sut, kefir mahsulotlari oksalatni siydikda

bog‘lab, xavfni kamaytiradi, meva va sabzavotlar esa siydik pH-ni neytrallaydi. Ishqoriy pH siydikda urat kristallanishini kamaytiradi shuning uchun kuniga 400–500 g sabzavot va 200–300 g meva iste‘mol qilish tavsiya etiladi. Siydik pH ko‘rsatkichlari normal fiziologik holatda bo‘lganda, fosfatlar va siydik kislotasi tuzlari oson dissotsiatsiyalanadi. Ishqoriy siydik tarkibida uratlar va dissotsiatsiyalangan fosfatlar ko‘p bo‘ladi. Bunday muhit natriy urati va fosfatlarning cho‘kib qolishiga to‘sqinlik qiladi. Siydik kislotalanganda esa unda siydik kislotasi tuzlari ustunlik qiladi. Siydik pH darajasini pasaytirish uchun, go‘sht, baliq, dukkakli va un mahsulotlari ustun bo‘lgan parhezlar tayinlash zarur. Sabzavot va mevalardan ishqoriy valentliklari kam bo‘lgan turlariga ruxsat etiladi (no‘xat, Bryussel karam, sparja, qovoq, brusnika, qizil smorodina, nordon olma navlari).

XULOSA: Buyrak tosh kasalligi ko‘p omilli, murakkab kasallik bo‘lib, uning rivojlanishida ovqatlanish muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa oqsilli mahsulotlarning ortiqcha iste‘moli tosh hosil bo‘lish xavfini oshiradi. Shu sababli buyrak tosh kasalligini davolash va oldini olishda ratsional, muvozanatli va me‘yorlashtirilgan oqsilli diyeta muhim ahamiyatga ega. To‘g‘ri ovqatlanish, yetarli suyuqlik qabul qilish va sog‘lom turmush tarziga rioya etish orqali kasallikning qaytalanish xavfini sezilarli darajada kamaytirish mumkin. Parhezning tosh hosil bo‘lishidagi roli katta u nafaqat kasallikning oldini olish, balki qayta takrorlanishini kamaytiradi. Oqsilning katta qismi sabzavot va dukkakli mahsulotlardan qoplanishi siydik pH va mineral balansiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

TALABALAR UCHUN ENERGIYA BALANSINI SAQLOVCHI OVQATLANISH REJIMI

Rustamova Muslimaxon

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarning energiya balansini saqlovchi ovqatlanish rejimi ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Energiya balansini tushunchasi, uning fiziologik mohiyati hamda talabalarning kundalik faoliyati bilan bog‘liqligi yoritilgan. Maqolada ovqatlanish tarkibidagi oqsillar, yog‘lar, uglevodlar, vitaminlar va mineral moddalarning nisbatini to‘g‘ri belgilashning ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, tartibsiz ovqatlanish, yetarli dam olmaslik va jismoniy faollikning pasayishi natijasida yuzaga keladigan salbiy holatlar ko‘rsatib o‘tilgan. Sog‘lom ovqatlanish rejimi talabalarda aqliy va jismoniy faoliyatni qo‘llab-quvvatlaydi, immunitetni mustahkamlaydi hamda umumiy hayot sifatini oshiradi. Tadqiqot natijalari asosida energiya balansini saqlash sog‘lom turmush tarzining ajralmas qismi ekanligi ta‘kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Energiya Balansi, Sog‘Lom Ovqatlanish, Talabalarning Salomatligi, Fiziologik Ehtiyoj, Ovqatlanish Rejimi, Modda Almashinuvi, Sog‘Lom.

Kirish

Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarning jismoniy va aqliy faolligi yuqori bo'lganligi sababli, ularning energiya balansini saqlash muhim sog'lomlashtiruvchi omil hisoblanadi. To'g'ri ovqatlanish nafaqat o'quv faoliyatining samaradorligini oshiradi, balki organizmning fiziologik ehtiyojlarini to'liq qondirish, immunitetni mustahkamlash va surunkali kasalliklarning oldini olishda ham muhim rol o'ynaydi. Energiya balansini saqlash deganda, organizm tomonidan sarflanadigan energiya miqdori bilan oziq-ovqat orqali qabul qilinadigan energiya o'rtasidagi muvozanat tushuniladi. Talabalarning kundalik hayotida bu muvozanat ko'pincha buziladi, chunki ular ko'p hollarda tartibsiz ovqatlanish, tez tayyor bo'ladigan, lekin biologik qiymati past mahsulotlarni iste'mol qilishga moyil bo'ladilar. Bu esa modda almashinuvining buzilishi, ortiqcha vazn yoki aksincha, energiya tanqisligi kabi muammolarga olib keladi. Shu bois, talabalarning ovqatlanish rejimini ilmiy asosda tashkil etish ularning umumiy salomatligini saqlash, aqliy mehnat qobiliyatini oshirish va sog'lom turmush tarzini shakllantirishda zarur shart hisoblanadi. Sog'lom ovqatlanish rejimi oqsillar, yog'lar, uglevodlar, vitaminlar va mineral moddalarning me'yoriy nisbatini saqlashga asoslanadi. Bunda kun davomida iste'mol qilinadigan kaloriyalar miqdori talabaning jismoniy faolligi, jinsi va yoshiga mos bo'lishi lozim. Demak, energiya balansini ta'minlovchi ovqatlanish tizimi talabalarning hayot sifati va o'quv jarayonidagi samaradorliklarini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Asosiy qism

Talabalik davri inson hayotidagi eng faol, jismoniy va aqliy yuklama eng yuqori bo'lgan bosqich hisoblanadi. Shu sababli, bu davrda sog'lom ovqatlanish organizmning barcha fiziologik jarayonlarini me'yorda ushlab turishda muhim rol o'ynaydi. To'g'ri ovqatlanish talabaning diqqat-e'tiborini oshiradi, o'quv jarayonidagi charchoqlarni kamaytiradi va stressga bardoshlilikni kuchaytiradi. Oqsillar, yog'lar, uglevodlar, vitaminlar hamda mineral moddalarning yetarli miqdorda qabul qilinishi immunitet tizimini mustahkamlaydi. Ayniqsa, talabalarning ertalabki nonushtasi muntazam bo'lishi, kun davomida energiya almashinuvi muvozanatini saqlash uchun zarurdir. Shuningdek, to'g'ri ovqatlanish gipodinamiya, semirish yoki ortiqcha ozish kabi buzilishlarning oldini oladi. Shunday qilib, sog'lom ovqatlanish talabaning o'qishdagi muvaffaqiyatiga ham, sog'lig'iga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Energiya balansi bu organizmga oziq-ovqat orqali kiruvchi energiya miqdori bilan organizm tomonidan sarflanadigan energiya o'rtasidagi muvozanatdir. Agar energiya kirimi va sarfi teng bo'lsa, organizmda sog'lom modda almashinuvi ta'minlanadi. Energiya tanqisligi holatida inson ozadi, ortiqcha energiya kirimida esa yog' to'planishi kuzatiladi. Talabalarda energiya sarfi o'qish, yurish, aqliy faoliyat va jismoniy mashqlar orqali amalga oshadi. Bu jarayonlar davomida asosiy energiya manbai sifatida uglevodlar va yog'lar ishlatiladi, oqsillar esa asosan to'qima yangilanishi uchun xizmat qiladi. Energiya balansi buzilganda moddalar almashinuvi, gormonlar ishlab chiqarilishi va immun javoblar ham o'zgaradi. Shu bois, har bir talaba kunlik energiya ehtiyojini bilishi va unga mos ravishda ovqatlanish rejimini tuzishi kerak. Talabaning energiya ehtiyoji bir qator omillarga

bog'liq: yoshi, jinsi, tana vazni, jismoniy faolligi va hayot tarzi. O'rtacha talaba uchun kunlik energiya sarfi 2200–3000 kkal atrofida bo'ladi. Aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchi shaxslar uchun bu miqdor biroz pastroq bo'lishi mumkin, ammo muntazam harakatda bo'lganlar uchun energiya sarfi ortadi. Energiya ehtiyojini hisoblashda bazal metabolizm darajasi (BMR) asosiy o'rinni egallaydi bu dam holatidagi organizm tomonidan sarflanadigan minimal energiya miqdoridir. Shuningdek, energiya sarfi koeffitsientlari yordamida kunlik faoliyat darajasi inobatga olinadi. To'g'ri hisoblangan energiya balansini nafaqat ovqatlanishni optimallashtiradi, balki o'qishdagi ish qobiliyatini ham yuqori darajada ushlab turadi.

Energiya manbalari sifatida uch asosiy oziq modda oqsillar, yog'lar va uglevodlar muhim ahamiyatga ega. Uglevodlar tez energiya manbai sifatida xizmat qiladi, ular miqdori umumiy kaloriya iste'molining 50–60 foizini tashkil etishi kerak. Yog'lar energiya zaxirasini yaratadi, ular 25–30 foizgacha bo'lishi maqsadga muvofiq. Oqsillar esa hujayralarning tuzilishida, fermentlar va gormonlarning hosil bo'lishida ishtirok etadi, ular energiyaning 10–15 foizini beradi. Vitamin va minerallar esa metabolik jarayonlarni faollashtirib, energiyaning to'liq o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Shunday qilib, har bir talabaning ratsioni biologik jihatdan to'liq bo'lishi, ya'ni barcha oziq moddalarning o'zaro muvozanatida tuzilishi zarur.

Talabalarning ovqatlanish tartibi me'yoriy fiziologik talablar asosida tashkil etilishi lozim. Kuniga 3–4 mahal to'liq ovqatlanish tavsiya etiladi: ertalabki nonushta, tushlik, kechki ovqat va zarur bo'lsa yengil tamaddi. Eng muhim ovqat bu nonushta, chunki u kun davomida diqqatni va aqliy faollikni ta'minlaydi. Ovqatlar orasidagi tanaffuslar 4–5 soatdan oshmasligi kerak, bu glyukoza darajasining barqaror bo'lishiga yordam beradi. Kechki ovqat yotishdan kamida 2–3 soat oldin bo'lishi kerak. Rejimning buzilishi masalan, ovqatni o'tkazib yuborish yoki kech ovqatlanish moddalar almashinuvini sekinlashtiradi va ortiqcha vazn to'planishiga olib keladi.

Energiya balansini saqlashda tabiiy, to'yimli va oson hazm bo'ladigan mahsulotlar muhim ahamiyatga ega. Masalan, suli bo'tqasi, mevalar, sabzavotlar, yog'siz go'sht, baliq, sut mahsulotlari va don mahsulotlari talabalarning ratsionida doimiy bo'lishi lozim. Shakar, gazli ichimliklar va yog'li tez tayyor ovqatlar esa energiya muvozanatini buzadi. Tabiiy vitamin manbalari C, E, B guruh vitaminlari, kalsiy va magniy moddalarini o'z ichiga olgan mahsulotlar immun tizimini mustahkamlaydi. To'g'ri tanlangan mahsulotlar nafaqat energiyaning ta'minlaydi, balki talabaning aqliy faolligi va jismoniy bardoshini oshiradi. Energiya balansini buzilganda organizmning fiziologik holati sezilarli darajada o'zgaradi. Energiya tanqisligi holatida ozish, mushak massasining kamayishi, holsizlik, charchoqlik va diqqatning pasayishi kuzatiladi. Aksincha, ortiqcha energiya kirimi semirish, yurak-qon tomir kasalliklari, insulin qarshiligi va metabolik sindromga olib keladi. Talabalarda bu holatlar asosan noto'g'ri ovqatlanish, tartibsiz hayot tarzi va jismoniy faollikning yetishmasligi bilan bog'liq bo'ladi. Shu sababli, energiya balansining buzilishini erta aniqlash va tuzatish sog'lom turmush tarzining ajralmas qismidir.

Energiya balansini saqlash faqat ovqatlanish bilan emas, balki jismoniy faollik bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Harakat organizmda modda almashinuvini faollashtiradi, ortiqcha energiya sarflanishiga yordam beradi va mushak tonusini oshiradi. Talabalar uchun muntazam sport mashg‘ulotlari yugurish, suzish, velosiped haydash yoki ertalabki gimnastika energiya balansini saqlashda eng samarali vositadir. Bundan tashqari, yetarli uyqu, stressni boshqarish va me‘yorida dam olish ham muhim ahamiyatga ega. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish orqali talaba nafaqat o‘z energiya balansini saqlaydi, balki umumiy hayot sifatini yaxshilaydi.

Xulosa

Talabalarning energiya balansini saqlashga qaratilgan ovqatlanish rejimi ularning sog‘lig‘i, o‘qishdagi samaradorligi va hayot sifati uchun muhim omil hisoblanadi. To‘g‘ri tashkil etilgan ovqatlanish tartibi organizmning fiziologik ehtiyojlarini to‘liq qondiradi, aqliy va jismoniy faoliyatni qo‘llab-quvvatlaydi. Energiya balansini saqlanganda modda almashinuvini me‘yorda kechadi, immun tizimi faoliyati yaxshilanadi va charchoq holatlari kamayadi. Aksincha, balansning buzilishi semirish, modda almashinuvini buzilishi, yurak-qon tomir kasalliklari yoki energiya tanqisligiga olib keladi. Shuning uchun talabalarning kundalik ovqatlanish rejimini ilmiy asosda shakllantirish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va jismoniy faollikni oshirish orqali ularning salomatligini mustahkamlash zarur. Bu jarayon nafaqat shaxsiy sog‘liqni, balki jamiyatning kelajak salohiyatini ham ta‘minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. “Sog‘lom ovqatlanish va yoshlar salomatligi” metodik qo‘llanma. – Toshkent, 2022.
2. Karimov A., Yuldasheva D. Inson fiziologiyasi va gigiyenasi. – Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2021.
3. Xaydarov S. Sog‘lom turmush tarzi asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
4. Food and Agriculture Organization (FAO). Human Energy Requirements: Report of a Joint Expert Consultation. – Rome, 2022.
5. Harvard School of Public Health. Nutrition Source: The science of healthy eating. – Boston, 2023.
6. Centers for Disease Control and Prevention (CDC). Nutrition, Physical Activity, and Obesity Data. – Atlanta, 2022.
7. European Food Safety Authority (EFSA). Dietary Reference Values for Nutrients. – Luxembourg, 2021.

ONKOLOGIK KASALLIKLARNI OLDINI OLIHDA RATSIONAL OVQATLANISHNING AHAMIYATI

*Olimboyeva Jasmina Furqat qizi- Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Stomatoloiya fakulteti 1-bosqich talabasi*

Umumiy gigiyena va ekologiya kafedrası
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti, Samarqand, O`zbekiston
Ilmiy rahbar: Raximova Durdona Jurakulovna – PhD

Dolzarbliqi. Onkologik kasalliklar global miqyosda sog‘liqni saqlash tizimi uchun jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy muammo hisoblanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, saraton kasalliklari yurak-qon tomir kasalliklaridan keyin o‘lim sabablari orasida ikkinchi o‘rinda turadi. So‘nggi o‘n yilliklarda saraton kasalliklari sonining ortib borishi profilaktika masalalariga, ayniqsa sog‘lom turmush tarzi va ovqatlanish madaniyatini shakllantirishga bo‘lgan e‘tiborni kuchaytirmoqda. Kanserogenez murakkab va ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, genetik mutatsiyalar, epigenetik o‘zgarishlar va tashqi muhit omillari bilan chambarchas bog‘liq. Ovqatlanish omillari ushbu jarayonda muhim modulyator vazifasini bajaradi. Shu sababli onkologik kasalliklarning oldini olishda ovqatlanishning ahamiyatini ilmiy asosda o‘rganish dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi. Onkologik kasalliklarning rivojlanishida ovqatlanish omillarining rolini ilmiy manbalar asosida tahlil qilish hamda ratsional ovqatlanishning birlamchi profilaktikadagi ahamiyatini asoslab berish.

Tadqiqot materiali va usullari. Mazkur ishda oxirgi 10–15 yil davomida chop etilgan xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlar, epidemiologik tadqiqotlar natijalari, meta-tahlillar va klinik kuzatuvlar tahlil qilindi. Ma’lumotlar qiyosiy-tahliliy, tavsifiy va umumlashtiruvchi usullar yordamida o‘rganildi.

Natijalar va muhokama. Ovqatlanish va kanserogenez o‘rtasidagi bog‘liqlik ilmiy tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, noto‘g‘ri ovqatlanish saraton kasalliklarining 30–40 % holatlarida xavf omili sifatida ishtirok etadi. Onkologik kasalliklar ko‘p omilli etiologiyaga ega bo‘lib, ularning rivojlanishida genetik moyillik bilan bir qatorda tashqi muhit va turmush tarzi omillari muhim rol o‘ynaydi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, saraton kasalliklarining 30–40 % holatlari noto‘g‘ri ovqatlanish, semizlik va jismoniy faollikning yetishmasligi bilan bog‘liq. Dunyo bo‘yicha saraton bilan bog‘liq o‘lim hollarining katta qismi profilaktika choralari yetarlicha olib borilmagan holatlarda sodir bo‘lganligi aniqlangan. Shu sababli ovqatlanishni optimallashtirish onkologik kasalliklarning oldini olishda samarali va iqtisodiy jihatdan maqbul choradir. Kanserogenez — bu normal hujayralarning genetik va epigenetik o‘zgarishlar natijasida o‘sma hujayralarga aylanish jarayonidir. Onkologik kasalliklarning paydo bo‘lishida ovqat tarkibidagi mikro va makroelementlar, fitokimyoviy moddalarning mavjudligi yoki yo‘qligi juda muhim omil hisoblanadi. Ovqat tarkibidagi ayrim moddalarning kanserogen yoki antikanserogen ta’siri ushbu jarayonga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Hayvon yog‘lariga boy, yuqori kaloriyali ratsion, qayta ishlangan go’sht mahsulotlari (kolbasa, sosiskalar, dudlangan mahsulotlar), yuqori haroratda qovurilgan va kuygan ovqatlar (politsiklik aromatik uglevodorodlar manbai), ortiqcha tuz va konservantlar, alkogol mahsulotlarini muntazam iste’mol qilish onkologik kasalliklar xavfini oshirishi aniqlangan. Bu omillar oksidativ stressni kuchaytiradi, DNK shikastlanishiga va hujayra proliferatsiyasining

nazoratsizlashuviga olib keladi. Jumladan qayta ishlangan go'sht mahsulotlari kolbasa, sosiskalar kabi yuqori darajada qayta ishlangan go'sht mahsulotlari nitritlar va nitrozaminlar bilan boy bo'lib, ular ichak saratoni xavfini oshiradi, ko'p to'ygan yog'lar va trans-yog'lar esa semizlikni kuchaytiradi, bu esa o'z navbatida hujayralarda yallig'lanish jarayonlarini va o'sma hujayralarining o'sishiga yordam beruvchi signal yo'llarini faollashtiradi, shuningdek, alkogol va shirin gazli ichimliklarni uzoq muddatli iste'moli oshqozon-ichak yo'lidagi hujayralarga toksik ta'sir ko'rsatadi va saraton xavfini oshiradi. Ratsional ovqatlanish tarkibiga kiruvchi biologik faol moddalar - antikanserogenlar saraton rivojlanishiga qarshi himoya mexanizmlarini faollashtiradi. Antioksidantlar - vitamin C, vitamin E, beta-karotin, fitokimyoviy modda hisoblangan polifenollar, glukosinolatlar erkin radikallarni neytrallab, hujayra DNKsini oksidativ shikastlanishdan himoya qiladi va apoptoz jarayonini rag'batlantiradi. Bularga sabzavotlar - brokkoli, karam, sabzi, mevalar - anor, sitrus mevalar, rezavorlar, yashil choy kiradi. O'simlik tolalariga boy ovqatlar ichak peristaltikasini yaxshilaydi, kanserogen moddalarning ichak devori bilan kontakt vaqtini qisqartiradi. Bu ayniqsa yo'g'on ichak saratonining oldini olishda muhim hisoblanadi. Baliq va dengiz mahsulotlarida uchraydigan omega-3 yog' kislotalari yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega bo'lib, hujayra membranalari barqarorligini oshiradi. Ovqat tarkibidagi turli moddalarning onkologik kasalliklar bilan kurashishi yoki ularni qo'zg'atish mexanizmlari asosiy biokimyoviy yo'llar orqali amalga oshadi bu erkin radikallar — hujayralarda DNK va hujayra devorlarini shikastlaydigan reaktiv birikmalar. Uzoq davom etuvchi yallig'lanish holatlari NF-kB, STAT3 kabi signal yo'llarini faollashtiradi, bu esa hujayralarning normadan tez proliferatsiyasiga olib keladi. Ovqatlanish orqali o'sma kasalliklarini birlamchi profilaktika qilish mumkin va bu quyidagi tamoyillariga amal qilishni o'z ichiga oladi - energiya muvozanatini saqlash va ortiqcha vazndan qochish, muntazam jismoniy faollik va me'yoriy kaloriyalar hisob-kitobi orqali energetik balansni ushlab, kunlik ratsionda sabzavot va mevalar ulushini kamida 400–500 g 5 porsiyaga yetkazish, hayvon yog'lari o'rniga o'simlik moylari va omega-3 manbalarini tanlash, qizil va qayta ishlangan go'sht iste'molini cheklash, tuz va shakar miqdorini me'yorlashtirish.

Xulosa. Ilmiy dalillar shuni ko'rsatadiki, ratsional va muvozanatli ovqatlanish onkologik kasalliklarning rivojlanish xavfini sezilarli darajada kamaytiradi. So'nggi yillarda olib borilgan ko'plab epidemiologik tadqiqotlar ratsional ovqatlanish va saraton xavfi o'rtasidagi salbiy bog'liqlikni tasdiqladi. Masalan, sabzavot va mevalarga boy ratsionda iste'mol qilinadigan polifenol miqdori baland bo'lgan shaxslar saraton kasalliklarini kamroq rivojlantiradi. Ovqatlanish orqali kanserogeneznining asosiy bo'g'inlariga ta'sir ko'rsatish mumkin bo'lib, bu birlamchi profilaktikaning eng muhim va qulay usullaridan biridir. Aholi o'rtasida sog'lom ovqatlanish madaniyatini shakllantirish onkologik kasalliklar bilan kurashishda ustuvor yo'nalish bo'lib qoladi.

SOG'LIKNI SAQLASH TIZIMINI SAMARALI TASHKIL ETISH: ZAMONAVIY MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

*G'ayratova Hulkar Orifjonovna – Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti,
Pediatriya fakulteti talabasi*

*Mallayeva Mavjuda Maxramovna - Ilmiy rahbar. Samarqand Davlat Tibbiyot
Univarsiteti, Umumiy gigiena va ekologiya kafedrasi assistenti (PhD)*

Dolzarbligi. Bugungi kunda sog'liqni saqlash tizimini samarali tashkil etish masalasi global va milliy miqyosda eng muhim ijtimoiy vazifalardan biri hisoblanadi. World Health Organization ma'lumotlariga ko'ra, aholining salomatlik darajasi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari bilan chambarchas bog'liqdir. Aholi sonining ortishi, surunkali kasalliklar ulushining ko'payishi, pandemiyalar, tibbiy xizmatlar narxining oshishi va raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi sog'liqni saqlashni boshqarish tizimiga yangi talablar qo'ymoqda. Shuningdek, birlamchi tibbiy yordam sifatini oshirish, tibbiy xizmatlardan teng foydalanish imkoniyatini yaratish, malakali kadrlar yetishmovchiligi, moliyalashtirish mexanizmlarining nomukammalligi kabi muammolar dolzarbligini saqlab qolmoqda. Zamonaviy sharoitda sog'liqni saqlashni tashkil etishda boshqaruv samaradorligi, resurslardan oqilona foydalanish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot maqsadi. Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning dolzarb muammolarini aniqlash, ularning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda tizim samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Materiallar va tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida quyidagi material va usullardan foydalanildi:

Mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar tahlili

Sog'liqni saqlash tizimiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'rganish

Statistik ma'lumotlarni tahlil qilish

Taqqoslama (komparativ) tahlil usuli

So'rovnoma va monitoring natijalarini umumlashtirish

Tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli yondashuv, analitik va statistik tahlil usullari qo'llanildi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Tahlillar natijasida sog'liqni saqlashni tashkil etishda quyidagi asosiy muammolar aniqlandi:

Moliyalashtirish tizimining yetarli emasligi – budjet mablag'larining cheklanganligi tibbiy muassasalarni zamonaviy jihozlash va infratuzilmani rivojlantirishni qiyinlashtiradi.

Kadrlar masalasi – malakali tibbiyot xodimlarining yetishmovchiligi va ularning hududlar bo‘yicha notekis taqsimlanishi.

Birlamchi bo‘g‘in muammolari – profilaktik xizmatlarning sustligi va kasalliklarni erta aniqlash tizimining yetarli darajada ishlamasligi.

Raqamlashtirish jarayonlarining to‘liq integratsiyalashmaganligi – elektron sog‘liqni saqlash tizimlarining yagona platformaga birlashtirilmaganligi.

Aholining tibbiy madaniyati darajasi pastligi – sog‘lom turmush tarziga rioya qilmaslik natijasida kasalliklar ko‘rsatkichining ortishi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilishda kompleks yondashuv talab etiladi. Xususan, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, tibbiy sug‘urta tizimini takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish muhim hisoblanadi.

Xulosa. Sog‘liqni saqlashni tashkil etishning dolzarb muammolari tizimli xarakterga ega bo‘lib, ularni hal etish ko‘p bosqichli va kompleks yondashuvni talab qiladi. Tizimni samarali boshqarish, moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash, birlamchi tibbiy yordamni kuchaytirish va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish sog‘liqni saqlash xizmatlari sifatini oshirishga xizmat qiladi. Natijada, aholining sog‘liq darajasi yaxshilanadi, umr ko‘rish davomiyligi ortadi va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi mustahkamlanadi.

Adabiyotlar

1. World Health Organization. *World Health Statistics 2023: Monitoring Health for the SDGs*. Geneva: WHO; 2023.
2. World Health Organization. *Primary Health Care on the Road to Universal Health Coverage: 2019 Monitoring Report*. Geneva: WHO; 2019.
3. World Bank. *World Development Report 2023: Investing in Health*. Washington, DC: World Bank; 2023.
4. Organisation for Economic Co-operation and Development. *Health at a Glance 2023: OECD Indicators*. Paris: OECD Publishing; 2023.
5. United Nations. *Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development*. New York: UN; 2015.
6. Saltman R.B., Rico A., Boerma W. *Primary Care in the Driver’s Seat? Organizational Reform in European Primary Care*. Open University Press; 2006.
7. Frenk J., Moon S. Governance challenges in global health. *New England Journal of Medicine*. 2013;368(10):936–942.
8. Kruk M.E., Gage A.D., Arsenault C. et al. High-quality health systems in the Sustainable Development Goals era. *The Lancet Global Health*. 2018;6(11):e1196–e1252.
9. Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги. *Соғлиқни сақлаш тизимини ислоҳ қилиш концепцияси*. Тошкент; 2020.

10. Ҳасанов Р.Х., Абдуллаева М.Т. Соғлиқни сақлаш тизимида бошқарув самарадорлигини ошириш масалалари. *Тиббиёт ва замон*. 2022; №4: 15–21.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAJBURIY TIBBIY SUG‘URTAGA O‘TISH JARAYONI

Abatbaeva Gulkumar Xojabay qizi

Gigiena atrof muhit va epidemiologiya kafedrası

Qoraqalpog‘iston tibbiyot instituti, Qoraqalpog‘iston, O‘zbekiston.

Ilmiy rahbar: Professor. Tibbiyot fanlari doktori A. Madreimov

Annotatsiya .O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilishda tibbiy sug‘urta tizimini bosqichma-bosqich joriy etish muhim yo‘nalish hisoblanadi. Ushbu tezisda ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, rasmiy hisobotlar va statistik ma‘lumotlar asosida tibbiy sug‘urtaga o‘tish jarayoni tahlil qilinadi. Jahondagi tibbiy sug‘urta modellari (AQSH, Germaniya, Rossiya, Qozog‘iston) O‘zbekistonga mosligi baholanadi. Tizimni joriy etishdagi mavjud muammolar aniqlanadi va kelajakdagi rivojlanish yo‘nalishlari taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: sog‘liqni saqlash islohoti, tibbiy sug‘urta, sug‘urta modellari, universal health coverage.

Mavzuning dolzarbligi .Universal health coverage (UHC) – barcha fuqarolarning sifatli sog‘liqni saqlash xizmatlaridan moliyaviy qiyinchiliksiz foydalanish huquqini ta‘minlashni anglatadi. Bu xizmatlar sog‘lom hayot tarzini targ‘ib qilish, kasalliklarning oldini olish, davolash, rehabilitatsiya va palliativ yordamni o‘z ichiga oladi [8].

Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma‘lumotlariga ko‘ra, 2023 yilda dunyoda 4,6 milliard odam to‘liq UHC qamroviga ega emas, 2022 yilda esa 2,1 milliard kishi sog‘liq xarajatlari tufayli moliyaviy qiyinchilikka tushgan, shundan 1,6 milliard qashshoqlikka yuz tutgan yoki chuqurroq qashshoqlashgan. Bu muammo ayniqsa qishloq aholisi va ko‘p avlodli oilalarda kuchliroq namoyon bo‘lmoqda [7].

O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash sohasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da adolatli ijtimoiy siyosat va inson kapitalini rivojlantirish doirasida tibbiyotni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, majburiy tibbiy sug‘urtani bosqichma-bosqich joriy etish vazifalari belgilangan [4, 5]. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 48-moddasida fuqarolarning davlat hisobidan kafolatlangan tibbiy yordam olish huquqi mustahkamlangan [3].

2024 yil 5 sentyabrda Prezidentning PQ-311-son qarori qabul qilinib, davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlari Toshkent shahri va Sirdaryo viloyatida 2024 yil 1 oktyabrdan, Qoraqalpog'istonda 2025 yil 1 yanvardan boshlab joriy etilmoqda. Boshqa hududlarda esa 2026 yil yakuniga qadar to'liq joriy etish rejalashtirilgan. Bunda aholidan qo'shimcha to'lov undirilmaydi, xizmatlar Davlat budjeti va Jamg'arma mablag'lari hisobidan ta'minlanadi [6]. O'zbekiston Beveridj modeliga (davlat tomonidan moliyalashtiriladigan tizim) asoslangan bo'lib, Buyuk Britaniya, Rossiya, Qozog'iston kabi davlatlar bilan o'xshashliklarga ega. Bu model universal qamrovni ta'minlaydi, ammo xizmat sifati pasayishi, tanlov cheklanishi va moddiy rag'batlantirishning pastligi kabi kamchiliklarga ega [1, 2].

Ushbu islohotlar O'zbekistonning UHC ga erishish yo'lidagi dolzarbligini yanada oshirib, aholining moliyaviy himoyasini mustahkamlash va sog'liq xizmatlarini sifatli qilishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot maqsadi. O'zbekistonda davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy etish jarayonini tahlil qilish, uning Beveridj modeliga muvofiqligini baholash hamda universal health coverage (UHC) ga erishishdagi samaradorligini aniqlash.

Materiallar va tadqiqot usullari. Tadqiqotda quyidagi manbalar asos qilib olindi: Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) va Jahon banki hisobotlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari (jumladan, PQ-311-son, 05.09.2024), "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" (2022–2026), Konstitutsiya va ilmiy adabiyotlar.

Usullar: taqqoslash, tahlil, statistik ma'lumotlarni umumlashtirish va xalqaro tajribani solishtirish (Bismark, Beveridj, Semashko modellari).

Natijalar va ularning muhokamasi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda joriy etilayotgan davlat tibbiy sug'urtasi Beveridj modeliga to'liq mos keladi: moliyalashtirish asosan davlat budjeti soliqlaridan amalga oshiriladi, aholi uchun bepul kafolatlangan paket taqdim etiladi. Bu model universal qamrovni ta'minlashda samarali, ammo xizmatlar tanlovi cheklangan va sifat nazorati talab etiladi [1].

2024–2025 yillarda Toshkent, Sirdaryo va Qoraqalpog'istonda boshlangan tajriba loyihalari ijobiy natijalar bermoqda, ammo ba'zi jihatlar (masalan, bepul statsionar yordamning to'liq joriy etilishi) kechiktirilgan. 2026 yil yakuniga qadar butun mamlakatni qamrab olish rejalashtirilgan. Jahon tajribasida Beveridj modeli (Buyuk Britaniya, Rossiya, Qozog'iston) aholining keng qatlamlarini qamrab olishda muvaffaqiyatli, lekin resurslar yetishmasligi va byurokratiya muammolarini keltirib chiqarishi mumkin [2].

O'zbekiston uchun asosiy muammo – birlamchi sog'liq xizmatlarini kengaytirish va aholi cho'ntagidan chiqadigan xarajatlarni kamaytirish bo'lib qolmoqda. Islohotlar UHC ko'rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qiladi, ammo to'liq muvaffaqiyat uchun ko'p sohalı yondashuv (ta'lim, iqtisodiyot bilan integratsiya) zarur.

Xulosa. O'zbekistonda davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish UHC ga erishishdagi muhim qadamdir. Beveridj modeliga asoslangan tizim universal qamrovni ta'minlaydi va aholining moliyaviy himoyasini

kuchaytiradi. Biroq, sifatni oshirish, resurslarni samarali boshqarish va xalqaro tajribani hisobga olish orqali kamchiliklarni bartaraf etish lozim. Tadqiqot natijalari sogʻliqni saqlash islohotlarini yanada takomillashtirish uchun takliflar berish imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Глушанко В. С. va boshq. Мировые системы здравоохранения... // Вестник фармации. — 2019. — № 4 (86). — С. 96–109.
2. Кочарян А. С. Основные модели финансирования здравоохранения... // Вестник экономики и права. — 2024. — № 1. — С. 117–127. DOI: 10.24412/cl-37234-2024-1-117-127.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023 yilgi tahrir). <https://lex.uz/docs/-6445145>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5590-son Farmoni, 07.12.2018. <https://lex.uz/docs/-4096197>
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni, 28.01.2022. <https://lex.uz/docs/-5841063>
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-311-son Qarori, 05.09.2024. <https://lex.uz/docs/-7098084>
7. Universal health coverage (UHC) // WHO. Fact sheet. Yangilangan: 2025 yil 5 dekabr. [https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/universal-health-coverage-\(uhc\)](https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/universal-health-coverage-(uhc))
8. Universal health coverage (UHC) // WHO. Health topic. https://www.who.int/health-topics/universal-health-coverage#tab=tab_1

KADMIY (II) NI 5-METIL-(PIRIDIL-2-AZO)-2-GIDROKSI-4-METOKSI BENZOL YORDAMIDA ANIQLASH USULINI ISHLAB CHIQUISH VA TABIIY OBYEKTLARGA QO‘LLASH.

Navruzov F. M. 1, Asqarov M.M. 2.

Izoh: Ushbu ish kadmiy(II) ionini yuqori sezgirlik va tanlab ta’sirchanlik bilan aniqlash uchun yangi, optik usulni ishlab chiqadi.

5-MPAGMB reagenti bilan hosil bo‘lgan kompleksning optimal sharoitlari va spektral xususiyatlari aniqlandi, metodning qayta tiklanuvchanligi va to‘g‘riligi tasdiqlandi. Ishlab chiqilgan metodni sun’iy aralashmalar, sanoat qotishmalar va tabiiy suv namunalarda qo‘llash imkoniyatini beradi, bu esa ekologik va farmasevtik monitoringda dolzarb ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Kadmiy(II), 5- MPAGMB reagenti, optik aniqlash, kompleks birikma, spektral tahlil, tanlab ta’sirchanlik, yuqori sezgirlik, ekologik monitoring.

Maqsad: Ushbu ishning maqsadi – 5- MPAGMB reagenti yordamida kadmiy(II) ionlarini yuqori sezgirlik va tanlab ta’sirchanlik bilan aniqlash usulini ishlab chiqish va uning optimal sharoitlarini aniqlashdir.

Natija: Tadqiqot natijasida 5-MPAGMB reagenti kadmiy(II) bilan barqaror, rangli kompleks hosil qilishi va uning spektral xususiyatlari aniqlandi.

Ishlab chiqilgan optik aniqlash usuli sun'iy aralashmalar, sanoat qotishmalar va tabiiy suv namunalarida kadmiy(II) miqdorini aniqlashda yuqori aniqlik va qayta tiklanuvchanlikni ta'minlaydi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, 5-MPAGMB reagenti yordamida kadmiy(II) ionlarini aniqlashning sezgir, sodda va iqtisodiy jihatdan qulay spektrofotometrik usuli ishlab chiqildi. Aniqlashning optimal sharoitlari ($\text{pH}=7,80$, $\lambda=595$ nm, Cd:R=1:2) belgilandi hamda metodning to'g'riligi, qayta tiklanuvchanligi va tanlab ta'sirchanligi tajriba yo'li bilan tasdiqlandi. Ishlab chiqilgan usul atrof-muhit, sanoat mahsulotlari va boshqa real ob'ektlarda kadmiy(II) ni nazorat qilishda samarali qo'llanishi mumkin.

1. Ilmiy raxbar: Navruzov Farxod Mamatkulovich EMU UNIVERSITY Kimyo fanlar kafedrası mudiri, Falsafa fanlar nomzodi PhD.

2. Talaba: Asqarov Miraziz Muhammadjon o'g'li EMU UNIVERSITY Farmaseftika fakulteti, Toshkent sh. 3 - kurs, 301 A - guruh.

e-mail: askarovmiraziz777@gmail.com,

Tel: +998 33 417 10 06, +998 50 881 10 60

Adabiyotlar:

1. Abdullaev N., Xodjaev A. Analitik kimyo. - Toshkent: O'zbekiston, 2005.
2. Raximov K.R. Fizik-kimyoviy tahlil usullari. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
3. Tursunov X.T. Instrumental tahlil usullari. - Toshkent: Tafakkur, 2012.
4. Mirzaev U.M. Atrof-muhit ob'ektlarini kimyoviy tahlil qilish. - Toshkent: Universitet, 2015.
5. O'zbekiston Respublikasi SanPiN me'yorlari. Ichimlik suvida og'ir metallarning ruxsat etilgan miqdorlari. - Toshkent, 2024.

ARTERIAL GIPERTENZIYA BILAN KASALLANGAN BEMORLARNI BIRLAMCHI BO'G'INDA DISPANSER NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti 2-bosqich talabasi

Ahmadjonov Asadbek Mansur o'g'li

Dolzarbliqi. Arterial gipertenziya (AG) bugungi kunda dunyo bo'yicha eng keng tarqalgan surunkali kasalliklardan biri bo'lib, yurak-qon tomir tizimi asoratlarining asosiy xavf omili hisoblanadi. World Health Organization ma'lumotlariga ko'ra, gipertenziya insult, miokard infarkti, yurak va buyrak yetishmovchiligi rivojlanishida yetakchi sababdir. Kasallikning uzoq vaqt simptomsiz kechishi, bemorlarning davolanishga sust munosabati va nazoratning yetarli emasligi uni sog'liqni saqlash tizimi uchun dolzarb muammoga aylantiradi.

Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari (oilaviy poliklinika, QVP) AGni erta aniqlash, ro'yxatga olish va doimiy nazorat qilishda muhim bo'g'in hisoblanadi. Ammo amaliyotda dispanser nazorat tizimida qator kamchiliklar

uchraydi: bemorlarni to‘liq qamrab olmaslik, monitoringning yetarli emasligi, profilaktik ishlarning sustligi.

Tadqiqot maqsadi. Arterial gipertenziya bilan kasallangan bemorlarni birlamchi bo‘g‘inda dispanser nazorat qilish samaradorligini oshirish va tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

Material va usullar. Birlamchi tibbiyot muassasasida dispanser ro‘yxatida turgan AG bemorlarning ambulator kartalari retrospektiv tahlil qilindi. Qon bosimi ko‘rsatkichlari dinamikasi, laborator va instrumental tekshiruvlar o‘tkazilish davriyligi, dori vositalarini qabul qilish intizomi hamda shifokor va hamshira patronaj tashriflari o‘rganildi.

Natijalar.

Tahlillar quyidagi muammolarni ko‘rsatdi:

- Bemorlarning ma‘lum qismida arterial bosim maqsadli darajada nazorat qilinmayapti.
- Dori vositalarini muntazam qabul qilmaslik (adherensiya pastligi) kuzatiladi.
- Profilaktik laborator tekshiruvlar (lipid spektri, qand miqdori, EKG) o‘z vaqtida o‘tkazilmaydi.
- Sog‘lom turmush tarziga oid tavsiyalar yetarlicha bajarilmaydi.

Shuningdek, xavf omillari – semizlik, chekish, gipodinamiya, stress – bemorlarning katta qismida saqlanib qolmoqda.

Takomillashtirish yo‘nalishlari:

1. **Raqamlashtirish** – elektron tibbiy karta va avtomatlashtirilgan monitoring tizimini joriy etish.
2. **Risk stratifikatsiyasi** – bemorlarni xavf darajasiga ko‘ra guruhlarga ajratish va individual kuzatuv rejasi tuzish.
3. **Hamshiralik patronaji** – uy sharoitida qon bosimini nazorat qilish va dori qabulini kuzatish.
4. **Tibbiy savodxonlikni oshirish** – bemorlar uchun maktablar tashkil etish (Gipertenziya maktabi).
5. **Multidissiplinar yondashuv** – terapevt, kardiolog, endokrinolog hamkorligini kuchaytirish.

Muhokama. Dispanser nazoratni samarali tashkil etish kasallikning og‘ir asoratlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Birlamchi bo‘g‘inda profilaktik yo‘nalishning ustuvorligi sog‘liqni saqlash tizimining iqtisodiy samaradorligini ham oshiradi, chunki asoratlarni davolash xarajatlari yuqori hisoblanadi.

Xulosa. Arterial gipertenziya bilan kasallangan bemorlarni birlamchi bo‘g‘inda to‘liq va tizimli dispanser nazoratga olish, monitoringni kuchaytirish, bemorlarning davolanishga sodiqligini oshirish hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali yurak-qon tomir kasalliklari asoratlarini sezilarli kamaytirish mumkin.

OZIQ-OVQAT ORQALI YUQADIGAN INFEKSIYALAR PROFILAKTIKASI

Qayumov Jasurbek

Ilmiy rahbar: U.Maxamatov

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot inisituti talabasi

Annotatsiya Oziq-ovqat orqali yuqadigan infeksiyalar (foodborne infections) global sog'liqni saqlash muammolaridan biri bo'lib, ularning etiologiyasida bakteriyalar, viruslar va parazitlar muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada oziq-ovqat infeksiyalarining asosiy bakterial qo'zg'atuvchilari, ularning patogenlik omillari, oziq-ovqat mahsulotlarida ko'payish xususiyatlari hamda laborator diagnostika usullari keng tahlil qilindi. Tadqiqotda bakteriologik, mikroskopik, biokimyoviy, serologik va molekulyar usullar qo'llanilishining samaradorligi o'rganildi. Natijalar oziq-ovqat infeksiyalarining asosiy manbalari gigiyena qoidalariga rioya qilmaslik, mahsulotlarni noto'g'ri saqlash va yetarlicha termik ishlov bermaslik bilan bog'liqligini ko'rsatdi. Zamonaviy diagnostika usullari, ayniqsa molekulyar metodlar, patogenlarni tez va aniq aniqlash imkonini beradi. Profilaktika choralariga sanitariya nazorati, oziq-ovqat xavfsizligi tizimlarini joriy etish va aholining gigiyenik savodxonligini oshirish kiradi.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat infeksiyalari, mikrobiologiya, patogen bakteriyalar, oziq-ovqat xavfsizligi, laborator diagnostika, sanitariya nazorati, PCR diagnostika, toksinlar, biofilm.

Kirish Oziq-ovqat orqali yuqadigan infeksiyalar inson salomatligiga bevosita tahdid soluvchi kasalliklar guruhiga kiradi. Jahon miqyosida har yili millionlab odamlar oziq-ovqat mahsulotlari orqali yuquvchi mikroorganizmlar bilan zararlanadi. Bu esa sog'liqni saqlash tizimi, iqtisodiyot va ijtimoiy hayotga katta zarar yetkazadi. Urbanizatsiya, oziq-ovqat mahsulotlarining xalqaro savdosi, tez tayyorlanadigan mahsulotlar iste'molining ortishi va sanitariya talablarining buzilishi infeksiyalar tarqalishini kuchaytiruvchi omillardir.

Mikrobiologik jihatdan oziq-ovqat infeksiyalari patogen mikroorganizmlarning organizmga tushishi, ko'payishi va toksin ishlab chiqarishi natijasida yuzaga keladi. Ushbu jarayonlarni chuqur o'rganish kasallikni erta aniqlash va samarali profilaktika choralarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar sharhi

So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar oziq-ovqat infeksiyalarining asosiy etiologik omili sifatida bakteriyalarni ko'rsatadi. Eng ko'p uchraydigan qo'zg'atuvchilar qatoriga quyidagilar kiradi:

- *Salmonella enterica*
- *Escherichia coli*
- *Staphylococcus aureus*
- *Listeria monocytogenes*
- *Clostridium botulinum*

Ilmiy manbalarga ko'ra, ushbu mikroorganizmlar oziq-ovqat mahsulotlarida uzoq vaqt saqlanib qolish, biofilm hosil qilish va atrof-muhit omillariga moslashish xususiyatiga ega. Ayniqsa, *Listeria monocytogenes* past haroratda ham ko'payish qobiliyati bilan ajralib turadi, bu esa sovutkichda saqlanadigan mahsulotlar uchun xavf tug'diradi.

Material va metodlar

Tadqiqot jarayonida quyidagi mikrobiologik usullar tahlil qilindi:

1. Bakteriologik usul

Patogenlarni selektiv va differensial oziq muhitlarda o'stirish orqali aniqlash amalga oshiriladi. Koloniyaning morfologiyasi, gemoliz xususiyati va pigment hosil qilishi baholanadi.

2. Mikroskopik tekshiruv

Gram bo'yash usuli yordamida bakteriyalarning gram-musbat yoki gram-manfiyligi aniqlanadi. Bu dastlabki identifikatsiya bosqichi hisoblanadi.

3. Biokimyoviy testlar

Fermentativ faollik (laktoza parchalanishi, katalaza, oksidaza reaksiyasi) tekshiriladi. Ushbu testlar tur aniqlashda muhimdir.

4. Serologik diagnostika

Antigen-antitelo reaksiyalariga asoslangan. Agglyutinatsiya va ELISA testlari qo'llaniladi.

5. Molekulyar diagnostika

PCR (Polimeraza zanjir reaksiyasi) yordamida patogen DNKsi aniqlanadi. Bu usul yuqori sezgirlik va tezkor natija berishi bilan ajralib turadi.

Natijalar Tahlillar shuni ko'rsatdiki, oziq-ovqat infeksiyalarining ko'pchiligi quyidagi sabablar bilan bog'liq:

- mahsulotlarni noto'g'ri haroratda saqlash;
- gigiyena qoidalariga amal qilmaslik;
- xom va pishgan mahsulotlarni birga saqlash;
- yetarlicha termik ishlov bermaslik.

Bakteriyalarning ko'payishi uchun optimal harorat 20–40°C oralig'ida bo'lib, bu sharoitda ular tez proliferatsiyalanadi. Ba'zi shtammlar issiqqa chidamli toksin ishlab chiqaradi, bu esa oddiy qaynatish bilan ham to'liq bartaraf etilmaydi.

Muhokama Oziq-ovqat infeksiyalarining mikrobiologik mexanizmlari murakkab hisoblanadi. Patogen bakteriyalar ichakka tushgach, epiteliy hujayralariga yopishadi (adgeziya), ko'payadi va toksin ishlab chiqaradi. Natijada diareya, qusish, isitma va intoksikatsiya belgilari yuzaga keladi.

Biofilm hosil qiluvchi bakteriyalar oziq-ovqat ishlab chiqarish uskunalarda uzoq saqlanib qolishi mumkin. Bu esa dezinfeksiya jarayonlarini qiyinlashtiradi. Antibiotiklarga chidamlilik muammosi ham dolzarb bo'lib, ayrim shtammlar ko'pdorilarga rezistentlik ko'rsatmoqda.

Profilaktika va nazorat

Profilaktik choralar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- sanitariya va gigiyena talablariga qat'iy rioya qilish;
- ishlab chiqarishda HACCP tizimini joriy etish;

- sovutish zanjirini nazorat qilish;
- oziq-ovqat mahsulotlarini to‘liq termik ishlovdan o‘tkazish;
- aholining gigiyenik savodxonligini oshirish.

Xulosa Oziq-ovqat orqali yuqadigan infeksiyalar mikrobiologik jihatdan murakkab va keng tarqalgan kasalliklar guruhidir. Ularning asosiy qo‘zg‘atuvchilari bakteriyalar bo‘lib, toksin ishlab chiqarish va invazivlik xususiyatiga ega. Zamonaviy molekulyar diagnostika usullari patogenlarni tez va aniq aniqlash imkonini beradi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash uchun sanitariya nazorati va profilaktik choralarini kuchaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Health Organization. *Estimates of the global burden of foodborne diseases*. Geneva: WHO Press, 2015.
2. Food and Agriculture Organization. *Food Safety and Quality: Guidelines for Strengthening National Food Control Systems*. Rome: FAO, 2019.
3. Food Microbiology / Doyle M.P., Buchanan R.L. (eds.). 5th ed. Washington DC: ASM Press, 2013.
4. Modern Food Microbiology / Jay J.M., Loessner M.J., Golden D.A. 7th ed. New York: Springer, 2005.
5. Centers for Disease Control and Prevention. *Surveillance for Foodborne Disease Outbreaks, United States, Annual Report, 2022*.
6. European Food Safety Authority. *The European Union One Health Report on Zoonoses, 2023*.
7. Brock Biology of Microorganisms / Madigan M.T., Bender K.S., Buckley D.H., et al. 15th ed. Pearson Education, 2018.
8. Medical Microbiology / Murray P.R., Rosenthal K.S., Pfaller M.A. 9th ed. Elsevier, 2020.
9. International Organization for Standardization. *ISO 22000:2018 Food safety management systems — Requirements for any organization in the food chain*.
10. United States Food and Drug Administration. *Bacteriological Analytical Manual (BAM)*. Latest edition, 2023.

QANDLI DIABETNING YENGIL VA O‘RTACHA OG‘IR TURIDA 9-PARHEZ STOLINING AHAMIYATI

Aliyeva Inoyatxon O‘tkirbek qizi

Davolash ishi fakulteti 2723-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: Abselyamov Dilmurod Rustem o‘g‘li

Preventiv tibbiyot asoslari, jamot salomatligi, jismoniy tarbiya va sport kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Annotatsiya

Mazkur tezisda qandli diabetning yengil va o‘rtacha og‘ir shakllarida qo‘llaniladigan 9-parhez stolining klinik va profilaktik ahamiyati yoritilgan. Diabet

metabolik kasallik bo'lib, uglevod, yog' va oqsil almashinuvi buzilishi bilan xarakterlanadi. Kasallikni samarali boshqarishda insulinoterapiya bilan bir qatorda ratsional ovqatlanish muhim o'rin tutadi. 9-parhez stoli uglevod almashinuvini me'yorlashtirish, glyukozaning keskin oshib yoki tushib ketishining oldini olish, ortiqcha vaznni nazorat qilish va asoratlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari dietoterapiyaning diabetni kompleks boshqarishdagi muhim o'rnini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: Qandli diabet, 9-parhez stoli, dietoterapiya, insulin, giperglikemiya, gipoglikemiya, uglevod almashinuvi, ratsional ovqatlanish, metabolik buzilishlar.

Dolzarbli: Bugungi kunda qandli diabet keng tarqalgan surunkali kasalliklardan biri bo'lib, dunyo miqyosida nogironlik va erta o'lim sabablari orasida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Kasallik oshqozon osti bezining Langergans orolchalaridagi beta hujayralar tomonidan insulin ishlab chiqarilishining buzilishi yoki to'qimalarda insulinga sezuvchanlikning pasayishi natijasida rivojlanadi. Natijada qonda glyukoza miqdori ortadi va giperglikemiya yuzaga keladi.

Qandli diabetda uzoq muddatli giperglikemiya ko'z, buyrak, yurak-qon tomir tizimi va asab tizimi asoratlariga olib keladi. Shuningdek, insulin terapiyasi jarayonida gipoglikemiya xavfi ham mavjud. Ushbu holatlarni oldini olishning muhim yo'li – to'g'ri va muvozanatli ovqatlanishdir. Shuning uchun yengil va o'rtacha og'ir diabet shakllarida 9-parhez stolini qo'llash dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi: Qandli diabetning yengil va o'rtacha og'ir shakllarida 9-parhez stolining qo'llanilishi va uning metabolik ko'rsatkichlarga ta'sirini tahlil qilish hamda dietoterapiyaning ahamiyatini asoslash.

Materiallar va usullar: Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlar tahlili, klinik tavsiyalar va dietoterapiya bo'yicha metodik qo'llanmalar o'rganildi. Qandli diabet patogenezi, giperglikemiya va gipoglikemiya mexanizmlari, insulin ta'siri va ovqatlanish tartibi nazariy jihatdan tahlil qilindi.

9-parhez stolining kimyoviy tarkibi va energetik qiymati o'rganildi:

- Oqsillar – 90–100 g;
- Yog'lar – 75–80 g;
- Uglevodlar – 300–350 g (asosan murakkab uglevodlar);
- Energiya qiymati – 2300–2500 kkal;
- Ovqatlanish rejimi – kuniga 5–6 mahal, uglevodlarni teng taqsimlash.

Ruxsat etilgan mahsulotlar (sabzavotlar, baliq, yog'siz go'sht, kepakli non, don mahsulotlari) va taqiqlangan mahsulotlar (shakar, shirinliklar, yog'li taomlar, shakarli ichimliklar) tahlil qilindi.

Natijalar va muhokama: Tahlillar shuni ko'rsatdiki, 9-parhez stoli uglevod almashinuvini barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Shakar va tez so'riluvchi uglevodlarning cheklanishi glyukozaning keskin oshishini oldini oladi. Murakkab uglevodlar va kletchatkaga boy mahsulotlar esa glyukozaning sekin so'rilishini ta'minlaydi.

Kuniga 5–6 mahal ovqatlanish gipoglikemiya xavfini kamaytiradi, ayniqsa insulin yoki shakarni kamaytiruvchi dori qabul qilayotgan bemorlarda. Yog‘ va xolesterin miqdorini cheklash yurak-qon tomir asoratlarning oldini olishga yordam beradi.

Dietoterapiya natijasida tana vaznini nazorat qilish, metabolik ko‘rsatkichlarni yaxshilash va davolash samaradorligini oshirish mumkin. Shu bois 9-parhez stoli diabetni kompleks boshqarishning ajralmas qismi hisoblanadi.

Xulosa: Qandli diabetning yengil va o‘rtacha og‘ir shakllarida 9-parhez stolini qo‘llash metabolik jarayonlarni me‘yorlashtirishda muhim ahamiyatga ega. To‘g‘ri tuzilgan ratsion giperglikemiya va gipoglikemiya xavfini kamaytiradi, asoratlarning oldini oladi va bemor hayot sifatini yaxshilaydi. Dietoterapiya insulinoterapiya va medikamentoz davolash bilan birgalikda samarali natija beradi. Shunday qilib, 9-parhez stoli diabetni boshqarishning asosiy va majburiy komponentlaridan biri hisoblanadi.

ВРАЧЕБНАЯ ЭТИКА В УЧЕНИИ АБУ АЛИ ИБН СИНЫ

Автор: Маматкалыкова Жумагул, 1 курс

Дуйшеев Бектур, 1 курс

Научный руководитель: Юсупова Рита Орозбековна

*Организация: Ошский Международный Медицинский Университет,
Ош, Кыргызстан*

1. Актуальность

Врачебная этика является неотъемлемой частью профессиональной деятельности медицинского работника. В условиях развития современной медицины возрастает значение моральной ответственности врача, его гуманного отношения к пациенту и соблюдения принципов профессионального поведения.

Исторический анализ показывает, что основы медицинской этики были сформированы задолго до появления современных кодексов. Существенный вклад в развитие этических норм внес выдающийся учёный Абу Али ибн Сина, чьи взгляды сохраняют актуальность и в настоящее время.

2. Цель исследования

Изучить основные положения врачебной этики в трудах Ибн Сины и определить их значение для современной медицины.

3. Материалы и методы

В работе использован анализ исторического источника — Канон врачебной науки, а также сравнительный анализ с современными принципами медицинской этики и биоэтики.

Основные положения врачебной этики Ибн Сины

1. Гуманность и милосердие

Ибн Сина подчёркивал, что врач должен проявлять сострадание к пациенту, относиться к нему с уважением и доброжелательностью. Лечение,

по его мнению, должно сопровождаться внимательным отношением к состоянию больного.

2. Профессиональная компетентность

Врач обязан обладать глубокими знаниями в области анатомии, физиологии и фармакологии. Авиценна указывал на необходимость постоянного совершенствования знаний и практических навыков.

3. Честность и ответственность

Особое внимание уделялось нравственной ответственности врача. Недопустимы небрежность, злоупотребление доверием пациента и назначение необоснованного лечения.

4. Индивидуальный подход

Ибн Сина подчеркивал необходимость учитывать возраст, условия жизни, питание и особенности организма пациента. Данный принцип соответствует современным представлениям о персонализированной медицине.

5. Образ врача

Согласно его взглядам, врач должен быть уравновешенным, дисциплинированным и внушающим доверие, поскольку психологическое состояние пациента влияет на процесс выздоровления.

Обсуждение

Принципы, сформулированные Ибн Синой, во многом соответствуют современным требованиям медицинской профессии и лежат в основе современных норм Биоэтика. Его идеи о гуманности, ответственности и профессионализме демонстрируют преемственность медицинских традиций.

4. Заключение

Врачебная этика в учении Ибн Сины представляет собой систематизированный комплекс моральных принципов, направленных на формирование профессионального и гуманного врача. Его взгляды сохраняют актуальность и в современной медицинской практике, подтверждая историческую значимость вклада Авиценны в развитие мировой медицины.

STUDY OF THE “ARTERYS” PLATFORM’S CAPABILITIES IN MEDICAL IMAGE ANALYSIS AND DISEASE PREDICTION AND ITS SIGNIFICANCE IN HEALTHCARE (SDG-3)

Ayanat Tuzelkhanova

Department of Biostatistics and Scientific Research Methods

S.D. Asfendiyarov Kazakh National Medical University, Almaty, Kazakhstan

Scientific Supervisor – Master of Medical Sciences

Assykbaeva Lazzat Pazilbekovna

Relevance: Accurate and rapid medical image analysis is a crucial factor in modern diagnostics. In the United States and other countries, FDA approvals have

expanded the clinical adoption of AI-based platforms for medical image interpretation. The Arterys platform integrates deep learning and cloud computing to automatically process imaging modalities such as MRI and CT, enhancing diagnostic precision in radiology.

Platforms like Arterys reduce radiology department workloads, accelerate diagnostic decision-making, and contribute to improved clinical outcomes. This is particularly important for the efficiency of healthcare systems, as imaging diagnostics serve as a primary tool for detecting cardiovascular, oncological, and chronic diseases.

Objective: Based on clinical experience and scientific research from the past three years, this study aims to evaluate the role of the Arterys platform in medical image analysis, assess its potential for accurate disease detection and prediction, and determine its significance in the healthcare system.

Materials and Methods: A review of scientific publications and biomedical updates from 2022 to 2025, as well as official data from Arterys, was conducted. Comparative analysis of clinical usage statistics, practical impact indicators, and empirical data allowed a comprehensive evaluation of the platform's scope, clinical efficacy, and contribution to healthcare systems.

Results and Discussion: Automated Analysis and Diagnostic Speed: The Arterys platform provides automated segmentation of cardiac chambers and other structures in cardiac MRI, significantly reducing the time required for manual processing by radiologists. Clinical data indicate that processing time decreases from 30–60 minutes to approximately 10–15 minutes, representing a 50–70% increase in analysis speed.

Significance of FDA Approvals: In 2022, Arterys received its eighth FDA 510(k) clinical clearance. According to FDA data, the number of AI tools registered for medical imaging has been steadily increasing, with over 500 AI/ML-based medical devices approved by the end of 2023, approximately 75% of which are related to radiology. This demonstrates the platform's compliance with clinical reliability and regulatory standards.

Clinical Practical Impact: Arterys' AI modules are widely applied in both cardiology and oncology. Automated volumetric measurement algorithms improve the assessment of tumor dynamics in lung and liver lesions. Studies indicate that automated measurements agree with expert evaluations in 90–95% of cases.

Early detection in oncology significantly improves 5-year survival rates. For instance, in stage I lung cancer, the 5-year survival rate is 60–80%, compared to only 5–10% in advanced stages. Therefore, AI-enabled early detection directly impacts clinical outcomes.

In cardiology, automated calculation of left ventricular ejection fraction shows high correlation with conventional echocardiography ($r > 0.85$), validating the reliability of AI-driven analysis.

Impact on Healthcare Systems: AI implementation alleviates the shortage of radiologists. According to the World Health Organization, the global average is 10–12 radiologists per 100,000 population, with some low-resource countries having

only 1–2 specialists. Automation can reduce re-analysis errors by 20–30%, decrease diagnostic delays by 25–40%, accelerate clinical decision-making by approximately 30%.

Consequently, AI-based platforms improve economic efficiency, optimize patient flow, and enhance service quality. In radiology departments, automation saves hundreds of working hours per year.

Conclusion:

The Arterys platform exemplifies a successful integration of AI in medical image analysis. It significantly streamlines clinical workflows and accelerates diagnostic decision-making, thereby improving patient care quality. Repeated FDA approvals confirm the platform’s safety and accuracy, making it a reliable tool for evaluating cardiovascular, oncological, and other critical diseases. Its implementation expands the operational capacity of radiology services and drives the digital transformation of healthcare systems.

DUNYODAGI SOG’LOM TURMUSH VA MIKROBIOM TA’SIR. ALMIRZAYEVA FARANGIZ

**Buxoro davlat tibbiyot instituti Tibbiyot fakulteti davolash yo’nalishi
talabasi.**

E-mail:

almirzayevafarangiz@gmail.com

1.Kirish.Inson tanasi -bu hayratlanarli mikroekosistemalardir .Ichak,teri va og’iz bo’shlig’idagi mikroorganizmlar,yani mikrobiom ,sog’liq immum tizimi va ruhiy holatimizga bevosita ta’sir ko’rsatadi.Shuni tushunish muhimki ,mikrobiom faqat holat emas ,balki bizning kundalik turmushimiz bilan chambarchas bog’liq.

So’nggi yillarda dunyo bo’yicha sog’lom turmush va mikroboim o’rtasidagi bog’liqlik ilmiy tadqiqotlarning markaziy mavzusiga aylangan.2023 yil statistikaga ko’ra sog’lom turmush va mikrobiom tadqiqotlari bilan shug’ullanuvchi o’quvchilar soni 1,2milliondan oshgan.

Hayotiy misol: Bir kishi har kuni probiotik yogurt istemol qilsa, 2oy Ichida hazm tizimi yaxshilanishi,energiyasi oshishi va kayfiyati barqarorlashi kuzatiladi.shu tarzda oddiy kundalik odatlar mikrobiomga sezilarli tasir ko’rsatadi.

2.Maqsad :Mikrobiom va inson sog’ligi o’rtasidagi bog’liqlikni tahlil qilib,sog’lom turmushni qo’llab quvvatlash bo’yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish .

Vazifalar:

1.Mikrobiom tushunchasini chuqur o’rganish

2.Ichak ,teri va og’iz bo’shlig’idagi mikrobiomning sog’liq va ruhiy holatga ta’sirini aniqlash.

3.Dunyo bo’yicha mikrobiom tadqiqotlarini va sog’lom turmish bo’yicha statistic malumotlarni tahlil qilish.

4.hayotiy tavsiyalar va strategiyalar ishlab chiqish

3.METADOLOGIYA:

Adabiyotlarni tahlil qilish :So'nggi 5 yillik ilmiy maqolalar ,xalqaro jurnallar va kitoblar o'rganiladi.

Statistik kuzatishlar :dunyo bo'yicha sog'lom turmush va mikrobiom tadqiqotlari bilan shug'ullanuvchi o'quvchilar va tadqiqotchilar soni tahlil qilindi.

Eksperimenta va Hayotiy kuzatuvlar:Ichak mikrobiomi o'zgarishi .probiotik va prebiotiklar ta'siri laboratoriya va real hayot misollarida o'rganiladi.

Kuzatuv metodlari:Kursdoshlar ,oila a'zolari va atrof-muhit sharoitida hayotiy tajribalar o'tkaziladi.

Hayotiy tavsifiya :oddiy gugurt va kefir istemoli bilan birga ,mevali va sabzavotli ovqatlanish ,mikrobiomni mustahkamlashga yordam beradi.

4.Natijalar:

Mikrobiom va sog'lom turmush o'rtasidagi bo'g'liqlik -probiotiklar bilan boyitilgan ovqatlar istemol qilgan ichak mikrobiomi xilma-xilligi 35%ga oshgan

Sog'lom turmush odatlari (jismoniy faollik ,muvozanatli ovqatlanish)mikrobiomni ijobiy rivojlantiradi.

Hayotiy misollar:Har kuni kefir istemol qilgan talaba 1 oy Ichida ichak faoliyati va energiya darajasi yaxshilanishi bildirilgan.

Ertalab 20 daqiqa yurish va mevali ovqat istemoli mikrobiomni ijobiy tasir qilgani kuzatilgan.

Dunyo bo'yicha kuzatishlar:AQSH,Yevropa va osiyoda sog'lom turmush va mikrobiomning tadqiqotlari bilan shug'ullanuvchi o'quvchilar soni 1 milliondan oshgan.

5.TAHLIL:mikrobiomni sog'lom turmush bilan bog'lash ilmiy jihatdan isbotlangan .

Statistik malumotlar va hayotiy ko'rsatkichlar shuni ko'rsatadiki-pribiotik va prebiotic istemoli ,muvozanatli ovqatlanish va jismoniy faollik mikrobiomni mustahkamlaydi.

Hayotiy misollar-shuni ko'rsatadiki ,bu amaliyotlar inson salomatligini oshiradi va stressni kamaytiradi.

MUHOKAMA-mikrobiomni o'rganish nafaqat laboratoriya uchun ,balki kundalik haotimiz uchun ham foydalidir.oddiy yogurt yoki kefir istemoli ,sabzavot va mevalarga boy ovqatlanish ichak mikrobiomini mustahkamlaydi.

6.XULOSA VA TAVFSIYALAR:

Mikroboim inson salomatligi va sog'lom turmush uchun muhim ahamiyatga ega .

Hayotiy amaliyotlar:probiotik va prebiotic istemoli mevali va sabzavotli ovqatlanish ,jismoniy faollik va stressni kamaytirish mikrobiomni sog'lomlashtiradi.

Dunyo bo'yicha sog'lom turmush va mikrobiomga qiziqadigan o'quvchi tadqiqotlar soni ortib bormoqda .

AMALIY TAVFSIYALAR-ertalab 15-20daqiqa yurish ovqatga meva sabzavot qo'shish va oddiy probiotik mahsulotlar iste'mol qilish hayotiy tarzda mikrobiomni mustahkamlashga yordam beradi.

МЕДИЦИНСКАЯ ГРАМОТНОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ КАК КЛЮЧЕВОЙ ИНСТРУМЕНТ ПРОФИЛАКТИКИ ЗАБОЛЕВАНИЙ И ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ СИСТЕМЫ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ.

Хатамов Шухрат Бахадырович.

*Кафедра гуманитарных и общественных наук,
Самаркандский государственный медицинский университет,
Самарканд, Узбекистан.*

Научный руководитель: заведующая кафедрой Социальных и гуманитарных наук, профессор А.Н.Махмудова.

Актуальность. В условиях стремительного роста распространённости хронических неинфекционных заболеваний одной из важнейших задач современной медицины становится развитие профилактического направления здравоохранения. Сердечно-сосудистые заболевания, сахарный диабет, ожирение и другие хронические патологии во многом связаны с образом жизни человека, его информированностью о факторах риска и способностью принимать решения, направленные на сохранение здоровья. В этой связи особое значение приобретает медицинская грамотность населения. Под медицинской грамотностью понимают совокупность знаний, навыков и поведенческих установок, позволяющих человеку получать, анализировать и правильно использовать информацию, связанную со здоровьем. Высокий уровень медицинской грамотности способствует формированию ответственного отношения к собственному здоровью, повышает приверженность профилактическим мероприятиям и улучшает взаимодействие пациента с медицинскими работниками. Недостаточный уровень информированности населения нередко становится причиной позднего обращения за медицинской помощью, несоблюдения врачебных рекомендаций и неправильного понимания принципов лечения. Это приводит к прогрессированию заболеваний, увеличению числа осложнений и росту нагрузки на систему здравоохранения. В современных условиях, когда медицинская информация активно распространяется через интернет-ресурсы и социальные сети, особенно важным становится формирование у населения навыков критической оценки получаемых сведений. Таким образом, повышение уровня медицинской грамотности рассматривается как один из наиболее эффективных инструментов профилактической медицины и важный фактор повышения эффективности функционирования системы здравоохранения.

Цель исследования. Изучить значение медицинской грамотности населения в формировании профилактического поведения и определить её роль в повышении эффективности системы здравоохранения.

Материалы и методы исследования. Настоящая работа выполнена на основе анализа современных научных публикаций, посвящённых вопросам медицинской грамотности населения, профилактики заболеваний и

организации системы здравоохранения. В исследование были включены данные отечественных и зарубежных научных источников, представленных в рецензируемых медицинских журналах и аналитических докладах международных организаций. Поиск научной информации осуществлялся с использованием международных научных баз данных и электронных библиотек. В процессе работы анализировались публикации, посвящённые влиянию медицинской грамотности на формирование здорового образа жизни, приверженность лечению и участие населения в профилактических программах. Методологическую основу исследования составили методы систематического анализа научной литературы, сравнительной оценки полученных данных, а также обобщения результатов современных исследований в области профилактической медицины.

Результаты и их обсуждение. Анализ научных данных показал, что уровень медицинской грамотности населения существенно влияет на формирование поведения, связанного со здоровьем. Люди, обладающие достаточными знаниями о факторах риска и механизмах развития заболеваний, чаще придерживаются принципов здорового образа жизни, контролируют состояние своего здоровья и своевременно обращаются за медицинской помощью. Важным аспектом медицинской грамотности является понимание роли профилактики. Информированные пациенты чаще проходят профилактические осмотры и скрининговые обследования, а также следуют рекомендациям специалистов, что способствует раннему выявлению заболеваний и повышению эффективности лечения. Особое значение медицинская грамотность имеет при хронических заболеваниях, требующих активного участия пациента в лечении. Достаточный уровень знаний способствует лучшему соблюдению лекарственной терапии, режима питания и физической активности, снижая риск осложнений. Кроме того, повышение медицинской грамотности способствует более рациональному использованию ресурсов здравоохранения. Образовательные и информационные программы играют важную роль в формировании устойчивых навыков сохранения здоровья у населения.

Заключение. Медицинская грамотность населения является важным фактором профилактики заболеваний и повышения эффективности системы здравоохранения. Повышение информированности способствует формированию ответственного отношения к здоровью и приверженности профилактическим мероприятиям. Развитие образовательных программ в данной области позволяет снизить распространённость хронических заболеваний, уменьшить нагрузку на систему здравоохранения и повысить качество жизни населения.

TALABA-YOSHLAR ORASIDA GIPODINAMIYA VA UNING ORTIQCHA VAZN SHAKLLANISHIDAGI ROLI: IJTIMOYIY-GIGIENIK TAHLIL

Oralbayeva Sabrina Shuxrat qizi

*Qoraqalpog‘iston tibbiyot instituti Ichki kasalliklar propedevtikasi,
endokrinologiya va psixiatriya kafedrası*

*Qoraqalpog‘iston tibbiyot instituti, Nukus shahri, O‘zbekiston Respublikasi
Ilmiy rahbar: Ichki kasalliklar propedevtikasi, endokrinologiya va psixiatriya
kafedrası katta o‘qituvchisi Abdrashitova Gulnara Saatbaevna*

Dolzarbli. Gipodinamiya — zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan bo‘lib, jismoniy faollikning keskin kamayishi bilan xarakterlanadi. Hozirgi kunda ushbu holat ayniqsa talaba-yoshlar orasida keng tarqalgan. Talabalarning ko‘p vaqtini auditoriya mashg‘ulotlari, mustaqil ta‘lim va raqamli qurilmalar bilan ishlash egallashi natijasida harakat faolligi sezilarli darajada kamaymoqda. Bu esa organizmda moddalar almashinuvining buzilishi, ortiqcha vazn to‘planishi hamda yurak-qon tomir tizimi kasalliklari rivojlanish xavfini oshiradi.

излучения и активацию антиоксидантных ферментов через транскрипционный фактор Nrf2.

Результаты и их обсуждение: Важным результатом исследования стало четкое разграничение действия экстракта. Компоненты экстракта эффективно связывают активные формы кислорода (ROS), предотвращая перекисное окисление липидов, что является первичной причиной фотостарения. Установлено, что салидрозид индуцирует транскрипционный фактор Nrf2. Это запускает синтез эндогенных (внутренних) антиоксидантных ферментов, таких как гемоксигеназа-1 (HO-1) и NAD(P)H-хиноноксидоредуктаза. Таким образом, кожа получает способность к самовосстановлению на генетическом уровне. Экстракт снижает количество димеров пиримидина, образующихся в ДНК под воздействием UVB-лучей, что снижает риск мутаций и долгосрочных повреждений кожи.

Для разработки косметических средств критически важен выбор экстрагента. Анализ показал, что, чисто водная мацерация не обеспечивает извлечения труднорастворимых флавоноидов и розавинов. Оптимальным растворителем является **50–90% водно-этанольный раствор**, который позволяет достичь максимального выхода маркерных соединений. Использование современных методов (например, ультразвуковой обработки) значительно сокращает время экстракции и предотвращает термическую деградацию салидрозид

Заключение: *Rhodiola rosea* представляет собой высокооценное растительное сырьё для разработки солнцезащитных кремов с антиоксидантной и фотозащитной активностью. Использование подземных органов растения позволяет создавать эффективные косметические средства, защищающие кожу от UVB-излучения и окислительного стресса. Ограниченный ареал произрастания, медленный рост и высокая ценность сырья требуют строгого контроля качества и рационального использования природных ресурсов, что делает *R. rosea* актуальным компонентом современной косметической и фармацевтической индустрии.

**SURUNKALI GASTRITNI DAVOLASHDA ROMASHKA
(MTRICARIA CHAMOMILLA) O‘SIMLIGINING KLINIK
SAMARADORLIGI**

Fazliddinov Janobiddin Zaynobiddin o‘g‘li
Samarqand Davlat tibbiyot universiteti, Davolash ishi fakultetining 6-bosqich
talabasi

Ilmiy rahbar: Islamova Kamola Akramovna
Samarqand Davlat tibbiyot universiteti, N.A.Abdullayev nomidagi 1-son ichki
kasalliklar kafedrasi dotsenti, PhD
Samarqand, O‘zbekiston

Dolzarlighi: Oshqozon-ichak tizimi kasalliklari orasida surunkali gastrit eng keng tarqalgan patologiyalardan biri hisoblanadi. Ushbu kasallik ko‘pincha epigastral og‘riq, ko‘ngil aynishi, ishtahaning pasayishi, qorin dam bo‘lishi hamda dispeptik buzilishlar bilan namoyon bo‘lib, bemorlarning hayot sifatini sezilarli darajada pasaytiradi. So‘nggi yillarda surunkali gastrit rivojlanishida noto‘g‘ri ovqatlanish, stress omillari, dori vositalarini nazoratsiz qabul qilish hamda *Helicobacter pylori* infeksiyasi muhim etiologik omillar sifatida e‘tirof etilmoqda. Zamonaviy tibbiyotda ushbu kasallikni davolashda proton nasosi ingibitorlari, antasidlar va antibakterial preparatlar qo‘llanilsa-da, ularning uzoq muddatli qo‘llanilishi ayrim nojo‘ya ta’sirlarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli oshqozon kasalliklarini davolashda tabiiy manbalardan foydalanishga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Dorivor o‘simliklar asosida olib boriladigan fitoterapiya usullari xalq tabobatida qadimdan qo‘llanib kelinadi va ular yallig‘lanishga qarshi, spazmolitik hamda shilliq qavatni himoya qiluvchi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shunday o‘simliklardan biri romashka (*Matricaria chamomilla*) bo‘lib, u O‘zbekiston hududida ham keng tarqalgan dorivor o‘simlik hisoblanadi. Romashka tarkibida biologik faol moddalar – flavonoidlar, efir moylari, chamazulen va bisabolol birikmalari mavjud bo‘lib, ular oshqozon shilliq qavatidagi yallig‘lanish jarayonlarini kamaytirishga, spazmlarni bartaraf etishga hamda ovqat hazm qilish jarayonini yaxshilashga yordam beradi. Shu nuqtai nazardan, romashka o‘simligining surunkali gastrit bilan og‘rigan bemorlarda klinik samaradorligini o‘rganish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi: Surunkali gastrit bilan og‘rigan bemorlarda romashka (*Matricaria chamomilla*) o‘simligi asosidagi fitoterapiyaning dispeptik simptomlarni kamaytirishdagi samaradorligini baholash.

Materiallar va tadqiqot usullari: Tadqiqot davomida Samarqand Davlat tibbiyot universiteti 1-ko‘p tarmoqli klinikasining 1-son ichki kasalliklar bo‘limida kuzatuv ostida bo‘lgan surunkali gastrit tashxisi qo‘yilgan 60 nafar bemorning klinik ma‘lumotlari tahlil qilindi. Tadqiqotga jalb etilgan bemorlarning yoshi 22 dan 65 yoshgacha bo‘lib, o‘rtacha yosh ko‘rsatkichi $43,2 \pm 8,7$ yilni tashkil etdi. Bemorlar ikki guruhga ajratildi: asosiy guruh (30 nafar bemor) standart davolash bilan bir qatorda romashka damlamasini qabul qilgan bo‘lsa, nazorat guruhi (30 nafar bemor) faqat standart terapiya bilan davolandi. Romashka damlamasi quritilgan o‘simlik gullaridan tayyorlanib, kuniga ikki mahal 100 ml miqdorda 14 kun davomida qabul qilindi. Tadqiqot jarayonida klinik belgilar – epigastral og‘riq, ko‘ngil aynishi, qorin dam bo‘lishi, tez to‘yish hissi va jig‘ildon qaynashi kabi simptomlarning uchrash darajasi baholandi. Shuningdek, fibrogastroduodenoskopiya natijalari hamda laborator ko‘rsatkichlar tahlil qilindi. Olingan natijalar matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlanib, foiz ko‘rinishida umumlashtirildi.

Natijalar va ularning muhokamasi: Tadqiqot natijalari romashka o‘simligi qo‘llanilgan bemorlar guruhida klinik simptomlarning kamayishi ancha tezroq kuzatilganligini ko‘rsatdi. Davolash boshlanishidan oldin epigastral og‘riq asosiy guruh bemorlarining 63%ida kuzatilgan bo‘lsa, 14 kunlik davolashdan so‘ng ushbu ko‘rsatkich 28% gacha kamaydi. Nazorat guruhida esa epigastral og‘riqning

kamayishi 61% dan 44% gacha bo'lgan darajada qayd etildi. Ko'ngil aynishi asosiy guruhda 47% bemorda aniqlangan bo'lsa, davolashdan so'ng bu ko'rsatkich 18% ni tashkil etdi. Nazorat guruhida esa ushbu simptom 45% dan 30% gacha kamaygani kuzatildi. Qorin dam bo'lishi va meteorizm holatlari romashka qabul qilgan bemorlarning 52%ida aniqlangan bo'lib, davolashdan keyin 22% gacha kamaydi. Shu bilan birga, tez to'yish hissi asosiy guruh bemorlarining 38%ida kuzatilgan bo'lsa, davolashdan keyin bu ko'rsatkich 16% gacha pasayganligi qayd etildi. Fibrogastroduodenoskopiya natijalari ham romashka o'simligining ijobiy ta'sirini tasdiqladi. Asosiy guruh bemorlarining 40%ida oshqozon shilliq qavatidagi giperemiya va yallig'lanish belgilari sezilarli darajada kamayganligi kuzatildi. Nazorat guruhida esa bunday ijobiy o'zgarishlar 23% bemorlarda qayd etildi. Olingan natijalar romashka tarkibidagi biologik faol moddalar oshqozon shilliq qavatini himoya qilish, yallig'lanish jarayonlarini kamaytirish hamda ovqat hazm qilish tizimining funksional faoliyatini yaxshilashga yordam berishini ko'rsatadi. Bundan tashqari, romashka o'simligining spazmolitik ta'siri oshqozon mushaklarining spazmini kamaytirib, dispeptik simptomlarning yengillashishiga olib kelishi kuzatildi. Tadqiqot natijalari romashka o'simligi surunkali gastritda kompleks davolashning samarali qo'shimcha vositasi bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Xulosa: O'tkazilgan tadqiqot natijalari romashka (*Matricaria chamomilla*) o'simligi surunkali gastrit bilan og'rikan bemorlarda dispeptik simptomlarni kamaytirishda ijobiy klinik samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Romashka damlamasini standart terapiya bilan birgalikda qo'llash epigastral og'riq, ko'ngil aynishi va qorin dam bo'lishi kabi belgilarni sezilarli darajada kamaytirishga yordam beradi. Shuningdek, ushbu o'simlik oshqozon shilliq qavatidagi yallig'lanish jarayonlarini kamaytirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli romashka o'simligi surunkali gastritni kompleks davolashda qo'shimcha fitoterapevtik vosita sifatida qo'llanilishi mumkin.

“TIB QONUNLARI” ASARIDA ME'DA KASALLIKLARI VA QAR' (QOVOQ)NING SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI

Kosimov Bilol Ilxom o'g'li

Farmakologiya kafedrası

Buxoro davlat tibbiyot instituti, Buxoro, O'zbekiston

Ilmiy rahbar – Farmakologiya kafedra mudiri, DSc D.X. Yuldosheva

Dolzarbligi: G'arbda Avitsenna nomi bilan tanilgan Abu Ali ibn Sino nafaqat o'z davrining, balki barcha zamonlarning eng buyuk mutafakkiri va tabobat sultonidir. Uning “Tib qonunlari” asari asrlar davomida tibbiyot olamining asosiy qo'llanmasi bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Bugungi kunda oshqozon-ichak trakti kasalliklari, xususan, turli xil gastritlar va reflyuks kasalliklarining ko'payishi sharoitida, allomaning ushbu kasalliklar etiologiyasi va tabiiy darmondorilar bilan davolash borasidagi qarashlarini zamonaviy tibbiyot nuqtai nazaridan o'rganish dolzarb

ahamiyat kasb etadi. Ibn Sinoning me'da kasalliklari sababi sifatida keltirgan nazariyalari hozirgi gastroenterologiyaning fundamental asoslariga naqadar mos kelishini tahlil qilish, xalq tabobati va ilmiy tibbiyot integratsiyasini ta'minlaydi.

Tadqiqot maqsadi: "Tib qonunlari" asarida keltirilgan me'da kasalliklarining kelib chiqish sabablari (patogenezi) va qovoq (qar') o'simligining farmakologik xususiyatlarini zamonaviy tibbiy tushunchalar bilan qiyosiy tahlil qilish hamda ularning amaliy ahamiyatini ko'rsatib berish.

Materiallar va tadqiqot usullari: Tadqiqot obyekti sifatida Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari" asari (I va tegishli jildlari) hamda zamonaviy gastroenterologiya va farmakologiya bo'yicha ilmiy adabiyotlar olindi. Tadqiqot davomida retrospektiv tahlil, qiyosiy interpretatsiya va nazariy umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Natijalar va ularning muhokamasi: Ibn Sino o'z asarida me'dada 16 xil buzilgan mijoz kasalliklari yuzaga kelishini qayd etadi. Uning ta'kidlashicha, kasallikning asosiy qo'zg'atuvchilari safro, nordon yoki taxir moddalar, shuningdek, o't qopidan me'daga tushuvchi yomon xiltlardir. Alloma o't yo'lining ichakka emas, balki bevosita me'daga ochilishi (yoki qaytishi) natijasida sho'r va o'tkir xiltlar ta'sirida yaralar paydo bo'lishini yozgan. Bu tushuncha zamonaviy tibbiyotdagi duodenogastral reflyuks (eroziv reflyuks gastrit) kasalligi bilan to'laqonli mos keladi. Ya'ni, o'n ikki barmoqli ichak tarkibidagi safro kislotalari va tripsinning me'daga qaytishi shilliq qavat rezistentligini pasaytirib, yallig'lanishga sabab bo'ladi.

Shuningdek, asarda "nordon modda" sifatida ta'riflangan omilni bugungi kunda oshqozon shirasidagi xlorid kislota va pepsinning gipersekretsiyasi deb tushunish mumkin. Parhezshunoslikda esa, Ibn Sino qovoq (qar') o'simligini ikkinchi darajali sovuq va xo'l tabiatli deb baholaydi. Uning fikricha, pishirilgan qovoq engil hazm bo'luvchi ozuqa bo'lib, me'dadagi "issiq" chiqindilarni tushirishga yordam beradi. Ibn Sino qovoqni behi, anor yoki g'o'ra suvi bilan aralashtirib berishni tavsiya qilgan, bu esa safroli (yuqori kislotali yoki o't haydash jarayoni buzilgan) bemorlar uchun samaralidir. Zamonaviy farmakologiyada qovoq tarkibidagi vitaminlar va mikroelementlar me'da shilliq qavatini himoyalovchi hamda ichak motorikasini yaxshilovchi vosita sifatida tan olinadi. Biroq, alloma xom qovoqning zarari va qovoq suvini asal bilan qaynatib ichish ichni yumshatishini ham qayd etgan.

Xulosa: Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari" asarida keltirilgan me'da kasalliklari tasnifi va davolash usullari bugungi kun zamonaviy tibbiyoti uchun ham o'z qiymatini yo'qotmagan. Allomaning patologik jarayonlar (reflyuks, kislotalilikning oshishi) haqidagi mulohazalari zamonaviy diagnostika bilan hamohangdir. Qovoq (qar') o'simligidan darmondori sifatida foydalanish bo'yicha berilgan tavsiyalar esa oshqozon-ichak kasalliklarini parhez orqali davolashda muhim ahamiyatga ega. Ibn Sino merosini chuqur o'rganish ichki kasalliklarni tashxislash va samarali davolashda yangi istiqbollarni ochib beradi.

3-ilova

Tibbiyot instituti talabalari uchun "**Abu Ali ibn Sino ta'limotidan – uchinchi RENESSANSGACHA**" VI Xalqaro konferensiyasida offlayn rejimda qatnashish uchun registratsiya shakli

XALQ TABOBATI USULIDA ICHAK PARAZITLARINI DAVOLASH SAMARADORLIGI

Raximov Ahmad Allayor o'g'li

Xalq tabobati, kasb kasalliklari va allergologiya kafedrası

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti, Buxoro, O'zbekiston

Ilmiy rahbar: - kafedra dotsenti, PhD

Z.I. Tuksanova

Dolzarbligi. Parazitar kasalliklar dunyo aholisi orasida keng tarqalgan muammolardan biri hisoblanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, yer yuzi aholisining katta qismi turli parazitlar bilan zararlangan. Ichak parazitlari inson organizmida ovqat hazm qilish tizimi faoliyatini buzib, organizmning umumiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Parazitlar ovqat hazm qilish tizimida yashab, oziq moddalarning so'rilishini buzadi, allergik reaksiyalar, immunitetning pasayishi hamda umumiy holsizlikni keltirib chiqaradi.

Zamonaviy tibbiyotda parazitlarga qarshi turli dorivor preparatlar mavjud. Biroq ba'zi holatlarda kompleks yondashuv, jumladan fitoterapiya va fizioterapiya usullarini qo'llash davolash samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bunday usulni qo'llashimizdan maqsad, ularning nojo'ya ta'sirining kamligi hamda, organizmni tozalash va ichak mikroflorasini tiklashga yordam berishidir.

Parazitlarga qarshi shifobaxsh o'simliklar bilan davolash usullari va bu o'simliklarning organizmga samarali ta'siri Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari" ("Al-Qanun fi-t-tibb") asarida ham o'z aksini topgan.

Tadqiqot maqsadi. Ichak parazitlarini davolashda xalq tabobati vositalari (qovoq urug'i, dalochoy, achchiq shuvoq, bo'ymadoron) va Tszinda apparati bilan kompleks qo'llanilish samaradorligini o'rganish.

Materiallar va tadqiqot usullari. Tadqiqot "Jo'yzar" ixtisoslashtirilgan rehabilitatsiya va sog'lomlashtirish ilmiy-tadqiqot markazida ichak parazitlari bilan zararlangan 7 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan 17 nafar bolalarda o'tkazildi. Bemorlarga kompleks davolash usuli qo'llanildi. Davolash jarayonida bemorlarga xalq tabobatida keng qo'llaniladigan dorivor o'simliklar asosida tayyorlangan vositalar tavsiya etildi. Qovoq urug'i – tarkibida kukurbitin moddasi mavjud bo'lib, u parazitlarning nerv tizimiga ta'sir ko'rsatib, ularning faolligini pasaytiradi. Achchiq shuvoq – antigelmint va antibakterial xususiyatlarga ega bo'lib, parazitlarning rivojlanishini susaytiradi. Dalochoy – yallig'lanishga qarshi va antiseptik ta'sirga ega bo'lib, ichak shilliq qavatining tiklanishiga yordam beradi. Bo'ymadoron – ovqat hazm qilish tizimi faoliyatini yaxshilaydi va ichak faoliyatini me'yorlashtiradi. Bemorlarga shifobaxsh aralashma asal bilan qo'shilgan holda ertalab och qorinda 5 kun mobaynida berildi. Bu aralashmadan so'ng bemorlarga Szinda apparati yordamida biologik faol nuqtalarga past chastotali elektr impulslari orqali ta'sir ko'rsatildi. Davolash seanslari 15–20 daqiqa davom etdi va kurs davomida 8-12 seans o'tkazildi. Apparat ta'siri asosan, oshqozon, taloq-oshqozon

osti bezi, jigar va yo'g'on ichak meridianlari nuqtalariga qaratildi. Tadqiqot davomida bemorlarning klinik holati, ovqat hazm qilish tizimi faoliyati va umumiy ahvolidagi o'zgarishlar kuzatildi.

Tadqiqot natijalari va muhokamalar. Kompleks davolash usuli ijobiy samara berganini ko'rsatdi. Davolasning 3-kunida 92,4% bolalarda ovqat hazm qilish tizimi faoliyati yaxshilandi, ichak peristaltikasi me'yorlashdi, umumiy holsizlik va diskomfort kamaydi, organizmdan toksinlar chiqishi tezlashdi. Shuningdek, bemorlarda immun tizim faoliyatining yaxshilanishi kuzatildi. 5,7% bemorlarda esa 4-kundan klinik belgilardagi o'zgarish sezilarli darajada kuzatildi. 1,9% bolalarda esa deyarli o'zgarish kuzatilmadi.

Olingan natijalar fitoterapiya va aparat terapiyasining kompleks qo'llanilishi parazitlar kasalliklarini davolashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Qovoq urug'i va achchiq shuvoq kabi dorivor o'simliklar antigelmint xususiyatlarga ega bo'lib, parazitlarning faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Dalochoy va bo'ymadoron esa yallig'lanishga qarshi va tiklovchi ta'sirga ega bo'lib, ichak shilliq qavatining holatini yaxshiladi. Aparat bilan nuqtalarga ta'sir esa qon aylanishi va modda almashinuvini faollashtirib, organizmga umumiy quvvatlovchi ta'sir ko'rsatdi. Bu omillar birgalikda davolash samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

Xulosa. Ichak parazitlarini davolashda kompleks yondashuv muhim ahamiyatga ega. Xalq tabobatida qo'llaniladigan qovoq urug'i, achchiq shuvoq, dalochoy va bo'ymadoron kabi dorivor o'simliklar antiparazit va yallig'lanishga qarshi xususiyatlarga ega. Fitoterapiyani Tszinda apparati yordamida o'tkaziladigan fizioterapevtik ta'sir bilan birgalikda qo'llash organizmning funksional holatini yaxshilash, immunitetni rag'batlantirish va detoksikasiya jarayonlarini faollashtirish orqali davolash samaradorligini oshirishga yordam berdi.

TAGETES PATULA L. O'SIMLIGI TARKIBIDAGI FLAVONOIDLAR YIG'MASI VA ULARNING FARMAKOLOGIK AHAMIYATI

To'layeva Dilnoza Choriyevna

Umumiy fanlar kafedrasida

Osiyo xalqaro universiteti, Buxoro, O'zbekiston

Ilmiy rahbar – kafedra dotsenti v.v.b, PhD Ch.T.Toshtemirova.

Dolzarliligi: Hozirgi kunda dorivor o'simliklardan olinadigan biologik faol moddalarni o'rganish farmakologiya va farmatsevtika sohasining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, flavonoidlar kuchli antioksidant, yallig'lanishga qarshi, antimikrob va kapillyarlarni mustahkamlovchi xususiyatlarga ega bo'lganligi sababli tibbiyot amaliyotida keng qo'llanilmoqda. Ushbu o'simlik tarkibidagi flavonoidlarni aniqlash, ularni ajratib olish va farmakologik jihatdan baholash yangi dorivor vositalar yaratish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli Tagetes patula L. o'simligi tarkibidagi flavonoidlar yig'masini o'rganish,

ularning biologik faolligini aniqlash hamda xalq tabobati tajribalarini ilmiy asoslash zamonaviy farmakologiya va fitoterapiya uchun dolzarb ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi - Tagetes patula L. o‘simligi xomashyosi tarkibidagi flavonoidlar yig‘masini aniqlash, ularni ajratib olish va kimyoviy hamda farmakologik xususiyatlarini o‘rganish orqali ushbu biologik faol moddalarni tibbiyot va farmatsevtika amaliyotida qo‘llash imkoniyatlarini ilmiy asoslash.

Materiallar. Tadqiqot obyekti sifatida Asteraceae oilasiga mansub Tagetes patula L. o‘simligining yer ustki qismi (gul, barg va poya) ishlatiladi. O‘simlik xomashyosi vegetatsiya davrida yig‘ib olinib, soyada quritiladi va maydalangan holda laboratoriya sharoitida saqlanadi. Tadqiqot jarayonida etanol, metanol, suv hamda boshqa analitik toza reaktivlar, shuningdek, standart flavonoid moddalar qo‘llaniladi.

Tadqiqot usullari. Ushbu tadqiqotda Tagetes patula L. xomashyosi tarkibidagi biologik faol birikmalar sifat va miqdor jihatidan o‘rganildi. Jumaladan, umumiy flavonoidlar miqdori alyuminiy xlorid asosidagi UB-spektrofotometrik usul yordamida aniqlandi

Natijalar va ularning muhokamasi. Tagetes patula L. xomashyosi tarkibidagi biofaol moddalarni aniqlash maqsadida o‘tkazilgan sifat (chinlik) reaksiyalari natijalari jadvalda keltirilgan ma’lumotlarga to‘liq mos kelib, flavonoidlar mavjudligini tasdiqladi. O‘simlik ekstraktiga ishqoriy muhit (NaOH) ta’sir ettirilganda sariq rang hosil bo‘lishi va kislota qo‘shilganda rangning yo‘qolishi flavonoid tuzilishga ega birikmalar borligini ko‘rsatdi. Shinoda reaksiyasida pushti rang paydo bo‘lishi flavonoid yadrosi mavjudligini yana bir bor tasdiqladi. AlCl₃ bilan ishlov berilganda UV nurlanish ostida kuzatilgan sariq-yashil fluoresensiya flavon va flavonol (Tagetes patula) hosilalarining borligidan dalolat berdi. Bu natijalar adabiyot ma’lumotlari bilan mos keladi, ya’ni Tagetes patula tarkibida kversetin, patuletin, luteolin hosilalari mavjudligi ma’lum.


1-jadval

Tagetes Patula L xomashyosi tarkibidagi biofaol moddalarga o‘tkazilgan chinlik reaksiyalari natijalari

Moddalar guruhi	Reaktiv	Kuzatiladigan natija	Tagetes Patula L. xomashyosi
Flavonoidlar	5% NaOH eritmasi	Sariq rang paydo bo‘ladi, kislota qo‘shilganda yo‘qoladi	+
	AlCl ₃ eritmasi	Yorqin sariq yoki sariq-yashil fluoresensiya (UV da)	+
	Shinoda reaksiyasi (Mg + HCl)	Pushti rang	+

Umumiy flavonoid miqdorini aniqlash alyuminiy xlorid (AlCl_3) SF-spektrofotometrik usuli yordamida amalga oshirildi. Har bir tahlil uchun 70% etanolda tayyorlangan 3% AlCl_3 eritmasining 3:1 bilan aralashtirildi. Aralashma 70% etanol bilan 10,0 ml gacha to'ldirildi va xona haroratida 15 minut davomida ushlab turildi. So'ngra optik zichlik 415 nm to'lqin uzunligida, nazorat (70% etanol + AlCl_3) ga nisbatan o'lchandi (1 rasm).

Usulni ishlab chiqish va optimallashtirish. Spektrofotometrik o'lchovlar Shimadzu firmasining UV-1900i rusumli UB spektrofotometri yordamida amalga oshirildi. O'lchashlar 415 nm to'lqin uzunligida, 1 sm optik yo'l uzunligiga ega kvarts kyuvetalarda bajarildi. Har bir o'lchovdan oldin asbob nazorat eritma — 70% etanol va 3% AlCl_3 reaktivi aralashmasi yordamida nolga sozlandi, bu erituvchi va reaktivlarning fon optik zichliklarini bartaraf etishga xizmat qildi.



1-rasm. *Tagetes patula* xomashyosi ekstraktining UB-spektri (AlCl_3 ishtirokida).

Tagetes patula tarkibida flavanoidlar yig'indisi 5,8 %ni tashkil qildi.

Xulosa. Mazkur tadqiqotda *Tagetes patula L* xomashyosi tarkibidagi biologik faol birikmalar sifat va miqdor jihatidan o'rganildi. O'tkazilgan chinlik reaksiyalari o'simlik tarkibida flavonoidlar mavjudligini tasdiqladi. Alyuminiy xlorid asosidagi UB-spektrofotometrik usul yordamida umumiy flavonoidlar miqdori aniqlanib, *Tagetes patula* - 5,80 % ni tashkil etdi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, o'simlik fenolik tabiatli biologik faol moddalarga boy bo'lib, farmakognostik jihatdan istiqbolli xomashyo hisoblanadi.

CISTANCHIA DESERTICOLA O'SIMLIGINING DORIVOR XUSUSIYATLARI VA TIBBIYOTDA QO'LLANISHI

Xomitova Parvina Tuyg'un qizi

Tibbiyot fakulteti, Davolash ishi yo'nalishi 124-guruh talabasi

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro Davlat tibbiyot instituti, Buxoro, O'zbekiston

Ilmiy rahbar- Tibbiy biologiya kafedrasida assistent Sh. B. Jumayeva

Dolzarbliigi: *Cistanche deserticola* an'anaviy Xitoy tibbiyotida keng qo'llaniladigan dorivor o'simlik bo'lib, buyrak faoliyatini mustahkamlash, ichakni namlash va hayotiy energiyani kuchaytirish xususiyatiga ega. U uzoq vaqt davomida charchoq, bepushtlik va keksalarda uchraydigan ich qotishi kabi

kasalliklarni davolashda ishlatilgan. Zamonaviy farmakologik tadqiqotlar Cistanche deserticolaning jigarni himoya qiluvchi, antioksidant, osteoporozga qarshi va suyak metabolizmini tartibga soluvchi xususiyatlarni ham tasdiqlagan. Tezisdan o'simlikning kimyoviy tarkibi (glikozid va boshqa bioaktiv moddalar), farmakologik ta'siri, dorivor qo'llanishi, osteoporozni oldini olishi va davolashdagi roli tahlil qilingan.

Tadqiqot maqsadi: Cistanche deserticola o'simligining dorivor xususiyatlari va tibbiyotda qo'llanishini aniqlash va baholashdan iborat.

Materiallar va tadqiqot usullari: Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tadqiqotda Cistanche deserticola o'simligi namunalari foydalanildi. O'simlikning dorivor xususiyatlarini o'rganish maqsadida laboratoriya sharoitida kimyoviy va farmakologik analizlar o'tkazildi. Tadqiqot jarayonida o'simlikning turli qismlari - ildiz, poyasi va barglari - ajratilib, ularning bioaktiv birikmalari aniqlashga harakat qilindi. Olingan natijalarni tahlil qilishda zamonaviy tadqiqot metodlaridan, jumladan, spektrofotometriya, xromatografiya va statistik usullardan foydalanildi. Ushbu yondashuv Cistanche deserticola o'simligining dorivor faolligi va tibbiyotda qo'llanish imkoniyatlarini ilmiy asoslash imkonini berdi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Markaziy Osiyoda, ayniqsa cho'l hududlarda, **Cistanche salsa** va boshqa Cistanche turlari uchraydi. Ular asosan Qizilqum cho'li va shunga o'xshash boshqa cho'l hududlarini qamrab oladi, bu hududlar O'zbekiston va qo'shni davlatlar hududlarini ham o'z ichiga oladi. Ammo dorivor o'simlik sifatida **Cistanche deserticola** keng tanilgan bo'lib, u ko'proq Xitoy va Mongoliya cho'llarida tarqalgan. Klinik amaliyotda uning ta'sirini oshirish maqsadida o'simlik guruch vinosida bug'lab qayta ishlanadi. Ushbu tayyorlov usuli **vino bilan bug'langan Cistanche deserticola (W-CD)** deb ataladi. Shu orqali bioaktiv moddalar yaxshiroq ajralib chiqadi va organizmga so'rilishi osonlashadi.

An'anaviy Xitoy tibbiyotida Cistanche deserticola buyrak faoliyatini mustahkamlash, hayotiy energiyani oshirish, ichakni namlash va immun tizimini qo'llab-quvvatlash uchun ishlatiladi. U uzoq vaqt davomida buyrak yetishmovchiligi, charchoq, zaiflik va energiya kamayishi bilan bog'liq kasalliklarni davolashda qo'llanib kelinadi.

Zamonaviy farmakologik tadqiqotlar esa Cistanche deserticola jigarni himoya qiluvchi xususiyatga ega ekanini ko'rsatgan. O'simlikdan ajratib olingan **umumiy glikozidlar (GCs)** asosiy bioaktiv moddalar sifatida ajralib turadi. Tadqiqotlar GCsning hepatic ischemia-reperfusion injury (HIRI)ni davolash uchun yangi terapevtik imkoniyat yaratishi mumkinligini ko'rsatadi. GCs hepatotsitlarda apoptoz va oksidativ stressni kamaytiradi, avtofagiyaning rag'batlantiradi, shu orqali jigarni ishemik shikastlanishlardan samarali himoya qiladi.

Xitoy tibbiyotida GCsning HIRIga qarshi himoya ta'sirini baholash bo'yicha tadqiqotlar o'tkazilgan. Tadqiqotlarda sichqonlar HIRI modeli va sichqon jigari organoidlari (gipoksiya va qayta kislorodlanish sharoitida) ishlatilgan. Tadqiqot jarayonida gepatotsitlarning apoptozi, avtofagiya, oksidativ stress ko'rsatkichlari va signal yo'llarining faolligi batafsil tahlil qilingan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, GCs signal yo'llini faollashtirib, avtofagiyaning kuchaytiradi va apoptozni kamaytiradi, shu

orqali HIRIga qarshi jigarni samarali himoya qiladi. Bu natijalar Cistanche deserticola ning an'anaviy tibbiyotda qo'llanishini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi va jigarning ishemik shikastlanishini davolashda terapevtik vosita sifatida ishlatilishini ko'rsatadi.

Shuningdek, Cistanche deserticola suyak metabolizmini tartibga solishi mumkin. U osteoblastlar faoliyatini rag'batlantirib, osteoklastlar faoliyatini susaytiradi, shu bilan birga suyak zichligi va mustahkamligini oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'simlikning zaharliligi va nojo'ya ta'sirlari minimal bo'lib, xavfsizligi yuqori hisoblanadi. Shu sababli so'nggi yillarda osteoporoz kasalligini oldini olish va davolashdagi samaradorligi tufayli Cistanche deserticola ga qiziqish ortmoqda.

Shu bilan birga o'simlikning antioksidant va immunomodulyator xususiyatlari organizmning umumiy chidamliligini oshirishda yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, Cistanche deserticola o'simligidan foydalanish nafaqat jigar va suyak salomatligini qo'llab-quvvatlaydi, balki nevrologik faollik va kognitiv funksiyalarni rag'batlantiradi. Shu bilan birga, uning bioaktiv komponentlari uzoq muddatli dorivor ta'sir ko'rsatadi va an'anaviy hamda zamonaviy tibbiyotda keng qo'llanishi mumkinligini tasdiqlaydi.

Xulosa: Ushbu tezis natijalari shuni ko'rsatadiki, **Cistanche deserticola** o'simligi kelajakda dorivor mahsulotlar, nutrasevtiklar va terapevtik vositalar ishlab chiqarishda istiqbolli tabiiy resurs hisoblanadi. Tadqiqotlar o'simlikning bioaktiv komponentlari - xususan umumiy glikozidlar (GCs) - jigarni himoya qilish, suyak metabolizmini tartibga solish, antioksidant va immunomodulyator ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ega ekanligini isbotladi. Bu esa Cistanche deserticolaning zamonaviy farmatsevtika va klinik amaliyotda qo'llanilish imkoniyatini yanada oshiradi. O'simlikning xavfsizligi, minimal nojo'ya ta'sirlari va yuqori dorivor faolligi uni uzoq muddatli qo'llash uchun maqbul vosita sifatida baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, Cistanche deserticolaning farmakologik potensialini to'liq o'rganish, u asosida yangi terapevtik strategiyalarni ishlab chiqish va klinik amaliyotga joriy etish biologik resurslardan samarali foydalanish va farmatsevtika sohasida innovatsion yondashuvlarni rivojlantirish imkonini beradi. Cistanche deserticola nafaqat an'anaviy tibbiyotda, balki zamonaviy farmatsevtika va nutrasevtika sohasida ham istiqbolli va ilmiy jihatdan asoslangan tabiiy resurs sifatida ko'riladi.

HAZM QILISH TIZIMI FAOLIYATINI YAXSHILASHDA DORIVOR O'SIMLIKLAR ASOSIDAGI "GASTROHERP" FITOKOMPLEKSINING SAMARADORLIGI

Ergashev Shahzod Zoxirjonovich

Buxoro davlat tibbiyot instituti "Pediatriya ishi" 2-kurs talabasi.

Ashurov Otabek Shavkatovich

**Ilmiy raxbar: Buxoro davlat tibbiyot instituti Mikrobiologiya,
immunologiya, virusologiya fani kafedrasida assistenti**

Dolzarbliigi: Oshqozon-ichak tizimi kasalliklari zamonaviy tibbiyotning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Gastrit, enterokolit, disbakterioz, diareya va ich qotishi kabi kasalliklar aholida keng tarqalgan bo'lib, ular ko'pincha noto'g'ri ovqatlanish, stress va ekologik omillar bilan bog'liq. Sintetik dori vositalarini uzoq muddat qo'llash ayrim hollarda nojo'ya ta'sirlarni keltirib chiqaradi. Shu sababli tabiiy, xavfsiz va organizmga yumshoq ta'sir ko'rsatadigan dorivor o'simliklar asosidagi preparatlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Shundan kelib chiqib, hazm qilish tizimi faoliyatini yaxshilashga qaratilgan "GastroHerp" fitokompleksini ishlab chiqish va o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi: Hazm qilish tizimi faoliyatini yaxshilovchi, yallig'lanishga qarshi va antibakterial ta'sirga ega bo'lgan dorivor o'simliklar asosida yaratilgan "GastroHerp" fitokompleksining samaradorligi va xavfsizligini o'rganish.

Material va tadqiqot usullari: Tadqiqotda dorivor o'simliklar asosida tayyorlangan fitokompleksdan foydalanildi. Fitokompleks tarkibi quyidagilardan iborat:

O'simliklar	Miqdor
Anor po'chog'i	20 g
Gazak o't (qiyg'ichpoya)	2 dona
Yantoq ildizi	15 g
Shotut novdasi	20 g
Suv	1 l
Novvot	50 g

O'simlik xomashyosi maydalab olinib, 70–80°C haroratda 1,5 soat davomida suvda damlandi, so'ng sovutilib filtrlendi. Fitokompleks 10 nafardan ortiq shaxslarda kuzatuv asosida qo'llanildi. Preparatning hazm jarayoniga ta'siri, oshqozon og'rig'i, ich ketishi va qorin dam bo'lishi kabi belgilar kuzatildi.

Natijalar va ularning muhokamasi: Amaliy kuzatuv natijalariga ko'ra fitokompleksni qabul qilgan shaxslarda quyidagi ijobiy o'zgarishlar kuzatildi:

- ✓ oshqozon og'rig'i kamaydi;
- ✓ hazm jarayoni yaxshilandi;
- ✓ ich ketishi holatlari kamaydi yoki to'xtadi;
- ✓ qorin dam bo'lishi sezilarli darajada kamaydi.

Fitokompleks tarkibidagi dorivor o'simliklar bir-birini to'ldiruvchi farmakologik ta'sirga ega. Anor po'chog'i tanin va flavonoidlarga boy bo'lib, ichak shilliq qavatini mustahkamlaydi va antibakterial ta'sir ko'rsatadi. Gazak o't hazm fermentlarini faollashtiradi. Yantoq ildizi yallig'lanishga qarshi ta'sir ko'rsatadi, shotut novdasi esa ichak mikroflorasini me'yorlashtiradi. Kuzatuv davomida nojo'ya ta'sirlar aniqlanmadi.

Xulosa: “GastroHerp” fitokompleksi hazm qilish tizimi faoliyatini yaxshilovchi, yallig'lanishga qarshi va antibakterial ta'sirga ega bo'lgan istiqbolli tabiiy vosita hisoblanadi. Dastlabki kuzatuv natijalari preparatning samaradorligi va xavfsizligini ko'rsatdi. Kelgusida fitokompleksni kengroq klinik tadqiqotlar asosida o'rganish va biologik faol qo'shimcha sifatida ishlab chiqarish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nabiev M. Dorivor o'simliklar atlası. Toshkent, 2010.
2. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. Fitopreparatlar bo'yicha metodik qo'llanma, 2018.
3. Tursunov S. Oshqozon-ichak kasalliklari va ularni davolash. Toshkent, 2015.

SURUNKALI GASTRITNI DAVOLASHDA ROMASHKA (MATICARIA CHAMOMILLA) O'SIMLIGINING KLINIK SAMARADORLIGI

Fazliddinov Janobiddin Zaynobiddin o'g'li

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti, Davolash ishi fakultetining 6-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Islamova Kamola Akramovna

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti, N.A.Abdullayev nomidagi 1-son ichki kasalliklar kafedrasida dotsenti, PhD

Samarqand, O'zbekiston

Dolzarbligi: Oshqozon-ichak tizimi kasalliklari orasida surunkali gastrit eng keng tarqalgan patologiyalardan biri hisoblanadi. Ushbu kasallik ko'pincha epigastral og'riq, ko'ngil aynishi, ishtahaning pasayishi, qorin dam bo'lishi hamda dispeptik buzilishlar bilan namoyon bo'lib, bemorlarning hayot sifatini sezilarli darajada pasaytiradi. So'nggi yillarda surunkali gastrit rivojlanishida noto'g'ri ovqatlanish, stress omillari, dori vositalarini nazoratsiz qabul qilish hamda *Helicobacter pylori* infeksiyasi muhim etiologik omillar sifatida e'tirof etilmoqda. Zamonaviy tibbiyotda ushbu kasallikni davolashda proton nasosi ingibitorlari, antasidlar va antibakterial preparatlar qo'llanilsa-da, ularning uzoq muddatli qo'llanilishi ayrim nojo'ya ta'sirlarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli oshqozon kasalliklarini davolashda tabiiy manbalardan foydalanishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Dorivor o'simliklar asosida olib boriladigan fitoterapiya usullari xalq tabobatida qadimdan qo'llanib kelinadi va ular yallig'lanishga qarshi, spazmolitik hamda shilliq qavatni himoya qiluvchi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shunday o'simliklardan biri romashka (*Matricaria chamomilla*) bo'lib, u O'zbekiston hududida ham keng tarqalgan dorivor o'simlik hisoblanadi. Romashka tarkibida biologik faol moddalar – flavonoidlar, efir moylari, chamazulen va bisabolol birikmalari mavjud bo'lib, ular oshqozon shilliq qavatidagi yallig'lanish jarayonlarini kamaytirishga, spazmlarni bartaraf etishga hamda ovqat hazm qilish jarayonini yaxshilashga yordam beradi. Shu nuqtai nazardan, romashka o'simligining surunkali gastrit bilan og'riq bemorlarda klinik samaradorligini o'rganish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi: Surunkali gastrit bilan og'riq bemorlarda romashka (*Matricaria chamomilla*) o'simligi asosidagi fitoterapiyaning dispeptik simptomlarni kamaytirishdagi samaradorligini baholash.

Materiallar va tadqiqot usullari: Tadqiqot davomida Samarqand Davlat tibbiyot universiteti 1-ko'p tarmoqli klinikasining 1-son ichki kasalliklar bo'limida kuzatuv ostida bo'lgan surunkali gastrit tashxisi qo'yilgan 60 nafar bemorning klinik ma'lumotlari tahlil qilindi. Tadqiqotga jalb etilgan bemorlarning yoshi 22 dan 65 yoshgacha bo'lib, o'rtacha yosh ko'rsatkichi $43,2 \pm 8,7$ yilni tashkil etdi. Bemorlar ikki guruhga ajratildi: asosiy guruh (30 nafar bemor) standart davolash bilan bir qatorda romashka damlamasini qabul qilgan bo'lsa, nazorat guruhi (30 nafar bemor) faqat standart terapiya bilan davolandi. Romashka damlamasi quritilgan o'simlik gullaridan tayyorlanib, kuniga ikki mahal 100 ml miqdorda 14 kun davomida qabul qilindi. Tadqiqot jarayonida klinik belgilar – epigastral og'riq, ko'ngil aynishi, qorin dam bo'lishi, tez to'yish hissi va jig'ildon qaynashi kabi simptomlarning uchrash darajasi baholandi. Shuningdek,

fibrogastroduodenoskopiya natijalari hamda laborator ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Olingan natijalar matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlanib, foiz ko'rinishida umumlashtirildi.

Natijalar va ularning muhokamasi: Tadqiqot natijalari romashka o'simligi qo'llanilgan bemorlar guruhida klinik simptomlarning kamayishi ancha tezroq kuzatilganligini ko'rsatdi. Davolash boshlanishidan oldin epigastral og'riq asosiy guruh bemorlarining 63%ida kuzatilgan bo'lsa, 14 kunlik davolashdan so'ng ushbu ko'rsatkich 28% gacha kamaydi. Nazorat guruhida esa epigastral og'riqning kamayishi 61% dan 44% gacha bo'lgan darajada qayd etildi. Ko'ngil aynishi asosiy guruhda 47% bemorda aniqlangan bo'lsa, davolashdan so'ng bu ko'rsatkich 18% ni tashkil etdi. Nazorat guruhida esa ushbu simptom 45% dan 30% gacha kamaygani kuzatildi. Qorin dam bo'lishi va meteorizm holatlari romashka qabul qilgan bemorlarning 52%ida aniqlangan bo'lib, davolashdan keyin 22% gacha kamaydi. Shu bilan birga, tez to'yish hissi asosiy guruh bemorlarining 38%ida kuzatilgan bo'lsa, davolashdan keyin bu ko'rsatkich 16% gacha pasayganligi qayd etildi. Fibrogastroduodenoskopiya natijalari ham romashka o'simligining ijobiy ta'sirini tasdiqladi. Asosiy guruh bemorlarining 40%ida oshqozon shilliq qavatidagi giperemiya va yallig'lanish belgilari sezilarli darajada kamayganligi kuzatildi. Nazorat guruhida esa bunday ijobiy o'zgarishlar 23% bemorlarda qayd etildi. Olingan natijalar romashka tarkibidagi biologik faol moddalar oshqozon shilliq qavatini himoya qilish, yallig'lanish jarayonlarini kamaytirish hamda ovqat hazm qilish tizimining funksional faoliyatini yaxshilashga yordam berishini ko'rsatadi. Bundan tashqari, romashka o'simligining spazmolitik ta'siri oshqozon mushaklarining spazmini kamaytirib, dispeptik simptomlarning yengillashishiga olib kelishi kuzatildi. Tadqiqot natijalari romashka o'simligi surunkali gastritda kompleks davolashning samarali qo'shimcha vositasi bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Xulosa: O'tkazilgan tadqiqot natijalari romashka (*Matricaria chamomilla*) o'simligi surunkali gastrit bilan og'riq bemorlarda dispeptik simptomlarni kamaytirishda ijobiy klinik samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Romashka damlamasini standart terapiya bilan birgalikda qo'llash epigastral og'riq, ko'ngil aynishi va qorin dam bo'lishi kabi belgilarni sezilarli darajada kamaytirishga yordam beradi. Shuningdek, ushbu o'simlik oshqozon shilliq qavatidagi yallig'lanish jarayonlarini kamaytirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli romashka o'simligi surunkali gastritni kompleks davolashda qo'shimcha fitoterapevtik vosita sifatida qo'llanilishi mumkin.

ZANJABIL O'SIMLIGINING AMALIY TIBBIYOTDAGI TADBIIQI VA O'ZBEKISTON SHAROITIGA MOSLASHISH MEXANIZMI

Xaydarova Zuxrobonu Tillo qizi

Tibbiy biologiya va genetika kafedrası

**Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro Davlat tibbiyot instituti, Buxoro,
O'zbekiston**

Ilmiy rahbar – Jumayeva Shohista Boltayevna

Dolzarbliigi: Dorivor o‘simliklardan foydalanish qadim zamonlardan buyon inson salomatligini saqlashda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy tibbiyotda tabiiy biologik faol moddalarga ega bo‘lgan o‘simliklarni o‘rganish va ularni amaliy tibbiyotga joriy etish dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Shunday dorivor o‘simliklardan biri zanjabil (*Zingiber officinale*) bo‘lib, u tarkibida gingerol, shogaol, efir moylari, vitaminlar va turli mikroelementlarni saqlaydi. Ushbu moddalar organizmga yallig‘lanishga qarshi, antioksidant hamda antibakterial ta‘sir ko‘rsatadi. Zanjabil qadimdan Sharq tabobatida ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari, shamollash hamda umumiy quvvatni oshirish maqsadida qo‘llanib kelinadi.

Tadqiqot maqsadi: zanjabil o‘simligining biologik xususiyatlarini, kimyoviy tarkibini hamda amaliy tibbiyotdagi qo‘llanilish imkoniyatlarini o‘rganish, shuningdek uning O‘zbekiston iqlim sharoitiga moslashish mexanizmlarini ilmiy manbalar asosida tahlil qilishdan iborat.

Materiallar va tadqiqot usullari: tadqiqot davomida zanjabil o‘simligi bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlar, botanika va farmakologiya sohasidagi maqolalar tahlil qilindi. O‘simlikning biologik faol moddalari, ularning farmakologik ta‘siri hamda inson organizmiga ko‘rsatadigan ta‘siri o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida tahlil, taqqoslash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Natijalar va ularning muhokamasi: o‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, zanjabil ko‘p yillik tropik o‘simlik bo‘lib, uning asosiy dorivor qismi yer osti poyasi – ildizpoyasidir. Ushbu qismida gingerol va shogaol kabi biologik faol moddalar mavjud bo‘lib, ular yallig‘lanishga qarshi hamda antioksidant xususiyatga ega. Amaliy tibbiyotda zanjabil ovqat hazm qilish jarayonini yaxshilash, ko‘ngil aynishini kamaytirish, shamollash kasalliklarida organizmni qo‘llab-quvvatlash hamda immunitetni mustahkamlash maqsadida qo‘llaniladi. Zanjabil tarkibidagi antioksidant moddalar hujayralarni erkin radikallar ta‘siridan himoya qiladi. O‘zbekiston iqlimi keskin kontinental bo‘lib, yoz faslining issiq va quruq bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Zanjabil tropik o‘simlik bo‘lgani sababli iliq va nam muhitni talab qiladi, shu sababli uni mamlakatimiz sharoitida issiqxona usulida yetishtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosa: zanjabil biologik faol moddalarga boy bo‘lgan muhim dorivor o‘simliklardan biridir. U turli kasalliklarni davolashda yordamchi vosita sifatida keng qo‘llaniladi. O‘tkazilgan tahlillar zanjabilni O‘zbekiston sharoitida ham yetishtirish mumkinligini ko‘rsatadi. Kelajakda ushbu o‘simlikning farmakologik xususiyatlarini chuqur o‘rganish va undan dorivor preparatlar yaratishda foydalanish tibbiyot hamda farmatsevtika sohalari uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega.

ALOE O‘SIMLIGINING DORIVOR XUSUSIYATLARI VA TIBBIYOTDAGI AHAMIYATI

Tohirova Marjona Umidjon qizi
Tibbiyot fakulteti, Davolash ishi yo‘nalishi 124-guruh talabasi

*Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro Davlat tibbiyot instituti, Buxoro, O'zbekiston
Ilmiy rahbar- Tibbiy biologiya kafedrasida assistent Sh. B. Jumayeva*

Dolzarbli: Dorivor o'simliklardan tibbiyotda foydalanish insoniyat tarixida muhim o'rin egallaydi. Tabiiy manbalardan olinadigan biologik faol moddalar inson organizmiga nisbatan yumshoq ta'sir ko'rsatishi, kam nojo'ya ta'sirlarga ega bo'lishi hamda davolash va profilaktika jarayonida samaradorligi bilan ajralib turadi. Shunday dorivor o'simliklardan biri aloe bo'lib, u qadim zamonlardan buyon xalq tabobatida keng qo'llanib kelinmoqda. Aloe o'simligi tarkibida ko'plab biologik faol moddalar, jumladan vitaminlar, mikroelementlar, aminokislotalar, fermentlar hamda turli organik birikmalar mavjud bo'lib, ular inson organizmi uchun foydali hisoblanadi.

Aloe vera o'simligi dorivor xususiyatlari sababli farmatsevtika, kosmetologiya hamda xalq tabobatida keng qo'llanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, aloe tarkibidagi faol birikmalar yallig'lanishga qarshi, mikroblarga qarshi, immunitetni mustahkamlovchi hamda yaralarni tez bitiruvchi xususiyatlarga ega. Bundan tashqari, aloe ekstraktlari teri kasalliklari, kuyishlar, oshqozon-ichak tizimi kasalliklari hamda ayrim infeksiyon kasalliklarni davolashda ham samarali vosita sifatida qo'llanilishi aniqlangan.

Tadqiqot maqsadi: Aloe o'simligining biologik xususiyatlari, kimyoviy tarkibi va dorivor ahamiyatini o'rganish hamda uning tibbiyot va profilaktikadagi rolini aniqlashdan iborat.

Materiallar va tadqiqot usullari: Tadqiqot jarayonida aloe o'simligiga oid mavjud ilmiy adabiyotlar, ilmiy maqolalar hamda dorivor o'simliklar bo'yicha ishonchli manbalar tahlil qilindi. Aloe o'simligining botanika tavsifi, kimyoviy tarkibi va farmakologik xususiyatlari haqida ma'lumotlar tizimli ravishda yig'ilib, tahliliy usul orqali o'rganildi. Shuningdek, olingan ma'lumotlar solishtirilgan va umumlashtirilgan, bu esa o'simlikning dorivor xususiyatlari va tibbiyotdagi ahamiyatini ilmiy jihatdan baholash imkonini berdi.

Natijalar va ularning muhokamasi Aloe vera ko'p yillik sukkulent o'simlik bo'lib, asosan tropik va subtropik hududlarda o'sadi. Uning barglari qalin, suvga boy bo'lib, ichida shaffof jel mavjud. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu jel tarkibida turli biologik faol moddalar, jumladan vitaminlar (A, C, E), minerallar, polisaxaridlar, flavonoidlar hamda aminokislotalar mavjud bo'lib, ular inson organizmi uchun foydali xususiyatlarga ega.

Aloe o'simligining asosiy biologik faol moddalariga aloe-emodin, aloin, aloesin va acemannan kiradi. Ushbu birikmalar organizmda antioksidant, antibakterial hamda immunomodulyator ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, ular yallig'lanish jarayonlarini kamaytirish, hujayralarni erkin radikallar ta'siridan himoya qilish va organizmning umumiy immun faoliyatini oshirishda samarali vosita sifatida ishlatiladi.

Aloe o'simligining dorivor xususiyatlari quyidagilar bilan namoyon bo'ladi:

1. **Yaralarni tez bitiruvchi ta'sir:** aloe geli teri va shilliq qavatlarning regeneratsiyasini tezlashtiradi, kuyish va kesish jarayonlarida samarali.

2. **Yallig‘lanishga qarshi xususiyat:** aloe tarkibidagi faol birikmalar inflamatsion jarayonlarni kamaytiradi.

3. **Antibakterial va antiseptik ta’sir:** bakterial infektsiyalarga qarshi tabiiy vosita sifatida ishlaydi.

4. **Immunitetni mustahkamlash:** organizmning himoya mexanizmlarini faollashtiradi.

5. **Oshqozon-ichak tizimi faoliyatini yaxshilash:** oshqozon-ichak shilliq qavatini himoya qiladi va ovqat hazm qilish jarayonini yaxshilaydi.

Amaliyotda aloe geli terining kuyishi, kesilishi, shikastlanishlari va yallig‘lanish jarayonlarida keng qo‘llaniladi. Shu bilan birga, kosmetologiyada terini namlantiruvchi, tiklovchi va qarishga qarshi vosita sifatida faol ishlatiladi. Farmatsevtika sanoatida esa aloe ekstraktlari turli dorivor preparatlar, biologik faol qo‘shimchalar va kosmetik mahsulotlar ishlab chiqarishda keng qo‘llanilmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aloe o‘simligining farmakologik xususiyatlari uni tibbiyot, farmatsevtika va kosmetologiya sohaslarida dolzarb va samarali tabiiy vosita sifatida ishlatish imkonini beradi. Shuningdek, uning tarkibidagi biologik faol moddalarning molekulyar mexanizmlari va farmakodinamik ta’sirlarini yanada chuqur o‘rganish kelajakda yangi dorivor preparatlar yaratish va amaliy tibbiyotda samarali qo‘llash imkoniyatlarini oshiradi.

Xulosa: Aloe o‘simligi biologik faol moddalarga boy bo‘lgan muhim dorivor o‘simlik hisoblanadi. Uning tarkibidagi vitaminlar (A, C, E), mikroelementlar, polisaxaridlar, flavonoidlar, aminokislotalar va boshqa bioaktiv birikmalar inson organizmi uchun turli foydali ta’sirlarni ko‘rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aloe o‘simligi yallig‘lanishga qarshi, antibakterial, immunomodulyator va antioksidant xususiyatlarga ega.

Uning dorivor ta’siri yaralarni tez bitirish, teri shikastlanishlarini tiklash, oshqozon-ichak tizimi faoliyatini yaxshilash hamda umumiy immunitetni mustahkamlash kabi ko‘plab sohalarda namoyon bo‘ladi. Aloe geli va ekstraktlari farmatsevtika, kosmetologiya va xalq tabobatida keng qo‘llanilib, tabiiy preparatlar va biologik faol qo‘shimchalar yaratishda samarali vosita sifatida ishlatiladi.

Shuningdek, aloe tarkibidagi faol birikmalarni molekulyar va farmakologik jihatdan chuqur o‘rganish kelajakda yangi dorivor preparatlar yaratish, amaliy tibbiyotda samarali qo‘llash hamda inson salomatligini mustahkamlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bois aloe o‘simligining biologik va farmakologik xususiyatlarini o‘rganish zamonaviy tibbiyot va farmatsevtika sohalari uchun dolzarb ilmiy masala sifatida qabul qilinadi.

SIYDIK AYIRISH TIZIMI FAOLIYATINI QO‘LLAB- QUVVATLASHDA “BERRYROOT” FITOKOMPLEKSINING AHAMIYATI

*Yunosova Sarvigul Sirojovna
Buxoro davlat tibbiyot instituti “Pediatriya ishi” 2-kurs talabasi.*

Ashurov Otabek Shavkatovich
Ilmiy raxbar: Buxoro davlat tibbiyot instituti Mikrobiologiya,
immunologiya, virusologiya fani kafedrasida assistenti

Dolzarliligi: Bugungi kunda siydik ayirish tizimi kasalliklari dunyo bo'yicha keng tarqalgan sog'liq muammolaridan biri hisoblanadi. Buyrak va siydik yo'llari kasalliklari ko'pincha yallig'lanish, suyuqlik almashinuvi buzilishi va toksinlarning organizmda to'planishi bilan bog'liq bo'ladi. Zamonaviy tibbiyotda ushbu kasalliklarni davolashda antibiotik va sintetik preparatlar keng qo'llanilmoqda, biroq ularning uzoq muddatli qo'llanishi turli nojo'ya ta'sirlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli tabiiy dorivor o'simliklarga asoslangan fitopreparatlar yaratish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi: Siydik ayirish tizimi faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi va diuretik ta'sirga ega bo'lgan dorivor o'simliklar asosida yangi "BerryRoot" fitokompleksini ishlab chiqish va uning foydali xususiyatlarini o'rganish.

Material va tadqiqot usullari: Tadqiqot jarayonida dorivor o'simliklar sifatida yantoq ildizi, shotut novdasi va makkajo'xori popugi tanlab olindi. Ushbu o'simliklar flavonoidlar, saponinlar, organik kislotalar va biologik faol moddalar bilan boyligi sababli siydik ajralishini kuchaytirish hamda yallig'lanishga qarshi ta'sir ko'rsatishi bilan ajralib turadi.

